ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

2-son
(mart-aprel)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

A. Nurmanov S. Qalandarova	**6**	Uzluksiz ta'lim tizimida chet tilida kasbiy ishbilarmonlik muloqot samaradorligini ta'minlashning o'ziga xos jihatlari
A. Kenjaboyev	**10**	Zamonaviy o'qituvchi pedagogik faoliyati va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar
F. To'rabekov	**14**	Axborot ta'lim muhitini rivojlantirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchisini tayyorlash muammosining holati
Z. Rasulova	**18**	Ta'lim muammolarini muvaffaqiyatli hal etishda maktab va oila hamkorligini takomillashtirish
Z. Xakimova	**22**	Umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim o'qituvchilar faoliyatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar
A. Suyarov	**26**	Oliy ta'lim muassasalarida laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish
Sh. Bekmirov	**29**	Arxitektura ta'limida akvarel texnikasiga oid materiallardan foydalanish

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Sh. Mo'minov	**33**	Integratsiyalashgan klasterli ta'lim sharoitida talabalarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish
A. Ergashev	**36**	Arxitekturaviy fantaziya va uning loyihaviy ijodkorlikdagi roli
G. Ergasheva	**39**	Yosh avlod ta'lim-tarbiyasida innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va tarbiyachining innovatsion faoliyati
H. Yusupova	**43**	Tarbiyachining pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv
A.Hayitov S.Bolibekova	**47**	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integratsiyalashgan usulda ochiq dars ishlanmalarini tuzish ko'nikmasini takomillashtirish

TA'LIM SIFATI MAZMUN VA MOHIYAT

S. Ibragimova	**52**	Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini tashkil qilish imkoniyatlari
A. Sayfullayev	**56**	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish qobiliyatlarini aniqlash metodikasi

MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Sh. Nurullayeva	**60**	Sharq ma'naviyati va pedagogik ta'lim muammolarining o'zaro aloqadorlik aspektlari
K. Tursunmetov F. Sultanova	**64**	Abu Ali ibn Sinoning fizika fanining shakllanishidagi o'rni
B. Karimova	**68**	Mehribonlik uylari boshlang'ich sinf tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni hadislar asosida shakllantirishning amaliy ahamiyati
Sh. Doniyorov	**72**	Jamoaviy faoliyat asosida o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash
M. Abdullayev	**76**	Milliy g'urur tarbiyasi – Etnopedagogik qadriyatlarning asosi

M. Usmonova	**80**	XX asrning 20-30-yillarida an'anaviy ta'lim tarixi
N. Xojiqulov	**84**	An'anaviy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning o'g'il bola tarbiyasidagi ahamiyati
		TA'LIMDA MENEJMENT
A.Xasanov M.Badalova	**88**	Xalq ta'limi tizimida kadrlar zaxirasini shakllantirish va joy-joyiga qo'yish xususiyatlari
N. Jo'rayeva	**93**	Maktab direktorlarini maktab ta'limi sifati menejmentini realizatsiyalashga tayyorlash jarayoni samaradorligini eksperimental tadqiq qilish
		KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH
N. Mamanazarova	**98**	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirishda variativ ta'limning ahamiyati
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
K. Karimov	**103**	Professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog kadrlarini masofadan turib malakasini oshirish jarayonini tashkil etish
D. Nurmanova	**107**	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sinf rahbari sifatidagi faoliyati mazmunini yangilash (Malaka oshirish kurslari misolida)
O. Ashurova	**111**	Tibbiy oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarni kasbiy malakasini rivojlantirish metodikasi va kadrlar tayyorlash milliy modeli
		MADANIYAT, SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI
H.Botirova	**115**	O'zbekistonda xalq cholg'u – ijrochilik san'atini rivojlantirishning nazariy asoslari
		TA'LIMDA SIHAT-SALOMATLIK VA HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGI
N. Mannapova	**120**	Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida salomatlikni saqlash kompetensiyasini rivojlantirish
		ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
B. Djurayeva	**123**	Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining axborot texnologiyalari bilan ishlash media ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik modeli
M. Yakubjanova	**127**	Turli yondashuvlar doirasida mediamadaniyat va uning mazmuni
		PSIXOLOGIYA
D. Yakimova	**131**	Kasbiy faoliyat – shaxs salohiyatini rivojlantirish omili sifatida
		XALQARO TAJRIBA VA TA'LIM INTEGRATSIYASI
M. Kenjayeva	**135**	O'quvchilarning bilim savodxonligini oshirishda Pisa Xalqaro baholash dasturining ahamiyati
M. Rahimqulova	**140**	TIMSS xalqaro tadqiqoti – o'quvchilar bilim darajasini baholash mezoni sifatida

O‘QITUVCHILARNING MALAKA OSHIRISH MUAMMOSI DOLZARB BO‘LIB QOLMOQDA

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’limni modernizatsiyalash va sifat jihatidan yangilash, ta’lim muassasalarining zamonaviy, yangi modellarini shakllanishi o‘qituvchilarning hamda rahbarlarning kasbiy kompetentligiga bo‘lgan talablarni tubdan qayta ko‘rib chiqish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Ta’limdagi islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlarining hozirgi bosqichida, bu jarayonlarning barcha subyektlaridan nafaqat global o‘zgarishlarni tezkorlik bilan qabul qilish, mohiyatini tushunib yetish balki, o‘z kasbiy faoliyatlarini qayta ko‘rib chiqib, kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarini tezkorlik bilan rivojlantirishlari zarur, bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilarning, rahbarlarning yaqin kelajakdagi faoliyatlarini ijobiy bo‘lishligini, obro‘-e’tiborlarini oshishligini, raqobatbardosh bo‘lishlarini ta’minlaydi. Shuning uchun bugungi kunda pedagog kadrlarning malaka oshirish va qayta tayyorlash muammolariga yechim topish, malaka oshirish tizimini rivojlantirish dolzarbligicha qolmoqda.

O‘rganishlar, tahlillar uzluksiz ta’lim tizimi xodimlarining malaka oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshirishdagi hamda pedagog kadrlarni tayyorlashdagi kamchiliklarni yaqqol ko‘rsatib qo‘ymoqda.

Amaldagi malaka oshirish modellari zamonaviy o‘qituvchilarning bugungi kundagi faoliyatlarining talablariga javob bermaydi. Ta’limga yuqori darajadagi talablar, ta’lim rivojlanishining tezligi, uzluksiz malaka oshirishda, o‘qituvchilar bilan ishlashda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini tatbiq etilishini talab qilmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, malaka oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha talab oshib bormoqda, kelajakda esa yana ham ortib boradi.

O‘qituvchilarning raqobatbardoshligi uning pedagog kadrlar tayyorlash, malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonida va/yoki tizimida shakllanadigan kasbiy kompetentligi bilan belgilanadi.

Bunda, kasbiy kompetentlik bevosita pedagogik ta’limning barcha bosqichlarida o‘rganiladigan maxsus pedagogik fanlarning miqdori, sifati va darajasiga bog‘liqdir.

O‘qituvchilarning raqobatbardoshligi pedagogik jamoadagi raqobatbardoshlik muhitini shakllanishini, o‘quv-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashishni, o‘quvchilar bilimi sifatini oshirishni ta’minlaydi. Pedagogik jamoadagi raqobatbardoshlik muhiti o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatlarini, ularning ilmiy-nazariy rivojlanishlarini, o‘z ustida ishlashlariga motivatsiya beradi hamda faollashtiradi.

Raqobatbardoshlik uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlarida va yo‘nalishlarida sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitni ta’minlaydi hamda ta’lim sohasida bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini to‘laqonli ishlashiga olib keladi.

Pedagog, ta’limdagi islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlarining asosiy bo‘g‘inidir, intellektual salohiyatni poydevorini qo‘yish va rivojlantirish maktabdan boshlanishi aniq. Shulardan kelib chiqib, o‘qituvchiga ijtimoiy modernizatsiyalash hamda transformatsiyalash jarayonlarida alohida talablar qo‘yiladi. Bugungi kun zamonaviy

o‘qituvchisi – moslashuvchan, mobil, mustaqil, kasbiy va pedagogik bilim, malaka va kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur. Bunga faqat malaka oshirish orqali erishiladi. Malaka oshirish orqali pedagogik jamoa yangi kasbiy bilim, malakalarga, zaruriy kompetensiyalarga ega bo‘ladilar, natijada esa, talab qilinayotgan yangi formatsiyadagi pedagog shakllanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda o‘z fanini mukammal egallash pedagogning asosiy ko‘rsatkichi emas. Zamonaviy pedagog o‘z faoliyati natijalarini oldindan belgilay olishni, ta’lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtirishni, pedagogik jarayonlarda har bir o‘quvchining o‘rnini belgilay olishni, pedagogik jarayonlardagi har qanday og‘ishlarga profilaktik choralar qo‘llashni hamda kelgusi faoliyatni korreksiya qilishni mukammal egallagan bo‘lishi lozim.

Raqobatbardosh, zamonaviy o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayoniga o‘zining ilmiy hamda metodologik yutuqlarini olib kirib, bilim va malakalarni sintezlab, o‘quvchining yaxlit fikrlash qobiliyatlarini shakllantira oladi.

Bugungi kun pedagogika fani raqobatbardosh, zamonaviy o‘qituvchini tarbiyalashga, shakllantirishga qaratilishi lozim ya’ni, yangi zamon o‘qituvchisi ta’limning yangi shakllari va metodlarini, texnologiyalarini innovatsion yondashuv asosida izlashga qodir bo‘lishi, keng duyoqarashga ega bo‘lishi, o‘z oldiga vazifalar qo‘yib, ularni hal etish yo‘llarini topa bilishi lozim. Shuningdek, u albatta, o‘z kasbiy faoliyatida ilmiy-tadqiqotchilik asosida fikrlashni, ilmiy-tadqiqot faoliyatini yuritishni hamda kasbiy vazifalarni bajarishda ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalaridan foydalanishni, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ma’lumotlarni olishni, tahlil qilishni, ulardan kasbiy faoliyatda foydalana olishni bilishi zarur.

Albatta, bunday darajadagi pedagogni tayyorlash, ya’ni, yuqori kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lgan, pedagogik innovatsiyalarga tayyor, ularni amaliyotga joriy etishni biladigan, ta’lim oluvchilarni jamiyatning faol subyekti darajasida tayyorlashga qodir o‘qituvchini faqatgina oliy pedagogik ta’limni modernizatsiya, transformatsiya qilish orqali erishish mumkin.

Afsuski, bugungi kunda yuqorida keltirib o‘tilgan vazifalarni ijobiy hal etishga to‘sqinlik qilayotgan quyidagi tashkiliy va texnologik muammolar mavjud, bular:

1. Malaka oshirish va qayta tayyorlash natijadorligini, malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonida egallangan bilim, malakalarni amaliyotga joriy etilayotganini monitoring qilish tashkiliy tuzilmaning yo‘qligi.
2. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida marketing xizmatlarining yo‘lga qo‘yilmagani.
3. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida iste’molchilarning ehtiyojlari inobatga olingan variativ o‘quv reja va dasturlarning yo‘qligi.
4. Ta’limni modernizatsiyalash va sifat jihatidan yangilash jarayonida amaldagi malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi uzluksiz malaka oshirishni ta’minlay olmayotganligi.
5. Malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari, ta’lim muassasalari real faoliyatlari bilan to‘laqonli, uzviy bog‘lanmaganligi.

Malaka oshirishga tizimli yondashuv raqobatbardosh pedagogik kadrlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan malaka oshirish tizimini modernizatsiya qilish va takomillashtirishni nazariy va metodologik jihatdan ta’minlaydi.

Abdunazar NURMANOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti professor, pedagogika fanlari doktori
Sofiya QALANDAROVA,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi dotsenti, pedagogika bo‘yicha falsafa doktori

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA CHET TILIDA KASBIY ISHBILARMONLIK MULOQOT SAMARADORLIGINI TA’MINLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim tizimida chet tilida kasbiy ishbilarmonlik muloqotining o‘ziga xos jihatlari, nazariyasi va amaliyotining tahlili haqida to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar. Uzluksiz ta’lim tizimi, madaniyatlararo muloqot, kasbiy ishbilarmonlik muloqotlari, globalizatsiya, integratsiya, unifikatsiya, tolerantlik, madaniyatlararo dialog, milliy munosabatlar.

В данной статье рассматриваются особенности, теория и практика профессионального делового общения на иностранном языке в системе непрерывного образования.

Ключевые слова. Система непрерывного образования, межкультурная коммуникация, профессиональные деловые общения, глобализация, интеграция, унификация, толерантность, межкультурный диалог, национальные отношения.

This article examines the features, theory and practice of professional business communication in a foreign language in the system of continuing education.

Key words. Continuous education system, intercultural communication, professional business communications, globalization, integration, unification, tolerance, intercultural dialogue, national relations.

Uzluksiz ta’lim tizimida zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda talabalarning mustaqil bilim olishga ijodiy yondashuvini, zamonaviy faoliyat turlarini amalga oshirishda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish, ularga kelajakdagi hayotida o‘z o‘rnini topishga, butun umr davomida uzluksiz bilim olishni o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son Qarori asosida uzluksiz ta’lim tizimida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarga biriktirilgan oliy ta’lim muassasalari xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha tayanch oliy ta’lim muassasasi etib belgilandi va ularda Agentlikning hududiy vakilliklari joylashtirildi. Xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatining asosiy yo‘nalishlari ham belgilab berildi bunda: o‘quvchilarning asosiy til ko‘nikmalarini (tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish) rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalarining xorijiy tillar kafedralarini biriktirish orqali o‘quvchilarning xorijiy tillarni chuqur o‘rganishini tashkil etish;

o‘quvchilarni xorijiy tillarga o‘qitish va ularning bilimlarini baholashning xalqaro tan olingan uslublarini joriy qilish, shu jumladan, ta’lim jarayonida masofaviy va boshqa zamonaviy ta’lim shakllarini keng qo‘llash hamda boshqa fanlarni xorijiy tillarda o‘qitish; o‘quvchilarning kamida ikkita xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirishi orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish, salohiyatini oshirish hamda mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashdan iborat.

Bugungi kunda chet tillarni uzluksiz o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarga biriktirilgan oliy ta’lim muassasalarining asosiy vazifalari belgilab olindi: o‘quv jarayonini metodik qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilarning asosiy til ko‘nikmalarini mustahkamlash va qo‘llashda ko‘maklashish, shu jumladan, ta’lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etish; ta’lim jarayoniga malakali professor-o‘qituvchilar va iqtidorli talabalarni jalb qilish choralarini ko‘rish hamda ular ishtirokida mahorat darslarini tashkil qilish; xorijiy tillarda o‘qitish kurslari va to‘garaklari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, o‘quvchilar o‘rtasida ko‘rik-tanlovlar va olimpiadalar tashkil etish va h.k.

Alohida qayd etish lozimki, gumanitar oliy ta’lim tizimidagi talablarning kasbiy tayyorgarligi, kasbiy bilimlari, ko‘nikma va malakalari bilan bir qatorda shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, ularda tez faollashib boruvchi xalqaro munosabatlar sharoitida sof kasbiy va ish yuzasidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalarni samarali bajarish va yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish kompetensiyalarini takomillashtirish zarur. Globalizatsiya va xalqaro munosabatlar sohasi tadqiqotchisi Y.M. Pavlov globalizatsiya jarayonida texnologik, moliyaviy, iqtisodiy va informatsion makonlar yetakchi rol o‘ynashini, shu bois jahon targ‘ibotida va xalqaro munosabatlarda yangi madaniyat, yangi me’yorlarni ishlab chiqishni ta’kidlagan edi.

Globalizatsiya hammaga oid darajada kuchayib borayotgan jarayon sifatida xalqlar uchun hamkorlikning yangi imkoniyatlarini yaratib bermoqda, shu bilan birga bir qancha muammolarni ham chuqurlashtirib yubormoqda. Shu sababli ushbu globalizatsiya dunyoda yangi munosabatlar modelini tarqatmoqda. Bu model esa kompromislar topa olish mezoniga asoslangan. Tolerantlik, qarama-qarshiliklar g‘oyasiga o‘ralashib qolishdan qutqaruvchi kuch sifatida hammaga mos tushadigan qadriyatlarni topishga undaydi. Umumbashariy etika qoidalarini, universal rasm-rusumlar mezonlarini qabul qilish lozimligi hamma tomonidan anglanmoqda va shu orqali insoniyatning birdamligi mustahkamlanadi. Xalqaro madaniy aloqalar keskin ravishda rivojlanmoqda, qadriyatlar ayirboshlash jarayoni tezlashmoqda.

Ba’zi tillarning yo‘qolib ketishi asnosida milliy lisoniy qadriyatlarni himoya qilish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Umumbashariy munosabatlarning faollashuvi jarayonida chet tillarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. London gazetasida A. Fullerton ta’kidlashicha, global darajadagi kompaniyalarning ish beruvchilari ishga qabul qilishda da’vogarlarning bir nechta chet tilini bilishiga qiziqish uyg‘otganligi natijasida til kurslari nihoyat darajada ommabop tus olib ketdi. A.P. Minyar-Beloruchеva ta’rifiga asosan, “global til – bu hamma so‘zlashadigan til emas, balki muayyan yashash makonida hukmronlik qiluvchi tildir. Ushbu tilning birlamchi, hamma uchun umumiy ekanligini hech bir boshqa til inkor qila olmaydi”.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ushbu global ingliz tilini o‘rganish jarayonida talabalar turli xil qiyinchiliklarga duch keladi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

Lisoniy xarakterdagi qiyinchiliklar. Britaniya etiketiga xos bo‘lgan lisoniy jihatdan vositali ifodalar, noaniqlik, mujmallik (indirectness) o‘z navbatida, turli grammatik ifoda shakllarini hosil qiladi: ayiruvchi, ajratuvchi, so‘roq so‘z va gaplar, kamtarlik prete-

riti deb nomlanuvchi modal jumlalar, istak-xohish ifodasining vositali shakllari, kommunikativ turdagi gaplarning ko‘plab hollardagi o‘rin almashtirib qo‘llanilishi. Ushbu qoidalarni bilmaslik lisoniy formulalarni noto‘g‘ri qo‘llashga olib kelishi mumkin. Masalan, savolga, iltimosga javoban “of course” (albatta)ni faol ravishda doim qo‘llayverish inglizlar jamiyatida juda qat'iy va ayanchli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin: “bu hammaga ayon, nahotki siz shuni ham bilmaysiz”; inglizcha rasmiy iltifotga: oddiy: “Tea or coffee?” (Choymi yoki kofe?) kabi savolga (Choy) deb javob qaytarish mumkin emas, doim pleaseni qo‘shib aytish lozim: “Tea, please” (Marhamat qilib choy), “Black or white?” (Qora choyning o‘zimi yoki sut bilan?) – “Black, please” (Marhamat qilib qora choyning o‘zi). Inkor ma’nodagi javobda “thank you” qo‘shib aytish lozim va izohlash shart emas. Bu kabi izoh talab qilmas savolga “How are you?” (Ahvollar qalay?) ham kiradi. Ingliz mentalitetiga ko‘ra “Fine, thank you” (Rahmat yaxshi) kabi javob ko‘zda tutiladi va ortiqcha izohga o‘rin yo‘q.

Grammatik nisbat kategoriyasini qo‘llashdagi qiyinchiliklar. Kasbiy munosabatlarda bosh so‘zni birinchi o‘ringa qo‘yish darkor. Shuning uchun aniqlik nisbatidagi gaplar samarali jaranglaydi. Chunki, oddiy “ega-kesim-to‘ldiruvchi” tuzilishdagi gapni tushunish osonroq: John rented the office (Djon ofisni arendaga oldi). Passiv strukturali gapda ega kesimdan keyin joylashadi va birinchi o‘ringa to‘ldiruvchi chiqadi: The office was rented by John (Ofis Djon tomonidan arendaga olindi).

Madaniy xarakterdagi qiyinchiliklar. Qadriyatlar o‘rtasidagi tafovutlarning mavjudligi. Ingliz tilida quyidagi mazmundagi qadriyatlar olqishlanadi: rostgo‘ylik, ehtiyotkorlik, mehnatsevarlik, professionalizm, mas’uliyatlilik, nutq so‘zlashda bosiqlik, tejamkorlik, optimizm, shaxs erkinligi, konservatizm, moddiy ta’minlanganlik, oilaviy hayotning yopiqligi.

O‘zbekcha idiomatikaning mazmuniy sohasi inglizlarnikiga qaraganda birmuncha kengroq va o‘zbekcha mazmuniy qadriyatlar quyidagicha: tajribalilik, kirishimlilik, korporativlik, haqiqatgo‘ylik, mehmonsevarlik. Yana quyidagi qadriyatlar ustun qo‘yiladi: individualizm va kollektivizmga moyillik, erkaklik va ayollikning namoyon bo‘lishi, uzoq va qisqa davrga rejalar tuzish. O‘zbek tilida tug‘ilgan joyni atashga doir emotsional bo‘yoqdor so‘zlar ko‘p uchraydi: Vatan, Ona vatan, Yurt, Makon, britaniyaliklarda Ona-vatanga bo‘lgan muhabbat bilan bir qatorda chet elliklarga nisbatan ochiqdan-ochiq antipatiya namoyon bo‘ladi “foreign” (xorijiy) va “foreigner” (xorijlik) so‘zlari salbiy konnotatsiyaga ega. Amerikaliklarda va o‘zbeklarda Ona vatanga bo‘lgan munosabat shaxsiy va emotsional tusda. Shuning uchun ham ular Ona vatanni “she” (ona), “mother country” “motherland” (Ona Vatan), “our country” (Ona diyor) deyishadi. Kulish, jilmayishga bo‘lgan munosabatlarning o‘ziga xos ekanligi sababli, amerikaliklarda kulgi majburiy, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy xarakterda bo‘lsa, o‘zbeklarda kulgi samimiy xarakterdadir. “Keep smiling” amerikacha hayot tarzi, shiordir: “Doim kulib tur”. O‘zbekistonda insonning jamiyatdagi o‘rni, martabasi yuqori bo‘lsa, uning imidji ham jiddiy bo‘lishi lozim. Britaniya yumori kamaytirib ko‘rsatish tendensiyasiga moyil.

Kasbiy madaniyatni tushunishdagi qiyinchiliklar. O‘zbekistonda manzil avvaliga mamlakat nomi va oxirida esa adresat yozilar edi. G‘arbda esa manzil yozish adresatdan boshlanadi. Yevropa madaniyatidan farq qilgan holda, Amerikada oy raqami kun raqamidan oldin yoziladi va bu holat chalkashlikka olib keladi. Noverbal munosabatlar tili (jestlar, holatlar, suhbatdoshlar orasida saqlanishi lozim bo‘lgan masofa) turlicha millatlarda turli xil bo‘ladi. Ingliz kasbiy munosabatlardagi muhitda qo‘l berib ko‘rishish masofadan turib va tez amalga oshiriladi (quchoqlab ko‘rishish, yelkani qo‘l

bilan qoqish mustasno): inglizlar keyingi marotaba uchrashganlarida ham fizik aloqaning familyar shaklini qo‘llamaydilar. Inglizlar bilan muloqotda bo‘lganda kostyumning yuqorigi cho‘ntagiga ruchka yoki yana biror-bir buyumni qo‘yish noo‘rinli deb hisoblanadi. Buyuk Britaniyada reklama boshqa mamlakatlardagidek mahalliy gazetalarda emas, balki umummilliy gazetalarda keng tarqalgan.

Inglizcha an’anaviy kichraytirib aytish, jumlani nihoyasiga yetkazmaslik (understatement), “jizzaki hazil”, “og‘ir hazil” muloqotda to‘siqlar keltirib chiqarishi mumkin: ingliz va sakson madaniyatida bu holat “yaxshi emas” (not very good)ni anglatsa, boshqa holatlarda hatto “fojiali” (absolutely disastrous) bo‘lishi ham mumkin. Nozik jumlalarni qo‘llash natijasida tushunmovchiliklar kelib chiqishi ham mumkin: amerikalikning “I was a bit disappointed that...” (“Men shu holat ... dan bir oz ranjidim”) degan jumlani boshqa madaniyat vakili “It doesn’t really matter” (“Buning hech qanday ahamiyati yo‘q”) deb tushunishi mumkin.

G‘arb davlatlarining ilmiy adabiyotlarida kasbiy madaniyatni tadqiq qilishda tashkiliy madaniyat va kasbiy muzokaralar o‘tkazish madaniyatiga e’tibor qaratiladi. Shu asnoda E. Shayn kasbiy madaniyatga quyidagicha ta’rif beradi: “Kasbiy madaniyat – bu tashkilotning umumqabul qilingan e’tiqodiy tushunchalarining modeli hisoblanib, ushbu model adaptatsiya va integratsiya uchun xizmat qiladi va bu model o‘zining validligini (kognitivligini) isbotlagan. Uning yordamida tashkilotning yangi a’zolarini his qilish, tafakkur qilish va muammolarni hal qilishga o‘rgatiladi”. U kasbiy madaniyatning qadriyatlari va me’yorlarini, hamda xodimlarda e’tiqod va effektiv faoliyat ko‘rsatish haqida tasavvurlar hosil qilinishini tadqiq qilishga o‘z diqqatini qaratadi.

Xulosa qilib ta’kidlash mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ularni hamkorlik munosabatlariga maqsadli tayyorlash, shu maqsadda chet tillarida kasbiy ishbilarmonlik muloqotning samarali texnologiyalari orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirish dolzarb nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2021 yildagi 312-son Qarori // (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2021-y., 09/21/312/0483-son).

2. Оксентюк О.Р. О методах исследования англоязычных средств массовой коммуникации в разных странах мира // Лингвострановедение: методы анализа, технология обучения. Сб. статей. –М.: МГИМО-Университет, 2008. – С. 100-109.

3. Fullerton A. Language Courses in London // thelondonpaper – 2008. 31 January. – P.29.

4. Сериков В.В. Образование и личность. – М.: Логос, 1999. – С.271.

5. Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи. – М.: Государственное социально-экономическое издательство, 1934. – С.223.

6. Нурманов А.Т, Жаббаров У.А. О современных тенденциях подготовки учителей английского языка в Узбекистане (на основе опыта Великобритании) Theoretical-Applied science 2017. P. 21-26.

Abdusalim KENJABOYEV,
Termiz davlat universiteti “Pedagogika va ijtimoiy ish” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

ZAMONAVIY O‘QITUVCHI PEDAGOGIK FAOLIYATI VA UNING SHAXSIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘qituvchining pedagogik faoliyati va uning shaxsiga qo‘yiladigan talablar kasbiy tayyorgarligi, layoqati haqida fikrlar bayoni keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Pedagogik faoliyat, kasbiy layoqat, integratsiya, shaxsiy faoliyat, ijtimoiy maqsad.

Данная статья посвешена к проблеме индивидуальный деятельности и требованию учителю кроме автор уделяет внимания профессиональной подготовки и спасобности современного учителя.

Ключевые слова. Деятельности педагога, профессиональной деятельности, интеграция, индивидуальный и общественный цель.

The article is devoted to the problem activite of tearches and demandes to modern tearchers the author pays attention to the professional preparedness and ability of teachers profession.

Key words. Pedagogical activite, professional ability, integration, social and individual aim.

So‘nggi yillarda yurtimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodning barkamol o‘sib ulg‘ayish, har tomonlama chuqur bilim olishi davlatimiz oldiga qo‘yilgan bosh maqsadlardan biridir. Ayni vaqtda biz ta’limda butunlay yangilanish hamda yangi tizimga o‘tish, unga moslashish jarayonini boshdan o‘tkazmoqdamiz. Endilikda o‘quv jarayonlarini yangilangan dastur hamda standart talablarga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Boshqacha qilib aytganda, zerikarli darslar o‘rniga darslarni tashkil etishga mas’uliyat bilan yondashadigan, kasbiy savodxonligi yuqori, metodik mahoratga ega, zamonaviy interfaol pedagogik texnologiyalarni mukammal o‘zlashtirgan innovatsion asosda darsni tashkil eta oladigan o‘qituvchilarga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirok etishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari bugungi kunda zamonaviy o‘qituvchiga, uning faoliyatiga yangidan yangi talablar qo‘ymoqda.

Ta’kidlash joizki, o‘qituvchining pedagogik faoliyatida ikki tomonlama farq bo‘lib, bu boshqa kasbdagi kishilar faoliyatidan ajralib turadi:

Birinchisi, o‘qituvchi faoliyatining maqsadi shaxsni shakllantirish va o‘zgartirish.

Ikkinchisi, uning intellektual, hissiy va jismoniy rivojlanishi jarayonini boshqarish va uning ruhiy dunyosini shakllantirishdir.

O‘qituvchilik kasbining asosiy mazmuni odamlar bilan munosabatda bo‘lishdir. O‘qituvchining yana bir asosiy vazifasilaridan biri ijtimoiy maqsadlarni tushunish va ularga erishish, boshqa odamlarning sa’y-harakatlarini yo‘naltirishdir. Pedagog N.V.

Mezinov fikricha: “O‘qituvchi kasbining o‘ziga xos xususiyatining faoliyati obyektning g‘ayrioddiy dinamikligi, murakkabligi va ko‘rinishlarining xilma-xilligi. Shuning uchun ham o‘qituvchidan maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi talab etiladi”[1].

O‘qituvchilik kasbi jamiyatda doimo muhim o‘rin egallab kelgan. Bu haqida buyuk faylasuflar, o‘qituvchilar, yozuvchilar, jamoat arboblari asarlarida qayd etilgan. Hattoki, qadimgi yunon faylasufi Platon ham bolalar o‘qituvchisi sifatida burchlariga adolatsiz munosabatda bo‘lishining og‘ir oqibatlari haqida gapirgan. “Mamlakatda johil va yomon odamlarning butun avlodlari paydo bo‘ladi, bularni ham o‘qituvchi tarbiyalaydi”.

Ilmiy pedagogika asoschilaridan biri Y.A. Komenskiy “O‘qituvchilar ajoyib mavqega ega bo‘lgan, undan yuqori hech narsa quyosh ostida bo‘lmaydi”[2] - deya ta’kidlagan. Biz bugungi ilmiy pedagogikaga asos solgan o‘qituvchi mahorati haqida ko‘plab fikrlar qoldirgan rus pedagoglari A.S. Makarenko, V. Korgen, V.A.Suxomlinskiy va boshqalarning fikriga ko‘ra “zamonaviy o‘qituvchi shaxs, yorqin individuallik, erkin tanqidiy fikrlash, ijodiy o‘ziga xos va tashabbuskor bo‘lishi kerak. Agar ta’lim insonning hayot yo‘lini to‘g‘ri tanlash imkoniyatlarini kengaytirishga va shaxsning o‘zini-o‘zi rivojlantirishga qaratilgan jarayon bo‘lsa, o‘qituvchi o‘quvchilarning rivojlanayotgan turmush tarzining tashkilotchisiga aylanadi. Uning asosiy kasbiy vazifasi – bolaning o‘zi bo‘lishga qodir bo‘lgan kema aylanishiga yordam beradigan yo‘llar va vositalarni topishidir” (K. Rojers).

O‘qituvchi ishining samaradorligi uning o‘quvchilarni mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorligi, o‘tgan avlodlar tajribasida bo‘lmagan yangi muammolarni shakllantirish va yechishga tayyorligi bilan bog‘liqdir.

Kasbiy standart o‘qituvchining o‘z ishining natijalari uchun mas’uliyatini oshiradi. Bugun axborot texnologiyalari asosida tez rivojlanayotgan dunyoda o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z o‘quvchilariga o‘zining professional kasbini va qobiliyatini namoyon qilishi kerak. Bugungi o‘qituvchi o‘zining kasbiy faoliyati bilan bir qatorda kamida bitta xorijiy tilda muloqot qila olishi kerak. Bundan tashqari, bugungi o‘qituvchi iqtidorlilar bilan ishlashini, ularni uzluksiz darslarga jalb qilishini, inklyuziv dasturlarga jalb qilishi, ijtimoiy e’tibordan qolgan o‘quvchilarni ta’limga jalb qilishda mahoratga ega bo‘lishi kerak.

O‘qituvchining birinchi navbatdagi vazifasi “o‘qitish”, “kimni o‘qitish”, “qanday qilib o‘qitish” bu vazifani bajarishda o‘qituvchi turadi. Zamonaviy o‘qituvchiga quyidagi vazifalarni tavsiya qilamiz:

– oliy ma’lumotga ega bo‘lish;

– fan o‘quv dasturi bo‘yicha bilimlarni namoyon etish;

– darsni rejalashtirish, o‘tkazish, uning samaradorligini tashkil qila olish;

– darsdan tashqari o‘quv mashg‘ulotlarini, o‘qitish shakllarini va usullarini o‘zlashtirish, laboratoriya tajribalari, dala amaliyoti va boshqalarni mukammal tashkil qila olish;

– ta’lim jarayoniga barcha talabalarni jalb qila olish ularga nisbatan maxsus yondashuvlarni bilish, alohida o‘quvchi talabalar bilan ishlay olish, nogiron talabalar qalbiga yo‘l topa olish va boshqalar;

– AKT bo‘yicha kompetensiyalarga ega bo‘lish;

– nazoratni turli shakllaridan foydalanish va talabalar bilimini baholay olish.

Zamonaviy o‘qituvchi ta’lim sohasiga qanchalik mas’ul bo‘lsa, tarbiyaviy ish sohasida ham quyidagilarga javobgardir. Ya’ni:

– tarbiyaviy ishning shakli va usullariga egalik qilish, ulardan darsda ham, darsdan tashqarida ham foydalanish;

[1] Mezinov N.V. Mezinov “Pedagogik faoliyatga kirish”. O‘quv qo‘llanma. Velest. 2005. 15-b.

[2] Komenskiy Y.A.Komenskiy Tanlangan pedagogik ishlar. –M. 1955. 600-b.

– ekskursiyalar, sayohatlar va ekspeditsiyalarni tashkil etish usullarini bilish;

– muzey pedagogikasi metodlarini o‘zlashtirish, ulardan o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishda foydalanish;

– xavfsiz ta’lim muhitini ta’minlash uchun talabalarning xatti-harakatlarini samarali tartibga solish;

– o‘quvchilarni (talabalarni) o‘qitish va tarbiyalash jarayoniga jalb qilish;

– ta’lim tashkilotida Nizom, odob-axloq qoidalariga muvofiq sinfda aniq xulq-atvor qoidalarini belgilash;

– o‘quvchi (talabalar)ning ota-onalari bilan konstruktiv tarbiyaviy sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash, oilada bolani tarbiyalash masalalariga e’tibor qaratish;

– o‘quvchi (talabalar) ning qadr-qimmati va manfaatlarini himoya qilish, ziddiyatli vaziyatlarni yechimini topa olish.

O‘qituvchi shaxsiyati, uning pedagogik faoliyati va mahoratini bir qator rus pedagoglari N.V. Kuzmina, A.I. Sherbakev, V.A. Slastenin o‘z tadqiqot ishlarida pedagogik faoliyat tarkibida beshta komponentni aniqlagan jumladan, N.V.Kuzmina quyidagilarni: gnostik, dizayn, konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ komponentlarni ko‘rsatadi. A.K. Markova pedagogik faoliyatni mahorat bilan bog‘lab pedagogik mahoratning 10 ta guruhini ajratib ko‘rsatadi. Jumladan:

1. Pedagogik faoliyat (individual, pedagogik mayl, pedagogik oriyentatsiya).
2. Ijobiy munosabatlar.
3. Ta’lim berish qobiliyati.
4. Professional va pedagogik bilim.
5. Qobiliyat va ko‘nikmalar keyinchalik ta’lim texnologiyasi asosida shakllanadi.

Tez o‘zgarib borayotgan zamonaviy dunyo bir vaqtning o‘zida o‘qituvchining ijtimoiy pedagogik funksiyalarini ham unga qo‘yilgan talablarni ham o‘zgartirmoqda. O‘qituvchi endilikda an’anaviy “predmedli o‘quvchi” dan o‘quvchi shaxsini shakllantiruvchi ijtimoiy jarayonlar tashkilotchisiga aylanib bormoqda. Bugungi ta’limning maqsadi nafaqat yangi bilimlar, maqsadlar, qadriyatlar va shaxsiy ma’nolarni uzatish balki, o‘sib kelayotgan shaxsning qobiliyatlarini ochib berishdir. An’anaviy qarashlar yangi pedagogik tizimni egallab bormoqda va shu munosabat bilan jamiyat tomonidan o‘quvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar o‘zgarib, uning kasbiy faoliyatini yangilangan mazmuni va tuzilishini o‘zida aks ettirmoqda.

Shunday qilib, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda o‘qituvchi shaxsining roli shubha tug‘dirmaydi, ammo mavjud o‘zgarishlarga qaramay, o‘zi uchun pedagogik kasbni tanlagan shaxsni kasbiy va shaxsiy fazilatlariga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni o‘rganish muammosi bugungi kunda shubhasiz dolzarb va qiziqarlidir. Ushbu muammoning dolzarbligi, qo‘yilgan mavzuning obyekti, predmeti va maqsadini aniqlash imkonini berdi. Maqsad-zamonaviy jamiyat tomonidan o‘qituvchilik kasbi vakillariga qo‘yiladigan talablarni kuchaytirishdir.

Yuqoridagi ta’kidlangan tavsiyalarini amalga oshirish uchun quyidagilarni amalga oshiramiz:

1. O‘qituvchi kasbini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi uchun zarur bo‘lgan asosiy qobiliyatlari va kasbiy kompetensiya darajasini belgilash.

2. O‘qituvchining insoniy va shaxsiy fazilatlarini ko‘rib chiqish, ularni kasbiy faoliyatdagi rolini aniqlash.

3. Zamonaviy o‘qituvchining tashqi ko‘rinishiga (imidjiga) qo‘yiladigan asosiy ta-

lablarni tahlil qilish va ajratib ko‘rsatish.

Belgilangan vazifalarni hal qilish uchun asosan nazariy usullardan, mashhur falsafa pedagogika sohasidagi olimlarning tavsiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda pedagog olimlarning fikrlariga ko‘ra, o‘qituvchi faolioyatida refleksiv qobiliyatlar muhim rol o‘ynaydi. "Refleksiv qobiliyat, - deb yozadi Y.N. Klyutkin, – o‘qituvchi pedagogik mahoratidan foydalanib amaliy qarorlarni ishlab chiqishi va qabul qilishi jarayonlarini refleksiya predmetiga aylantirishi lozim". Buning uchun esa o‘qituvchida bu jarayonlarni tahlil qilishning tegishli tafakkur usullari bo‘lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan fikrlar bilan bir qatorda o‘qituvchining jamoatdagi faoliyati nuqtayi nazaridan quyidagilarni tavsiya sifatida keltirdik:

– mutaxassis uchun zarur bo‘lgan axloq va fuqarolik, faollik va kasbga ishtiyoq, insonparvarlik va talabchanlik, do‘stona munosabat va xushmuomalalik, o‘qituvchilarning boshqa a’zolari bilan psixologik va boshqalar.

– xushmuomalalik, chidamlilik, o‘zini tuta bilishi, kuzatuvchanlik, samimiylik, topqirlik, qat’iyatlilik, so‘z va harakatlarda izchillik, aniqlik kabi fazilatlar muhim rol tutadi.

O‘qituvchi shaxsining ijtimoiy yo‘nalishi, ya’ni uning ijtimoiy yetukligi va fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy faolligi, yuksak darajada rivojlangan bilim qiziqishlari tanlagan kasbiga fidoyilik va ishtiyoq bilan munosabatda bo‘lishi zarur komponenti hisoblanadi. Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tashkilotchilik va kommunikativlik fazilatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, har bir o‘qituvchi o‘z mutaxassisligi predmetidan qat’iy nazar muayyan umumiy kasbiy talablarga javob berishi, uning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan shaxsning umuminsoniy fazilatlari, pedagogik bilim va ko‘nikmalar majmuasiga ega bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019-y.

2. Komenskiy Y.A. Tanlangan pedagogik ishlar. – M. 1955. 600-b.

3. Mezinov N.V. “Pedagogik faoliyatga kirish”. O‘quv qo‘llanma. Velest. 2005. 15-b.

4. Митина Л.М. Психология труда и пефессионального развития учителя. –М. Академия. 2001. С.320.

5. Леонтов Д.А. Очерк психологии личности. – М. Смиси. 1997. – С.51.

6. Kenjaboyev A.E. Umumta’lim maktablarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Zamonaviy ta’lim. 2017 № 11.

Farxod TO‘RABEKOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Innovatsion ta’lim” kafedrasi dotsenti

AXBOROT TA’LIM MUHITINI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHISINI TAYYORLASH MUAMMOSINING HOLATI

Annotatsiya

Maqolada axborot ta’lim muhitini rivojlantirish sharoitida texnologiya o‘qituvchisini tayyorlash muammosining bugungi holati bayon etilgan. Shuningdek, o‘quv amaliyoti davomida talabalar zamonaviy AKT vositalaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil etish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Axborot ta’lim muhiti, texnologiya o‘qituvchisi, texnologik ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

В статье описывается современное состояние проблемы подготовки учителя технологии в условиях развития информационной образовательной среды. Также в ходе учебной практики студентам было дано представление об организации учебного процесса с исползованием современных средств ИКТ.

Ключевые слова. Информационная образовательная среда, учитель технологии, технологическое образование, информационно-коммуникационные технологии.

The artile desribes thye urrent state of thye problem of training a technology teacher in the onditions of development of an information eduational environment. Also, during the ourse of the eduational pratie, the students were given an idea of the organization of thye eduational proess with the use of modern IT tools.

Key words. Information eduation environment, technology teacher, technologial eduation, information and ommuniation technologies.

Jamiyatni axborotlashtirish va global kommunikatsiyalarning rivojlanishi ta’lim tizimiga shubhasiz ta’sir qiladi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda Internet tarmog‘i foydalanuvchilari soni ko‘payib, elektron ta’limda yangi – ommaviy ochiq onlayn kurslarining joriy etilishi ta’lim tizimining jiddiy rivojlanayotganini ko‘rsatmoqda.

Axborot ta’lim muhiti va tizimlarini yaratish va rivojlantirishga yagona yondashuvni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasida ham tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, axborot ta’lim muhitini (ATM) rivojlantirish – o‘quvchi-yoshlar, talabalar uchun yuqori sifatli ta’lim mavjudligini ta’minlashga qaratilgan.

Zamonaviy maktabda ATMni yaratish va rivojlantirish zarurati asosiy umumiy ta’lim dasturini amalga oshirish va yangi ta’lim natijalariga erishish sharti sifatida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida mustahkamlangan. ATM me’yoriy hujjatlariga ko‘ra, ta’lim tashkiloti nafaqat elektron ta’lim resurslari, axborot xizmatlari va tizimlaridan foydalanishni ta’minlashi, balki o‘qitish vositalari va usullarini yangilash uchun sharoit yaratishi, shuningdek, pedagogik faoliyatning yangi shakllarini rivojlanti-

rishga hissa qo‘shishi kerak.

Bugungi kunda mutaxassislardan tayyorlanayotgan har qaysi ixtisoslik yo‘nalishi axborotlashgan davr talablariga qay darajada javob berishi va yaqin istiqbolda qanday ehtiyoj borligini har tomonlama chuqur anglashimizni taqozo etmoqda.

Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining axborot ta’lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish ularning kasbiy kompetentligiga uzviy bog‘liq.

Axborot jamiyati va ta’lim tizimining hozirgi rivojlanish holati zamonaviy maktabda axborot infratuzilmasi va bilim olish uchun shart-sharoitlarga ega bo‘lgan ATMni yaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Ta’lim jarayoni aniq bir fan sohasining ATM sharoitida bevosita amalga oshiriladi. Aloqa va axborot vositalari, zamonaviy texnik qurilmalarning rivojlanishi tufayli turli fan yo‘nalishlarini o‘qitish darajasida ATMni shakllantirish jarayoni kuzatilmoqda.

Hozirgi vaqtda fanlarni o‘qitishda ATMda o‘quv jarayonini tashkil etishning uslubiy jihatlarini tadqiq etish dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Pedagogik amaliyot tahlili esa shuni ko‘rsatadiki, axborot ta’lim muhitidagi texnologik ta’lim zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, “Texnologiya” fanining mazmuniga ta’sir qiladi. Shu munosabat bilan axborot ta’lim muhitidagi texnologik ta’limning mohiyatini aniqlash, uning tuzilishini tavsiflash, “Texnologiya” fani sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik o‘zaro hamkorlikning asosiy shartlarini ajratib ko‘rsatish zarurati tug‘iladi.

Ta’lim tizimiga yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalarining joriy etilishi va ATMning rivojlanishi bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash darajasiga yangicha talablarni qo‘yadi.

Hozirgi vaqtda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisi kasbiy faoliyatining yo‘nalishi, mazmuni va tabiati ATMni rivojlantirish sharoitida sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisidan zamonaviy multimedia va interaktiv texnik qurilmalarni boshqarish, elektron baholash vositalaridan foydalanish va ta’lim natijalarini qayd etish, mustaqil va ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda yangi kasbiy muammolarni hal qilish bo‘yicha yuqori malakaga ega bo‘lish talab etiladi.

O‘rganishlarimiz natijasida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash tizimida quyidagi muammolar borligini aniqladik:

– o‘qitishning an’anaviy usullari va shakllari ustunlik qilishi;

– axborot ta’lim muhitidagi texnologik ta’limda texnologiya o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashga yo‘naltirilgan fanlarning tarqoqligi va uyg‘unligining yo‘qligi; yagona yondashuvlar va ushbu treningning yaxlit tizimi mavjud emasligi.

Shuningdek, biz kelajakdagi va amaliyotchi texnologiya o‘qituvchilarining ATM sharoitida kasbiy muammolarni hal qilishga tayyor emasligini aniqladik. O‘quv amaliyoti davomida o‘quvchilar zamonaviy AKT vositalaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. ATMda o‘quvchilar bilan pedagogik hamkorlikni tashkil etish, asosan, epizodik xarakterga ega ekanligini tasdiqlovchi faktlar olindi. Texnologiya o‘qituvchilari ta’lim imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanmaydi.

Xususan, texnologiya o‘qituvchilarining atigi 32 foizga yaqini (125 respondentdan) AKT sharoitida zamonaviy darsni tashkil etish va o‘tkazishning asosiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish, bilim va tushunchalarini tushuntirib bera olishga muvaffaq bo‘ldi.

Mavzumizning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– ATMda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish ijtimoiy-metodik zaruriyat ekanligini asoslash;

– ATMda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning mazmuni, didaktik metodik-psixologik yo‘nalishlari, xususiyatlarini aniqlash;

– ATMda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash bosqichlari, tamoyillari, shakllari, vositalari, usul va metodlarini belgilash;

– ATMda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi samaradorligini aniqlash hamda zamonaviy yondashuvlar asosida ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

– ATMda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorligi darajasining oshishi quyidagi omillarga bog‘liq:

– tizimli, bosqichma-bosqich tayyorgarlikni amalga oshirish;

– maktab, mintaqaviy va milliy miqyosda axborot ta’lim muhitidagi texnologik ta’limni yaratish va rivojlantirishda faol ishtirok etish jarayonida talabalar, o‘quvchilar va texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy o‘zaro hamkorligini shakllantirish;

– ATMda umumiy didaktik, alohida uslubiy muammolarni hal qilishda bilimlar tizimini va kasbiy harakatlarni amalga oshirish usullarini shakllantirishga yordam beradigan o‘quv modullarini metodik tayyorlash fanlariga kiritish orqali o‘qitish mazmunini kengaytirish;

– metodik ta’lim tizimi axborot ta’lim muhitidagi texnologik ta’limda o‘qituvchining kasbiy harakatlarini uning kasbiy standarti talablariga muvofiq va fan sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishini ta’minlash;

– axborot ta’lim muhitidagi texnologik ta’limni kasbiy faoliyatga bosqichma-bosqich o‘tishga yordam beruvchi faol usullar, zamonaviy elektron vositalar va o‘qitishning interaktiv shakllari ko‘rinishida taqdim etish.

Mavzumizdagi masalaning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

– axborot ta’lim muhitida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashda foydalanishga mos ilmiy-uslubiy ta’minot mazmunini modernizatsiya qilishning pedagogik asoslari ishlab chiqilgan;

– axborot ta’lim muhiti negizida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni subyektlari, maqsadi, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllari hamda shu asosda bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishning ilmiy-uslubiy jihatlari asoslangan;

– axborot ta’lim muhiti negizida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik muammolari aniqlangan va ular asosida ilmiy-uslubiy ta’minoti shakllantirilgan va undan amaliyotda foydalanishning optimal variantlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik ta’lim va ilmiy-metodik adabiyotlar sohasidagi me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogika universitetida o‘qitish amaliyotini o‘rganish asosida biz mamlakatimiz pedagogik ta’limi tizimidagi tadqiqotimiz uchun dolzarb bo‘lgan umumiy muammolarni aniqladik:

– bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatga past, beqaror motivatsiyasi;

– ta’lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar, ta’lim natijalari va samarasi, shuningdek, o‘qituvchining kasbiy standarti talablari o‘rtasidagi tafovut;

– bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga yetarli darajada amaliy tayyorgarligi.

O‘qituvchilarni tayyorlash tizimidagi muammolarni hal qilishning asosiy

yo‘nalishlari:

– pedagogika oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida samarali o‘zaro aloqani shakllantirish va rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun yagona ta’lim maydonini yaratish;

– davlat ta’lim standartlari va pedagogning kasbiy standarti talablarini uyg‘unlashtirish orqali “Pedagogik ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv dasturlarini sifatli yangilash;

– ta’lim texnologiyalarini yangilash, pedagogik ta’lim tizimiga ilg‘or xalqaro va mahalliy usullarni joriy etish;

– bo‘lajak o‘qituvchilarning fan va uslubiy tayyorgarligini kuchaytirish va boshqalar.

O‘qituvchining kasbiy standarti tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining kasbiy faoliyatini tavsiflashda axborot ta’lim muhitida o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘qituvchining kasbiy vazifalariga kam e’tibor beriladi. “O‘qitish” umumiy pedagogik funksiyasi bo‘yicha zarur ko‘nikmalar nuqtayi nazaridan o‘qituvchi umumiy pedagogik, AKT kompetensiyalariga ega bo‘lishi kerakligi ko‘rsatilgan. Ammo ular o‘qituvchining kasbiy standartida ko‘rsatilmagan. Bu fakt bo‘lajak o‘qituvchilarni axborot ta’lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tashkil etishni sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Shunday qilib, axborotlashgan jamiyat rivojlanishining zamonaviy sharoitida ta’lim tizimidagi innovatsion o‘zgarishlar ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘quvchilarning yuqori ta’lim natijalariga erishishini ta’minlay oladigan yangi kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan o‘qituvchilarga ehtiyoj borligini tushunishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son.

2. Turaqulov O.X. Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirish. // Ped. f. doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T., – 2017-yil.

3. Ракитов А.И. Наш путь к информационному обществу // Теория и практика общественно-научной информатизации. – М.: ИНИОН, 1989. – С.158.

4. Роберт И.В. Информационные и коммуникационные технологии в образовании: учеб. -метод. пособие / И. В. Роберт, С. В. Панюкова, А. А.Кузнецов, А.Ю.Кравцова. – М.: Дрофа, 2008. – С.312.

Zulfiya RASULOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti, “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

TA’LIM MUAMMOLARINI MUVAFFAQIYATLI HAL ETISHDA MAKTAB VA OILA HAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqola ta’lim muammolarini muvaffaqiyatli hal etishda maktab va oila hamkorligini takomillashtirishning ayrim masalalari, jumladan, o‘quvchilar bilan pedagogik muammolarni hal qilishda tarqoqlikni oldini olish, o‘zaro munosabatlarning zarurligi va ahamiyati, faoliyat maqsadlarini birgalikda aniqlash, kelajakdagi ishlarni birgalikda rejalashtirish, ijobiy munosabatni shakllantirish bo‘yicha maqsadli ishlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Maktab, oila, hamkorlik, pedagogik muammolar, tarqoqlik, o‘zaro munosabat, maqsadli faoliyat, birgalikda rejalashtirish, ijobiy munosabat.

В данной статье рассмотрены некоторые вопросы совершенствования сотрудничества школы и семьи в успешном решении образовательных задач, в том числе целенаправленная работа с учащимися по предупреждению дезадаптации в решении педагогических задач, необходимости и значимости взаимодействия, совместного определения целей деятельности, совместного планирования будущей работы, формирования позитивного настроя.

Ключевые слова. Школа, семья, сотрудничество, педагогические проблемы, диссоциация, взаимодействие, целенаправленная деятельность, совместное планирование, позитивный настрой.

This article focuses on some issues of improving school-family cooperation in the successful solution of educational problems, including prevention of fragmentation in solving pedagogical problems with students, the need and importance of interaction, joint goal setting, joint planning of future work, building a positive relationship thought about the work.

Key words. School, family, cooperation, pedagogical problems, disunity, interaction, purposeful activity, joint planning, positive attitude.

Maktab va oilaning o‘zaro ta’siri – bu o‘qituvchilar, ota-onalarning birgalikdagi faoliyati va muloqot jarayonida bo‘lgan munosabatlaridir. Natijada, har ikki tomon ham uni rivojlantiradi. Binobarin, maktab va oila o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ularning rivojlanish manbai va muhim mexanizmidir.

Bolaning hayoti ikkita muhim sohadan iborat: maktab va oila o‘zgarishi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida oilaviy qadriyatlarning yo‘qolishi, boshqalar qatori, demografik muammolarning asosiy sabablaridan biriga aylandi. Shunday ekan, muhim va dolzarb muammolardan biri bu maktab va oila hamkorligi.

Ta’lim muammolarini muvaffaqiyatli hal etish, agar oila va maktab o‘zaro ta’sir o‘tkazsagina mumkin bo‘ladi. Oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlik tobora dolzarb va talabga aylanmoqda. Ikkala tomon ham o‘z shaxsiy, ba’zan adolatli da’volarini bildiradilar. Shunday qilib, o‘qituvchilar ota-onalarning farzandlarining maktab hayotiga qiziqmasligidan, ba’zida tarbiyaning yomonligidan, axloqiy qadriyatlarning yo‘qligidan, passivligidan shikoyat qiladilar. Ota-onalar, o‘z navbatida, ortiqcha yuklardan, o‘qituvchining befarqligidan, bolalar jamoasidagi munosabatlardan norozi.

Islohotlar davrida ta'lim tizimi shunchalik tez o'zgarib ketadiki, ota-onalar ko'pincha bu o'zgarishlarni yetarli darajada tushunmaydilar. O'qish va tarbiyaviy faoliyatga asosan maktab tajribasiga tayanadilar. Bu esa ko'pincha zamonaviy talablardan ortda qoladi. Bu nomuvofiqlikni hal qilish uchun o'qituvchi o'quv jarayonini iloji boricha ochiq, tushunarli tarzda o'tishi kerak. Mening maktabdagi ish tajribam shuni ko'rsatadiki, agar ota-onalar o'zaro tushunish paydo bo'lsa, maktab va o'qituvchi bilan faol hamkorlik qilishga intila boshlaydi. Shunday qilib, o'qituvchi oila va maktab o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning muhim dasturining tashkilotchisi bo'lishiga ishonch hosil qilishi kerak.

O'qituvchilarning bu yo'nalishdagi asosiy vazifalari – birlik, oilaviy birdamlikni targ'ib qilish, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish, oilada bola uchun qulay sharoitlar yaratish, shuningdek, oilani, oilaviy tarbiyaning xususiyatlarini har tomonlama tizimli o'rganishdir. Bola o'qituvchi xohlasa ham, xohlamasa ham ota-onalar bilan muloqot qilishi kerak.

Oila tarbiyaviy jamoa sifatida bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, bu nafaqat umumiy maqsad, balki qarindoshlik rishtalari bilan ham birlashgan jamoa. Ota-onaning his-tuyg'ulari, ota-onaning mehr-muhabbati shaxsiyatning rivojlanishini tezlashtiruvchi o'ziga xos katalizatordir. Bu nisbatan barqaror jamoa bo'lib, u yerda aloqa doimiy ravishda, eng keng sohalarda, turli tadbirlarda amalga oshiriladi.

Oila – bu turli yoshdagi jamoadir. Bu yerda oqsoqollar bolalarning tabiiy tarbiyachisi bo'lib xizmat qiladi. Katta avlod tajribasi yoshlarga o'tadi.

Aynan oilada shaxsiyatning eng muhim fazilatlari tarbiyalanadi va ta'minlanadi. Unda bola dunyo haqidagi birinchi g'oyalarni oladi. Bu yerda shaxsning axloqiy shakllanishiga asos bo'lgan tushunchalar, qarashlar, his-tuyg'ular, odatlar jamg'armasi shakllanadi. Faqat oilada haqiqiy qarindoshlik munosabatlar madaniyatini yaratish va ko'paytirish, eng muhim ijtimoiy rollarni o'zlashtirish, madaniyatni shakllantirish, axloqiy tajribani boyitish, bolalarga jinsiy tarbiya berish, ularni kelajak oilaga tayyorlash mumkin.

Oila bola hayotining oqilona tashkil etilishini ta'minlashga, keksa avlodlarning hayoti va ishining ijobiy tajribasini o'zlashtirishga, faoliyat, odatlar, munosabatlarning individual qimmatli tajribasini to'plashga yordam berishga chaqiriladi.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun oilani zarur shart-sharoitlarni yaratishga majbur qiladi. Shunda bolalar o'z vaqtida ta'lim va kasb-hunar ta'limi olishi, bolalarni axloqiy me'yorlar bilan tarbiyalashi, ularga mehnat ko'nikmalarini singdirishi, jamoat mulkiga hurmat bilan munosabatda bo'lishi va bolaga alohida g'amxo'rlik qilishi kerak. Oilaviy hayotning butun tuzilishi ta'siri ostida o'sib borayotgan shaxsning axloqiy va ijtimoiy yo'nalishi, uning qadriyatli yo'nalishlari va psixologik munosabatlari shakllanadi.

Bolalik – inson hayotining eng muhim davri, kelajak hayotiga tayyorgarlik emas, balki haqiqiy, yorqin, o'ziga xos, betakror hayot va bolalik qanday o'tganidan, bolaligida bolaning qo'lidan kim boshqargan, uning ongi va yuragiga atrofdagi olamdan nima kirgan bo'lsa, bu bugungi o'quvchi qanday inson bo'lishiga bog'liq.

Maktab va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning zarurligi va ahamiyati aniq. Oila hamfikr odamlar jamoasi bo'lishi va maktabga muvofiq harakat qilishi kerak, shuning uchun o'qituvchilarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

• ota-onalarga, kattalar, bolalarga, oila a'zolariga o'qitish usullari va uslubini o'rgatish;

• ijobiy va salbiy vaziyatlarni tushunishga yordam berish.

Ijtimoiy va psixologik xavfsizlik, bolaning yutuqlari, muvaffaqiyati uning rivojlanishiga kim va qanday ta'sir qilishiga bog'liq. Bola ko'p vaqtini maktabda va uyda

o‘tkazadi, shuning uchun o‘qituvchilar va ota-onalarning ta’siri bir-biriga zid bo‘lmasligi, balki bola tomonidan ijobiy va faol qabul qilinishi muhim.

Oila bilan muloqot maktab va har bir o‘qituvchi faoliyatidagi dolzarb va murakkab muammolardan biridir.

Oilalar boshqacha. Har birining o‘ziga xos muammolari va qiyinchiliklari bor, shuning uchun oila bilan qanday munosabatda bo‘lish kerakligi haqidagi savolga tayyor va yagona to‘g‘ri javob berish mumkin emas.

Ko‘p narsa sezgi, o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. U muayyan vaziyatda ota-ona va bola bilan muloqot qilish usullari va vositalarini tanlashda to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun har xil vaziyatlar kompleksini tahlil qilishi kerak.

Oila va maktab o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning nazariy asoslari

O‘qituvchilar va oilaning o‘zaro ta’siri maqsadli jarayon bo‘lib, natijada bolaning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

O‘qituvchilar va oilalar o‘rtasida hamkorlik aloqalarini o‘rnatish uzoq muddatli jarayon bo‘lib, uning muvaffaqiyati ana shu munosabatlar asosidagi tamoyillarga bog‘liq. Oila bilan muloqot jarayonida umumiy ta’lim muassasasi quyidagi tamoyillarga tayanadi:

• pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilarining mavzu pozitsiyasini tashkil etish;

• o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ularning ota-onalarining birgalikdagi ijodini tashkil etish;

• maqsadlarning integratsiyasi va farqlanishi. O‘quv jarayoni ishtirokchilarining bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan vazifalari va harakatlari.

Oilalarning tarbiyaviy imkoniyatlari bir xil emas, ko‘p jihatdan tuzilish, ijtimoiy, yosh, jins tarkibiga bog‘liq.

Maktab va oilaning o‘zaro ta’siri – bu o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalarning birgalikdagi faoliyati va muloqot jarayonida bo‘lgan munosabatlaridir. Natijada, uning ikki tomoni rivojlanadi. Binobarin, maktab va oila o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ularning rivojlanish manbai muhim mexanizmidir.

O‘qituvchilar va ota-onalar, bolalar ongli ravishda yoki ongsiz ravishda aloqa o‘rnatadilar. G‘oyalarning obyektivligi ular bir-birini qanday qabul qilishiga, bu qanday sharoitda sodir bo‘lishiga bog‘liq.

Dialoglarning o‘zaro ta’siri katta ta’lim salohiyatiga ega. Bu o‘qituvchilar, bolalar, ota-onalarning pozitsiyalarining tengligini, o‘zaro ta’sir qiluvchi tomonlarning bir-biriga hurmatli va ijobiy munosabatini nazarda tutadi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘zaro ta’sirlashishning eng samarali turi.

O‘qituvchilar va oilalarning hamkorligi – bu faoliyat maqsadlarini birgalikda aniqlash, kelajakdagi ishlarni birgalikda rejalashtirish, kuch va vositalarni birgalikda taqsimlash, har bir ishtirokchining imkoniyatlariga mos ravishda faoliyat mavzusi, ish natijalarini birgalikda nazorat qilish va baholash, yangi maqsad, vazifalarni bashorat qilish.

Hamkorlikda nizolar va qarama-qarshiliklar bo‘lishi mumkin. Ammo ular maqsadga erishish uchun umumiy istak asosida yechim topadi.

Maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlik quyidagi holatlarga bog‘liq:

• Yagona obyekt (ta’lim predmeti);

• Bolalarni tarbiyalashning umumiy maqsad va vazifalari;

• O‘qituvchilar va ota-onalarning harakatlarini muvofiqlashtirish zarurati;

• Oila, sinf va maktab jamoalarini, o‘zaro munosabatlarning har bir ishtirokchisini boyitish imkoniyati.

Maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlikning asosi – bolalarni har tomonlama ijtimoiy

shakllantirish, tarbiyalash va o‘qitish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning umumiy maqsadi.

Bu maqsad ta’limning quyidagi umumiy muammolarini hal qilishga qaratilgan:

– o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish;

– kasbiy qiziqishlarni rivojlantirish va bolalarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash;

– o‘quvchilarda axloq va xulq-atvor madaniyatini shakllantirish;

– maktab o‘quvchilarini maktab hayotiga tayyorlash;

– sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagi vositalar qo‘llaniladi:

• ota-onalar uchun dolzarb va muhim muammolarni muhokama qilishga qaratilgan psixologik-pedagogik ta’limni tashkil etish;

• ota-onalarni bolaning rivojlanish istiqbollarini aniqlashga va shunga muvofiq harakatlar dasturini ishlab chiqishga jalb qilish. Ularning erishilishini ta’minlash;

• bolaning yutuqlari, qiyinchiliklari va muammolarini tahlil qilishda ota-onalarning ishtiroki;

• rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash, ota-onalarning bola tarbiyasidagi muvaffaqiyatlarini targ‘ib qilish.

O‘qituvchilar, umumiy ta’lim maktabi rahbariyati ota-onalarning fikrini hal qiluvchi deb hisoblab, maktabda va sinfda yuzaga keladigan muammolarni muhokama qilishga ota-onalarni jalb qiladi.

O‘qituvchilarga ijobiy munosabatni shakllantirish bo‘yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda: o‘qituvchilar oilalarni bayram bilan tabriklaydilar, har bir bolaning muvaffaqiyatlarini ma’qullaydilar, bola va ota-onalarning ishlariga qiziqish bildiradilar, ota-onalarning so‘rovlariga, fikrlariga javob beradilar, bu haqida doimo xabardor qiladilar.

Tarbiyaviy ish jarayonida o‘quvchilar topshiriqlarni oladilar, ularning bajarilishi, ularning ota-onalari bilan o‘zaro munosabatlarini o‘z ichiga oladi. Ta’kidlanishicha, darsda biror narsa qilishda ota-onalarning ijobiy tashabbusi rag‘batlantiriladi: minnatdorchilik e’lon qilinadi, muayyan ishda qatnashgani uchun va o‘quv yili oxirida minnatdorchilik xati tuziladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim muammolarini muvaffaqiyatli hal etishda maktab va oila hamkorligini takomillashtirish o‘quvchilar bilan pedagogik muammolarni hal qilishda tarqoqlikni oldini olish, o‘zaro munosabatlarni moslashtirish, faoliyat maqsadlarini birgalikda aniqlash, kelajakdagi ishlarni birgalikda rejalashtirish, ijobiy munosabatni shakllantirish yumushlarini potensial hal etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T., 1992.1998-yil – Oila yili deb e’lon qilinishiga doir hujjatlar.

2. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. Qo‘llanma. –T., 1994.

3. Yodgorov R. Oila tarbiyasida otaning o‘rni. ToshDU to‘plami, 1996.

4. Uzoqov H., G‘oziyev E./., Tojiyev A. Oila etikasi va psixologiyasi. Qo‘llanma. –T., 1992.

Zilolaxon XAKIMOVA,
Andijon viloyati, Izboskan tumani 35-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
“Boshlang‘ich sinf” o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILAR FAOLIYATIGA QO‘YILAYOTGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalari boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilar faoliyatiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar va islohotlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, boshlang‘ich ta’lim, kompetentli yondashuv, malaka oshirish, pedagog-kadrlar tayyorlash.

В статье рассматриваются происходящие изменения и реформы современных требований к деятельности учителей начальных классов в общем среднем образовании.

Ключевые слова. Общее среднее образование, начальное образование, компетентностный подход, повышение квалификации, подготовка учителей.

The article discusses the on going changes and reforms in the modern requirements for the activities of primary school teachers in general secondary education.

Key words. General secondary education, primary education, competent approach, professional development, teacher training.

Mamlakatimizda ta’lim tizimi sohasida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar va islohotlar, tabiiyki, ta’limda kompetentli yondashuvni talab etmoqda. Buning uchun hayotda va kasbiy amaliyotda o‘z sohasini puxta egallagan, yaxshi bilgan va uni muvaffaqiyatli qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lgan pedagog-kadrlarni tayyorlash hamda malakasini oshirish va qayta tayyorlash zarur.

O‘qituvchilar o‘z faoliyatida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim.

Kasbiy mahorat esa ta’lim jarayonida pedagogik strategiya, strategik maqsad va vazifalarni to‘g‘ri belgilash, qarorlar qabul qilish, ta’lim jarayonini loyihalashtirish, innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish, ta’limni boshqarish jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarini joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanishdan iborat kasbiy texnika darajasi sifatida tushuniladi.

Ayni vaqtda o‘qituvchining kasbiy mahorati ularda umumiy madaniyat va aql-zakovatning yuqori darajada rivojlanganligi, ularning pedagogika, psixologiya fanlari sohasida bilimlar bilan qurollanganligi, o‘qitish va tarbiyalash ishlari tajribasidan erkin va ustalik bilan foydalana olishi, o‘quv-tarbiya ishlari metodikasini mukammal

egallaganligi, o‘qitayotgan faniga doir keng va chuqur bilim sohibi bo‘lishi kabilar bilan e’tirof etilmoqda.

Bugungi kunda o‘qituvchining kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi:

– dunyoqarashi, e’tiqodi, madaniyatliligi (o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarida shakllantirishi lozim bo‘lgan axloqiy kategoriyalar).

– pedagogik faoliyatga ijobiy munosabat, shaxsning pedagogik yo‘nalganligi – o‘qituvchining o‘zini pedagogik faoliyatga bag‘ishlashga bo‘lgan intilishi.

– kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma, malakalar (ta’lim-tarbiyani olib borish uchun zaruriy usul, vositalarni bilishi).

– pedagogik qobiliyatlari – ta’lim-tarbiyaviy maqsadlari va o‘quvchilar xususiyatlarini inobatga olgan holda zaruriy usul, vositalarni samarali qo‘llay olishi.

Boshqacha qilib aytganda, qobiliyat – bu kishining biror faoliyatga yaroqliligi va shu faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishidir.

Jumladan, Rus olimi V.A.Krutetskiy pedagogik qobiliyatlarni shartli ravishda 3 ta guruhga bo‘lishni taklif etadi. Bular shaxsiy, didaktik va tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar.

Shaxsiy qobiliyatlar:

– ta’lim oluvchilarga ijobiy yo‘nalganlik – ta’lim oluvchilar bilan hamkorlikda faoliyat olib borishga, muloqot qilishga intilish, ularga nisbatan do‘stona munosabat, xayrixohlik.

– vazminlik, o‘z hissiyotlarini nazorat qila olishi – har qanday vaziyatda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik. Lekin vaziyat talab qilganda o‘qituvchi zaruriy tarzda o‘z hissiyotlarini namoyish qiladi (quvonch, qayg‘u, g‘azab). Vazminlik befarqlikka aylanib ketmasligi kerak.

– o‘z psixik holati, kayfiyatini boshqara olish – o‘qituvchi hayotida, faoliyatida har qanday noxush holat ro‘y bergan bo‘lsa ham o‘zini tetik tutishi kerak.

Didaktik qobiliyatlar:

– tushuntira olish qobiliyati – o‘rganilayotgan materialni o‘quvchilar uchun tushunarli qilib yetkazish, buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilar uchun yangi bo‘lgan materialni “ularning ko‘zlari bilan ko‘ra bilishi kerak”.

Akademik qobiliyati – o‘z fani, sohasini chuqur bilishi, dunyoqarashining kengligi.

Nutq qobiliyati – o‘z fikrlari, his-tuyg‘ularini tushunarli qilib ifoda etishi, muloqotning noverbal vositalari: mimika va pantomimikalardan o‘rinli foydalana olishi. Bunda suhbat predmetini bilish, yetkazayotgan ma’lumotlariga nisbatan ishonch, nutqni “og‘irlashtiruvchi” tuzilmalardan foydalanmaslik, qo‘llanilayotgan atama va tushunchalarga izoh berish, nutq tezligi va ovoz balandligi nazarda tutiladi.

Tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar:

– tashkilotchilik qobiliyatlari – o‘quvchilar jamoasini va o‘z faoliyatini tashkillashtira olishi. Rejalashtirish, nazorat qilish.

– kommunikativ qobiliyatlari – o‘quvchilar yosh va individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda muloqotni to‘g‘ri tashkillashtirish.

– pedagogik kuzatuvchanlik – o‘quvchining ko‘rinishidan undagi ichki kechinmalar, kayfiyatini bilib olish, sezgirlik.

– pedagogik takt – o‘quvchiga pedagogik ta’sir ko‘rsatishda aniq vaziyatdan, o‘quvchi shaxsi xususiyatlaridan kelib chiqish va uning nafsoniyatiga tegmaslik.

– suggestiv qobiliyat – o‘quvchiga emotsional-irodaviy ta’sir o‘tkazish, talab qo‘yish

va talabning bajarilishini qat’iy nazorat qilish (bir tomondan qo‘rqitishsiz, qistovsiz; boshqa tomondan bo‘shlik qilmasdan).

– pedagogik faraz (xayol) – o‘z harakatlari natijasini, o‘quvchi shaxsida bo‘lib o‘tadigan o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra bilish.

– diqqatni to‘g‘ri taqsimlay olish – bir paytning o‘zida bir necha faoliyatni olib borish: materialni bayon qilish, o‘z fikrlarini kuzatib borish, berilayotgan savollarga javob berish, o‘quvchilar jamoasi xulqini nazorat qilib turish.

Pedagogik-psixologiyada esa pedagogik qobiliyat komponentlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Didaktik qobiliyatlar – o‘quvchilarga o‘quv materiallarni aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib yetkazib berish, ta’lim oluvchilarda fanga qiziqish uyg‘otib, ularda mustaqil faol fikrlashni uyg‘ota oladigan qobiliyatlardir. Didaktik qobiliyatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi zarurat tug‘ilganda qiyin o‘quv materialini osonroq, murakkabrog‘ini soddaroq, tushunishi qiyin bo‘lganini tushunarliroq qilib o‘quvchilarga moslashtirib bera oladi.

2. Akademik qobiliyatlar – matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlar sohasiga xos qobiliyatlardir. Qobiliyatli o‘qituvchi o‘z fanini faqat hajmidagina emas, balki atroflicha, keng, chuqur bilib, bu sohada erishilgan yutuqlar va kashfiyotlarni doimiy ravishda kuzatib, o‘quv materialini doimo takomillashtirib, unga katta qiziqish bilan qaraydi hamda ozgina bo‘lsa-da tadqiqot ishlarini olib boradi.

Ko‘pchilik tajribali pedagoglarning fikricha, o‘qituvchi o‘z fani bo‘yicha bunday yuksak bilim, saviyaga erishish, boshqalarni qoyil qilib hayratda qoldirish, o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘ota olish uchun u yuksak madaniyatli, har tomonlama mazmunli, keng eruditsiyali (bilimdon) inson bo‘lishi lozim.

3. Perseptiv qobiliyatlar – o‘quvchi va tarbiyalanuvchilarning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o‘quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog‘liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir. Qobiliyatli o‘qituvchi bolalarning har qanday mayda-chuyda xatti-harakatlarida, yorqin ifodalanadigan ayrim tashqi holatlarida hamda ularning ichki dunyosida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni sezdirmasdan bilib oladi.

4. Nutq qobiliyati – kishilarning o‘z his-tuyg‘ularini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir. Bu o‘qituvchidan o‘quvchilarga uzatiladigan axborot, asosan, ikkinchi signal tizimi – nutq orqali beriladi. Bunda mazmun jihatidan uning ichki va tashqi xususiyatlari nazarda tutiladi

O‘qituvchi nutqi, uning talaffuzi aniq, ravshan, oddiy va o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Beriladigan axborotlar shunday tuzilishi kerakki, bunda o‘quvchilarning fikru zikri va diqqat-e’tiborini yuqori darajada faollashtiradigan bo‘lsin.

5. Tashkilotchilik qobiliyati – o‘quvchilar jamoasini uyushtira bilish, bunda jamoani birlashtira olish o‘zining faoliyatini to‘g‘ri tashkil qila olish qobiliyatidir.

6. Avtoritar qobiliyat – o‘qituvchining rostgo‘yligi, uddaburonligi, o‘zini tuta bilishi, farosatliligi, talabchanligi kabi irodaviy xislatlari shu bilan birga o‘quvchilarni ta’lim-tarbiyasida javobgarlikni his etish, uning e’tiqodi, o‘quvchilarga ma’naviy va ma’rifiy e'tiqodni singdira olganligiga ishonchi kabi xislatlarga ham bog‘liqdir.

7. Kommunikativ qobiliyat – o‘quvchilar bilan muloqotda bo‘lishga, o‘quvchilarga yondashish uchun to‘g‘ri yo‘l topa olishga, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan maqsadga muvofiq o‘zaro aloqa bog‘lashga, pedagogik taktning mavjudligiga

qaratilgan qobiliyatdir.

8. Pedagogik xayol o‘quvchilar shaxsini tarbiyaviy tomondan loyihalashtirishda o‘z ish-harakatlarining natijasini oldindan ko‘ra bilishda namoyon bo‘ladigan qobiliyatdir. Bu qobiliyat o‘qituvchi ma’lum o‘quvchidan kelgusida kim chiqishini ko‘z oldiga keltirishda, tarbiyalanuvchilarda u yoki bu xildagi xislatlarning rivojlanishini oldindan ko‘ra bilishida namoyon bo‘ladi.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – bu qobiliyat bir vaqtning o‘zida diqqatni bir qancha faoliyatga qarata olishda namoyon bo‘lib, o‘qituvchi faoliyatida g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi sharoitda jamiyatning maktab oldiga qo‘yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to‘g‘ri hal qilish vazifasi o‘qituvchiga bog‘liqdir. O‘qituvchilar o‘zlari o‘qitayotgan o‘quvchilarning ruhiyatiga mos ravishda muloqotda bo‘la olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llay olishi kerak. Ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘quv-tarbiya jarayonidagi o‘rni, ulardan foydalanish, shuningdek, usul va texnologiya tushunchalarining farqlay olishi va texnologiyalar haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi va ulardan dars jarayonida foydalana olishlari lozim. Chunki, o‘qituvchi faoliyati jamiyatning ertasini belgilab beradi. O‘qituvchiga jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablar, turli xilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorligi muayyan o‘qituvchining pedagogik faoliyatiga tayyorligidan dalolat beradi.

Zamonaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixolog bo‘lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yo‘lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

Jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablardan eng muhimi – o‘qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog‘liq xislatlariga qaratilgan.

Jamiyatning o‘qituvchi oldiga qo‘yadigan asosiy talablari quyidagilardir:

Yuqoridagilardan xulosa qilib mehnat bozorida raqobatbardosh, puxta bilimli, o‘z kasbining mohir egasi va faoliyatning alohida sohalariga yo‘naltirilgan, doimiy kasbiy o‘sishga tayyor, mutaxassisligi va saviyasiga javob beradigan malakali pedagoglargina o‘quvchilarni turli ko‘nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo‘naltira oladi. Shuningdek, bunday yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009.

2. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –T.: Fan, 2006.

3. Mirtursunov Z. O‘zbek xalq pedagogikasi. –T.: Fan. 1973.

Akram SUYAROV,
Samarqand davlat universiteti katta o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA LABORATORIYA VA AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Maqolada talabalarga ko‘plab asosiy tushunchalarni nisbatan oson, qulay va mustahkam o‘zlashtirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani haqida gap boradi. Bu borada oliy o‘quv yurtlarida laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun metodik ko‘rsatma, uslubiy qo‘llanmalar yaratish va ularni o‘quv jarayonida qo‘llash muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar. O‘quv jarayonining axborot bazasi, interaktiv muloqot, ko‘rgazmali materiallarni namoyish qilish, repetitor-o‘quv kurslarining interaktiv taqdimoti, elektron ta’lim tizimi.

Статья предоставила студентам широкие возможности относительно легко, удобно и надежно усвоить многие базовые концепции. Важным фактором в этом отношении является создание методических указаний, методических пособий по организации лабораторных и практических занятий в высшей школе и их применение в учебном процессе.

Ключевые слова. Информационная база учебного процесса, интерактивное общение, демонстрация наглядных материалов, интерактивная презентация учебных курсов, система электронного обучения.

It has created ample opportunities for students to master many fundamental concepts relatively easily, conveniently, and robustly. In this regard, the creation of methodological guidelines, methodological manuals for the organization of laboratory and practical training in higher education institutions and their use in the educational process are important factors.

Key words. Information base of the educational process, interactive communication, demonstration of visual materials, interactive presentation of tutor-training courses, e-learning system.

OTMlar ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, fan va texnika sohasida sodir bo‘layotgan muhim yangiliklarga oid materiallarni o‘quv dasturlari, shuningdek, darsliklar mazmuniga jadal kiritish zaruratini keltirib chiqardi. Bu esa o‘z navbatida, talabalarda ko‘plab fundamental tushunchalarni nisbatan oson, qulay va mustahkam egallashga keng imkoniyatlarni yaratdi. Shu nuqtayi nazardan oliy ta’lim muassasalarida laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun mo‘ljallangan metodik ko‘rsatma, metodik qo‘llanmalarni yaratish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish muhim omillardan hisoblanadi.

“Amaliy mashg‘ulot” atamasi pedagogikada uning turlari bo‘yicha laboratoriya ishlari, mashqlar, seminar kabi turlarni o‘z ichiga olgan umumiy tushuncha sifatida ishlatiladi. Auditoriyadagi amaliy mashg‘ulotlar o‘qituvchilar bilan birgalikdagi faoliyat jarayonida talabalarning olgan bilimlarini amaliy muammolarni hal qilishda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishda juda muhim rol o‘ynaydi. Amaliy mashg‘ulotlar tizimli bo‘lib, har bir ma’ruzani yoki ikki yoki uchta ma’ruzani muntazam ravishda to‘ldirib boradi. Asosiy, eng murakkab qismidagi deyarli barcha ma’ruza kurslari ma’ruzada

boshlangan ishni mantiqiy davom ettiradigan ma’ruzalar va amaliy mashg‘ulotlardan o‘tadi.

Agar ma’ruza umumlashtirilgan shaklda ilmiy bilimlarning asoslarini yaratadigan bo‘lsa, amaliy mashg‘ulotlar ushbu bilimlarni chuqurlashtirish, kengaytirish va batafsil bayon qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, kasbiy mahoratni rivojlantirishga yordam beradi. Amaliy mashg‘ulotlar talabalarning ilmiy tafakkurini va nutqini rivojlantiradi. O‘z bilimlarini sinab ko‘rishga imkon beradi. Shuning uchun mashqlar, seminarlar, laboratoriya ishlari yetarli darajada tezkor aloqalarning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarga muvaffaqiyatli tayyorgarlik ko‘rish uchun talaba faqat ma’ruzalarni tinglash bilan cheklanib qolmaydi. Rejalashtirilgan dars mavzusi bo‘yicha talabalarning dastlabki mustaqil ishlari talab qilinadi. Agar talabalar savolning nazariyasini puxta o‘zlashtirish uchun avval konspekt, darslik, o‘quv qo‘llanma ustida ishlamasalar, darslarning samaradorligi to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin emas.

Amaliy mashqlar nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni amalga oshirishning o‘ziga xos shakli bo‘lib xizmat qiladi. Amaliy mashg‘ulotlarning tuzilishi asosan bir xil – o‘qituvchining kirish so‘zi, o‘quvchilar tomonidan qo‘shimcha tushuntirishni talab qiladigan material bo‘yicha savollar, amaliy qism, o‘qituvchining yakuniy nutqi. Xilma-xillik asosan, aslida amaliy qismda vujudga keladi, unda referatlar, ma’ruzalar, munozaralar, o‘quv mashqlari, muammolarni hal qilish, kuzatishlar, tajribalar va boshqalar mavjud. Talabalar har doim darsning yetakchi g‘oyasini va uning amaliyot bilan bog‘liqligini ko‘rishlari kerak. Darslarning maqsadi nafaqat professor-o‘qituvchilarga, balki talabalarga ham tushunarli bo‘lishi kerak. Bu ta’lim jarayoniga hayotiy xususiyat beradi, kasbiy faoliyat tajribasini o‘zlashtirish zarurligini tasdiqlaydi, ularni hayot amaliyoti bilan bog‘laydi.

Talabalar amaliy mashg‘ulotlarning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun qay darajada zarurligini bilishadi. Agar talabalar darslarni o‘rganish uchun barcha imkoniyatlar tugaganligini tushunsalar, ularda qiziqish yo‘qoladi. Ushbu psixologik momentni hisobga olgan holda, talabalar bajarilayotgan vazifalarning murakkabligi oshib borishini doimiy ravishda his qilishlari uchun darslarni tashkil qilish juda muhimdir. Bu esa o‘zlarining o‘rganishdagi muvaffaqiyat tajribasini keltirib chiqaradi va talabani ijobiy rag‘batlantiradi. Agar talabalar “belgilash vaqtini” sezsalar, motivatsiya darajasi sezilarli darajada pasayishi mumkin.

O‘qituvchi mashg‘ulotlarni barcha talabalar intensiv ijodiy ishlar bilan band bo‘ladigan, to‘g‘ri va aniq yechimlarni izlaydigan tarzda o‘tkazishi kerak. Har bir talaba “ochish”, qobiliyatlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Shuning uchun dars rejasini va individual topshiriqlarni ishlab chiqishda o‘qituvchi har bir talabaning tayyorgarligi va qiziqishini hisobga olishi kerak. Shu bilan birga, o‘qituvchi maslahatchi vazifasini bajaradi, har bir talabaning ishini kuzatadi va talabaning mustaqilligi va tashabbusini bostirmasdan, o‘z vaqtida pedagogik asosli yordam ko‘rsatishga qodir bo‘ladi.

Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda, umuman, o‘rganishda takrorlash rolini hisobga olish muhimdir. Misollar, illyustratsiyalarning monotonligi, subyektiv takrorlanish hissi oldinga siljishning sekinlashuvi sifatida o‘rganishni sezilarli darajada susaytiradi. Shuning uchun takroriy fikrlarni oldini olish uchun yangi g‘oyalarini kiritib borish juda muhim. Bu afsuski, oliy ta’lim amaliyotida har doim ham qo‘llanilmaydi.

Metodik (uslubiy) ko‘rsatma – muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalan-

gan hamda ushbu fan bo‘yicha talabalarda zarur amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga mo‘ljallangan, ta’lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

Metodik qo‘llanma – o‘qituvchilar (professor-o‘qituvchilar) uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda bir darsning maqsadi, dars o‘tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadi.

OTMlarda talabalarni mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qo‘llash malakalarini shakllantirishga qaratish o‘qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash lozimligini ko‘rsatdiki, ular talabalarga nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan mustaqil egallashlari, o‘zlarida shaxsiy nuqtayi nazarning shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlarni yangi bilimlar olishlarida foydalanish malakalariga ega bo‘lishlarini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Taylakov N.I. Uzluksiz ta’lim tizimida informatikani uzviy o‘qitishning fundamental asoslari// uzluksiz ta’lim. –2005. –№4. –33-38-betlar.

2. Смолянинова О.Г. Развитие методической системы формирования информационной и коммуникативной компетентности будущего учителя на основе мультимедиа-технологий. Дис.докт. пед.наук . –М., –2016.

Sherzod BEKMIROV,
Toshkent arxitektura-qurilish instituti katta o‘qituvchisi

ARXITEKTURA TA’LIMIDA AKVAREL TEXNIKASIGA OID MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada arxitektura yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar tomonidan akvarel texnikasini o‘zlashtirish jarayoni xususiyatlari, shuningdek, arxitektorlar tayyorlash jarayonida qo‘llaniladigan o‘quv materiallarining xususiyati va roli ochib berilgan. Talabalarning akvarel texnikasiga oid kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirish jarayoni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Akvarel texnikasi, o‘zlashtirish, arxitektura ta’limi, o‘quv materiali, talaba, xususiyat, shakllantirish, kompetensiya.

В статье раскрываеться особенности освоения акварельной техники студентами архитектурного направления, а также специфика и роль учебных материалов, используемые в учебном процессе по подготовке архитекторов, анализируется практика поэтапного формирования компетенции студентов по освоения техники акварельной живописи.

Ключевые слова. Техника акварельной живописи, освоения, архитектурного образование, учебный материал, студент, специфика, акварельной живописи.

In this article, there are illuminated some attributes of the process mastering a technique of painting witch watercolor by students who study in the field of architecture, and the importance of studying materials that are used during the process instructing architects are explained, in addition, the process of establishing the competence of students to the technique of painting witch watercolor is analyzed.

Key words. The technique of painting witch watercolor, mastering, studying architecture, studying materials, student attributes, establishing, competence.

Arxitektura ta’limida talabalarning akvarel texnikasini o‘zlashtirishlariga alohida e’tibor qaratiladi. Zero, kompyuter texnikasi qanchalik rivojlanmasin, akvarel texnikasining jozibasi, akvarelda bajarilgan ishlarning estetik qiymati yuqori bo‘ladi.

Akvarel texnikasida ishlash malakalarini shakllantirishning birinchi bosqichida muayyan didaktik talablarga rioya qilinadi. Xususan:

– dastlabki bosqichda qo‘yiladigan naturaning konstruktiv tuzilishiga ko‘ra uncha murakkab bo‘lmasligi;

– qurilmadagi buyumlar ranglarining aniq va ravshanligi;

– muayyan guruhning tayyorgarlik darajasi kabi parametrlarga ko‘ra natura tanlanadi. Buni shartli ravishda akvarel texnikasini o‘zlashtirish bosqichlarining birinchi qonuniyati sifatida e’tirof etish mumkin.

Akvarel texnikasi murakkab va bu murakkablik, birinchi navbatda, naturaning rangshunoslik yechimini to‘g‘ri hal qilish bilan bog‘liq. Ya’ni akvarel texnikasida noto‘g‘ri qo‘yilgan rangni boshqa rang bilan yopish usulida to‘g‘irlash imkoniyati cheklangan. Shuning uchun tasviriy san’atning barcha sohalari uchun umumiy qonuniyat bo‘lgan mukammal qalamtasvirga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Demak, akvarel texnikasini o‘zlashtirishning ikkinchi muhim qonuniyati naturani tasvir tekisligiga to‘g‘ri

joylashtirishdan iborat bo‘ladi. Bu bosqichda naturani shunchaki joylashtirish emas, balki naturadagi barcha buyumlarning konstruktiv tuzilishi, fazoviy holati, alohida buyumning va naturadagi boshqa buyumlarning bir-biriga qiyosiy nisbatlari, yorug‘-soya munosabatlari kabi ko‘rsatkichlar hal etib olinishi lozim. Akvarel texnikasini o‘zlashtirishda, odatda, oq rang sifatida qog‘ozning rangi qo‘llaniladi. Shuning uchun ham akvarel texnikasida ishlanganda ranglarni to‘g‘ri va ehtiyotkorlik bilan surtish lozim bo‘ladi. Naturani akvarel texnikasida bajarishning rangshunoslik yechimlari alohida e’tiborni talab etishi bois talabalarda rang tuslarini to‘g‘ri tanlash kompetensiyasini shakllantirish va bosqichma-bosqich rivojlantirishga ustuvor tarzda amal qilinadi.

Akvarel texnikasini egallashning dastlabki bosqichida mazkur texnikaga mos qog‘oz tanlash ham muhim talab hisoblanadi. Odatda, akvarelda ishlash uchun maxsus ishlab chiqarilgan, “torshon” (fransuzcha – torchon – yuzasi g‘adir-budur akvarel texnikasi uchun mos bo‘lgan) navli qog‘oz tanlanadi. Bunday qog‘ozlarning akvarel texnikasida ishlashga qulayligi shundaki, yuzaki qaraganda suyuq va shaffof bo‘lsa-da, akvarel bo‘yog‘i ham aslida kukunlardan tayyorlanganligi uchun uning zarrachalari aynan qog‘ozdagi g‘ovakchalarga singib, muayyan rang hosil qiladi.

Akvarel texnikasini o‘zlashtirishning navbatdagi qonuniyati sifatida jarayonda bevosita didaktik tamoyillarga amal qilishni e’tirof etish mumkin, ya’ni bu jarayonda bosqichma-bosqich soddadan murakkabga qarab boriladi. Sodda tarzda qo‘yilgan naturani to‘laqonli o‘zlashtirmay turib murakkab vazifalarni bajarishga o‘tish tavsiya etilmaydi. Yuzaki qaraganda e’tiborga molik emasdek tuyulsa-da, didaktikaning bu tamoyili pirovardida talabaning akvarel texnikasini mukammal egallashining eng muhim shartlaridan biridir.

Talabaning akvarel texnikasini o‘zlashtirishida, albatta, qisqa muddatli rang lavhalarning ahamiyati beqiyos. Zero, bu mashqlarda talaba tajriba qilish orqali to‘g‘ri va noto‘g‘ri usullar, yondashuvlarni mustaqil tarzda o‘zlashtirib boradi. Qolaversa, aynan naturani tasvirlashga kirishishdan avval bajarilgan qisqa muddatli ranglavhalar aniq bir vaziyatda amalga oshiriladigan ishlarning yo‘nalishiga oydinlik kiritib beradi. Shu tariqa akvarel texnikasining asosiy ko‘rsatkichlari – ranglar va tasvirning kompozitsion yechimi, tasvirdagi ranglarning bir-biriga mutanosibligi kabi qonuniyatlarni o‘zlashtirib borilishiga erishiladi.

Qog‘ozning akvarel bo‘yog‘ining yengil, yupqa qatlamlari orasidan ko‘rinib turgan oq rangi ranglarni yorqin yoritib turgandek tasavvur uyg‘otadi. Bunday rangtasvir akvarelda bajarilgan ishlarga o‘ziga xos yengillik, estetik joziba baxsh etadi. Shuning uchun ham, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, ranglavhalar bilan bir qatorda naturaning qalamtasvirdagi mukammal ijrosi talab etiladi. Akvarel texnikasida ishlash xususiyatlaridan biri ish jarayonida nam qog‘ozga surtilgan rang qog‘oz strukturasiga singib ketganligi bois agar rang surtmasi noto‘g‘ri tanlangan bo‘lsa, uni tuzatish imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Masalan, talaba akvarel bo‘yog‘ini keragidan ortiq darajada quyuq holatda ishlatadi. Natijada, akvarel rangtasvirida bo‘g‘iq kir dog‘lar hosil bo‘ladi, ya’ni akvarelning asosiy jozibasi va xususiyati bo‘lgan yorqinlik va tiniqlik darajasi yo‘qoladi. Shuningdek, qog‘ozga akvarel bo‘yoqlari qanchalik ko‘p marta surtilishi natijasida ham uning tiniqlik darajasi pasayib boradi. Shuning uchun ham ranglar munosabatini to‘g‘ri tanlashga alohida e’tibor qaratiladi.

Akvarel texnikasini o‘zlashtirish jarayonining muhim shartlaridan biri qo‘yilmaning fonidagi material, odatda, matoning rangi va uning tusi to‘q-ochligiga ko‘ra naturadagi buyumlarning ranglari, munosabati aniqlanadi. Yorqin ranglarni boyitish va rangtasvirdagi

ayrim rang tuslarini sayqallash usulida berish hamda bir rangni ikkinchi bir rang bilan aralashtirish vositasida qo‘shimcha rang hosil qilish orqali uchinchi tiniq rang hosil qilish mumkin. Ayni paytda, alohida ta’kidlash joizki, akvarel bo‘yoqlarining bir-biriga qo‘shib ishlatish tavsiya etilmaydigan ranglari ham mavjud. Har qanday sayqallash ham ranglarning tiniqlik va yorqinlik darajasini pasaytiradi.

Akvarel texnikasini o‘zlashtirishda mo‘yqalamlarni to‘g‘ri tanlash ham ahamiyatli hisoblanadi. Akvarel rangtasvirida ishlatiladigan mo‘yqalamlarning eng yaxshisi, shubhasiz, olmaxon yungidan tayyorlanganlari sanaladi. Naturaningn mayda detallarini ishlashda esa kolonok rusumidagi nozik mo‘yqalamlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarda akvarel texnikasida ishlash kompetensiyasini shakllantirishda naturadagi buyumlarning yorug‘-soya chegaralarini to‘g‘ri belgilash ham muhim bosqich bo‘lib, rangtasvir ishlashning dastlabki bosqichida qalamtasvir variantida hal etib olinishi lozim.

Akvarel texnikasini o‘zlashtirishning qulay variantlaridan biri manzara ishlash sanaladi. Naturaga qarab natyurmort ishlashdan farqli tarzda manzara ishlashda havo perspektivasini yaqqol kuzatish hamda bosqichma-bosqich mos ranglarni surtishni anglash hamda to‘g‘ri bajarish kompetensiyasini shakllantirish jarayoni samarali kechadi.

Akvarel texnikasida ishlash jarayonida shuni yodda tutish lozimki, har qanday rangning to‘yinganlik darajasi, ya'ni och-to‘qligiga ko‘ra turli darajalari bo‘ladi. Demak, tus rangtasvirning asosiy qonuniyatlaridan biri sifatida e’tiborga olinishi lozim.

Talabalar tomonidan akvarel texnikasida bajarilgan ishlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular o‘zlarining dastlabki rangtasvir ishlarida tus munosabatlariga yetarli e’tibor qaratmaydilar. Natijada, rangtasvirda yorug‘lik, hosil qilinayotgan tasvirdagi ranglar uyg‘unligini ta’minlash imkoniyati cheklanadi. Shuning uchun akvarelda rangtasvir ishlashda ranglarni oldindan ko‘ra bilish va his qilish, ularning tuslariga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Bu qonuniyat rangtasvirning qaysi yo‘nalishida bo‘lishidan qat’i nazar rang tuslari rangtasvir asarining asosiy estetik parametrlaridan biri sifatida ahamiyatlidir.

Akvarelda ranglarning ko‘rinishi, o‘zaro ta’siri, tabiiyki, yorug‘lik manbaining, yo‘nalishi, kuchiga bog‘liq bo‘ladi. Har qanday buyum aynan yorug‘lik orqali ko‘rinadi. Tushayotgan nurning yo‘nalishiga qarab uning yorug‘ va soya qismlari ajraladi hamda buyumning hajmi ifodalanadi. Akvarel texnikasini o‘zlashtirishda shu ko‘rsatkich orqali buyumlarning tashqi ko‘rinishiga xos xususiyatlari, relyeflari va boshqa jihatlari namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, buyumning rangi qanchalik to‘q bo‘lsa, naturadagi yorug‘-soya ko‘rinishi shunchalik umumlashib boradi. Aksincha, rangi och buyumlarda yorug‘-soya yaqqolroq ko‘rinadi. Shuning uchun akvarel texnikasini o‘zlashtirishning dastlabki bosqichlarida rang tuslari och bo‘lgan buyumlardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, yorug‘lik yaxshi tushib turgan oq rangli buyumning yorug‘-soyasi aniq ko‘rinib turadi.

Tasviriy san’at ta’limiga ixtisoslashgan, ayniqsa, arxitektura va dizayn yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarida rangtasvir mashg‘ulotlari ustuvor tarzda akvarel texnikasi asosida tashkil etiladi. Shuning uchun naturadagi buyumlarni yoritish parametrlari buyumlarning hajmi va xarakterini ochib berishga yo‘naltirilishi lozim bo‘ladi. Odatda, naturadagi buyumlarning konstruksiyasiga ko‘ra yaqqolroq ko‘rinishiga erishish uchun bir necha rakurslarda yorug‘lik tushiriladi. Ularning asosiysi eng yorug‘i bo‘lib, boshqa har qanday yorug‘likdan kuchliroq bo‘lishi lozim. Qolgan yorug‘liklar esa naturadagi buyumlarning soya qismning konstruktiv tuzilishini oydinlashtirish uchun qo‘llaniladi.

Biroq o‘quv naturalarida bu usul, ayniqsa, birinchi kurslarda muayyan qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun qo‘shimcha yorug‘lik sifatida tabiiy yorug‘lik hamda auditoriyani yoritish manbaidan foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa sifatida e’tirof etish o‘rinliki, akvarel texnikasini o‘zlashtirish vositasida bo‘lajak arxitektorlar tayyorlash mazmunini takomillashtirishda aslida ma’lum bo‘lgan, biroq har doim ham ahamiyat qaratilmaydigan holatlarga e’tibor qaratish lozim. Demak, ularning asosiylari sifatida quyidagilarni e’tirof etish joiz.

– bo‘lajak arxitektorlarni akvarel texnikasida ishlash kompetensiyalarini shakllantirishning muhim sharti sifatida badiiy material (sifatli qog‘oz va bo‘yoq) va qurollar (akvarelga moslashtirilgan mo‘yqalamlar) bilan ta’minlanishiga erishish;

– akvarelda ishlash texnikasining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda naturaning qalamtasviriga, ya’ni uni tasvir sathiga to‘g‘ri joylashtirish, nisbatlar, yorug‘-soya chegaralarini mukammal tarzda belgilab olingandan so‘nggina rang berishga o‘tish;

– rang-tuslarini to‘g‘ri farqlash malakalarini rivojlantirish uchun naturani tasvirlashdan avval qisqa muddatli ranglavhalar ishlash amaliyotini qo‘llash;

– naturani tasvirlash bosqichlariga qat’iy amal qilish;

– mashg‘ulotning boshlanishida uning mavzusiga mos elektron resurslardan samarali foydalanish;

– lozim bo‘lgan vaziyatlarda talabalar bilan individual tarzda ishlash;

– umumiy holatda mahorat darslari shaklida naturani tasvirlashni amalda ko‘rsatib berish kabi metodik yondashuvlar orqali talabalarda akvarel texnikasini o‘zlashtirish jarayonini samarali kechishini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Архитектурный рисунок: инновационые технологии обучения: Учебное пособие/ред.-сост. Е.И.Прокофьев. – Казань: 2015. – С.169.

2. Bobomurodov Z.R. Qalamtasvir va rangtasvir. –T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2010. – 160-b.

3. Gilmanova N.V. Rangtasvirda yorug‘lik va rang. –T., 2012. – 180-b.

4. Ревякин. Техника акварельной живописи. – М.: Просвещение, 1959.

5. Словарь иностранных слов. – М.: Иностранная литература,1985. С.560.

Shermuhammad MO‘MINOV,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

INTEGRATSIYALASHGAN KLASTERLI TA’LIM SHAROITIDA TALABALARNING PEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqola integratsiyalashgan klasterli ta’lim sharoitida talabalarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish haqida bo‘lib, ta’lim jarayonini integrallashning nazariy asoslari hamda ta’limni integrallash – ijtimoiy-pedagogik hodisa ekanligi, ta’limni integrallashning hozirgi zamon muammolari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Integratsiya, differensiatsiya; boshlang‘ich, oraliq va yakuniy integratsiya.

Статья посвящена развитию педагогической культуры студентов в контексте интегрированного кластерного образования, теоретической основе интеграции образовательного процесса. Интеграция образования – явление социально-педагогическое. Освещены актуальные вопросы интеграции образования.

Ключевые слова. Интеграция, дифференциация; начальная, промежуточная и окончательная интеграция.

The article is devoted to the development of the pedagogical culture of students in the context of integrated cluster education, the theoretical basis of the integration of the educational process. Integration of education is a socio-pedagogical phenomenon. Topical issues of education integration are highlighted.

Key words. Integration, differentiation; initial, intermediate and final integration.

Bugungi kunga qadar integratsiya nima ekanligi haqida konsensus yo‘q, garchi bu g‘oyaning o‘zi uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lsa ham. Integratsiyalashgan ta’lim muammosiga kelsak, V.I.Vernadskiy shunday yozgan edi: “...XX asrda ilmiy bilimlarning o‘sishi alohida fanlar orasidagi chegaralarni tezda xiralashtiradi. Biz ilm-fanga emas, balki muammolarga ixtisoslashganmiz. Bu, bir tomondan, o‘rganilayotgan hodisaga chuqur kirib borishga imkon bersa, ikkinchi tomondan, uning qamrovini barcha nuqtayi nazardan kengaytirish imkonini beradi.Integratsiyalashgan darsning ildizlari 18-asrga borib taqaladi. Eng boshidanoq yaxlit ta’lim tizimi muqobil tizim sifatida shakllantirildi. Komenskiyning sinf-dars tizimini alohida ta’lim fanlarini o‘rganishning tarqoqligi va ular o‘rtasidagi rasmiy mantiqiy bog‘liqlik uchun tanqid qilib, uning asoschilari o‘rganishni bolani qiziqtiradigan jarayon va hodisalar atrofida birlashtirishni va uni tabiiy hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lashni taklif qildilar.

Integratsiyalashgan darslarni o‘tkazishning yorqin namunasi V.O. Suxomlinskiy 6 yoshli bolalar uchun Pavlyshskaya qoziqlarida o‘tkazgan ‘‘tabiatdagi fikrlash darslari’’. Bu asosiy turlarning integratsiyasi kognitiv faoliyat (kuzatish, fikrlash, nutq) bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadida.

Bizning davrimiz fanlarning integratsiyalashuvi, dunyoning umumiy manzarasi haqida eng aniq tasavvurga ega bo‘lish istagi bilan ajralib turadi. Bu g‘oyalar zamonaviy maktab ta’limi konsepsiyasida o‘z ifodasini topgan. Ammo bitta o‘quv predmeti doirasida bunday muammoni hal qilib bo‘lmaydi. Shu sababli o‘qitish nazariyasi va amaliyotida o‘quv fanlarini (integratsiyalashgan kurslar, integratsiyalashgan darslar) integratsiyalashuv tendensiyasi mavjud bo‘lib, bu talabalarga fanlararo umumlashmalarga erishish va dunyoning umumiy manzarasini tushunishga yaqinlashish imkonini beradi.

“Integratsiya” atamasi ilmiy pedagogik adabiyotlarda va o‘quv amaliyotida tobora ko‘proq foydalanilmoqda.

Har qanday fanning, jumladan, metodologiyaning rivojlanishi doimo uning terminologiyasining shakllanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois metodikada vaqti-vaqti bilan metodist-tadqiqotchi, innovator, o‘rganishni optimallashtirish kabi yangi so‘z-ismlar paydo bo‘lib tursa ajab emas. 90-yillarda keng tarqalgan ushbu turdagi so‘nggi yangilik ta’lim fanlarining integratsiyasidir.

Bugungi kunga qadar hech bir lug‘at yoki ma’lumotnomada integratsiya so‘zining uslubiy ma’nosi yo‘q. Lekin hammaga ma’lumki, lotincha ‘‘integratsiya’’ – qayta tiklash, to‘ldirish, ‘‘integratsiya’’ – butun ikki ma’noda qo‘llaniladi: 1) har qanday qismlarni, elementlarni bir butun sifatida birlashtirish hamda 2) o‘zaro moslashish jarayonidir. Birinchi qiymat kitobiy deb tan olinadi, ikkinchisi – iqtisodiy, ya’ni, fanning bu turi uchun terminologiya. Bir xil turdagi qismlar yoki elementlarning bir xil mavjudligi va ularning bir qator o‘quv fanlarida yagona maqsad va funksiyaga tabiiy bo‘ysunish imkoniyati metodologiyada ‘‘integratsiya’’ atamasini belgilash uchun asosdir.

Integratsiyalashgan darslar o‘quv jarayonida tobora mustahkam o‘rin egallaydi. Ular maktabga ijodkorlik ruhini olib keladi, bolalarga bilim olish quvonchini, o‘ziga va hayotga ishonchini qaytaradi. Avvalo, integratsiya uchun qaysi darslar ko‘proq mos kelishini bilib olaylik. Bunday darslarning zamirida turli fanlarning yetakchi mavzulari mazmunining yaqinligi va ularning mantiqiy o‘zaro bog‘liqligi yotadi.

Integratsiyalashgan darslar quyidagi talablarga javob berishi kerak: birinchidan, dars bolaga turli xil bilimlar berishi, ikkinchidan, o‘qituvchi o‘quvchilarning bilimga qiziqishini oshirishi, uchinchidan, o‘qituvchi faollashtirishi kerak. Aqliy faoliyatda talabalar, va bolalar ijodkorlik, aqlni mashq qilishlari kerak.

Ayni paytda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning umumta’lim maktabiga borishi uchun real imkoniyatlar yaratilmoqda. Tamoyil ‘‘Iloji boricha kamroq tashqi va ichki farqlash’’ psixofizik rivojlanishning alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kompleks ta’lim tamoyili. Integratsiyalashgan ta’lim – maxsus o‘qituvchilar ishtirokida psixofizik rivojlanishning alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni va bunday maxsus ehtiyoji bo‘lmagan bolalarni birgalikda o‘qitish. Maxsus ta’lim varianti sifatida integratsiyalashgan ta’lim alohida psixofizik rivojlanishiga muhtoj bolalarning yashashi, ta’lim olishi va tarbiyalanishi uchun maxsus sharoitlar yaratilgan umumiy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Integratsiyalashgan ta’limning asosiy g‘oyasi – maktabda integratsiyadan jamiyatga qadar. Birgalikda ta’lim bolaning huquqini kafolatlaydi disontogenez bilan jamiyatdan, tengdoshlardan ajratilmasin va agar u sog‘lom bo‘lsa, o‘qishi mumkin bo‘lgan maktabga borishini ta’minlaydi.

Birgalikda o‘rganish tarafdorlari buni ajratib turadilar. Integratsiyalashgan ta’limning ijobiy tomonlari: ko‘proq qobiliyatli sinfdoshlarning rag‘batlantiruvchi ta’siri; hayot bilan keng tanishishning mavjudligi; muloqot qobiliyatlari va nostandart fikrlashni rivojlantirish; insonparvarlik, hamdardlik, bag‘rikenglikni namoyon qilish imkoniyati haqiqiy hayotiy

vaziyatlarda quyidagi dalillarni keltiring: yaxshi o‘qiydigan talabalar tez sur’atlarda o‘rganish imkoniyatidan mahrum, qobiliyatlarini rivojlantirish; o‘rganish qiyin bo‘lgan bolalar noqulay raqobat muhitida, ularga kerakli e’tiborini jalb qilmaslik; o‘qituvchilar muammoga duch kelishadi: kimga e’tibor, g‘amxo‘rlik va vaqtdan mahrum bo‘lish.

Integratsiyalashgan ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirish shartlari quyidagilardir: integratsiya jarayonlari oqimining zo‘ravonlikka asoslanmaganligi, tanlash imkoniyati, moliyaviy xavfsizlik, tegishli assortimentni yaratish ta’lim xizmatlari va bolalar uchun maxsus yashash sharoitlari ommaviy umumta’lim maktabi tarkibida alohida ta’lim ehtiyojlari bilan; butun jamiyatning, uni tashkil etuvchi ijtimoiy guruhlarning integratsiya jarayonlariga tayyorligi va boshqalar.

Jahon ta’lim amaliyoti takliflari asosida ta’limda integratsiyaning to‘rtta varianti mavjud. Bular: qo‘shma, qisman, vaqtinchalik, to‘liq.

Qo‘shma integratsiya yosh normasiga mos keladigan yoki unga yaqin psixofizik va nutq rivojlanishi darajasiga ega bo‘lgan bolalar ommaviy guruhlar yoki sinflarda bo‘lib, defektolog o‘qituvchidan doimiy yordam oladi.

Qachon qisman integratsiya rivojlanish muammolari bo‘lgan, hali sog‘lom tengdoshlari bilan teng ravishda ta’limni o‘zlashtira olmagan bolalar kunning bir qismi uchun ommaviy guruhlarga (sinflarga) qo‘shilishadi.

Vaqtinchalik integratsiya – barcha talabalarni bildiradi, maxsus guruhlar, psixofizik va nutqni rivojlantirish darajasidan qat’i nazar, har oyda kamida 1-2 marta turli xil ta’lim tadbirlari uchun sog‘lom bolalar bilan birlashtiriladi.

Mening fikrimcha, integratsiya, turli fanlar (masalan, tarix va adabiyot) o‘qituvchilarining bir vaqtning o‘zida bir xil matn bilan ishlashidan iborat, ammo tarixchi u bilan tarixiy manba bilan, filolog esa xuddi shu matn bilan ishlaydi. Natijada, ularning ishlash usulida sezilarli nomuvofiqlik bo‘lar edi: tarixchi uchun matn u qila oladigan vosita rolini o‘ynaydi matn ortidagi voqelikni – o‘tmishni qayta qurish adabiyot o‘qituvchisi uchun, aksincha, matn asarga aylanadi, ya’ni o‘rganish va rivojlantirish predmetiga aylanadi. Tarixchi va filologning ish uslublari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni ta’kidlab, noan’anaviy bog‘liqliklarni va subyektlararo korrelyatsiyalarni aniqlash mumkin, shuningdek, mavzu bo‘linishining tasodifiy emasligini va turli metodologiyalarning to‘qnashuvi samaradorligini qayd etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim klasteridagi integratsiya nafaqat taniqli ‘‘ta’lim - fan - ishlab chiqarish’’ triadasining turli tuzilmalarini rasmiy birlashtirish, balki haddan tashqari ta’sirga erishish uchun ularning potensiallarini konjugatsiya qilishning yangi shaklini topish sifatida ham tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchi muallif. Karimov Sh. va boshqalar. –T.: Sharq, 1999.

2. Mavlonova R, Raxmonqulova N. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. –T.: O‘qituvchi, 2006.

3. Tursunov I., Nishonaliyev U. pedagogika kursi. –T.: O‘qituvchi, 1997.

Alisher ERGASHEV,
Toshkent arxitektura-qurilish instituti “Tasviriy san’at” kafedrasi katta o‘qituvchisi

ARXITEKTURAVIY FANTAZIYA VA UNING LOYIHAVIY IJODKORLIKDAGI ROLI

Annotatsiya

Maqolada arxitekturaviy grafikani badiiy ijodiyotning o‘ziga xos yo‘nalishi sifatida shakllanishi va rivojlanishiga oid tahliliy mulohazalar bayon etilgan. Unda yevropalik arxitektorlarning ijodiy ishlari misolida arxitekturaviy fantaziyaning ifodaviy vositalari, estetik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Arxitektura, grafika, fantaziya, tasviriy vosita, estetik xususiyat, arxitekturaviy tasavvur, tasvirlash usullari, arxitekturaviy loyiha.

В статье представлены аналитические обзоры путей становления и развития архитектурной графики как особенный вид художественной деятельности. В ней раскрываются эстетические особенности архитектурной фантазии средствами произведений европейских архитекторов.

Ключевые слова. Архитектура, графика, фантазия, изобразительное средство, эстетическая особенность, архитектурное представление, приёмы изображения, архитектурное проектирование.

The article presents analytical reviews of the ways of formation and development of architectural graphics as a special type of artistic activity. It reveals the aesthetic features of architectural fantasy by means of works by European architects.

Key words. Architecture, graphics, visual aids, aesthetic features, architectural performance, image techniques, architectural design.


Badiiy ijodiyotning arxitekturaviy fantaziya yo‘nalishi arxitekturaviy eskiz va chizmatasvir kabi arxitekturaviy grafikaning bir turi sifatida vujudga keldi. Ushbu turdagi grafika namunalarining estetik xususiyatlarini ularning ifodaviy vositalari va usullarini izlash arxitektura ijodining mustaqil yo‘nalishi sifatida shakllanishiga sabab bo‘ldi.

Arxitekturaviy fantaziya janrining birinchi vakillaridan ikki usta-avstriyalik arxitektor Yoxan Bernxard Fisher va italiyalik arxitektor Jovanni Batista Piranezilar XVII-XVIII asrlarda arxitekturaviy grafikaga oid asarlar yaratib, arxitekturaviy fantaziya sohasini shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynadi.

Tarixiy manbalarning tahlillaridan ayon bo‘ladiki, Yoxan Fisher yo‘q bo‘lib ketgan qadimiy inshootlarni tasvirlaydigan bir qator noyob o‘yma tasvirlarni (gravyura) yaratdi. Muallif ularda ko‘plab odamlarning tasvirlari, ot-aravalar, kemalar, tabiat elementlari va me’moriy inshootlarning tafsilotlarini aks ettirgan. Shu tarzda murakkab me’moriy kompozitsiyalar yaratdi. Bunday haqqoniylik tufayli Fisher tasavvurida yaratgan ajoyib binolar “yashashni” boshladi hamda uning o‘yma naqshlari inshootlarga ikkinchi hayot bag‘ishladi.

B. Piranezining xayolot dunyosi qadimgi Rim yodgorliklariga bag‘ishlangan. B. Piranezi o‘zining arxitekturaviy kompozitsiyalarini shunday yaratganki, ularda musiqiy ohanglar jaranglayotgandek taassurot uyg‘otadi. Unda me’moriy shakllarning ko‘lami, uning massivligi, geometrik shakllari, bo‘linish ritmi, tafsilotlar bilan ifodalangan asosiy

konstruktiv tuzilishiga ko‘ra tasviriy vositalardan iborat. Ushbu asarlarning grafik texnikasining o‘ziga xos xususiyati – tasviriy rakurslarning o‘tkirligi, tiniq nur va soya, ifodali chizgilarda namoyon bo‘ladi. B. Piranezi uslubi Yevropaning arxitektura grafikasi madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatdi va XVIII-XIX asrlarning bir qator dunyoga mashhur arxitektura ustalarini ilhomlantirdi.



Jovanni Batista Piranezi Yoxan Bernxard Fisher

Ammo, XX asr boshlaridagi arxitekturaviy fantaziya uslubi me’moriy tafakkurda yangi tendensiyalarning paydo bo‘lishi tufayli o‘zgardi. Ushbu sohadagi eng ahamiyatli asarlar XX asrning birinchi choragida uch nafar usta – Stanislav Noakovskiy, Erix Mendelson va Yakov Chernixov ijodida o‘z o‘rnini topdi.

Polshalik arxitektor va pedagog S. Noakovskiyning asarlari G’arbiy Yevropa, Rossiya va Polsha arxitekturasining assotsiatsion taassurotlari asosida arxitektura fantaziyalarini yaratishda namuna bo‘lib xizmat qiladi. Yumshoq qalam yoki mo‘yqalam yordamida tasavvurdan ish olib borar ekan, u biron bir me’moriy obyektni tasvirlashni amalga oshirishga intilmagan. Lekin, har doim yangi arxitekturaviy kompozitsiyani yaratgan. S. Noakovskiyning jonli mo‘yqalami bilan qilingan va rangi biroz yoritilgan tasavvurlari yorug‘likning kayfiyatini, fasl va ob-havo sharoitlarini, me’moriy inshootlarning moddiy va rang tuyg‘usini aks ettiradi. Chiziq va shtrixlarning egriligi ustaga shakl chegaralari, uning qurilishi va qismlarning plastikasini aniq ifodalashga to‘sqinlik qilmadi.

Nemis arxitektori E. Mendelsonning arxitekturaviy tasavvurlari bir qog‘oz yuzasida tasvirlangan bo‘lib, barcha ishlari singari ifodali. Ular muallif tomonidan grafik jihatdan tushunarli ko‘rinadigan sun’iy va tabiiy tektonik tuzilmalar sinteziga asoslangan kompozitsion shakllarni izlash jarayonining o‘ziga xos ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu eskizlar E. Mendelson uchun ijodiy izlanish vositasi, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘ziga xos ijodiy laboratoriya funksiyasini bajardi. Kontur chizig‘i va chiziqlar yordamida bajarilgan ko‘plab eskizlar fikr yuritish hamda arxitekturaviy fantaziya uchun kompozitsion zamin yaratdi. Shuningdek, arxitekturaviy fantaziya sohasining yangi tasviriy-ifodaviy usul va vositalarini kashf etish uchun asos bo‘ldi. Chizgilarning kompozitsion aniqligi va soddaligi muallifning amaliy maqsadlari bilan tushuntiriladi. Ya’ni tasvir yordamida, xayolot bilan haqiqatni bog‘laydigan tasavvurga erkin yo‘l ochadi. E. Mendelsonning arxitekturaviy fantaziyasi shundan ajralib turadiki, ularda boshlang‘ich noaniq va mujmal loyihaviy g‘oyalar kelajakdagi real kompozitsiyalarning prototiplariga aylanadi.

Arxitekturaviy fantaziyaga mutlaqo boshqacha yondashuv rus arxitektori Y. Chernixovga xosdir. U arxitektor faoliyatining mustaqil sohasi sifatida arxitekturaviy

fantaziyani tan oldi va me’morlik san’atining shakli sifatida insoniyatga ulkan madaniy va estetik ta’sir ko‘rsatadi, dunyoqarashi va ijtimoiy qarashlarini shakllantiradi, deb ishonar edi. Uning grafik kompozitsiyalari – jiddiy tahliliy asarlar sifatida xizmat qilib, arxitektura shaklini rivojlantirish istiqbollari to‘g‘risida muallifning nuqtayi nazarini aks ettiruvchi proyeksiyalardir.

Y. Chernixov va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan sanoat, ijtimoiy yoki uy-joy arxitekturasi namunalari kelajak haqidagi me’moriy shakllarni vizual tilining o‘ziga xosligini muhim darajada belgilab berdi. U yaratgan arxitekturaviy grafik asar namunalarining o‘ziga xosligi majoziy tilga egaligi bilan ajralib turadi. Grafika uslublari yoki muallif ta’kidlaganidek, “arxitekturaviy bezatish turlari” idrok etishda katta rol o‘ynaydi va arxitekturaviy kompozitsiyaning estetik jihatlarini aniqlash vositasi bo‘lib, muallif g‘oyasini shakllantirish uchun asos vazifasini bajaradi.

Oq-qora grafika idrokning ravshanlanishiga hissa qo‘shadi va me’moriy tushunchadagi asosiy narsani anglashga yordam beradi. Y. Chernixov uchun rang – kompozitsiyani tashkil qilish vositasi bo‘lib, shaklning plastik ko‘rinishini, uning tarkibiy tuzilishi va funksiyasini ifodalash vositasi sanaladi. “Rang qiymati” ya’ni rang bilan qoplangan sirtning fizik kattaligi, uning boshqa rang sirtlari bilan miqdoriy nisbati, uning grafik kompozitsiyadagi o‘rni va roli hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, arxitekturaviy fantaziya yo‘nalishi – arxitektorlar ijodining eng qiziqarli tomonlaridan biridir. Atrofdagi olamni me’mor nigohi bilan tasavvur qilishning o‘ziga xos xususiyati unda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu yo‘nalishda ishlash faqat bastakorning aniq tasavvurini, grafikning texnik mahoratini va rassomning tasavvuriy fikrlashini uyg‘unlashtirgan ijodiy mahsulot yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чернихов Я. Архитектурные фантазии. – Санкт-Петербург. 1933.
2. Кушнер М. Архитектура прошлого и будущего. –Лондон. 2005.
3. Блохина И. В. Архитектура. Всемирная история архитектуры и стилей. –М.: 2014.
4. Zoxidov P. Sh. Me’mor san’ati. – T., 1988.

Gulchehra ERGASHEVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

YOSH AVLOD TA'LIM-TARBIYASIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI VA TARBIYACHINING INNOVATSION FAOLIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqola yosh avlod ta'lim-tarbiyasida innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va tarbiyachining innovatsion faoliyati haqida bo'lib, yoshlarning ta'lim-tarbiyasida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi, maqsad va vazifalari to'g'risida fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, pedagogik faoliyat, innovatsion, yosh avlod, zamonaviy ta'lim, faoliyat.

Статья посвящена значению инновационных педагогических технологий в воспитании подрастающего поколения и инновационной деятельности педагога, эффективности, целям и задачам использования инновационных технологий в обучении молодежи.

Ключевые слова. Образование, педагогическая деятельность, инновации, молодое поколение, современное образование, деятельность.

The article is devoted to the importance of innovative pedagogical technologies in the upbringing of the younger generation and the innovative activity of a teacher, the effectiveness, goals and objectives of the use of innovative technologies in teaching young people.

Key words. Education, pedagogical activity, innovation, young generation, modern education, activity.

Hozirgi taraqqiyotimizning talablari asosida ta'lim standartlari takomillashtirilib, dasturlar modernizatsiya qilinib, ta'lim muassasalariga yetkazilib berilmoqda. Ta'lim muassasalarining moddiy bazalari jadallik bilan mustahkamlanmoqda.

Yangi turdagi kasb-hunar kollejlari, universitetlar va institutlar qoshida akademik litseylar, maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, joriy va kapital ta'mirlash, yangi zamonaviy asbob-uskunalari, o'quv qurollari, texnika vositalari va kompyuterlashtirish ishlari aniq davlat rejalari asosida amalga oshirilmoqda.

Innovatsiya (inglizcha Innovation – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismidir. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish).

Pedagogik yangilik – pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish hamda uni rivojlantiruvchi vositasidir.

Innovatika – yangilikni yaratilish qonuniyatlarini o'zlashtirishni va targ'ibotini o'rganadigan fan.

Innovatsion jarayon – yangilikning kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimni yangi ko'rsatkichlarga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi o'zgarishdir. Innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir.

Innovatsion pedagogik g'oya – tizimlashtirilgan pedagogik g'oyalar; o'quv jarayoni bashorat etilishi, ma'lumotlar to'plami.

Innovatsion ta'lim – 1) ta'lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar; 2)

yangilangan yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni.

Innovatsion ta’lim muassasasi – yangi tipdagi ta’lim muassasalari:

– akademik litseylar, maktabgacha ta’lim kompleksi, shaxsiy maktabgacha ta’lim muassasalari, ixtisoslashgan sinf va maktablar, gimnaziya, turli yo‘nalishli, predmetlari chuqur o‘rgatiladigan maktablar va h.k.

Innovatsion texnologiya – pedagogik taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni (faollik, didaktik o‘yinlar, evristik, kreativ, muammoli, loyihashtirilgan, AKT texnologiyalari).

Innovatsion o‘qitish – 1) yangicha o‘qitish tizimi, 2) ta’lim oluvchilarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o‘qitish jarayoni (algoritmlash, loyihali, modulli va b.).

Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi.

“Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

Innovatsiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega:

“Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro)

1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar;

2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanilishi”.

Innovatsion ta’lim (ingl. “innovation” – yangilik kiritish, ixtiro) ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim.

Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Ta’lim innovatsiyalari – ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalardir.

Ta’lim innovatsiyalari “innovatsion ta’lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta’lim” tushunchasi birinchi bor 1979-yilda “Rim klubi”da qo‘llanilgan.

Ta’lim innovatsiyalari bir nechta turga ajratiladi.

Pedagogik jarayonda ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar turli ko‘rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko‘rinishlari sanaladi:

– yangi g‘oyalar;

– tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;

– noan’anaviy yondashuvlar;

– odatiy bo‘lmagan tashabbuslar;

– ilg‘or ish uslublari

Ta’lim tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llashda sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko‘zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’limda ham “novatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa, u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi.

Bordi-yu, faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.

Ilmiy adabiyotlarda “novatsiya” (yangilanish, yangilik) hamda “innovatsiya” (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Misol uchun, V.I. Zagvyazinskiyning e’tirof etishicha, “yangi”, “yangilik” tushunchasi nafaqat muayyan g‘oyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo, bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlardan iborat bo‘lib, o‘zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta’lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish g‘oyalarini o‘zida aks ettiradi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va boshqa ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Mohiyatiga ko‘ra novatsiya va innovatsiya o‘rtasida muayyan farqlar mavjud.

Har qanday innovatsiyada “yangi”, “yangilik” tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, subyektiv, mahalliy va shartli g‘oyalar tarzida namoyon bo‘ladi. Xususiy yangilik munosabat, obyekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o‘zgartirish, yangilashni nazarida tutadi. Subyektiv yangilik ma’lum obyektning o‘zini yangilash zaruriyatni ifodalaydi.

Mahalliy yangilik alohida olingan obyekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi.

Shartli yangilik esa munosabat, obyekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta’minlovchi ma’lum elementlarning yig‘indisini yoritishga xizmat qiladi.

R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishga e’tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta’lim va tarbiya jarayonida avval ma’lum bo‘lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o‘zgarib turishi mumkin bo‘lgan mazmuni ekanligi ta’kidlanadi. Rossiyalik olimlar. A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, N.P.Stepanov va boshqa insonlar esa innovatsion jarayon hamda uning tarkibiy qismlarini o‘rganishga e’tiborini qaratgan.

Bu o‘rinda ular innovatsion jarayonning tashkil etilishiga nisbatan quyidagi ikki yondashuv mavjud ekanligini e’tirof etadi:

1) yangilikning individual mikro darajasi (unga ko‘ra qandaydir yangi g‘oyaga, amaliyotga joriy etiladi);

2) alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o‘zaro ta’sirini ifodalovchi mikro daraja (bu o‘rinda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o‘zaro ta’sirlanishi, birligi, raqobati va birining o‘rnini ikkinchisi tomonidan egallanishi ahamiyatli sanaladi).

A.I.Prigojinning fikriga ko‘ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg‘un elementlar bilan boyitib borishi tushunilishi lozim. Bu o‘rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o‘ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

Ta’lim tizimini texnologiyalashtirish g‘oyasi o‘tgan asrning boshlarida G‘arbiy Yev-

ropa va AQShda ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta’minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o‘rtaga tashlandi. Mazkur g‘oya 30-yillarda ta’lim jarayoniga “pedagogik texnika” (“ta’lim texnikasi”) tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik (ta’lim) texnika(si)” tushunchasi “o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi usul va vositalar yig‘indisi” tarzida talqin etildi hamda o‘quv jarayoniga o‘quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko‘rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir - deya baholandi.

Innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlarini olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan sharoitda yangi mahsulot yaratish bilan yakunlanadi. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo‘lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi loyihaga, loyihani texnologiyaga aylantirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir.

M. Jumaniyozovaning e’tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyat quyidagi belgilar asosida namoyon bo‘ladi:

– ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
– pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
– mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
– tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
– o‘zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo‘llay olish;
– hamkasblar bilan hamkorlik;
– fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik;
– ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
– yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borishni innovatsion faoliyatga tayyorlashda pedagogik jamoadagi psixologik muhit, jamoa a’zolarining qay darajada dunyo ta’limi bozoridagi yangiliklardan xabardor ekanligi asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Innovatsion faoliyatining shakllanishida pedagogik jamoada ijodiy muhitning alohida o‘rni borligini ko‘pchilik olimlar ta’kidlab o‘tadi.

Ta’lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabhalarida hayotni yaxshilash va farovon turmush kechirishga olib keladi. Yangilikni kiritish ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo‘lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta’lim jarayoniga uzluksiz yangilik kiritishga harakat qiladi.

Demak, innovatsion faoliyatga tayyor bo‘lib, darsga eng so‘nggi yangiliklarni olib kirib, ta’lim oluvchiga qiziqarli va uning ehtiyojiga mos ravishda tashkil etsagina, sifat va samaradorlikni kafolatlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Издателско-полиграфический творческий дом им.Чулпана. –Т., 2005. -200 –С.4.
2. Левитан К.М. Личност педагога: становление и развитие. Изд-во Саратовского университета. 1991. – С.166.
3. Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. –T.: O‘qituvchi, –2001. – 512-b.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf, 2000.

Hilola YUSUPOVA,
Namangan viloyati maktabgacha ta'lim boshqarmasi boshlig'i

TARBIYACHINING PEDAGOGIK FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUV

Annotatsiya

Ushbu maqola tarbiyachi pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv haqida bo'lib, pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv, tarbiyachining ijodkorlik sifatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Shaxs, kreativ yondashuv, pedagogik yutuqlar, kreativlik sifatlar, faoliyat, tarbiyachi.

Статья посвящена творческому подходу к педагогической деятельности педагога, творческому подходу к педагогической деятельности педагога, творческим качествам педагога.

Ключевые слова. Личность, творческий подход, педагогические достижения, творческие качества, деятельность, педагог.

The article is devoted to the creative approach to the pedagogical activity of the teacher, the creative approach to the pedagogical activity of the teacher, the creative qualities of the teacher.

Key words. Personality, creative approach, pedagogical achievements, creative qualities, activity, teacher.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, bolalarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi. Odatda, pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi, shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda

pedagogning o‘zini-o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllanadi.

Ko‘pgina pedagog-tarbiyachilar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat pedagog-tarbiyachilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar.

Ayni o‘rinda shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo‘sh, ular o‘zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: ‘‘Agarchi o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir’’.

Patti Drapeau nuqtayi nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi.

Har tomonlama fikrlash ta’lim oluvchilardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda ta’lim oluvchi yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin:

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi. U “ta’lim oluvchilar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi”.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ular quyidagilardir: axborot, shu jumladan, kompyuter texnologiyasi yordamida pedagog-tarbiyachi tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyorlanib, ta’lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo‘lgan ijod mahsulotlari sanab o‘tiladi.

Multimedia – bir necha ko‘rinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, raqamli,

ovozli, musiqali, video, audio, fotografiya, harakatlanuvchi obrazlar (animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun taalluqli umumiy tushunchadir.

Elektron albom – rasmlar, suratlar, chizmalar va boshqa grafik tasvirlar hamda ularning izohlarini o‘zida aks ettiruvchi elektron shakldagi to‘plam hisoblanadi.

Elektron atlas (yun. “Atlas” – birinchi bo‘lib, osmon globusini yaratgan afsonaviy Liviya podshosining nomidan) – muayyan o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha tavsiya etilgan va o‘ziga xos grafik tasvirlarga ega bo‘lib, o‘quv maqsadlariga ko‘ra foydalaniladi.

Raqamli video lavhalar – o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga yordam beradigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan 3D o‘lchamdagi zamonaviy o‘quv manbaidir.

Virtual stendlar – 1) real obyekt, predmet, jarayon, voqea va hodisalarning elektron modeli; 2) matn, rasm, sxema, jadval, diagramma va boshqa shakldagi axborot, jarayon hamda virtual muhitlarni yaratish, saqlash, ishlov berish, raqamlashtirish va tizimli ravishda amalga oshirishni ifodalovchi kompyuterli vositasidir.

Imitatsion virtual trenajyor (ingl. “train” – “tarbiyalamoq”, o‘qitmoq”, “mashq qildirmoq”) – elektron shakldagi o‘quv-mashqlantiruvchi qurilma bo‘lib, u yordamida mehnat faoliyatining real sharoiti modellashtiriladi, muayyan faoliyat (m-n: mashina (mexanizm) ni boshqarish, murakkab stanokda ish bajarish yoki harbiy texnika sirlarini o‘zlashtirish) ko‘nikmalari shakllantiriladi, ko‘nikmalar malakalarga aylantiriladi hamda hosil bo‘lgan malakalar takomillashtiriladi.

Multimedia mahsulotlari – o‘zida AKTning dasturiy va texnik imkoniyatlari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materialini tinglovchilarga yetkazib berilishini mujassamlashtirgan ishlanma (mahsulot)lar.

Audio va video vizual materiallar – o‘quv axborotlarini kompyuter texnologiyasi yordamida ovozli va vizual shaklda qabul qilinishini ta’minlovchi materiallar.

Video animatsiyalar – chizilgan (rasmli) yoki kichik hajmli obraz (hajmiy, qo‘g‘irchoq yoki o‘yinchoqli obyekt)larni harakatga keltirish va bu harakatning har bir bosqichini ketma-ket suratga olinganligini ifodalovchi elektron tasvirlar.

Prezentatsiya (taqdimot; lot. “praesentatio” – taqdim etish) – muayyan mavzu yoki muammo bo‘yicha o‘quv (ilmiy, amaliy) xarakterdagi materiallarning ish qog‘ozlari (oddiy yoki vatman qog‘ozlar) hamda axborot-kommunikatsion vositalar (kompyuter, proyektor, protsessor va boshqa qurilmalar) yordamida taqdim etilishi.

Tarbiyachining ijodkorlik sifatlari

Pedagog-tarbiyachi o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini-o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasidir.

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq

ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs.

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o‘ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs tushuniladi.

Ijod – ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyat natijasidir.

Ijodkor shaxsni tarbiyalash – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g‘oya, ularni amalga oshirish ko‘nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish sanaladi.

Kasbiy-ijodiy faoliyat – mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakatidir.

Ijodiy topshiriqlar – muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo‘naltirilgan masalalar tizimi.

Kasbiy-ijodiy imkoniyat:

1) kasbiy kompetensiya, malakaga egalik;
2) kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o‘zlashtirganlik;
3) ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi;
4) kasbiy-ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi.

Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi – ijodkorlikning jarayon va natija sifatida obyektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko‘rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta’limot.

Ijodiy tafakkur – tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi.

Ijodiy qobiliyat – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo‘ladigan individual xususiyati.

O‘zini-o‘zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki mashg‘ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

Mashg‘ulotlarda “kreativlik yo‘l xaritasi”ga ko‘ra quyidagi 4 ta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drapeau) sanaladi:

1) ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;
2) mashg‘ulotlarni qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
3) innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;
4) kutiladigan natija.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Издательско-полиграфический творческий дом им. Чулпана. –Т., 2005. –200 С. 4.
2. Левитан К.М. Личност педагога: становление и развитие. Изд-во Саратовского университета. 1991. – С.166.
3. Mavlonova R., To‘rayeva O. Holiqberdiyev K. Pedagogika. –T.: O‘qituvchi, –2001. – 512-b.

Anvar HAYITOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Sohiba BOLIBEKOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 4-kurs talabasi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI INTEGRATSIYALASHGAN USULDA OCHIQ DARS ISHLANMALARINI TUZISH KO‘NIKMASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ochiq dars rejalarini birlashtirish qobiliyatini shakllantirishga takomillashtirish bo‘yicha ko‘nikmalar berish haqida fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Integratsiya, o‘qish, informatika, ingliz tili, tasviriy san’at integratsiyasi.

Эта статья посвящена формированию у будущих учителей начальной школы способности интегрировать открытые планы уроков.

Ключевые слова. Интеграция, чтение, информатика, английский язык, интеграция изобразительного искусства.

This article is about shaping the ability of future primary school teachers to create open lesson plans in an integrated way.

Key words. Integration, reading, computer science, English, fine arts integration.

Hozirgi kunda o‘quvchilarimizning har tomonlama malakali kadr yoki komil inson bo‘lib yetishishida ularga ko‘proq ilm va namunali tarbiya berish talab qilinmoqda. Bu bevosita maktabda o‘qitiladigan fanlarni yaxshi o‘qitish va shu fanni yoki mavzuni yanada yaxshi tushunishi uchun fanlarning bir-biriga bog‘liq tomonlarini ochib berishi va fanlarni bir-biri bilan to‘ldirib o‘tilishi kerak bo‘ladi. Demak, fanlarni bir-biri bilan to‘ldirib, bog‘lab dars o‘tilsa, o‘quvchi ushbu mavzu haqida har xil ma’lumotlarga va ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Bu esa fanda ilmiy tilda “integratsiya” deb ataladi. “Integratsiya” so‘zi lotincha “integration” – tiklash, to‘ldirish, “integer” butun, yaxlit so‘zidan kelib chiqqan. O‘quvchi tez fikrlovchi, hozirjavob, bir deganda bir tushuncha haqida turli ma’lumotlarga ega bo‘lish hamda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalari yaxshi shakllanib boradi. O‘qituvchi har bir dars ishlanmasini integratsiyalashgan tarzda tuzib chiqishi va shunday dars o‘tishi lozim. Quyida ana shunday dars ishlanmalaridan birini tavsiya qilaman. Bu integratsiyalashgan dars ishlanmasiga har bir bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi amal qilishi kerak bo‘ladi.

DARS ISHLANMA
Sana: _____
Sinf: 1-sinf
Fanning nomi: Tabiiy fanlar.
Darsning mavzusi: Jonli va jonsiz tabiatni o‘rganamiz.

Darsning maqsadi:

a) Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarga “Jonli va jonsiz tabiatni o‘rganamiz” mavzusini o‘rgatish, biz va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni tushuntirish.

TK1. O‘quvchilar o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;

TK3. O‘quvchilar hayot davomida o‘qib o‘rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borishni o‘rgatish;

b) Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarni tabiatga mehr-muhabbat, tabiatni asrab avaylash ruhida tarbiyalash;

TK3. O‘quvchilar o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish;

TK5. O‘quvchilar orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish;

d) Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilarning tabiatdagi o‘zgarishlar haqidagi bilim ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish, mehr tuyg‘usini o‘stirish.

TK4. Jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ishtirok etish;

Dars turi: Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi;

Darsda qo‘llaniladigan metodlar: Suhbat, tushuntirish, savol-javob, Klaster metodi, suhbat metodi, “Ingiliz tilida gapiramiz” o‘yini.

Darsda qo‘llaniladigan jihozlar: Darslik, mavzuga doir rasmlar, videolar, darslik asosida tayyorlangan slayd (taqdimot).

DARSNING BORISHI:

1. Tashkiliy qism: a) O‘quvchilar bilan salomlashish (Assalom alaykum aziz bolajonlar, bormisiz, omonmisiz. Bugun darsga tayyormisiz? Bolajonlar bugun biz sizlar bilan atrofimizdagi olam 1-sinf darsini boshlaymiz.

b) Ingiliz tilida gapiramiz o‘yinini o‘ynaymiz.

Tog‘ – Mountain

O‘simlik – Plant

Asal – Honey

Asalari – Bee

Dorivor o‘simlik – Spices


Bu so‘zlar o‘quvchilarga o‘rgatilib, daftarlariga yozdiriladi. Yodlashga uyga vazifaga qo‘shib beriladi).

O‘tilgan mavzuni takrorlash va uyga vazifani tekshirish: Shundan so‘ng uyga vazifa o‘quvchilardan so‘raladi. (Qani bolajonlar uyga vazifa nima berilgan edi? Barakalla. Uyga vazifa O‘zbekistonda yetishtiriladigan va yetishtirilmaydigan mevalarni topib, yozib, daftaringizga rasmini chizib kelishingiz kerak edi. Qani hamma bajardimi? Barakalla. O‘zimni dono, aqlli o‘quvchilarim. Endi ekrandagi men topgan mevalar bilan siz topgan mevalarni solishtirib tekshirib chiqamiz. Qani hamma ekranga diqqat bilan qarasin. Birinchi O‘zbekistonda yetishtiriladigan mevalarni topamiz. Diqqat bilan qaradikmi bolajonlar.

Sizlarga savolim bor bolajonlar. Ekrandagi sarlavhaga qaradikmi? Nega gapimizning o‘rtasida kelgan O‘zbekiston so‘zini bosh harf bilan yozib qo‘yibman? Qani kim aytadi? Barakalla bolajonlar. To‘ppa-to‘g‘ri. Chunki O‘zbekiston joy nomi bo‘lganligi uchun har doim bosh harf bilan yoziladi. Barakalla. Endi topshiriqqa qaytamiz. Qani qaysi mevalar O‘zbekistonda yetishtirilar ekan?

Uyga vazifani tekshirish.


Biz O‘zbekistonda yetishtiriladigan mevalarni topdik.



Mevalarni nomlari bilan aytamiz. Qani boshladik.

Olma, shaftoli, xurmo, uzum, o‘rik, anor, nok, behi, olxo‘ri. Barakalla bolajonlarim. Ofarin. Ana endi O‘zbekistonda yetishtirilmaydigan mevalarni topamiz. Qani boshladik.

O‘zbekistonda yetishtirilmaydigan mevalar.



Mevalarni ketma-ket nomini aytamiz. Banan, mandarin, kivi, apelsin, mango, ananas. Barakalla bolajonlar. Bu mevalarni qayerda yetishtirilishini bilamizmi bolajonlar? Demak,

Banan Afrikada yetishtiriladi.

Mandarin asosan, Yaponiya, Xitoy, Ispaniya va Meksikada yetishtirilar ekan.


Kivi ilk bor Xitoyda paydo bo‘lgan ekan. Uning vatani Xitoy.

Apelsin – Xitoy olmasi ham deyilar ekan. Vatani Birma va Janubi-G‘arbiy Xitoy.

Mango asosan, Hindistonda yetishtiriladi. Vatani Janubiy-G‘arbiy Osiyo.


Ananas asosan, Afrika, Filippinda yetishtirilar ekan. Ana ko‘rdingizmi bolajonlar O‘zbekistonda yetishtirilmaydigan mevalar haqida ham ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘lib oldik.

2. Yangi mavzuni tushuntirish: Uyga vazifa so‘rab bo‘lingach yangi mavzu bayoniga o‘tiladi. (Ana endi biz sizlar bilan bolajonlar yangi mavzu o‘tamiz. Bugungi mavzumiz bolajonlar “Jonli va jonsiz tabiatni o‘rganamiz” mavzusi. Ekrandagi rasmga qaraymiz bolajonlar.




Rasmda nimalarni ko‘ryapsiz. Barakalla bolajonlar rasmda tabiat qo‘yniga sayohatga chiqqan bolalarni ko‘ryapmiz. To‘g‘rimi? Barakalla. Bu rasmga qanday nom bersak bo‘ladi bo‘lajonlar? Ofarin, Barakalla. Bu rasmga “Tabiatga oshno bo‘lgan bolalar” deb nom qo‘yamiz. Qani rasmda yana nimalarni ko‘ryapmiz? Barakalla to‘g‘ri bolajonlar.

Rasmda tog‘lar, qir-adirlar, bepoyon kengliklar, yam-yashil tabiat, dov-daraxtlar va qushlarni ko‘ryapmiz. Ana endi men sizlarga Vatanimizning tabiati haqida darsligimizda nima yozilganini o‘qib beraman.




Diqqat bilan tingladingizmi bolajonlar. Bunday go‘zal tabiatni asrab – avaylash kimning burchi ekan bolajonlar? Barakalla bizning burchimiz. Tabiatni asrab-avaylash uchun qanday ishlarni qilishimiz kerak ekan va qanday ishlarni qilmasligimiz kerak ekan? Ekranga diqqat bilan qarang bolajonlar.

Tabiatni asrab-avaylash uchun qilishimiz kerak bo‘lgan ishlar.




3. Yangi mavzuni mustahkamlash: Ana endi bolajonlar sizlar bilan darsligimizda berilgan topishmoqni javobini topamiz. Sizga savolim bor bolajonlar topishmoq o‘zi nima edi? Qani kim aytadi? Biz sizlar bilan o‘qish fanidan topishmoqlar haqida ko‘p gaplashganmiz. Barakalla, ofarin.

Topishmoq – xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi va ommaviy janri. Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush darajasi madaniyati, urf-odatlari ma’lum darajada o‘z ifodasini topadi. Topishmoqda yechilishi mumkin bo‘lgan so‘roq majoziy shaklda ifodalanib, uning ma’nosi yashirincha bo‘ladi. Ana eslab ham oldik.



Har doimgidek bugun ham qiziqarli mashg‘ulot o‘tkazamiz. Bugun sizlar bilan Gerbariy usuli ya’ni turli daraxt barglaridan foydalanib kompozitsiya yaratamiz. Bu ish sizga notanish emas. Chunki biz texnologiya fanidan sizlar bilan bu ishni amalga oshirganmiz. Endi bu ishni tabiat va biz mavzusida yaratamiz. Ekranga sizga namunalar berilgan. Yaxshilab e’tibor bering.

4. Darsni yakunlash va o‘quvchilarni baholash. Qani bolajonlar bugungi darsimiz



hammaga tushunarli bo‘ldimi? Nimalarni bilib oldik? Ana endi darsda ishtrok etgan o‘quvchilarni baholaymiz.

5. Uyga vazifa berish va darsni yakunlash. Mana aziz o‘quvchilarim darsimiz ham o‘z nihoyasiga yetdi. Barchangizga bugungi darsimiz qiziqarli bo‘ldi deb o‘ylayman. Ana endi uyga vazifa beraman. Uyga vazifa “Tabiatga oshno” bo‘lgan bola qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz? Shu haqida yozing. Bundan tashqari berilgan Tabiat va biz kompozitsiyasini ham yarating.

Bu yozgan 1-sinf uchun atrofimizdagi olam darsining tabiat va biz mavzusiga bag‘ishlangan dars ishlanmada integratsiya – fanlararo bog‘liqlikdan foydalanganman. Bu dars ishlanmamni I bosqichi tashkiliy qismda ingliz tilida lug‘at ishi o‘tkazganman. Ya’ni bugungi darsga oid bo‘lgan so‘zlarni ingliz tilida qanday nomlanishini aytib o‘tganman. Nima uchun ingliz tili degan savolga keladigan bo‘lsak, hozirgi kunda dunyo tillari ichida ingliz tili birinchi uchlikda turadi. Hozirgi kunda asosiy chop etilayotgan adabiyotlar ham chet eldan kirib kelayotgan foydali ma’lumotlar ham barchasi ingliz tilida. Shuning uchun hozirgi unib o‘sib kelayotgan yosh avlodni tillarni yaxshi biladigan qilib tarbiyalash, tillarni o‘rganishga qiziqish uyg‘otish bu biz o‘qituvchilarning vazifasi. Agar 1-sinfda tabiiy fanlar darsi 33 soatni 1 yilda tashkil etsa, har bir darsda 5-10 ta yangi so‘zni ingliz tilida aytilishini yod olsa, 1 yilda 150-350 tagacha yangi so‘zni yodlay oladilar.

Bundan tashqari yana 2-bosqich uyga vazifani tekshirish va o‘tgan mavzuni takrorlash qismida, uyga vazifani so‘rash jarayonida tabiat fanini ona tili bilan ham bog‘ladim. Bunda o‘quvchilarning imlo qoidalariga amal qilishlarini tekshirib ko‘rdim. Umuman olganda, ona tili fanini har bir fan bilan bog‘lab ishlatish mumkin. Sababi o‘quvchilarning imlo qoidalariga amal qilib ishlashlari har bir fanning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Darsning 3-bosqichida yangi mavzuni mustahkamlashda qiziqarli topshiriq berishda atrofimizdagi olam fanini texnologiya fani bilan bog‘ladim. Gerbariy qilish, “Jonli va jonsiz tabiatni o‘rganamiz” mavzusida topshirig‘ini berdim. Umuman olganda, hamma darsimiz ham boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o‘tadi. Hozirgi kunda ayniqsa integratsiyasiz darslarni tashkil etib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova R.A. va boshqa “Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya”, –T.: G.G‘ulom nashriyoti 2013-yil, 210-b.

2. Mamadinova N., Ahmedova M.. “Atrofimizdagi olam” Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinflari uchun darslik. –T.: O‘qituvchi nashriyoti 2019-yil, 64-b.

3. Butayev Sh. “Dictionary” Lug‘at ilmiy xodimlar, tarjimonlar, muharrirlar, o‘qituvchilar, maktab o‘quvchilari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari talabalari, doktorantlar hamda ingliz tiliga qiziquvchi mustaqil o‘rganuvchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan. –T.: O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019-yil, 486-b.

Sevara IBRAGIMOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KREDIT-MODUL TIZIMINI TASHKIL QILISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Hammamizga ma’lumki, kredit-modul tizimini O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida, xorijiy tillarni o‘qitish nazariyalari jiddiy tahlil etilgan bo‘lib, o‘qituvchilardan – kuchli fikr (qobiliyat) va tafakkurni talab etadi. Bu fanlarni o‘qitish murakkabroq jarayon bo‘lganligi sababli, OTMlarda kredit-modul tizimini tatbiq etish, ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu tizimda bajariladigan ishlar hamda bu xususda muallifning tavsiya va fikrlari ilmiy asoslab ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar. Mustaqil ta’limda kredit – modul tizimi, amaliy mashg‘ulotlar, akademik mobillik, o‘zlashtirish darajasi, davlat ta’lim standartlari, nazorat turlari, kredit o‘qitish texnologiyasi.

Все мы знаем, что кредитно-модульная система в высших учебных заведениях Узбекистана, теории обучения иностранным языкам серьезно анализируются, и требует от преподавателей – сильного ума (способностей) и мышления. Поскольку преподавание этих предметов является более сложным процессом, введение кредитно-модульной системы в высшей школе значительно повысит эффективность обучения. Работа над этой системой, а также рекомендации и мнения автора на этот счет имеют научное обоснование.

Ключевые слова. Кредит в самостоятельном обучении – модульная система, производственная практика, академическая мобильность, уровень мастерства, государственные образовательные стандарты, виды контроля, кредитная технология обучения.

We all know that the credit-module system in the higher education institutions of Uzbekistan, the theories of teaching foreign languages are seriously analyzed, and requires from teachers – a strong mind (ability) and thinking. As the teaching of these subjects is a more complex process, the introduction of a credit-module system in higher education will significantly increase the effectiveness of education. The work to be done on this system, as well as the author's recommendations and opinions in this regard, are scientifically based.

Key words. Credit in independent education – a modular system, practical training, academic mobility, level of mastery, state educational standards, types of control, credit teaching technology.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktabrida “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturulamal hujjatda “respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish va oliy ta’lim-muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish” belgilab berildi. Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta’lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o‘quv yilining o‘zida 33 ta oliy ta’lim dargohini kredit-modul

tizimiga o‘tkazish ko‘rsatib o‘tildi.

Kredit ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AQSh universitetlarida joriy etilgan bo‘lib, o‘quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan.

1869-yilda Garvard universiteti prezidenti va Amerika ta’limining ko‘zga ko‘ringan arbobi Charlz Uilyam Eliot “kredit soati” tushunchasini kiritdi. Shunday qilib, 1870-1880-yillarda kredit soatlari tizimi joriy etildi. Kredit tizimi va o‘quv dasturini o‘zlashtirish talabalarga o‘quv jarayonini mustaqil rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta’lim texnologiyasini takomillashtirish imkonini berdi.

Kreditni hisoblash chorasining joriy etilishi talabaga katta erkinlik beribgina qolmay, balki kelajakda o‘zi tanlagan soha bo‘yicha raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun o‘quv jarayonini mustaqil rejalashtirish imkonini berdi. Shu bilan birga, baholash tizimi va ta’lim texnologiyalarini takomillashtirishga olib keldi. Kredit shakli bilimlar miqdorini belgilovchi tizimdir. Bu tizim hozirda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida keng tarqalgan bo‘lib, vaqt sinovidan o‘tgan va bir-biridan farqli, lekin bir-birini to‘ldiruvchi modulli va kreditli o‘qitish texnologiyalari hisoblanadi.

Modul – bu tegishli bilim va professional ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan alohida kurs (yoki kursning bir qismi) hisoblanadi. O‘qitishning modul tizimi talabaning fan dasturini o‘rganishi natijasida shakllanadigan bilim, ko‘nikma va malakalarni tegishli nazorat turi bilan yakunlanadi. Masalan, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash maqsadida o‘tkaziladi.

Oliy ta’lim olish moduli kredit tarkibi, har bir fan bo‘yicha kreditlar soni, har bir kursni va umuman o‘qish davrini tamomlash uchun talaba to‘plashi kerak bo‘lgan kredit umumiy sonini mustaqil mustahkamlashdir. Akademik kreditni o‘ziga xos tomonlaridan yana biri, xalqaro umumta’lim standartlariga mos kelishuv va ta’lim to‘g‘ridan-to‘g‘ri hujjatlarni qabul qilish muammolari, jahon tendensiyalarini umumiy olgan universal ta’lim dasturlarini tan olinishidir.

Kredit-modul tizimiga o‘tish xorijiy til amaliy mashg‘ulotlarida talabalarga quyidagi imtiyozlarni beradi:

– akademik mobillik – talabalar kreditlarini saqlagan holda, istalgan mos oliygohga o‘qishni qiyinchiliksiz ko‘chirib o‘tishlari mumkin bo‘ladi. U xoh, jahon universiteti, xoh, o‘zimizdagi istalgan OTM bo‘lishining ahamiyati yo‘q. Faqat, talaba to‘plagan kreditini ko‘chirib o‘tish kerditiga yetgandagina ruxsat beriladi.

– talabalarga o‘qituvchini tanlash erkinligi beriladi. Bu orqali, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida akademik muloqot ta’minlanadi.

– talabalar o‘z istaklaridan kelib chiqqan holda, fanlarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Albatta, bu o‘rinda majburiy o‘rganilishi lozim bo‘lgan (mutaxassis) fanlar ham bor, ammo talaba mustaqil tanlov fanlarini belgilay oladi. Xorijiy tillarni o‘rganuvchi talabalar uchun bu ayni muddao. Ular fanlarini mukammal o‘rganishlari uchun bu ularga yetarlicha vaqt beradi.

– talabalarga ta’lim dasturini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratish va qo‘yiladigan baholarning oshkoraligini ta’minlash yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa, o‘z – o‘zidan ta’lim tizimidagi korrupsiya barham topishini ta’minlaydi.

Amaldagi ta’lim tizimidan farqli o‘laroq, kredit tizimida majburiy fanlardan tashqari tanlov fanlari ham, talabaning shaxsiy jadvalni ham o‘z ichiga oladi. Talabalar o‘qishdan chetlashtirilmaydi yoki kursdan kursga o‘tkazilmaydi. Kerakli kreditlarni olmagan har qanday fan bo‘yicha qayta imtihondan o‘tkaziladi. Qayta o‘qish birinchi darsdan to oxirgi

darsgacha bo‘lgan amaliy mashg‘ulotdir. Qayta o‘qish summasi to‘lanadi. Uning kredit summasi shartnoma summasidan kelib chiqib hisoblanadi. Oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplom faqat kreditlar yig‘ilgandan keyin beriladi. Semestr yakunida talabalar bahosining 50 foizi fan o‘qituvchisi, 50 foizi esa universitet rahbariyati tomonidan qo‘yiladi. Ya’ni, semestr davomida oraliq nazorat, uy vazifalari, amaliy topshiriqlar professor-o‘qituvchilar tomonidan baholanadi.

Yakuniy nazorat universitet rahbariyati tomonidan amalga oshiriladi. O‘qituvchi-professor unda qatnashmaydi. Mutaxassislarning fikricha, kreditlarni to‘plash uchun talabalar darslarga qatnashishlari, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishlari, ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan bilimlarini oshirishlari kerak.

Mazkur tizimning oliy ta’lim tizimiga joriy etilishi o‘qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta’minlash, korrupsiyaga barham berish, ta’lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish, talabalarning mustaqil o‘qish va ishlash imkonini beradi. Hozirgi kunda Yevropa kredit tizimi qadimgi qit’aning deyarli barcha oliy ta’lim muassasalarida qo‘llaniladi.

Kredit-modul tizimining joriy etilgani o‘qituvchi va talaba hamkorligida muhim omil bo‘lmoqda. Modulli ta’limda o‘qituvchi tinglovchini o‘zlashtirish jarayonini tashkil qiladi, boshqaradi, maslahat beradi va tekshiradi. O‘quvchi yo‘naltirilgan obyekt tomon mustaqil ravishda harakat qiladi. Talabalarning mustaqil bilim olishiga katta e’tibor beriladi. O‘quv jarayonida mustaqil bilim olishning ahamiyati ortib, kelajakda mutaxassislarning mustaqilligi, ijodiy tashabbusi va faolligini oshiradi. Kredit-modul tizimida OTM talabalari doimo o‘qituvchi va kursdoshlaridan yordam va maslahat olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu o‘zaro tushunishni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kredit-modulli ta’lim tizimiga o‘tish ham universitet professor-o‘qituvchilariga bo‘lgan intilish va talabni oshiradi. Yuqorida ta’kidlanganidek, modulli o‘qitish tizimi bilan o‘qituvchi nafaqat axborot beruvchi va nazoratchi, balki maslahatchi va muvofiqlashtiruvchi sifatida ham xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda o‘qituvchining yetakchi roli saqlanib qolgan.

Talabalar uchun har bir semestr oxirida dunyo ta’lim standartlari asosida tuzilgan nazorat va test topshiriqlarini tashkil etish va ular asosida talabalarning bilimlarini mustahkamlash tashkil etiladi. Bu, talabalarimiz bilim saviyasini dunyo standartlariga javob bera olishini ta’minlaydi. Maxsus filologik yordamchi dasturlar (inbrain.uz, grammarly.com, English.short.stories) dan foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatish va ulardan amaliyotda keng ko‘lamda qo‘llash shart – sharoitlarini yaratadi.

Keng bazali kutubxona resurslarini ham bosma, ham elektron shakllari bilan barcha OTMlarni ta’minlash zarur. Albatta, talabalarimizning bunday tizimga moslashishlari uchun yetarlicha vaqt kerak. Ularni bunga tayyorlash avvalo, pedagog ustozlarning vazifasi. Shuning uchun bunday tizimni shakllantirish uchun, avvalo, OTMlarni professional va yetuk malakali ustozlar bilan ta’minlash lozim. Shu bilan birga ta’lim kredit – modul tizimi o‘quv jarayonini tashkil qilish tamoyillarini takomillashtirish, talabalarning bilimini nazorat qilish, oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilar tarkibini moddiy rag‘batlantirish va mehnat haqqini yaxshilash tamoyillarini ko‘rib chiqishni talab etadi. Bundan tashqari, talabalarni o‘quv qo‘llanma va materiallar bilan ta’minlanganlik, amaldagi me’yorlarni ta’lim krediti tizimini talablariga mos bo‘lishi, zamonaviy jihozlar va ko‘paytirish texnikasi bilan jihozlangan shaxsiy matbuot markazini mavjud bo‘lishi muhim. Ishonchim komilki, bunday tizimni O‘zbekiston ta’lim tizimiga olib kirish mamlakatimizning hamma sohalarining rivoji yo‘lidagi katta burilishni yasaydi.

Shuningdek, ta’limning kredit-tizimi talabalar almashinuvini oshiradi. Chunki bitta universitetda olingan kreditlar ikkinchisida hisobga olinadi va talabalar kredit yo‘qotmasdan bir universitetdan boshqasiga o‘tishi mumkin. Aynan ushbu – tizim o‘zbekistonlik talabalarning ilg‘or xorijiy universitetlarda o‘qishini davom ettirishiga hamda murakkab byurokratik to‘siqlarni olib tashlashga imkoniyat yaratadi.

Maqolaning yakunida Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti kredit tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i Diyorbek Narimonovni so‘zlarini keltirmoqchiman: “Bilasizmi, ko‘p talabalar kredit-modul tizimi nimaligini haligacha tushunib yetganlari yo‘q. Hattoki, tizimni xushlamayotganlar ham yo‘q emas. Sababi negaligini mendan ko‘ra yaxshiroq tushunib turibsiz. Yetarli ballni yig‘a olmagan talaba qayta topshiruvni topshirish uchun, hisoblangan kredit mablag‘ini to‘lovini amalga oshirgandan so‘ng qayta topshiruvga ruxsat oladi, bu degani endi har bir talaba amaliy mashg‘ulotlarda doimo faol va tez-kor harakatda bo‘lish kerak deganidir. Yangi tizim, yangi ta’lim hammasini o‘z izmiga solmoqda. Talabalardan so‘ralayotgan yagona narsa bu – chuqur bilim egallashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5349-son Farmoni.

2. Mustafaqulov Sh. Kredit-modul tizimiga o‘tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik. ‘‘Xalq so‘zi’’ gazetasi, – 5-avgust, 2020.

3. Каримбеков С. Узбекистан XXI веке: обучение с использованием системы кредитов. Перспективы развития высшего образования №3. –Т., 2015. С.115.

4. Tojiyev M., Mamadaliyev K., Xurramov A. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy ta’lim tizimi rivojlanishida kredit sistemasining o‘rni va ahamiyati. Oliy ta’lim taraqqiyoti istiqbollari: to‘plam №3. –T., 2015. –52-b.

Azizbek SAYFULLAYEV,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘ZLASHTIRISH QOBILIYATLARINI ANIQLASH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda mashg‘ulotlarni tashkil qilish, o‘quvchilarni samarali o‘qitish, ushbu maqsadga erishishga qodir bo‘lgan usullarni tanlash masalalari muhokama qilinadi. Har bir boshlang‘ich maktab o‘quvchisining individual o‘rganish qobiliyatlarini hisobga olgan holda darslarni o‘qitish va o‘tkazishning klassik usullari va yangi, didaktik usullarni birlashtirish taklif etiladi. Guruhlash uslubiga alohida e’tibor beriladi.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta’lim, pedagogik uslub, empirik usul, nazariy usul, ta’lim topshirig‘i, dars rejasi.

В статье рассматривается вопрос о эффективном обучении учеников начальных классов, выбор методов, способных к достижению данной цели. Предлагаются сочетать классические методы обучения и проведения занятий и новыми, дидактическими методами, учитывая при этом индивидуальные способности осваивания каждого ученика начальных классов. Особое внимание уделяется к методу группирования.

Ключевые слова. Начальное образование, педагогический метод, эмпирический метод, теоретический метод, учебное задание, план урока.

The article discusses the issue of effective teaching of primary school students, the choice of methods capable of achieving this goal. It is proposed to combine the classical methods of teaching and conducting classes and new, didactic methods, taking into account the individual learning abilities of each primary school student. Particular attention is paid to the grouping method.

Key words. Primary education, pedagogical method, empirical method, theoretical method, educational task, lesson plan.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ta’limning boshlang‘ich bosqichi alohida o‘rin tutadi. Aynan shu bosqichda atrofdagi voqelik to‘g‘risidagi bilimlarning poydevori yaratiladi, o‘quv va bilim qiziqishi rivojlanadi, umumiy ta’lim qobiliyatlari shakllanadi. Keyinchalik bu shaxsning uzluksiz ta’limining asosiga aylanadi. Boshlang‘ich ta’limning asosiy maqsadlari:

– bolaning shaxsiyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash;
– uning jismoniy va aqliy rivojlanishi;
– o‘rganish qobiliyatini shakllantirish.

Faoliyat kategoriyasi zamonaviy mahalliy ilm-fan sohasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Mashhur olimlarning psixologik-pedagogik tadqiqotlarida faoliyat muammosi turli pozitsiyalarda ochib berilgan.

Zamonaviy ta’lim psixologiyasida ta’lim faoliyatini obyektiv va aqliy (kognitiv) harakatlar usullarini o‘zlashtirishga qaratilgan insonning ijtimoiy faoliyatining shakli sifatida belgilash odat tusiga kiradi. U o‘qituvchi rahbarligida davom etadi va bolani muayyan ijtimoiy munosabatlarga kiritishni o‘z ichiga oladi.

O‘quv topshirig‘ini bajarishni rejalashtirish qobiliyati

“Reja” tushunchasi ishning tartibi, ketma-ketligi va vaqtini ta’minlaydigan oldindan belgilangan faoliyat tizimi sifatida talqin etiladi. Rejani “Normalar va munosabatlarning ingichka dantellari” deb ataydi. Ovozli reja – bu har qanday faoliyat uchun amaliy loyiha. U mehnat jarayoni va natijalarini o‘lchash uchun ishlatilishi mumkin.

Ta’limni rejalashtirish – bu o‘quv faoliyatining muvaffaqiyatli o‘tishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni hisobga olishga asoslangan harakatlar ketma-ketligini belgilashdir. Rejalashtirish harakatining tarkibi namunani tahlil qilishni, o‘quv ishlarini bajarish sharoitlarini va unga tegishli talablarni, ish obyektidagi muhim aloqalarni ta’kidlashni o‘z ichiga oladi. Harakatlar va operatsiyalarning ma’lum bir ketma-ketligi qurilgan, maqsadga erishishning o‘ziga xos usullari va vositalari aniqlanadi.

Ta’lim tadbirlarini amalga oshirishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bo‘lajak harakatlarni oldindan ko‘ra bilish qobiliyatiga, topshiriqni bajarish uchun har xil variantlarni ajratib ko‘rsatish, har bir variantning xususiyatlarini tahlil qilish va eng yaxshisini tanlash qobiliyatiga bog‘liq.

O‘quv vazifasini maqsadga muvofiq ravishda bajarish qobiliyati

O‘quvchi rejalashtirilgan harakatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirishga o‘tishga imkon beradigan faoliyatning yo‘naltirilgan va rejalashtirish qismlarini tugatgandan so‘ng, u harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan ta’lim vazifasini bajarish usuli to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Kichik o‘quvchilarda o‘rganish usullari:

– empirik;
– nazariy.

Idrokning empirik usuli obyektlarning rasmiy umumlashtirilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularda rasmiy ravishda umumiy joylashishi bilan bog‘liq – bu taqsimot yagona konkret obyektlarni taqqoslash jarayonida yuzaga keladi.

Bilishning nazariy usuli obyektlarni mazmunli umumlashtirish bilan bog‘liq. Ushbu umumlashtirish hodisalarning kuzatilayotgan xilma-xilligi uchun yagona boshlang‘ich asosni aniqlashga qaratilgan tahlilga asoslangan.

Empirik va nazariy usullar bilan amalga oshirilgan harakatlar muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Ammo har qanday faoliyatni, ya’ni alohida bosqichlarni to‘liq amalga oshirish to‘g‘risida gap ketganda, oldindan rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirishning empirik usuli avvalgi faoliyat tajribasi bilan bog‘liq emas va shuning uchun ko‘zlangan maqsadga erishishning oqilona usuli emas. Nazariy usulda bajariladigan harakatlar doimo muvaffaqiyatli bo‘ladi. Ta’lim vazifasini maqsadga muvofiq ravishda bajarish qobiliyati bu o‘quv faoliyatini o‘zini-o‘zi tashkil qilish qobiliyatidir. Uni subyekt nazariy, mazmunli umumlashtiruvchi darajada amalga oshirishi kerak.

Ta’lim topshirig‘ining bajarilishi va natijalarini nazorat qilish qobiliyati.

Nazorat uning taraqqiyoti va natijalarini tahlil qilish va tartibga solishdan iborat bo‘lgan ta’lim faoliyatining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. O‘quv jarayoni bilan bog‘liq holda, o‘z-o‘zini boshqarish talabaning o‘quv faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi, bu uning taraqqiyoti va natijalarini tahlil qilish va tartibga solishdan iborat.

Nazorat deganda, avvalambor, harakatlarning bir qismi bo‘lgan operatsiyalarning to‘g‘riligi va to‘liqligi ustidan nazorat tushuniladi. Talabalarda kursni, har bir operatsiyani to‘g‘riligini va ularning ketma-ketligini nazorat qilishni shakllantirish nafaqat har bir operatsiyani o‘zlashtirish vositasi, balki ularning ketma-ketligi nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirish vositasi, balki ta’kidlanganidek, yoshroq o‘quvchining diqqatini jalb qilish demakdir.

O‘quv topshirig‘ining natijalari va natijalarini baholash qobiliyati

Yosh o‘quvchi uchun o‘quv faoliyatini o‘zini-o‘zi tashkil etishning birinchi harakati – bu ta’lim vazifasining maqsadini aniqlash jarayonidir. Muayyan ongli maqsadga bo‘ysunadigan keyingi jarayon – bu ta’lim vazifasini amalga oshirish rejasini tuzishdir, va rejalashtirish natijasi amalga oshirilgandan keyingina keyingi vazifa sifatida o‘quv vazifasini maqsadga muvofiq bajarilishi boshlanadi. Keyin, amalga oshirishning to‘g‘riligini va olingan natijani nazorat qilish kerak. Ta’lim faoliyatini o‘z-o‘zini tashkil etish subyektning harakati bilan ta’lim vazifasining borishi va natijalarini baholash bilan yakunlanadi.

Ta’lim makonida o‘quv faoliyatini rivojlantirish usullaridan amaliy foydalanish.

Boshlang‘ich maktabni bitiruvchisi kim bo‘lishi kerak? Uning o‘rganish istagini saqlab qolish, turli xil bilim vazifalarini mustaqil va ijodiy hal qilish qobiliyatini rivojlantirish, maktab fanlarini muvaffaqiyatli o‘rganish uchun sharoit yaratish uchun unda qanday fazilatlar shakllanishi kerak. Asosiysi maktabmi?

Qishloq o‘qituvchilari mehnat sharoitlarining murakkabligi shundan iboratki, sinfda yoshga mos rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan bolalar bilan bir qatorda aqli zaif, takrorlanadigan bolalar ko‘p. Ko‘pincha bolalar bog‘chasiga bormagan bolalar birinchi sinfga kelishadi. Ushbu qiyin sharoitda har bir bola uchun o‘quv jarayonini iloji boricha qiziqarli va insonparvarroq qilishga intilishingiz kerak, o‘quvchilarga o‘z qadr-qimmatini topishga, bilimlarni o‘zlashtirishda muvaffaqiyatga erishishga yordam berish kerak.

Eng katta samaradorlik turli usullarning, shu jumladan, maktabda an’anaviy ravishda qo‘llaniladigan usullarning moslashuvchan kombinatsiyasi bilan ta’minlanadi.

Amaliy ishlarning mohiyati ikkita tarixiy ravishda o‘rnatilgan ta’lim tizimining an’anaviy va rivojlantiruvchi tizimlarning birlashmasidir. Treningning turli bosqichlarida usullarni birlashtirishning turli xil variantlari zarur.

Ikkala tizimning asoslarini, xususiyatlarini va farqlarini bilib, ularning har birining ma’lum bir bola uchun afzalliklarini sezgan holda, ushbu tizimlarga parallel ravishda yoki ularni bir-biriga chambarchas bog‘lab, o‘zaro to‘ldirib borish imkoniyatini topish mumkin. Bu sog‘lom fikrga zid kelmaydi, chunki har bir bola individualdir.

Rivojlantiruvchi ta’limning faol shakllari va elementlari orqali bilimlarni egallashga qiziqishning ortishi o‘zgarishsiz qolmoqda. Faol deganda, men bolalar bilan ishlashda ularning qiziqishini uyg‘otadigan va ularni fikrlashga majbur qiladigan bunday shakllarni nazarda tutaman: aniqlashtirish, taqqoslash, tahlil qilish va sintez qilish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish.

Ikki o‘quv tizimning kombinatsiyasi har kuni har bir bola uchun muvaffaqiyatni ta’minlashga, tabiiy bolalarning qiziqarli topshiriqlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga, tarkibidagi yangiliklarga, mustaqillik va o‘zini-o‘zi tasdiqlashga, maqtashga bo‘lgan ehtiyojga yordam beradi. O‘quvchilar maktabga zavq bilan qatnaydilar, dasturni muvaffaqiyatli o‘zlashtiradi. Aqliy va aqliy rivojlanishdagi og‘ish to‘g‘risida tibbiy ma’lumotga ega bo‘lgan bolalarning o‘rganish qobiliyatini to‘g‘rilash uchun javob beradi.

Guruhlarda ishlashda sinfning strukturaviy tahlili

1-guruh, yuqori qobiliyatga ega o‘quvchilar:

– yuqori darajadagi rivojlanish va yuqori samaradorlik;
– rivojlanishning o‘rtacha darajasi va yuqori ko‘rsatkichlar;
– yuqori darajadagi rivojlanish va o‘rtacha ishlash.

Ushbu o‘quvchilar o‘zlariga noma’lum bo‘lgan vaziyatlarda bilimlarni qo‘llash qobiliyatini va ta’lim muammolarini hal etishga mustaqil ravishda ijodiy yondashishni

talab qiladigan murakkabroq materiallar bilan ishlashadi.

2-guruh, o‘rtacha qobiliyatga ega o‘quvchlar:

– o‘rganish qobiliyatining o‘rtacha darajasi va o‘rtacha ko‘rsatkich;
– rivojlanishning past darajasi va yuqori samaradorlik;
– rivojlanishning past darajasi va o‘rtacha ko‘rsatkich.

Ushbu o‘quvchilar guruhi birinchi guruhning vazifalarini o‘qituvchi yordamida yoki qo‘llab-quvvatlash sxemalari yordamida yoki kuchli talabalarning tushuntirishlaridan so‘ng bajaradilar.

3-guruh, qobiliyatlari past o‘quvchilar:

– yuqori darajadagi rivojlanish va past samaradorlik;
– rivojlanishning o‘rtacha darajasi va past samaradorlik;
– rivojlanish darajasi pastligi va samaradorligi pastligi.

Ushbu o‘quvchilar guruhi o‘quv vazifalarini aniq cheklashlari, ko‘plab o‘quv ishlari va qo‘shimcha tushuntirishlarga ega.

O‘qitishning ushbu shakli yordamida talabalar bir guruhdan boshqasiga o‘tishlari mumkin. O‘tish talabaning bilim jarayonlari rivojlanish darajasining o‘zgarishi, bo‘shliqlarni to‘ldirish tezligi va ta’lim yo‘nalishining ortishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu o‘rganishda bilim olishga qiziqishni rag‘batlantirish bilan ifodalanadi.

Sinfni guruhlarga ajratish bir-birining ishini o‘zaro tekshirishni tashkil etishga yordam beradi. Topshiriqlarni bajarish uchun o‘zaro javobgarlikni oshiradi.Chunki, sinfda so‘rovnoma ko‘pincha guruhlarda olib boriladi va har bir talaba uchun o‘z guruhiga qarab bajarilishi mumkin bo‘lgan individual vazifalar uning ehtiyojini his qilish uchun kuchsiz – u ham umumiy ishning mumkin bo‘lgan qismini bajaradi.

Shunday qilib, ishning turli shakllari past ko‘rsatkichli o‘quvchilarni yangi materialni idrok etishga, bilimdagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida to‘ldirishga, o‘quvchilarning, ayniqsa, kuchli bo‘lganlarning bilim qobiliyatlaridan kengroq foydalanishga tayyorlashga yordam beradi va mavzuga qiziqishni doimiy ravishda saqlaydi. Har bir o‘quvchi o‘zi uchun mumkin bo‘lgan vazifalarni bajarsa, darsda qiziqish bilan ishlaydi. Men topshiriqlarni shunday tuzayapmanki, o‘quvchilar bitta maqsadga erishish uchun turli yo‘llarni bosib o‘tadilar.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy boshlang‘ich maktabda ta’limning ustuvor yo‘nalishi o‘quvchilarga qanday ishlashni o‘rgatish, o‘quvchilar tomonidan olingan bilimlar amaliy yo‘nalishga ega bo‘lishi uchun umumiy ta’lim qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Рациональная организация учебной деятельности” – Москва, Знание, 2011г.
2. Знаете ли вы своего ученика. – Москва, “Просвещение”, 2011г.
3. “Формирование учебной деятельности школьников”. – Москва, 2016 г.
4. “Формирование интереса к содержанию и процессу усвоения знаний” – Волгоград, 2018 г.
5. “Технология формирования умений самоорганизации учебной деятельности у младших школьников” – Челябинск, 2015г.
6. Atoyeva Mexriniso. Yerning magnit maydonini fanlararo bog‘lanish orqali tushuntirish, Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2010. – № 1. – 53-55-betlar.

Shaxlo NURULLAYEVA,
Qarshi davlat universiteti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari doktori

SHARQ MA’NAVIYATI VA PEDAGOGIK TA’LIM MUAMMOLARINING O‘ZARO ALOQADORLIK ASPEKTLARI

Annotatsiya

Maqolada o‘qituvchi va ustoz-murabbiylarning jamiyatda tutgan o‘rni nuqtayi nazaridan Sharq ma’naviy merosidagi talqini tahlil qilingan. Shu bilan birga o‘qituvchi ma’naviy qiyofasini belgilash va pedagogik ta’lim muammolarini tahlil qilishda mutafakkirlar bildirgan fikrlardan foydalanishga doir ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. O‘qituvchi, jamiyat, o‘qituvchi ma’naviyati, pedagogik ta’lim, o‘qituvchi odobi, ta’lim-tarbiya, axloq, shaxs fazilatlari.

В статье анализируется трактовка учителей и наставников в духовном наследии Востока с точки зрения их роли в обществе. В то же время при определении духовного облика учителя и анализе проблем педагогического образования были разработаны рекомендации по использованию идей, высказанных мыслителями.

Ключевые слова. Учитель, общество, духовность учителя, педагогическое образование, педагогические манеры, воспитание, нравственность, личностные качества.

The article analyzes the interpretation of teachers and mentors in the spiritual heritage of the East in terms of their role in society. At the same time, when determining the spiritual appearance of the teacher and analyzing the problems of pedagogical education, recommendations were developed on the use of ideas expressed by thinkers.

Key words. Teacher, society, teacher spirituality, pedagogical education, pedagogical manners, upbringing, morality, personal qualities.

O‘qituvchilarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini inobatga olgan holda har qanday davrda ham pedagogik ta’lim muammosiga alohida e’tibor qaratilgan. Sharq mutafakkirlari va adiblari ushbu muammoni badiiy nuqtayi nazardan izohlashga harakat qilgan bo‘lsalar, zamondoshlarimiz bo‘lgan pedagog va psixolog olimlar pedagogik ta’limni jamiyatdagi metodologik muammolar qatorida tahlil qilganlar.

Islom ta’limotida ikkinchi muhim manba hisoblanmish hadislarda ham ilm egallash va ilm o‘rgatish xosiyati, afzalliklar hamda odobi haqida qator fikrlar bildirilgan. Imom Buxoriy tomonidan jamlangan va bugungi avlodlargacha yetib kelgan “Al-jomi’ as-sahih” asaridagi “Ilm kitobi” ma’lumotlar asosida ilm o‘rgatuvchi – ustozlar va ilmi toliblar amal qilishi lozim bo‘lgan quyidagi talablarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

– ilm o‘rganishning barcha uchun va har doim farz ekanligi, zero, ilm o‘rganish toat-ibodatga tenglashtirilganligi;

– ilmni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilmasdan, muhokama va munozara yo‘li bilan o‘rganish;

– ilmni o‘rganish, boshqalarga o‘rgatish va ilmga qat’iy amal qilishi lozimligi;

– ilmni fahmlab, teran tushunib, anglab o‘rganish, esda mustahkam saqlash;

– ilm beruvchi ovozi va fikrlarining tinglovchilar uchun tushunarli, eshitilarli, me'yorlarga mos bo'lishi lozimligi;

– ilm beruvchining fikrini jim turib, diqqat bilan eshitish, tushunmaganini so'rab o'rganishdan tortinmaslik va h.k..

Sharqning buyuk allomasi, qomusiy olim Farobiy muallimning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ibratli g'oyalarni ilgari surgan.

Mutafakkir o'zining "Aql to'g'risida" nomli risolasida axloqli odam egallashi lozim bo'lgan o'n ikki xislatni sanab o'tadi. Inson barcha a'zolarining mukammalligi, bilim olishga muhabbatli bo'lishi, xotirasi baquvvat, zehni o'tkir, so'zlari aniq, fikri ravonligi, g'ururli, vijdonli, adolatli, moddiy boylikka berilmasligi kabilar shular jumlasidandir. Shuningdek, Farobiy ustozlar haqida fikr bildirib, "ta'lim-tarbiya ahllari ham o'z bilimlarining darajasiga qarab bir-birlaridan farq qiladilar, ortiq-kam bo'ladilar. Ularning ba'zi birlarida kashf, ixtiro quvvati bo'lmaydi. Ba'zilarida esa bu quvvat kamroq bo'ladi" deya ta'kidlaydi.

Mazkur muammo yuzasidan mulohaza yuritgan atoqli olim Abu Ali ibn Sinoning fikricha, "... O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim". Abu Ali ibn Sino mulohazasiga ko'ra, tarbiyachi dastlab bolalarni yaxshi ko'rishi, hurmat qilishi, ular bilan xushmuomala bo'lishi shart. Agar bola ishni yaxshi bajarsa, uni o'z vaqtida rag'batlantirish, gohida maqtab qo'yish, aksincha bo'lganda esa, unga tanbeh berish kerak. Tanbeh bolaning izzat-nafsiga tegadigan bo'lmasligi lozim. O'quvchiga murosasizlik qilish esa bolaning o'zboshimcha bo'lib qolishiga olib boradi'', - deydi Ibn Sino.

U axloq to'g'risidagi fikrlarida axloqiy fazilatlarni ulug'laydi va axloqiy illatlarni, yomonlikni keskin qoralaydi. Olim ta'lim-tarbiya masalalariga jiddiy va ijodiy yondashgan. Uning bolani tarbiyalash va o'qitish borasidagi ko'p fikrlari o'zining chuqur mazmunga egaligi, insonparvarligi va teranligi bilan kishini hayratga soladi.

Ibn Sino tarbiya masalalari ifodalangan asarlarida o'qituvchining roliga katta e'tibor bilan qaragan. Tarbiyachi tanlashni muhim masala deb hisoblagan. U bola 6 yoshga to'lishi bilan uni ustoz tarbiyasiga berishni tavsiya qiladi. Tarbiyachi rostgo'y, dono, odil, ozoda kiyinadigan, xushmuomala bo'lishi zarurligini uqtirib, yosh avlodni o'qitadigan hamda tarbiyalaydigan kishilar oldiga bir qancha talablar qo'ygan.

Ibn Sinoning fan va ta'lim-tarbiya, o'qituvchilar haqidagi fikrlari uning ana shu masalalar bo'yicha chuqur bilim va katta tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi. Mutafakkir o'qituvchi va tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy fazilatlari haqida to'xtalib, ular axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan, irodali, dono, g'amxo'r va iymon-e'tiqodli, sog'lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo'la oladigan inson bo'lishi zarurligini e'tirof etadi.

XII asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Burxoniddin Zarnudjiy "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma" nomli asarini yozadi. Ushbu asarda ustoz amal qilishi lozim bo'lgan qator axloqiy talablar haqida to'xtalib o'tilgan:

– o'rganish uchun fanlar orasida eng muhimlarini tanlash. Bola nimaga qiziqishi, nimani o'rganmoqchi ekanligi va kelgusi hayotda qaysisiga ehtiyoj tug'ilishini hisobga olish;

– eng avvalo, bilimli, oliyjanob muallim tanlash;

– har bir kishi muruvvatpeshalik fazilatlarini egallashga intilishi;

– o'quvchi muallimdan, o'rganayotgan fanidan, tanlagan kasbidan to'la qanoat

hosil qilishi;

– o‘quvchining sherigi sofdil, pok fe’l-atvorli bo‘lishi, yalqov, ishyoqmas, ezma bo‘lmasligi va qo‘li egrilardan uzoqroq yurish;

– o‘quvchining muallimga, ustoziga hurmati – undan oldin yurmaslik, uning o‘rniga borib o‘tirmaslik, mashg‘ulotlar paytida unga yaqinroq yurishidan bilinadi.

Alisher Navoiy yashagan paytda o‘qituvchiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va qanday qilib bo‘lsa-da, uning obro‘sini oshirish va qadr-qiymatini saqlash zarur, - deb hisoblangan. O‘qituvchining mehnatiga haq to‘lashda ham unga g‘amxo‘rlik qilingan. O‘sha davrdayoq o‘qituvchining mehnati eng murakkab va qiyin faoliyatlarning hisoblangan. Shu sababli o‘qituvchining sohaga oid tayyorgarligiga aniq talablar qo‘yilgan. Navoiyning ta’kidlashicha,‘‘Mudarris o‘ta bilimli, oqil, o‘zaro muloqot jarayonida xushmuomala, fikrlari dono va mantiqli, og‘ir, bosiq, axloqiy jihatdan hammaga namuna bo‘lishi muhimdir’’. Bu o‘sha jamiyatdagi o‘qituvchiga qo‘yilgan yuksak talabdir.

Navoiy mudarrislarning jamiyatdagi yuksak mavqeyini alohida e’tirof etadi, ulug‘laydi. O‘qituvchining aslo amalparast bo‘lmasligini, o‘zi bilmagan narsalar haqida hech qachon so‘zlamasligini, o‘z mavqeidan foydalanib maqtanmasligini, o‘z fikrini birovga tiqishtirishga urinmasligini, hurmattalab va izzattalab bo‘lmasligini, o‘ziga ortiqcha bino berishga odatlanmasligini alohida ta’kidlaydi. O‘qituvchi o‘z faoliyatida shunday illatlardan holi bo‘lmasa o‘quvchilar tarbiyasida va hatto keyinchalik butun jamiyatda odamlar bilan o‘zaro munosabatlarda kechirib bo‘lmaydigan ko‘ngilsizliklar yuz berishi mumkinligini ham e’tibordan chetda qoldirmaydi.

Navoiy o‘qituvchining bir qancha ijobiy sifatlarini – qat’iyligi, mehnatsevarligi, bilimdonligi, mehribonligi, hatto, tashqi qiyofasi, saranjom-sarishtaligi, ozodaligi, yaxshi odatlari, chiroyli qaddi-qomati va yurish-turishlari bilan hammaga namuna bo‘lishini, yoshlarga ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashishni, shuningdek, tarbiya ishi juda ham mashaqqatli va murakkab ish ekanligini alohida e’tirof etadi.

O‘zbek adabiyotining dahosi o‘z asarlari va ilmiy qarashlarida o‘qituvchilik qobiliyati va uning obro‘si, odobi yuzasidan teran mulohazalar yuritadi. Irodaviy kuch, poklik, samimiylik xislatlari asosiy o‘rinni egallaydi. Jumladan, “Mahbub-ul-qulub” asarida o‘qituvchilik me’yorlari xususida quyidagi mulohazalarini bildiradi:

– mudarris ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim;

– muallim bolalarga o‘zi biladigan narsalarini o‘rgatishi, bilmagan ilmlarini o‘rgatishga urinmasligi kerak;

– gerdayish, manmanlik, ta’magirlik, nodonlik kabi illatlar o‘qituvchi axloqiga yot sifatlardir;

– muallim yaramas ishlardan, nopoklikdan yiroq bo‘lishi kerak;

– xalq nazarida olim hisoblanadigan mudarrislar yomon ishlardan, fisq-u fasoddan o‘zlarini tiya bilishlari zarur.

Husayn Voiz Koshifiy – notiqlik, adabiyotshunoslik, fiqh, ilmi nujum, tarix, hisob ilmi, o‘ymakorlik, ganchkorlik va axloqqa doir asarlar yaratgan mutafakkirlardan biridir. Koshifiyning uqtirishicha, insonni ta’lim-tarbiya orqali qayta tarbiyalash bilan aqliy qobiliyatni o‘stirish mumkin. Buning uchun bolaga yaxshi ta’lim-tarbiya berish, unda yaxshi sifatlarini o‘stirish, uni nojo‘ya xatti-harakatlardan qaytarish lozim.

Alloma o‘qituvchilarga bolalarni tarbiyalashda quyidagi usullarni qo‘llashni tavsiya qilgan: nasihat, tanbeh berish, amru farmon, majburiyat qo‘yish. “Muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo‘lishi zarur. Murabbiy bolaga nasihat va ta’lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida bolaga pand berish

yaramaydi. Balki, xilvat joyda bolaga gapirish zarur. Agar murabbiy nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim: "Chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir", - degan xulosaga keladi. Yana u "Har kishida muloyimlik, xushmuomalalik bor bo'lsa, fayz, kamol topishdan o'zga ehtimol yo'qdir. Har kishi badfe'l bo'lsa, vayron bo'lishdan boshqa chora yo'qdir. Xushfe'llik, muloyimlik hamma ne'matlarning yaxshirog'idir", - deb ogohlantiradi.

Markaziy Osiyoda ijtimoiy-tarixiy davr madaniyati XV asrga kelib rivojlanishda yuqori darajaga yetdi. Bu davrda so'fiylik ta'riqati vakillarining qarashlari shaxsning ma'naviy yuksalishiga o'z ta'sirlarini o'tkazdilar. Shu bilan birga tasavvufning asosiy tayanchi bo'lgan so'fiylikning ta'lim-tarbiya jarayonidagi insonparvarlik an'analarini singdirganlar. Bunday an'analar o'qituvchining kasbiy va shaxsiy tayyorgarligiga xos so'fiylik ta'limotida ifodalangan majburiyatlarida yaqqol ko'rinadi. O'qituvchiga qo'yilayotgan talablarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchi bolalarni yoqtirishi va ularga o'zining farzandidek munosabatda bo'lishi kerak. Shuningdek, ularning zaif jihatlarini doimo tushunishi va ularni shu zaifligi uchun yanada ko'proq yoqtirishi lozim.

2. O'qituvchi o'zining ishi uchun haq ta'ma qilmasligi, in'om olmasligi yoki minnatdorchilik kutmasligi kerak. U o'quvchidan uning o'qishni xohlashi uchun minnatdor bo'lishi zarur.

3. O'qituvchi hech qachon o'quvchiga maslahat berishdan bosh tortmasligi kerak. Olg'a siljishni o'quvchi emas, o'qituvchi baholaydi.

4. O'qituvchi o'quvchini yomon yo'ldan qaytarish uchun unga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki nimalargadir ishora qilib gapirishi lozim.

5. Ma'lum fanni o'rgatadigan o'qituvchi o'quvchilar oldida boshqa fanlar haqida nojo'ya gap aytmasligi kerak.

6. O'qituvchi nimani o'rgatsa, o'zi ham shunga amal qilishi shart. U birinchi galda o'qishning samarasini ifodalaydigan jonli timsoldir va hokazo.

XVIII-XIX asrda davom etgan Turkistondagi jadidlar harakatining asoschilaridan biri, buyuk ma'rifatparvar o'qituvchi, mohir tadqiqotchi Abdulla Avloniy ta'lim tizimini o'qitishni takomillashtirib, o'qituvchilar malakasini oshirish, bo'lg'usi o'qituvchini tayyorlash muammolariga mutlaqo yangicha yondashgan olimdir. Uning fikricha, ''Ijodiy izlanish, o'qish va o'qitishning yangi shakli, uslub hamda vositalarini qidirish o'qituvchining eng muhim sifatlaridan biridir''.

O'rta Osiyo mutafakkirlari va o'zbek ma'rifatparvarlari o'qituvchi kuchli xotiraga, iroda va tafakkurga, aql-zakovatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, ko'zlangan maqsadni amalga oshirish yo'lida jonbozlik, qat'iyatlilik ko'rsatishi, o'quvchilarning ruhiy dunyosiga to'g'ri yo'l topa olishi, ularga ta'sir o'tkazishi, vijdonli, samimiy, odobli, nazokatli, ishchan, mas'ul shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishi zarur ekanligini o'z asarlarida ta'kidlab o'tadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. –224-b.
2. Ochilov M. Muallim – qalb me'mori. –T.: O'qituvchi. 2001. – 432-b.
3. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. –T.: O'qituvchi, 1997. – 272-b.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T., 1983. – 112-b.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: O'qituvchi, 1992. – 160-b.

Komiljon TURSUNMETOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori
Feruza SULTONOVA,
Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktoranti

ABU ALI IBN SINONING FIZIKA FANINING SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada buyuk alloma Abu Ali Ibn Sinoning ijodi tizimli tahlil asosida o‘rganilib, uning fizika fanini shakllanishidagi roli tavsiflangan.

Kalit so‘zlar. Ibn Sino, Beruniy, tibbiyot, tib qonunlari, mexanika, falsafa, she’riyat, mantiq, musiqa.

В статье на основе систематического анализа исследуется творчество великого ученого Абу Али ибн Сины и описывается его роль в становлении физики.

Ключевые слова. Ибн Сина, Беруни, медицина, законы медицины, механика, философия, поэзия, логика, музыка.

The article examines the work of the great scholar Abu Ali Ibn Sina on the basis of a systematic analysis and describes its role in the formation of physics.

Key words. Ibn Sina, Beruni, medicine, laws of medicine, mechanics, philosophy, poetry, logic, music.

Ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk shaxslarning ma’naviy dunyosi, fikriy intilishi, maqsadini to‘g‘ri ilmiy asosda talqin etish muhim rol o‘ynaydi.Chunki, ular ijodida ma’lum bir davrning yutug‘i, zamonaning katta bir guruhining o‘yi, fikri-zikri o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Abu Ali Ibn Sino ilm va ma’rifat xazinasiga ulkan hissa qo‘sha olgan shunday siymolardan biri edi. Uning asarlari orqali qo‘lga kirita olgan barcha ilmlar mundarijasi va boyligi, bu davr dunyoqarashi, ma’naviy hayotining barcha masalalari, g‘oyaviy muammolarini hal qila oladi.

Jahon fani xazinasini o‘zining klassik asarlari bilan boyitgan mashhur olim Abu Ali Ibn Sino fanning tibbiyot, falsafa, mantiq kabi sohalari bilan bir qatorda, tabiiy fanlar sohasida ham ijodiy ish olib borgan. Uning asarlarida fizika, matematika va astronomiya fanlariga ham katta o‘rin berilgan. Olim o‘zining falsafa va mantiqqa oid asarlarida ham bu fanlar haqida yozgan. Abu Ali Ibn Sino o‘z zamonasining taraqqiy etishida qoldirgan asarlarining bizgacha 250 taga yaqini yetib kelgan. Lekin Respublikamizda Moskva markaziy kutubxonasida saqlanayotgan “Me’yorul-uqul” fors tilidagi qo‘lyozmasining nusxasi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanmoqda.

Shuning uchun Ibn Sinoning ijodiy faoliyati fors va arab tilidan tojik va rus tiliga tarjima qilingan hamda qisman Respublikamiz olimlari T.Usmonov, M.Ahadova, A.Irisovlarning hamda tojik olimi A.Sh.Komilovning tahliliy tarjima qilingan adabiyotlaridan foydalandik.


O‘quvchilar mavjud chet tilidagi ma’lumotlar bilan tanishish imkoniyati kamligi hamda Ibn Sino haqidagi ma’lumotlar juda kamligini hisobga olib, biz mazkur maqolada Ibn Sinoning fizika fanini shakllanishiga qo‘shgan hissasini tahliliy va integrativ yoritishga harakat qildik.

Bulardan “Tib qonunlari” tibbiyot yo‘nalishida ming yillar o‘tishiga qaramay dasturul-

amal bo‘lib xizmat qiladi. Ibn Sinoning “Davolash kitobi” (“Книга исселения”) XII asrda Domingo Gosales va Ioani Sevilskiy tomonidan tarjima qilinganda, uning mexanika bo‘limi tushirib qoldirilgan. Jismning erkin tashlangandagi harakatini Ibn Sino tomonidan qilingan tavsiflari ommaga yetib bormagan. Uni keyinchalik Abul-Barokat Al-Bog‘dodiy rivojlantirishga harakat qilgan. Lekin uning mexanik harakati, moddalarning tuzilishi, yer harakati, yerning tuzilishi, astronomiya va matematika bo‘yicha qilgan ishlarining bir qismi uning “Donishnoma” asari bo‘yicha bizga yetib kelgan.

Jahonga tabobat ilmining sultoni bo‘lib tanilgan Ibn Sino qomusiy bilim sohibi bo‘lib, tabiiy fanlarga oid talay qimmatli asarlar yaratdi. U birinchilardan bo‘lib fizikani alohida fan sifatida shakllantirishni al-Beruniyga taklif qilgan. Uning “Fizika” va “Mexanika” deb nomlangan asarlari fizika fanining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ibn Sinoning Beruniy bilan bo‘lgan savol javoblari va “Tib qonunlari” kitoblaridagi “Ko‘z anatomiya”siga bag‘ishlangan bob, bundan tashqari, yashin, chaqmoq va momaqaldiroq kabi hodisalar haqidagi fikrlari bilan ham fizika fani rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Ibn Sinoning tibiiyot faniga bergan ta’rifi, harakat va harakat turlari, harakatning nisbiyligi, inversiya, kuch, massa va tezlanish orasidagi bog‘lanish, aylanma harakat, markazga intilma kuch, chiziqli tezlik, bo‘shliq va atmosfera bosimi, konveksiya, ob-havo (qor, yomg‘ir, do‘l), issiqlik tabiati va issiqlikning uzatilish turlari, havo zarrachalarining harakati va diffuziya jarayoni, yashin va yashinning turlari, tovush tabiati va yomg‘ir tezligi, yorug‘lik dispersiyasi, Oyning gardishlanish sababi, ko‘zning ko‘rish sabablari, linza, atom tuzilishi kabi mavzularga tegishli bo‘lgan mulohazalarning aksariyati hozir ham o‘z qiymatini yo‘qotmagani ma’lumdir. Ibn Sinoning bu ijodining tavsifini integrativ ko‘rinishda diagramma ko‘rinishida tasvirlash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Ibn Sinoning fizika sohasida olib borgan ishlari

Shu jumladan, u havo zarralarining harakati asosidagi diffuziya hodisasini asosladi hamda u asosda vabo kasalligining havo orqali yuqishini tushuntirib berdi. Vabo viruslarining havoda tarqalish jarayonini cheklash aspektlarini ko‘rsatdi.

Ibn Sinoning mexanika sohasidagi ijodi sermahsuldir. Bu “Aqllar me’yori” (Me’yorul-

uqul) asari bo‘lib, u fors-tojik tilida yozilgan. Bu asarning qo‘lyozmalari Hindistonning Lavkav shahrida va Tehronda saqlanmoqda. Shu qo‘lyozmalar asosida bu asar 1952-yilda Tehronda nashr qilingan.

Ibn Sinoning “Aqllar me’yori” asari O‘rta Osiyo olimlari tomonidan mexanika sohasida yozilgan asarlarning eng qadimiysi hisoblanadi. Shu bilan birga, bu asar amaliy jihatdan katta ahamiyatga egadir. Bu asarda oddiy mexanizmlar va ularni bir-birlariga ulash yordamida yasalgan murakkabroq mexanizmlar, asboblar yordamida, kam kuch sarf etish bilan og‘ir yuklarni ko‘tarish, qattiq jismlarni bo‘laklash qoidalari bayon etilgan.

“Aqllar me’yori” asari besh bobdan iborat bo‘lib, ular quyidagicha mazmunni ifodalaydi (birinchi bobda mexanikada ishlatiladigan oddiy asboblarning nomlari haqida yozilgan).

Oz kuch sarf etib, og‘ir yuklarni yuqoriga ko‘tarish, qattiq jismlarni bo‘laklash, jismlarni tekislash va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladigan mexanik asboblar besh xil ekanligi aytilgan. Bular o‘q, richag, blok (chig‘ir), vint va pona hisoblangan. Ikkinchi bobda mexanik asboblarning ishlatilishi haqida yozilgan. Uchinchi bobda kuch ta’siri bilan asboblarni harakatga keltirish haqida yoziladi. Ya’ni o‘qni, bloklarni va richaglarni harakatga keltirish uchun bu asboblarni qanday o‘lchovlarda yasash bayon etiladi. To‘rtinchi bobda esa, oddiy asboblarni o‘zaro biriktirish yo‘li bilan mexanizmlar yasash bayon etilgan. Masalan, o‘q va blokni o‘zaro biriktirish, nihoyat to‘rt oddiy asbobni o‘zaro biriktirish haqida yoziladi. Beshinchi bob, xotima ba’zi bir tushuntirishlarga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda yuqorida aytilgan asboblar mustahkam va qattiq bo‘lishi uchun nimalarga rioya etish haqida yozilgan.

Ar-Roziy atomning bo‘linishi haqidagi Arastu nazariyasini tasdiqlab, atomdan keyingi bo‘lakchalar orasida bo‘shliq mavjud bo‘lib, bu bo‘lakchalarning hammasi harakatda va ular orasida o‘zaro ta’sir kuchlari mavjud, deb hisoblaydi. Ar-Roziy ana shu o‘zining buyuk kashfiyoti uchun atomistik nazariyaning asoschisi va otasi degan sharafli nomga tamomila haqlidir. Ar-Roziyning bu nazariyasi Beruniy va Ibn Sino tomonidan keng o‘rganilib yanada boyitildi. Beruniy o‘zining Ibn Sinoga yo‘llagan savollaridan birida: “Ba’zi faylasuflar atom bo‘linmaydi. Undan ham kichikroq bo‘lakchalar yo‘q, deb aytadilar. Bu nodonlikdir. Ikkinchi guruh faylasuflar esa, atom bo‘linaveradi, bo‘linishiga chegara yo‘q deb qayd qiladilar. Bu esa o‘ta ketgan nodonlikdir. Chunki, atomning bo‘linishi cheksiz bo‘lsa moddiyat-materiya abadiydir. ‘‘Bu masalada sizning fikringiz qanday?”- deb so‘raydi, Ibn Sino o‘zining Beruniyga yo‘llagan javobida. Ustoz Arastu va ar-Roziyning atomning bo‘linaverishi haqidagi fikrlarni eslatib, uni cheksiz deb tushunmaslik kerakligini, aksincha atomning bo‘linishi mumkinligini va ma’lum chegara mavjudligini qayd etadi. Shuningdek, modda tuzilishi haqida, uning xossalari suv-muz-bug‘ misolida tushuntirishga harakat qilgan.

Ibn Sino o‘zining “Tabiat” (Fizika) kitobida yashinning paydo bo‘lishi va momaqaldiroq hodisasining sabablarini bayon qilar ekan, atmosferadagi bulutlarning kuchli shamol natijasida bir-biri bilan to‘qnash oqibati deb izohlaydi. Bu to‘qnashuv kuchli bo‘lganda yashinning yerga tushishi mumkinligini eslatib o‘tadi. Bundan tashqari, yashinning oldin ko‘rinib momaqaldiroqning keyin eshitilishini yorug‘lik va tovushning havodagi tarqalish tezliklarining turlicha bo‘lishi tufayli ekanini uqtirar ekan, ular tezliklarining nisbati tarqalish vaqtlariga proporsionalligini ham aytib o‘tadi.

Shu bilan birga, Ibn Sino yunon she’riyati turlari, uning shakllari to‘g‘risida bahs olib boradi. Ibn Sino she’riyatining nazariy masalalariga o‘zining boshqa asarlarida ham to‘xtalib o‘tgan. U bu masalaga “Ash-Shifo”ning “Musiqa ilmida katta to‘plam” asarida

to‘xtalib o‘tgan. Ibn Sino bu asarning beshinchi maqolasida ritm va vazn masalasiga bag‘ishlagan.

Ibn Sino astronomiya ilmining ham buyuk allomasidir. Ibn Sinoning astronomiyaga oid bo‘lgan quyidagi asarlari: “Al-Majastiy”, “Jurjon (shahri) uzunlamasini tuzatish haqida risola”, “Kuzatish asbobini yasashda boshqa usullardan afzal usul haqidagi kitob”, “Yerning olam markazi holati haqida”, “Samoviy jismlarning ko‘rinmas masofalari”, “Yoritqichlarning kunduzi emas kechasi ko‘rinishi sabablari haqida”, “Osmon sferasi va odamlarning uy joylari”, “Shamsiy va qamariy yil fosilalari hamda kecha-kunduz zamonlarning qonuniyati”, “Yulduzlar hukmining raddiyasi” kabi asarlari buyuk bobo-kalonimizning astronomiya fanining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasidan nishonadir.

Ibn Sino “Yulduzlar hukmining raddiyasi” asarida yulduzlar joylashuviga qarab “karomat qiluvchi” folbinlarni (astrologlar)ni qattiq qoralab: “Axir u yolg‘on ochiqdan ochiq uydirma-ku”, deb yozadi.

Joylarning geografik uzunlamasini aniqlash usuli ham Ibn Sino nomi bilan bog‘liq. Mashhur sharqshunos olim P.G.Bulgakov o‘z asarida “Ibn Sino bu usulning ixtirochisi deb tan olinishi kerakligi’’ni ta’kidlagan edi. Ibn Sinoning bu usuli yevropada keyinroq mashhur astronom Verner (XVI asr) tomonidan qo‘llanildi.

Ibn Sinoning ijodiy yo‘nalishlari ko‘p va u serqirra olim bo‘lganligi uchun uning ijodiy yo‘nalishlarini hamda qaysi olim tomonidan o‘rganilganligini integrativ ko‘rinishda diagramma shaklida tavsiflash mumkin.

Shunday qilib, Abu Ali Ibn Sino fizika fanini shakllanishiga katta hissa qo‘shdi va u O‘rta Osiyoda fizika fanining asoschilaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahadova M. O‘rta Osiyolik mashhur olimlar va ularning matematikaga doir ishlari. –T.,1965.

2. Ibn Sino “Me’yorul uqul”. Moskva markaziy kutubxonasi. “Зарубежный Восток”, 17-4/273. Nusxasi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanadi.

3. Usmonov T. Fizika tarixidan metodik qo‘llanma. –T., 2003.

4. Usmonov T. Fizika VI-IX sinflar uchun darslikka qo‘shimcha. –T., 2002.

5. Ahadova M. Abu Ali Ibn Sino va fizika, matematika fanlari. –T., 1965.

6. Irisov A. Abu Ali Ibn Sino hayoti va ijodiy me’rosi. –T., 1980.

Bibixol KARIMOVA,
Termiz davlat universiteti “Pedagogika va ijtimoiy ish” kafedrasi katta o‘qituvchisi

MEHRIBONLIK UYLARI BOSHLANG‘ICH SINF TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G‘URURNI HADISLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqola mehribonlik uylarining tarbiyalanuvchilarida milliy g‘ururni hadis ilmi orqali shakllantirishga qaratilgan, shuningdek, hadislardan ayrim namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. G‘urur, milliy g‘urur, ilm, xabar, himoya, yangilik, ezgu, qadriyat.

В статъе рассматривается формирование национальной гордости на основе хадисов у воспитанников детских домов. В целях достижения данной темы воспитанники анализированы по классам. А также приведены примеры воспитательных хадисов.

Ключевые слова. Гордость, национальная гордость, учение, извещение, слово, новость, доброта, ценность.

The given article deals with the formation of national pride based on hadises in pupils of orphanages. On purpose of getting this, pupils were analysed according classes. Besides this, the examples of ubringing hadises are given.

Key words. Pride, national pride, science, information, word, news, kindness, value.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikdan keyin davlatning barcha ichki va tashqi siyosati, islohotlarning birinchi bosqichida olib borgan siyosati va ikkinchi bosqichda amalga oshirayotgan tarixiy umumbashariy ishlari tufayli butun dunyoga tanildi va tan olindi. Bu o‘zbek xalqining milliy g‘ururi, ijtimoiy hayotimizni isloh qilish va yangilash boshlanib ketganligi bois, ma’naviy madaniyatning qudratli qatlamlari ochildi. Ular xalq ruhiyatini vatanparvarlik, milliy iftixor, butun dunyo uchun bag‘rikenglik tomon keskin o‘zgartirib yubordi.

Milliy g‘ururni har bir insonda shakllantirish lozim. Bundan mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari ham mustasno emas. Bizga ma’lumki, ular ijtimoiy sabablarga ko‘ra yetim sanaladi.

Yetimlik jamiyat e’tiborini qaratish shart bo‘lgan hodisa. O‘zbekona insoniylik, bolajonlik, shu xalqqa xos bo‘lgan kuyunchaklik, yetimlar manfaatini hech bo‘lmasa, jamoatchilik asosida himoya qilishga undab kelgan. Quyidagilarda ana shu ezgu ruh balqib turadi. “Yetimni yig‘latma”, “Yetimni yetim dema”, “Yetimning haqqini yema“, “Yetimning haqqi yetti daryoni qurutgan”, “Sag‘irning haqqi-tangrining o‘qi”.

Yetim ota-onasi yoki ulardan biri vafot etgan bola. Xalq orasida ota-onasi vafot qilib, yolg‘iz qolgan bola “Chin yetim”, onasi bilan qolgan bola “Gul yetim”, otasi bilan qolgan bola “Shum yetim”, ayrim hollarda otasi yoki onasi tomonidan tashlab ketilgan bolalarni “Tirik yetim” deb atashgan.

Ana shunday ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan tarbiyalanuvchilarda milliy g‘ururni shakllantirish muhim ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

Masalaning asosiy mohiyatini ya’ni yechimini topish uchun tarbiyalanuvchilarda odob qoidasini egallashga amaliy yordam ko‘rsatish lozim.

Odob qoidasini egallash asosida tarbiyalanuvchida milliy g‘ururni shakllantirish o‘z ahamiyatiga ega. Chunki odobli bola hech qachon yomonlik qilmaydi. Unda faxrlanish, insonparvarlik g‘oyalari ustun bo‘ladi. Shunday ekan, tarbiyalanuvchilarga odob haqida bilimlar berilishi lozim.

Odob-odamning jamoat, el-yurt orasida o‘zini tutish, boshqalar bilan muomala qilish, o‘z turmushi, bo‘sh vaqtini qanday tashkil etishi, shaxsning kundalik xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-harakatlari qanday bo‘lishi lozim va ma’qul ekanligi xususida bahs ketadi. Aniqrog‘i, axloq kishining ichki olami, e’tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo‘lsa, odob shaxsning ko‘zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori tarzida namoyon bo‘ladi.

Odobli, bilimdon, mehnatsevar, imon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligi. Darhaqiqat, har bir farzand shaxsi oilada shakllanadi. Demak, oila barkamol avlod poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni axloqiy-huquqiy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, adolat, burch, vatanparvarlikni shakllantirish, ona-Vatanni sevish hissini uyg‘otish o‘ta muhim hisoblanadi.

Oilada farzandlarni o‘z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas’uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog‘liq. Bunda ota-onaning o‘zaro samimiy munosabati, ularning farzandlari bilan yaqin, do‘stona munosabatda bo‘lishi, ularning kelajakdagi orzu-maqsadlarini tushunib olishlari, farzandlarning sog‘-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo‘ladi.

Odobli kishi milliy g‘ururli bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchida odob-axloq qoidalarini rivojlantirish lozim. Buning uchun esa odob haqidagi hadislardan namunalar keltirib, mazmunini tushuntirish lozim.

– otliq piyodaga, piyoda o‘tirganga va ozchillik ko‘pchilikka salom bergay.

– yaxshilikka ko‘mak bergan kishi, yaxshi nasiba olg‘usidir. Yomonlikka ko‘mak bergan kishi yomon nasiba olg‘usidir.

Hadis mazmunini boshlang‘ich sinf tarbiyalanuvchilari tushunishlari murakkab bo‘lgani uchun bolaning yosh xususiyatiga qarab ba’zi omillardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, ertak, masal, rivoyat, krossvord va quyosh jadvalidan foydalanish muhim sanaladi. Shu o‘rinda quyidagi rivoyat keltirildi.

Odob-axloq haqida rivoyat.

Donishmanddan so‘rashibdi:

– Qaysi xislat odamni past martabadan a’lo darajaga ko‘taradi?

– Aql va tamiz.

– Odam nimasi bilan odam bo‘la oladi?

– Odamgarchiligi bilan. Agar odamda bu xislat bo‘lmasa, uning hayvondan farqi yo‘q.

– Adab, tarbiya odamga qanday foydalar yetkazadi?

– Adabli, tarbiyali odam boshqalarga muhtoj bo‘lmaydi. Balki, ular bunga muhtoj bo‘ladilar. Hamma adabli, tarbiyali odamni do‘st tutadi.

– Hammadan ham achchiq narsa nima?

– Pastkash, noahl odamlarga muhtojlik.

– Qaysi narsalar odamlarga alam va pushaymonlik keltiradi?

– G‘azab, takabburlik va nojo‘ya harakat.

– Qanday odamlarni aqlli va qanday odamlarni ziyrak deb aytamiz?

– Bir ishga kirishmasdan avval uning oqibatini yaxshilab o‘ylab, so‘ng u ishga kirishgan va odamlarni aqlli, keyin keladigan voqeani ilgariroq sezib, uning chora tadbirlariga kirishgan odamlarni ziyrak, deb ataymiz.

– Qaysi narsalar inson uchun ayb sanaladi?

Baxillik, yolg‘onchilik, chaqimchilik, do‘stlarining ozgina kamchiliklarini ko‘rish bilan birga ulardan yuz o‘girish, o‘z aybini ko‘rmay, boshqalarning ayblarini oshkor qilish.

Hadis mazmunini izohlovchi krossvordlardan foydalanish mumkin.

Odob-axloq haqidagi hadislarni quyosh jadvali misolida keltiramiz. Bajarilish tartibi asosida amalga oshirish mumkin.


Berilgan topshiriq bajarilgach, samaradorlik darajasi aniqlanadi. Bolada odob-axloq qoidalarini shakllantirish orqali milliy g‘urur paydo bo‘la boshlaydi.

Ota-ona bag‘rida bola yuragida armonsiz, hayotidan mamnun va o‘zlarini baxtiyor his etib voyaga yetadi. Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilar uchun barcha sharoitlar va imkoniyatlar mavjud ammo ota-onasi, oilasi bag‘rida emaslar. Shu bois, ota-ona mehrini tarbiyachi-pedagoglar bera olishlari, bolaga yaqin bo‘lishlari zarur. Ushbu mas’uliyatli vazifani bajarish uchun tarbiyachi-pedagog, psixologik va pedagogik bilimga ega bo‘lishi, ularni amalda qo‘llay bilishi lozim. Chunki mehribonlik uylari tarbiyalanuvchisining psixologik dunyoqarashi, voyaga yetishidagi o‘zgarishlardan tarbiyachi-pedagoglar muammoli vaziyatlarga uchraydi. Bu vaziyatlarda to‘g‘ri yechim topish, tarbiyalanuvchilarga yaqindan yordam berish, ularni komil inson sifatida milliy g‘ururli qilib tarbiyalash muhim. Bu kabi murakkab vazifani amalga oshirishda tarbiyalanuvchilarning har bir yosh davrida e’tibor qaratadigan muhim xususiyatlar mavjud. Shu bois, bola tarbiyasidagi uzluksiz ta’lim tizimida tarbiyachining psixologik-pedagogik yondashuvi muhim sanaladi.

Hadis mazmunini to‘g‘ri tushungan bola yomonlikka yo‘l qo‘ymaydi, aksincha yaxshilik va ezgulik sari qadam tashlaydi.

Hadislar Sharq mamlakatlarida inson va jamiyat “Ma’naviyatini mustahkamlashda, yoshlarni axloqli, odobli qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutib kelmoqda. Chunki hadislarda jamiyatni boshqarish, mamlakatda odil jamiyat va komil shaxsni shakllantirish, hayotiy tajribalar, ta’lim-tarbiya haqida mulohazalar mavjud. Shu bois hadislar asrlar davomida inson tabiatida chuqur ildiz otib, diniy ta’limotda o‘ziga xos bo‘lgan fazilatlarni bajarib kelmoqda.

Hadislarda insoniy xislatlardan ezgulik, iffat, sabr-qanoat va shukronalik kabi axloqiy sifatlar ulug‘lansa, isrofgarchilik, ta’magirlik, ochko‘zlik, nafs, baxillik, johillik kabi illatlar qoralanadi. Hadis ilmi har bir insonning ma’naviy dunyosini poklaydi. Yaxshilik sari yetaklaydi. Insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Iymon-e’tiqodli qiladi, hayotdan faxrlanib, iftixor ila yashashga undaydi. Ana shu faxr-iftixor insonda milliy g‘ururni shakllantiradi.



Demak, hadis milliy g‘ururni shakllantiruvchi kuch sanaladi.

Odob-axloqi yaxshi bo‘lgan, ma’naviy yetuk, har tomonlama barkamol shaxsdagina milliy g‘urur shakllana boradi. Tarbiyalanuvchilarda milliy g‘ururni shakllantirish uchun, eng avvalo, ularda odob-axloq qoidalarini shakllantirib, ma’naviy yetuk qilib tarbiyalamoq zarur. Buning uchun hadis ilmidan foydalanish samarali. Hadis ilmi asosida tarbiyalanuvchida ma’naviy yetuklik shakllanib, natijada, milliy g‘urur paydo bo‘la boshlaydi. Shu sababdan mehribonlik uylarining tarbiyalanuvchilarida milliy g‘ururni hadis ilmi asosida shakllantirishga e’tibor qaratildi.

Hadis ilmining asosiy maqsadi-kishilarni vatanparvar, axloq-odobli, ilm va ma’rifatparvar, pirovardda, komil inson qilib tarbiyalash ishiga hissa qo‘shishdan iborat. Hadis ilmidan haqqoniy bilim berish, olingan bilimlarni esa turmushda qo‘llashga o‘rgatish bosh vazifa.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g‘ururni hadis ilmi asosida tarbiyalashdek, muhim masalani uzluksizlikda qo‘llash zarur.

Keltirilgan fikrlarni xulosa qilgan holda quyidagi tavsiyalarni keltirishimiz mumkin.

– Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g‘ururni hadislar asosida shakllantirishni o‘quv dasturi va rejasi, DTS, MT mazmuniga singdirish va 1-4 sinf “Tarbiya” darsligi mazmuni bilan bog‘liqlikda mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishda foydalanish.

– Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g‘ururni hadislar asosida shakllantirishda tarbiyachi-pedagoglarga didaktik vosita sifatida o‘quv-metodik qo‘llanmalar majmuasini yaratishda foydalanish.

– Mehribonlik uylari boshlang‘ich sinf tarbiyalanuvchilari uchun elektron qo‘llanma va darslik yaratishda foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018-y., 07/18/3907/1706-son.
2. Asqarova O‘. Mehribonlik uylari o‘smirlarida milliy g‘ururni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Avtoreferat. – T., 2001. – 22-b.
3. Aliybek Rustamiy. Adiblar odobidan adablar. – T.: Ma’naviyat, 2003. – 112-b.
4. Aminov B., Rasulov T. Vatan – yurakdagi javohir. –T.: O‘qituvchi, 2001. – 231-b.
5. Ziyomuhammedov B. Komillikka eltuvchi kitob. –T.: Turon – Iqbol, 2006. – 350-b.
6. Mansurov A. va boshq. Hadis ilmi saboqlari. – T.: Adabiyot va san’at, 1999, 63-b.
7. Mansurov A. 1001 HADIS. –T.: Hilol, 2019. – 400-b.
8. Xoliqova M. va boshq. “Odobnoma”. 4-sinf uchun darslik. –T.: Yangi yo‘l poligraf servis, 2017. –94-b.

Shokirjon DONIYOROV,
Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

JAMOAVIY FAOLIYAT ASOSIDA O‘QUVCHILARNI IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamoaviy faoliyat davomida shaxslararo munosabatlarning rivojlanishi, o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ijodkor, konstruktiv fikrlovchi, hayotiy vaziyatlarni qat’iy yondashuv asosida hal qila oladigan shaxsni shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Gender munosabatlar, integratsiya tamoyillari, me’yorlanganlik, kommunikativ kompetensiya, tadqiqot, dialog, illyustrativ-tushuntirish, reproduktiv metod, ijtimoiy me’yor.

Данная статья посвящена развитию межличностных отношений при совместной работе, подготовке учащихся к общественной жизни, формированию творческого, конструктивного мыслителя, человека, способного решать жизненные ситуации на основе строгого подхода.

Ключевые слова. Гендерные отношения, принципы интеграции, нормативность, коммуникативная компетентность, диалог, иллюстративно-объяснительный, репродуктивный метод, социальная норма.

This article is devoted to the development of interpersonal relations during joint work, preparing students for social life, the formation of a creative, constructive thinker, a person capable of solving life situations on the basis of a rigorous approach.

Key words. Gender relations, principles of integration, normativity, communicative competence, dialogue, illustrative and explanatory, reproductive method, social norm.son capable of solving life situations on the basis of a rigorous approach.

Globallashuv davrida o‘sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash zamonaviy ta’lim-tarbiyaning eng dolzarb muammolaridan biridir. Bu borada jamoaviy faoliyat jarayoni o‘quvchilarga samarali ta’sir ko‘rsatib, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash maqsadida pedagoglar tomonidan qo‘llanilgan texnologiyalar kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Bunda pedagog o‘quvchilar jamoasining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olish lozim. Jamoaviy faoliyat asosida o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni, muayyan maqsadga yo‘naltirilganlik, me’yorlanganlik, ijtimoiy madaniylashganlik, integratsiya tamoyillariga asoslangan holda tanlanadi.

Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida “...ta’lim berishning zamonaviy nazariyalarini o‘zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta’lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko‘zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash...”[1] kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan. Pedagoglar o‘zining ijodkorlik qobiliyati hamda imkoniyatidan kelib chiqib jamoaviy faoliyat jarayonida o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash orqaligina ko‘zlangan maqsadga erishadilar. Bunda pedagoglar quyidagi tamoyillarga amal qilishlari kerak:

1. Pedagoglar o‘quvchilar jamoasi orasidagi o‘zaro munosabatlarni gender farqlar va xususiyatlarni hisobga olgan holda muntazam rivojlantirib borishlari zarur. Chunki jamoaviy

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni. https:\\LEX. Uz.

munosabatlar, vujudga keladigan turli to‘siqlarni bartaraf etish natijasidagina rivojlantiriladi. Bunda qiz va o‘g‘il bolalar orasidagi ziddiyatlar, o‘ziga xos xususiyatlarga pedagog alohida e’tibor qaratishi, yoshlar o‘rtasidagi munosabatlarga befarq bo‘lmasligi lozim. Aks holda gender munosabatlar doirasida vujudga kelgan ziddiyatlar salbiy oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin.

2. Jamoaviy faoliyat jarayonida shaxslararo munosabatlar rivojlanadi, kommunikativ kompetensiya shakllanadi. Bu jarayonda pedagoglarning asosiy vazifasi o‘quvchilar jamoasi a’zolari orasidagi shaxslararo munosabat, o‘zaro hamkorlik va muloqotning rivojlanish dinamikasini kuzatish, bu yo‘nalishda vujudga kelgan bo‘shliqlarni aniqlash va bartaraf etishdan iborat. Buning uchun pedagoglar o‘quvchilar jamoasining har bir a’zosiga xos bo‘lgan individual xususiyatlarni yaxshi bilishlari kerak[2].

3. O‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, muayyan jamiyatda samarali faoliyat ko‘rsatish, muloqotga kirishish va fuqarolik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun pedagoglar ularga zarur bo‘lgan bilimlarni taqdim etish kompetensiyasiga ega bo‘lishlari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida ularni ijtimoiylashtirish vositalari va metodlarini bilish natijasida pedagoglar tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, aksariyat pedagoglar o‘quvchilar jamoasining umumiy tavsifini yetarlicha bilmaydilar. Ularda jamoaning har bir a’zosi haqida aniq ma’lumotlar mavjud emas. Pedagoglar o‘quvchilar jamoasining har bir a’zosi haqidagi ma’lumotlarni sinfma-sinf yangilab, to‘ldirib borishlari, ularning yosh xususiyati va rivojlanish dinamikasidan kelib chiqqan holda mavjud ma’lumotlarni tahlil qilib, unga tanqidiy yondashishlari lozim.

O‘quvchilar jamoasini pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

1. Pedagogik qo‘llab-quvvatlash jarayonida o‘quvchilar jamoasining barcha a’zolariga pedagog tomonidan bir xilda yordam ko‘rsatiladi. Pedagogik qo‘llab-quvvatlash davomida o‘qituvchi jamoa a’zolarining gender xususiyatlarini alohida hisobga olgan holda o‘g‘il va qiz bolalarga o‘ziga xos tarzda yordam ko‘rsatishi, har birining xususiyatini hisobga olgan holda qo‘llab-quvvatlashning xarakterini belgilashi lozim. Bu jarayonda pedagoglar o‘quvchilar jamoasi bilan birgalikda muayyan masalaga oid qarorlarni qabul qilishi, muammolarga yechim topishi, vujudga kelgan vaziyatlarni obyektiv baholay olishlari yaxshi samara beradi.

2. O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida o‘qituvchi tayyor modellar asosida o‘quvchilarning faoliyatini tashkil etishga emas, balki jamoaning umumiy tavsifidan kelib chiqqan holda pedagogik amaliyotni amalga oshirishi kerak. Bunda pedagoglar o‘quvchilar jamoasini pedagogik jihatdan samarali qo‘llab-quvvatlash uchun ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tashxislash metodikalaridan foydalangan holda aniqlab olishlari muhim.

3. O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida pedagoglar ularni mustaqil bilim olish, loyihalar ustida ishlash, birgalikda kichik tadqiqotlar o‘tkazishga unday olishlari zarur. Chunki pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosiy vazifasi o‘quvchilar jamoasini mustaqil bilim olish, bahs-munozaraga kirishish, muhim qarorlar qabul qilishga yo‘naltirishdan iborat.

Shaxsni tarbiyalash va o‘qitish pedagogikada asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatda barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma’naviy jihatlarini qaror toptirish ko‘zda tutiladi. Tarbiyalash va o‘qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi[3]...

Rivojlangan davlatlarning tajribalari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilarning jamoa

[2] Каменская Н.Е. Ученическое самоуправление в общеобразовательном учреждении. – М., 2008 год.
[3] “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. –T., 2014-yil. 29-b.

bo‘lib, mustaqil bilim olishlari, aniq g‘oyalarni ilgari surishlari ta’lim samaradorligini ta’minlash imkonini beradi. Bunday yondashuv ta’lim oluvchilarning istiqbolda samarali ijtimoiy faoliyat ko‘rsatishlari uchun asos yaratadi. O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida ularni qo‘llab-quvvatlashning muhim vazifalaridan biri bahs-munozaraga yo‘llash, muhim hayotiy qarorlar qabul qilishlariga yordamlashish, bunday vaziyatlarda barcha o‘quvchilarning birday faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlashdan iborat. O‘quvchilar jamoasida shakllantirilgan faollik kelajakda shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga asos bo‘ladi.

O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida ularda ijobiy xulq-atvor madaniyatini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Shu asosda jamoa a’zolarida tartib-qoidalar va huquqiy me’yorlarga amal qilish, axloq-odob ko‘rinishlarini egallash ko‘nikmasi shakllantiriladi. Bu jarayonda jamoaning har bir a’zosi o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Pedagogning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini rivojlantirishda bir qator omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

– pedagoglarni o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini rivojlantirishga xizmat qiladigan texnologiyalar bilan qurollantirish[4];

– o‘quvchilar jamoasi bilan samarali muloqot o‘rnatish vaziyatlarini tashkil etishga o‘rgatish;

– o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda faoliyatli yondashuv konsepsiyasiga tayanish imkoniyatlarini kengaytirish;

Ijodkor, konstruktiv fikrlovchi, hayotiy vaziyatlarni qat’iy yondashuv asosida hal qila oladigan shaxsni shakllantirish va ijtimoiy hayotga tayyorlash jamoaviy faoliyat mahsuli hisoblanadi.

Pedagogning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga qaratilgan mualliflik dasturida uning shaxsiy tajribasi, yashash hududi bilan bog‘liq xususiyatlar ham o‘z aksini topishi lozim.

Jamoaviy faoliyat jarayonida pedagog o‘quvchilarning birgalikda bajaradigan vazifalarini muvofiqlashtirish uchun ularga tanish bo‘lgan hayotiy vaziyatlardan foydalanishi lozim. Jumladan, agar o‘quvchilarga yashayotgan hududlari, ota-onalarining mehnat faoliyati, mashg‘ulotlari, bu mashg‘ulotlarning samaradorlik darajasi, undan keladigan foyda kabi ijtimoiy-iqtisodiy tushunchalar tanish bo‘lsa, ular mazkur tushunchalar bilan bog‘liq hodisalarni tushunish va sharhlashga qiynalmaydilar. Chunki o‘quvchilar tanish vaziyatlar yordamida hayotiy bilimlar, ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini osongina o‘zlashtiradilar. Birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishlari yengil kechadi.

Jamoaviy faoliyat jarayonida pedagoglar muammoli-izlanish, tadqiqot, dialog, illyustrativ-tushuntirish, reproduktiv metodlardan foydalanishlari maqsadga muvofiq. Shunga ko‘ra, o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga qaratilgan mashg‘ulotlar turli-tuman mavzularda tashkil etilishi mumkin. Jumladan, o‘yin mashg‘ulotlari, teatrlashtirilgan mashg‘ulotlar, seminarlar, kitobxonlik kechalari, turli taqdimotlar va bayram tadbirlari o‘tkaziladi.

Birgalikda izlanish xarakteridagi mashg‘ulotlarda o‘quvchilar guruhli faoliyatga jalb etiladilar. Bunday mashg‘ulotlarda o‘qituvchi topshiriqlarni o‘quvchilar jamoasining barcha a’zolari bilan birgalikda bajaradi, ayrim savollarni ularning mustaqil tarzdagi muhokamasiga havola qiladi.

Jamoaviy faoliyatni amalga oshirishga yo‘naltirilgan vaziyatlarda muayyan vazifalarga yechim topiladi. Pedagog bunday vaziyatlarni o‘zining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash tajribasi, bilim darajasi va mashg‘ulot mazmuni bilan bog‘liq holda vujudga keltiradi. O‘zaro muloqot vaziyatlari, tadqiqotchilikka o‘rgatish, dialogga asoslangan muammoli-izlanuvchan

[4] Tojiboyeva X.M. O‘quvchi-yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi. Ped.f.b.f.d(PhD)...dis. –T., 2018-y.131-b.

vaziyatlar shular jumlasidandir. Bunday vaziyatlarda o‘quvchilar jamoasi o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yadi va ushbu maqsadga erishish yo‘lida birgalikda izlanadi. Shuningdek, o‘qituvchi tomonidan jamoa a’zolari oldiga qo‘yilgan vazifalarni yechish yo‘lida hamkorlikka kirishadilar, uni yechish yo‘llarini birgalikda izlaydilar, o‘z faoliyatlari natijalarini mustaqil tashxislaydilar va baholaydilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagoglar jamoaviy faoliyat jarayonini tashkil etish va boshqarishda o‘quvchilarni tadqiqotchilik va mustaqil izlanishga o‘rgatish usullaridan keng foydalanishlari talab qilinadi. Shu asosida o‘quvchilarning bilish faoliyati, tafakkuri, dunyoqarashi, ijtimoiy me’yorlarni egallash ko‘nikmalari kengayadi. Izlanuvchan mashg‘ulotlar texnologiyasida asosiy o‘ringa qo‘yilgan muammoni yechishga qaratilgan vaziyatlar va mazkur muammoni optimal yechish yo‘llari egallaydi.

Bunday mashg‘ulotlarni tashkil etishdan ko‘zda tutiladigan asosiy maqsad o‘quvchilar jamoasi a’zolarining barcha savollarga javob izlashlari uchun qulay pedagogik muhit yaratishdan iborat. Mazkur munosabatlar natijasida o‘quvchilar mustaqil ravishda bilim olishga, qarorlar qabul qilish va o‘zgalar fikriga hurmat bilan qarashga o‘rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni. https:\\LEX. Uz.

2. Каменская Е.Н. Ученическое самоуправление в общеобразовательном учреждении. –М., 2008 г.

3. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. –T., 2014-yil. 29-b.

4. Tojiboyeva X.M. O‘quvchi-yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi. Ped.f.b.f.d (PhD)...dis. –T., 2018-y. 131-b.

Muxammadamin ABDULLAYEV,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

MILLIY G‘URUR TARBIYASI – ETNOPEDAGOGIK QADRIYATLARNING ASOSI

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy g‘urur tarbiyasi etnopedagogik qadriyatlarning asosi ekanligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalari, urf-odatlar, an’analar orqali ajdodlarimiz millatlararo, dinlararo, bag‘rikenglikning yuksak namunasini ko‘rsatish kabi fazilatlarni yosh avlod ongiga singdirishga harakat qilganliklari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Milliy g‘urur, milliy tarbiya, etnopedagogika, xalq og‘zaki ijodi, an’analar, shaxsiy sifatlar, doston, xalq qo‘shiqlari, urf-odatlar, marosimlar, mental dunyoqarash, qadriyatlar.

В данной статье высказывается мысль о том, что воспитание национальной гордости является основой этнопедагогических ценностей. В статье также говорится о том, что посредством образцов устного народного творчества, традиций и обычаев наши предки пытались привить молодому поколению такие качества, как межнациональная, межрелигиозная толерантность.

Ключевые слова. Национальная гордость, народное воспитание, этнопедагогика, народное устное творчество, традиции, личностные качества, эпос, народные песни, обычаи, обряды, ментальное мировоззрение, ценности.

This article gives an idea of the fact that the education of national pride is the basis of ethnopedagogic values. In addition, the article states that our ancestors tried to integrate into the minds of the younger generation such qualities as showing a high example of nationality, religion, tolerance through samples of oral creativity, traditions, traditions.

Key words. National pride, national education, etnopedagogics, folk oral creativity, traditions, personal qualities, epic, folk songs, customs, rituals, mental worldview, values.

Milliy g‘urur xalq ruhiyatining yuksak ifodasi. O‘zligini anglagan har bir shaxs milliy g‘urur tuyg‘usiga ega bo‘lib, uni oliy qadriyat sifatida e’tirof etadi. Ajdodlarimiz asrlar davomida barpo etgan etnopedagogik qadriyatlarning asosi va mazmun mohiyatini yosh avlodda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishni tashkil etadi. Yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish har doim vatanparvarlik, xalqparvarlik, fuqarolik, tolerantlik bilan uyg‘un tarzda amalga oshirilgan. Bu ayniqsa, xalq dostonlari qahramonlarining obrazlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bizning ota-bobolarimiz o‘z xalqining urf-odatlarini o‘zlashtirish barobarida o‘zi bilan yonma-yon yashayotgan boshqa millat vakillarining ham o‘zligi, urf-odatlarini hurmat qilgan. Biroq milliy qadriyatlarimiz, turmush tarzimiz, o‘zligimiz, ma’naviyatimiz va madaniyatimizga xos bo‘lmagan xatti-harakatlar, urf-odatlarni ko‘r-ko‘rona o‘zlashtirib, qabul qilmagan. Ommaviy madaniyat xurujlari tobora keng ko‘lam kasb etayotgan bugungi kunda ajdodlarimizning ushbu tajribasi muhim ahamiyatga ega. Ota-bobolarimiz millatlararo, dinlararo, bag‘rikenglikning yuksak namunasini ko‘rsatish bilan bir qatorda o‘zlarining mazkur sifatlarini milliy g‘urur tuyg‘usi bilan uyg‘unlashtirganlar. Shu maqsadda xalq og‘zaki ijodi namunalari, urf-odatlar, an’analar orqali mazkur sifatlarni yosh avlod ongiga singdirishga harakat qilganlar. Etnopedagogik qadriyatlar yordamida

yoshlarni ezgu amallarni bajarishga da’vat qilganlar. Buni Avestodagi “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” shiori, xalq qo‘shiqlari, afsonalar, ertak va dostonlar mazmunida yaqqol ko‘rish mumkin.

Xalqaro munosabatlar ko‘lami kengaygan sari yosh avlod ongida milliy g‘urur bilan bir qatorda tolerantlikni singdirish ehtiyoji ham barcha davrlarda kuchayib borgan. Shuning uchun ham mazkur tuyg‘uni shakllantirishning eng qulay vositalarini yaratishga harakat qilingan. Ushbu maqsadda pedagogik g‘oyalar xalq og‘zaki ijodi namunalari, o‘zbek xalqining urf-odat va marosimlari, toshbitiklar, tasviriy vositalar, hunarmandchilik mahsulotlari mazmuniga singdirilgan. Bolalar va o‘smir yoshdagi ta’lim oluvchilar ham karvonsaroylarda davomli tarzda qissaxonliklar, dostonxonliklarda ishtirok etganlar.

Bu o‘rinda baxshilar, qissaxonlar ustoz vazifasini o‘tab yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishga muhim hissa qo‘shganlar. Bu tajriba uzoq asrlar mobaynida avloddan-avlodga o‘tib ma’naviy-madaniy xarakterdagi etnopedagogik meros vujudga kelgan. Mazmunan tarbiyaviy imkoniyatlarga boy bo‘lgan mazkur etnopedagogik qadriyatlarda milliy g‘urur tarbiyasi ustuvor o‘rin egallagan.

Insonlar turli millat va elat vakillari orasidagi do‘stlik, hamjihatlik, milliy g‘urur orqali namoyon bo‘lishini chuqur anglab yetganlar. Bu ayniqsa, doston va ertaklarning qaharamonlari timsolida namoyon bo‘lgan. Ertaklar, dostonlar va afsonalarda turli millat vakillari orasidagi o‘zaro hurmat, muhabbat, milliy g‘ururning yuksalishiga xizmat qilgan. Chunki doston va ertaklarning qahramonlari har bir millat yoki hududga xos bo‘lgan qadriyatlar sifatida namoyon bo‘lgan tarbiyaviy vositalarning ko‘payishiga hissa qo‘shganlar. Chunki mazkur qahramonlar birinchi navbatda, o‘zligi, o‘z qadr-qimmatini anglab yetgan. Ularning g‘ururi dostonlarda tasvirlanganidek, tog‘dan baland bo‘lgan. Harakatlari esa ezgu amallarni bajarishga qaratilgan. Bu doston va ertak qahramonlarining tog‘dan baland g‘ururi, o‘zligini anglaganligi, vatanparvarligi, xalqparvarligidan dalolat bergan. Doston qahramonlariga xos bo‘lgan milliy g‘urur, ularning muhabbati, atrofdagilarga munosabati, sadoqati, o‘z do‘stlari, ota-onasini qadrlashlari orqali namoyon bo‘lgan.

O‘quvchi-yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishda muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalar, xalq bayramlari ham muhim ahamiyatga ega. Amaliy san’at va xalq hunarmandchiligi namunalarida millatimiz vakillarining orzu-umidlari bilan bir qatorda faxr-u g‘ururiga sabab bo‘ladigan jihatlar ham o‘z ifodasini topgan. Etnopedagogik qadriyatlarning asosiy namunasi bo‘lgan ushbu didaktik vositalar o‘quvchilarni o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati, turmush tarzi, mashg‘ulotlari, urf-odatlari, ajdodlari, o‘zligi haqida xabardor qiladi.

Milliy g‘urur tuyg‘usi yosh yigit-qizlarni qahramonlik ko‘rsatishga undab, vatanparvarlik, xalqparvarlik, tolerantlik, bardoshlilik, jo‘mardlik bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lgan. Milliy g‘urur ajdodlarimizni qahramonlik ko‘rsatishga safarbar qilib, milliy osoyishtalikni ta’minlashga xizmat qilgan. Bu xalq qo‘shiqlari, ertak, doston va afsonalarda o‘z ifodasini topgan.

O‘ta kitobxon va ilmga tashna bo‘lgan ajdodlarimizning badiiy yuksak qo‘shiqlarni yaratganligi folklor namunalarida o‘z aksini topgan. Shuningdek, ularning qoyatoshlarga bitgan sur’atlari ham bugungi kunda milliy g‘urur tarbiyasining muhim vositasi bo‘la oladi. Pedagogik qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan didaktik vositalarda ko‘ptillilik madaniyatiga ega bo‘lish targ‘ib qilingan. Biroq bu o‘rinda ko‘ptillilik ona tili bilan g‘ururlanishga va uni o‘rganishga hamda yoshlarga targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan. San’atga oid bilimlar vositasida o‘quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish tizimi

xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lgan ertaklar, “Alpomish”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon” turkumidagi dostonlar va ular tarkibidagi xalq qo‘shiqlari milliy g‘urur tarbiyasini amalga oshirishda keng imkoniyatlarga ega.

Turli o‘quv predmetlarini o‘qitish jarayonida etnopedagogik qadriyatlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq. O‘qituvchilar o‘quv dasturidagi mavzular bilan bog‘liq holda o‘quvchilarda etnopedagogik qadriyatlar darajasidagi asarlardan foydalanishlari lozim. Mazkur jarayonda o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishda o‘qituvchilar innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishlari kerak.

O‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish jarayoni birinchi navbatda ularning o‘zliklarini anglashlarini ta’minlash tamoyili asosiga qurilishi maqsadga muvofiq. Mazkur jarayonda pedagoglar shaxsga yo‘naltirilgan hamda rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan unumli foydalangan holda etnopedagogik qadriyatlarni qo‘llab, o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish jarayonlarini loyihalashtirishlari talab qilinadi. Etnopedagogik qadriyatlar yordamida o‘quvchilar birinchi navbatda o‘zbek xalqining ko‘p asrlik ijtimoiy tajribasini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilar. Bu jarayonda pedagoglar ko‘proq refleksiya metodidan foydalanishlari lozim. Natijada, ular aksiologik yo‘nalishdagi pedagogik vazifalarni bajarishga alohida e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiq.

Etnopedagogik vositalarni taqdim etish orqali o‘quvchilarni ruhiy sog‘lomlashtirish ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlashga ham alohida e’tibor qaratiladi. Xalq maqollarining o‘quvchilarni ijtimoiy-intellektual jihatdan rivojlantirish imkoniyatlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi.

Ma’lumki, etnopedagogik qadriyatlarda o‘zbek xalqining turmush tarziga xos bo‘lgan hayotiy mexanizmlar o‘z ifodasini topgan. Bu o‘quvchilarning ruhiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan bir qatorda xalqning milliy mentaliteti xususiyatlarini o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadi. Natijada, o‘quvchilarda sog‘lom mental dunyoqarash tarkib topadi. Shu bilan bir qatorda etnopedagogik qadriyatlardan foydalanish jarayonida o‘quvchilarda milliy g‘ururni shakllantirishning ijtimoiy hayot bilan bog‘liq jihatlariga ham alohida e’tibor qaratish talab qilinadi.

Ulkan pedagogik qadriyatlar majmuini o‘zida mujassamlashtirgan Hadisi shariflarda ilgari surilgan qadriyatlar, ezgu qarashlar, afsonalardagi xalq orzu-umidlari bayoni asrlar davomida to‘planib, qat’iylashgan sog‘lom turmush tarzi va halollikni targ‘ib qiluvchi me’yorlar, urf-odatlar, an’analar, xalq qo‘shiqlari, tarixiy obidalar, sharq me’morchiligining yuksak namunalari, muqaddas qadamjolar tarixi va tavsifi, o‘zlikni anglash, yosh avlodda milliy g‘ururni shakllantirish tamoyili asosida tarkib toptirilgan bo‘lib, o‘quvchilarda milliy g‘urur va madaniy dunyoqarashni vujudga keltirishga xizmat qiladi. Pedagogik qadriyatlar yordamida o‘quvchi-yoshlar millatimiz, e’tiqodimizga xos bo‘lgan shariat va tariqat talablari bilan tanishib, milliy g‘urur hissini tuyadilar. Ularda bebaho merosimiz, xalqning beqiyos dahosidan g‘ururlanish tuyg‘usi paydo bo‘lib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilar.

Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarida milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, zarur huquqiy-me’yoriy poydevor vujudga keltirildi. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”, “Milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4320-son Qarori qabul qilindi. Xalq baxshilarining ijodi, ular kuylagan doston va termalar o‘quvchi hamda talaba-yoshlarda milliy g‘urur, mardlik, vatanparvarlik, jasorat tuyg‘usini shakllantirishda muhim

vosita sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik qadriyatlarni tanlash, tizimlashtirish bilan bir qatorda pedagoglarni bu sohadagi huquqiy-me’yoriy asoslar bilan ham yaqindan tanishtirgan holda, ularning pedagogik bilimlarini boyitishga ko‘maklashish lozim. Shundagina o‘quvchi hamda talaba-yoshlar aqidaparastlarning g‘oyaviy hujumlari, ommaviy madaniyat targ‘ibotchilarining kurashlariga qarshi tura oladi. O‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishda dars bilan bir qatorda darsdan tashqari pedagogik jarayonlar ham muhim o‘rin egallaydi.

Sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari, ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari ham bu imkoniyatdan unumli foydalanishlari maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1059-son qarori. https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarori. https://lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4320-son Qarori. https://lex.uz

Matluba USMONOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internatining tarix fani o‘qituvchisi

XX ASRNING 20-30-YILLARIDA AN’ANAVIY TA’LIM TARIXI

Annotatsiya

Hozirgi ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar zaminida jahon standartiga mos ta’lim tizimini yaratish jarayonida milliy tariximizning o‘rni beqiyos. Jahon ilm-faniga Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Farobiy kabi buyuk mutafakkirlarni yetishtirib bergan mintaqadagi an’anaviy ta’limning so‘nggi o‘rta asrlarga kelib qoloqlikka yuz tutish sabablari, ularga ta’sir etgan omillar, oqibatlari xolisona tahlil etilmadi. An’anaviy ta’lim maskanlari asossiz ravishda jaholat va qoloqlik namunasi, diniy xurofot o‘chog‘i sifatida qoralab kelindi. Aslida ham shundaymi? Turkistondagi an’anaviy maktablar, “jadid maktablari” va sovet maktablari jamiyatning ma’naviy qiyofasidan darak beradi. Bunday maktablarning tashkil etish jarayonidagi bo‘lgan voqealar haqida ushbu maqoladan bilib olasiz.

Kalit so‘zlar. An’anaviy ta’lim, jadid maktablari, sovet maktablari, o‘tish jarayoni, xaus-bo‘shliq.

Неоценима роль нашей отечественной истории в процессе создания образования мирового уровня. Причины упадка традиционного образования в регионе в эпоху позднего Средневековья, факторы, повлиявшие на них, последствия традиционного образования в регионе, Который воспитал таких великих мыслителей, как Ибн Сина, Беруни, Хорезми, Фараби, не подвергся объективному анализу. Был осужден как рассадник суеверий. Так ли это на самом деле? Традиционные школы, “джадидские школы” и советские школы в Туркестане отражают духовный облик общества.

Ключевые слова. Традиционное образование, джадидские школы, советские школы, переходный процесс.

The role of our national history in the process of creating a world-class education is invaluable. The reasos for the decline of tradional education in the region in the late Middle Ages, the factors influencing them, the consequences of tradional education in the region, which brought up such great thinkers as Ibn Sina, Beruni, Khorezmi, Farabi, have not been objectively analyzed. Was condemned as a hotbed of superstition. Is that really so? The traditional schools, “Jadid schools” and soviet schools in Turkistan reflect the spiritual image of the society.

Key words. Traditional education, jadid schools, soviet schools, transition process, house-space.

O‘zbekiston Respublikasi milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari odimlar ekan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot, balki ma’naviy tiklanish va o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash uchun ham keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan tadbirlar, dastur va qonunlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etishda bu borada Turkistonda asrlar davomida rivojlanib kelgan boy tajriba maktabini o‘rganish, tegishli saboq chiqarish, shubhasiz, muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, ularni shakllantirishda an’anaviy ta’lim tizimi muhim rol o‘ynagan.

O‘lkamizdagi an’anaviy ta’lim tizimida so‘nggi asrlarda haqiqatan ham turg‘unlik va zamon talablaridan ortda qolish holatlari yaqqol namoyon bo‘la boshlagan edi.

Ammo tarixiy adabiyotlarda bu holatlar umumlashtirilgan holatda, cheklangan doirada, maishiy shakllarda ta'riflandi. Ularni tubdan isloh etish harakatlari chuqur yoritilmadi. Arxiv fondlari, qo'lyozma asarlar, davriy adabiyotlarda mazkur muammoga oid muhim tarixiy manbalar e'tibordan chetda qoldi, ilmiy iste'molga kiritilmadi.

Muammoning tarix fanida hozirgacha o'zining chuqur ilmiy va xolisona bahosini olmaganligi, ushbu muammoga oid ko'plab tarixiy manbalar hanuzgacha o'rganilmaganligi, ular orqali ijtimoiy, ma'naviy voqelikning ko'plab masalalariga oydinlik kiritishga erishish mumkinligi o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini asoslab beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Turkistonda amal qilgan an'anaviy ta'lim muassasalari, jadid maktablari va "Sovet maktablari" savod chiqarish o'chog'i sifatidagina emas, jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ular asrlar davomida bu borada katta tajriba maktabiga ega bo'lish bilan bir qatorda o'ziga yarasha muammo va kamchiliklardan holi bo'lmagan.

Bu muammolar o'z davrining ilg'or fikrli ma'rifatparvar kishilari tomonidan anglab yetilgan va kun tartibiga ularni isloh qilish vazifalari qo'yilgan. Bu jarayon ham o'ziga yarasha muammo va qiyinchiliklar bilan kechgan. Mazkur holatlarni o'zaro uzviylikda, tarixiylik asosida, turli manbalarni qiyosiy tahlil etish, ularning sabab va oqibatlarini aniqlash, o'sha davrda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan o'zaro bog'liqlikda tadqiq etish, shubhasiz, muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, bu ham mavzuning dolzarbligi va ahamiyatini belgilab beradi.

By davrda chop etilgan adabiyotlar orasida xizmat burchi yuzasidan ta'lim tizimi ahvolini maxsus tadqiq etgan mualliflarning asarlari alohida o'rin egallaydi. Xususan, Turkiston o'lkasida maktab va madrasalar ishlari bo'yicha Turkiston general-gubernatorligi noziri lavozimida ishlagan V.G.Nalivkinning[1] asarlari va maqolalarida maktab, madrasalar to'g'risidagi ma'lumotlarda Turkistondagi ta'lim maskanlari haqida ham qiziqarli faktlar qayd etiladi. Sharqshunos olim V.V.Bartoldning asarlarida esa Turkistondagi madaniy hayot ayniqsa, amir Abdulahadxon va Amir Olimxonlarning hukmronligi davridagi me'morchilik, yevropacha uslubidagi binolar qurilishi, texnik yangiliklar va ularning mahalliy aholisining ilg'or qatlami kayfiyatiga ijobiy ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etiladi[2].

Siyosiy huquqsizlik, tashqi aloqalar cheklanishi natijasida kuchaygan biqiqlik sharoitida mamlakatda nafaqat ijtimoiy sohada, balki madaniy hayotda ham turg'unlik, davr talablaridan ortda qolish tendensiyalari namoyon bo'la boshlagan edi. Xususan, ta'lim tizimida bu holat yaqqol ko'zga tashlanar edi. Mamlakatda an'anaviy ta'lim tizimi amalda bo'lib, Buxoro amirligida va xususan, O'rta Osiyoda faoliyat ko'rsatgan boshlang'ich maktablarda ta'lim olgan, so'ngra madrasalarda tahsil olib dunyoni lol qoldirgan buyuk zotlar Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Mahmud Xorazmiy, Imom Buxoriy, Mahmud Zamaxshariy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Imom Termiziy, Imom Marg'inoniylar kabi ko'plab yirik olim – mutafakkirlarni ilgarilari yetkazib bergan ilm maskanlari bu davrda ancha eskirgan, davr talablaridan ortda qolgan edi.

XX asr boshlarida ham Buxoro Markaziy Osiyo, Kavkazorti, hozirgi Tatariston va Boshqirdiston hududlari uchun islom dinining markazlaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu Turkiston general-gubernatorining 1899-yil yakuni bo'yicha

[1] Наливкин В.П. Азбука для русско-мусульманских школ оседлого населения Туркестанского края. – Т.: 1886. – С.26; Illy муаллиф. Сборник материалов по мусулманству. – Т., 1900. –С.I45

[2] Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград; АН СССР. 1927. – С.256; Illy муаллиф. Бухара. Её памятники и их судьба/Сочинения. – М.: Наука. 1966. и 9 томах. T.IV. – С.72.

podshohga yozgan xatida ham tan olingan. Xat orqali Rossiyada 14 million atrofida musulmonlar yashayotganligi, qadimdan Buxoro musulmonlar dunyosida islom ma’rifati markazlaridan biri sifatida tan olib kelinayotganligi va hozirda ham o‘zining bu boradagi ahamiyatini yo‘qotmaganligi to‘g‘risida xabar berilgan.

Boshlang‘ich an’anaviy maktab musulmon bolalari uchun umumiy ma’lumot beradigan xat-savod chiqarish maskanlari bo‘lib, arab imlosida savod olish, yozish va o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, hisoblash qoida va ko‘nikmalarini hosil qilish, tabiat va jamiyat, atrof-muhit, islom dini haqida bilim va tushunchalar berish, axloq-odob me’yorlariga amal qilishni o‘rgatishdan iborat edi.

O‘rta Osiyoda an’anaviy ta’lim ikki bosqich: quyi – boshlang‘ich maktab va yuqori – madrasa bosqichidan iborat edi. Ushbu tizim maktablari davlat tomonidan to‘liq mablag‘ bilan ta’minlanmagan.Ular doimiy ravishda xususiy shaxslar mablag‘i va vaqf mulklari hisobiga yashab kelgan. Shariat qoidalariga muvofiq, maktab, madrasa, masjidlarga vaqf qilingan mulklardan binolarni ta’mirlashga, madrasa talabalari, maktab mudarrisi va boshqa xizmatchilarni ta’minlashga va davlat soliqlarini to‘lashga sarflangan.

O‘rta Osiyoning barcha shahar, qishloq va ovullarida maktabxonalar mavjud bo‘lgan. Maktablar ko‘pincha bir sinf xonasidan iborat bo‘lganligi uchun ham ularni maktabxona deb atashgan. Musulmon qoidalaridan kelib chiqqan holda o‘g‘il va qiz bolalar alohida-alohida maktabxonalarda o‘qitilgan. O‘g‘il bolalar maktabxonalarining aksariyati masjidlar, madrasalar, qorixonalar qoshida yoki xususiy maktabdorlar xonadonlarida, qiz bolalar maktabxonalari otin ayollar uylarida yoki badavlat kishilarning maktab yoshidagi qizlari uchun ularning uylarida tashkil etilgan.

Maktablarda o‘g‘il bolalarni o‘qitgan kishi “domla, ustod, ustoz, muallim” deb atalgan. Qizlarni o‘qitgan ayollarni esa “otinoyi” yoki “otinbibi” (Toshkentda) “bibixalifa” yoki “bibiotin” (Buxoroda), “eltibibi” (Xorazmda) deb atashgan. Shuni e’tiborga olish lozimki, hozirgi Qoraqalpog‘iston hududidagi maktabxonalarda o‘sha davrda ham o‘g‘il va qiz bolalar birgalikda bir muallim tomonidan o‘qitilavergan.

Maktablar ko‘p hollarda ayrim badavlat shaxslarning xayr-ehsonlari evaziga, ba’zan esa masjidlarga tushgan daromad evaziga qurilgan. Masalan, Mir Mansurning qizi Nozikoy yetti xonali uy va bolaxonadan iborat bo‘lgan hovlisini maktab o‘quvchilari foydasiga diniy ta’lim olishlariga yordam sifatida vaqf qildirgan.

Vaqfnomalarda yozilishicha, maktabxonalar yog‘och, xom va pishiq g‘ishtdan bino qilingan. Maktabxona binosi odatda, bir xonadan iborat bo‘lib, bolalar bo‘yra yoki gilam (to‘shamcha, sholcha) ustida o‘tirishgan. Maktabning xonalari kichik, tor bo‘lib, yorug‘lik tushmaydigan qorong‘u, o‘quvchilar o‘tiradigan joy esa nam va zax bo‘lgan. O‘g‘il bolalar maktabxonalarida masjid qavmi tomonidan taklif etilgan masjid imomi, muazzini yoki madrasani tugatgan kishi muallimlik qilgan.

Buxoro amirligidagi maktabxonalar faoliyatini Abdurauf Fitrat shunday ta’riflaydi: “Maktab shunday joydirki, bir muallimi bor, uni maktabdor deydilar, bolalar u yerda yetti yildan to o‘n yilgacha zaruriy xat-savodlarini chiqargunga qadar qoladilar, undan keyin xohishlariga qarab, madrasaga borib, dars o‘qiy boshlaydilar”.

Sadriddin Ayniyning yozishicha, Buxorodagi maktabxonaning ko‘rinishi quyidagicha bo‘lgan: “Maktab torgina bir xonadan (hujradan) iborat bo‘lib, uning ikki eshigi bor, buning biri bir tavaqali va eshik ko‘pincha yopiq turar edi. Ikkinchi eshigi darcha bo‘lib, uch gaz* bo‘yi va yarim gaz eni bor. Bu darchaning oldida domla (maktabdor)ning o‘tiradigan joyi bor. Darchalarga esa parda qilingan (derazasi qog‘oz bilan qoplangan) va qog‘ozga qor-yomg‘irdan saqlash uchun zig‘ir moyi surtilgan edi. Shuningdek, mak-

tabning derazasidan darsxonaga hech bir yorug‘lik kirmas edi. Hujraning shipi tagidan devorning shipiga yaqinlashgan joyida ikki tomondan ham bir-biriga ro‘parama-ro‘para qilib ochilgan ikki tuynukcha bo‘lsa ham, bulardan kiradigan yorug‘lik pastga tushmasdan, hujraning devorlarida qolar edi. Bu hujraning kengligi o‘n olti gaz murabba (kvadrat) edi. Uning ichida bir-birining ustidan o‘tkazilib to‘rtta sinch tortilgan va bu bilan hujra to‘qqiz bo‘lakka bo‘lingan, go‘yo maktabxonaning ichida to‘qqiz oxur paydo bo‘lgan edi. Eshik oldidagi oxurchada bolalarning kavushlari turardi. Darcha oldidagi oxurchada bo‘lsa domla va qolgan yetti oxurchada esa bolalar o‘tirardi”.

Xulosa qilib aytganda, Buxorodagi boshlang‘ich maktablar aholining savod chiqarishi, diniy axloqiy tarbiyasida muhim o‘rin egallasa-da, ta’lim maskani sifatida XX asr boshlarida zamon talablariga javob bera olmas, uning faoliyatida qator jiddiy muammolar bor edi. Chunonchi, maktablar uchun yagona o‘quv dasturi, yagona o‘quv rejasi mavjud emasdi. Ularning har biri o‘z holicha faoliyat ko‘rsatgan, o‘quv jarayoni majburiy rejaga asoslanmagan va boshlang‘ich maktablarda ta’lim jarayoni ko‘p jihatdan maktabdor domlaning faoliyati, iqtidoriga bog‘liq bo‘lgan. O‘qitish, ta’lim-tarbiya berish usuli zamon talablari darajasidan past bo‘lgan yoki orqada qolgan. O‘tilgan saboqning mazmunini o‘quvchilarga to‘la tushuntirish, uning mohiyatini ochib berish o‘rniga, asosiy e’tibor matnni yod olish, uning mazmunini tushunmay, takrorlatishga qaratilgan. Ayniqsa, o‘qitishning harfiy usuliga amal qilinishi, uning fonetik harflar beradigan tovushlar bilan uyg‘unlashganligi, o‘qish va yozish baravar o‘rgatilmasligi savod chiqarishni murakkablashtirgan. Maktablarda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilinmagan, qolaversa, aksariyat maktablarning o‘zi uchun maxsus o‘quv binosi mavjud bo‘lmagan. Maktablar, asosan, jamoatchilik, xayriya va vaqf mulki asosida moliyalashtirilgan, davlat tomonidan mablag‘lashtirilmagan. Maktablarda ona tilini emas, balki kundalik hayotda ishlatilmagan arab tili va uning grammatikasini o‘rgatilishi savod chiqarish muammosini to‘la hal etmagan. Shuningdek, maktablarda atrof-muhit, tabiat va jamiyat haqida dunyoviy bilimlarga e’tibor berilmagan, asosiy urg‘u islom asoslari va diniy axloqiy masalalarga qaratilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda ta’lim sohasida jadal sur’atlarda olib borilayotgan islohotlar zaminida jonajon O‘zbekistonimizning jahon miqyosida rivojlantira oladigan salohiyatli kadrlar yetishtirishdir. Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o‘tayotganda ta’limda “xaus” ya’ni bo‘shliq bo‘lib qolmasligi, buning jabrini yosh avlod ko‘rmasligi uchun boy tariximizdan doimo o‘rnak olishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun. Yangi tahriri 2020-yil, sentabr.

2. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград; АН СССР. 1927. – С.256; Бухара. Её памятники и их судьба/Сочинения. – М.: Наука. 1966. и 9 томах. Т.IV. – С.72.

3. Наливкин В.П. Азбука для русско-мусульманских школ оседлого населения Туркестанского края. – Т.: 1886. – С.26; Сборник материалов по мусулманству. – Т., 1900. С.I45.

Naimjon XOJIQULOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti
“Antropologiya va etnologiya” kafedrasining 2-bosqich magistratura talabasi

AN’ANAVIY O‘YINLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING O‘G‘IL BOLA TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada an’anaviy, milliy o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari, bu o‘yinlarning o‘g‘il bola tarbiyasidagi ahamiyati yuzasidan olimlarning fikr-mulohazalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. An’anaviy, milliy o‘yinlar, didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, kooperativ o‘yinlar, shakl, mavzu, yo‘nalish.

В данной статье проанализированы мнения ученых об особенностях традиционных, национальных игр, о значении этих игр в воспитании мальчиков.

Ключевые слова. Традиционные, национальные игры, дидактические, воспитательные, развивающие, совместные игры, форма, тема, направление.

This article analyzes the opinions of scientists about the features of traditional, national games, the importance of these games in the upbringing of boys.

Key words. Traditional, national games, didactic, educational, developing, cooperative games, form, theme, direction.

Shaxsning jismoniy va ruhiy barkamolligi o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligini teran anglagan ajdodlarimiz qadimdan uni mustahkamlash usullarini aniqlab, rivojlantirib kelganlar. Bu borada aqliy va jismoniy tarbiyaviy xususiyatga ega turli musobaqalar, jismoniy mashg‘ulotlar, xalq o‘yinlariga alohida e’tibor qaratilgan. Milliy o‘yinlarimiz serharakatligi, barcha organizm va muskullarni o‘stiruvchanligi, chidamlilikka o‘rgatuvchi, chiniqtiruvchi harakatlardan tashkil topganligi bilan boshqa xalqlar o‘yinlaridan tubdan farq qiladi. Ota-bobolarimiz o‘z farzandlarini qiyinchiliklar oldida dovdiramaslik, qo‘rqmaslik ruhida tarbiyalab uni yechishga o‘rgatganlar. Ko‘p yillar davomida ega bo‘lgan malakalariga tayanib o‘z farzandlariga badantarbiya va aqliy o‘yinlardan foydalanish yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatgan. Og‘ir mehnatdan keyin kishilar bir joyga to‘planishib turli milliy o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lganlar.

Bolalar o‘yinlari qaysi shakl, mavzu, yo‘nalishga ega bo‘lmasin, loy-tuproq bilanmi, yog‘och-u kaltakmi, ip-u arqon bilanmi, qaysi biri bo‘lsa ham bolani turmush ikir-chikirlari, uy-ro‘zg‘or va xo‘jalik ishlari, umuman, katta hayotga tayyorlashda o‘ziga xos hunar maktabi rolini o‘ynagan[1].

Abu Nasr Farobiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur, Zayniddin Vosifiy, Kaykovus singari ulug‘ allomalar asarlarida ham bolalar hamda folklor o‘yinlariga doir juda ko‘p ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qadimiy o‘yinlarning tur va yo‘nalishlari, xususan, to‘piq o‘yini xususida juda qiziqarli ma’lumotlar mavjud[2]. Bunday

[1] Arifxanova Z., Nozimov O., Jumanazarov E., Isoqov B. Sog‘lom avlod tarbiyasida bolalar o‘yinlarining roli / Alpomish xalq o‘yinlari va milliy sport turlarini rivojlantirish muammolari. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg‘ona, 2000. – 5-b.

[2] Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. – T., O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960. – 198-b.

to‘piq o‘yini hozir ham bor. To‘piq o‘ynalganda suyak berkituvchi kishi to‘piqni hamma vaqt yonida olib yurishi shart bo‘lib, bir necha oydan keyin bo‘lsa ham, hammomga o‘xshash nozik joyda bo‘lsa ham, so‘ralgan vaqtning o‘zidayoq “mana” deb, ko‘rsatib bersa, yutadi. Shuning uchun to‘piq osib yurish odat bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedovning “Hikmatnoma” kitobida: “To‘piq o‘yini – to‘piq suyagini o‘yinchilardan biriga, so‘ralganda darhol ko‘rsatish, aks holda o‘ynovchilarning istaklarini bajarish (masalan, ziyofat qilib berish) sharti bilan o‘ynaladigan pisandali o‘yin” sifatida izohlangan[3].

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, o‘zbeklarning milliy sport va xalq o‘yinlari aholining yashash sharoitiga bog‘liq ravishda xilma-xil bo‘lgan. Ular orqali o‘g‘il bolalar faol, sermahsul faoliyatga hamda jamiyatda va hayotda o‘z o‘rnini topishga tayyorlab borilgan. Bunday o‘yinlarni o‘rganish hamda mohiyatini ochib berish va yosh avlodga ko‘proq targ‘ib-tashviq etish ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi. G‘oyaviy, tarbiyaviy faoliyat mazmunini chuqurlashtiradi.

Nemis psixologi Karl Gross o‘yinlar ahamiyati borasida shunday yozgan edi: “Kelajakda hayotiy vazifalar uchun odatlarni o‘stirish bolaligimizning asosiy maqsadini tashkil etadi. Biz hech ikkilanmay aytishimiz mumkinki, bunda asosiy rol o‘yinga tushadi. Biz bola bo‘lganimiz uchun o‘ynamaymiz, aksincha, bolalik biz o‘ynay olishimiz uchun berilgan[4]”.

Etnologiya, psixologiya va pedagogikada bolalar o‘yini bola hayotning alohida sohasi sifatida tadqiq etiladi. Sababi, bolalik davridagi o‘yinlar bola faoliyatining yetakchi turidir. O‘yinda bolalar kattalarning mehnat faoliyatni taqlid qilishadi va bunda o‘z ijtimoiy rollarini ham belgilab olishadi[5].

Mutaxassislar tomonidan o‘yinlarning turli tasniflari va turlari ko‘rib chiqilgan. Xususan, psixolog D.B.Elkonin maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalar o‘yinini ikki davrga bo‘ladi. Birinchi davr – 3-5 yoshda o‘yinning asosiy mazmuni predmet bilan harakat qilishdan iborat bo‘ladi. Ikkinchi davr – 5-7 yoshda esa bolalar o‘yinlar orqali kishilar orasidagi munosabatni va ular faoliyatining ijtimoiy mazmunini ko‘rsatishga harakat qilishadi[6].

Psixologlar 5-6 yoshdagi bolalar bilan quyidagi tajribani o‘tkazganlar: mutlaqo bo‘sh (hatto mebelsiz) xonalarga o‘yinga o‘rgatilgan va o‘rgatilmagan bolalar joylashtirilgan. Shundan so‘ng ularni o‘ynashga chorlab, o‘zlari yashirin kuzatish o‘tkazganlar. Aniqlanishicha, o‘yinga o‘rgatilmagan bolalar xonada bekor yurganlar yoki umuman harakat qilmaganlar. O‘yinga o‘rgatilganlari esa, o‘z navbatida nafaqat narsalar, hatto biror o‘yinchoq yo‘qligiga qaramay yolg‘ondakam telefon orqali suhbatlashar, kasha qaynatishar, toshoyna oldida o‘zlariga oro berishar, o‘zlaricha samolyot, mashina haydashardi va hokazo. Bundan shunday xulosa chiqaramiz: bolalarni turli o‘yinlar o‘ynashga, albatta, o‘rgatish kerak[7].

Bir yoshidan boshlab har qanday o‘g‘il yoki qiz bola hayotining ko‘p vaqtini o‘yinlarga sarflaydi. Dastlabki paytlarda yolg‘iz o‘zi o‘ynaydi. Keyinchalik, u kimningdir o‘yinga sherik bo‘lishini talab qila boshlaydi. “O‘yin jarayonida bola o‘z harakatlarini

[3] Hikmatnoma. O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. – T., O‘zb. Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. – 333-b.

[4] Эльконин Д. Б. Психология игры. 2-е изд. – М., Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1999. – С. 72.

[5] Писаревская, Д. Б. Ролевые игры: пример “социализации” субкультуры / Этногр. обозрение. – 2008. – № 1. – С.8 – 18.

[6] Эльконин Д.Б. Психология игры. – М., 1978. – 304. С.42.

[7] Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yinlari va o‘yinchoqlari // Maktabgacha ta’lim, 2001. 6 (72). – 7-b.

muvofiqlashtirishni va kattalar olamini o‘rgana boradi. Bola yangi ko‘nikmalarni egallash bilan birga kattalarga taqlid qila boshlaydi. Endi bolalar boshqalarning faoliyatiga aralashmay, ulardan nusxa ko‘chira boshlaydilar. Keyinchalik, taxminan uch yoshdan boshlab bolalar ko‘proq assotsiativ o‘yinga qo‘shib o‘z harakatlarini boshqalarniki bilan moslashtira boshlaydilar. Har bir bola haliyam o‘zi xohlagandek harakat qilaveradi. Lekin, shu bilan birga boshqalarning harakatlariga e’tibor bera boshlaydi. Keyinroq, to‘rt yoshda bolalar kooperativ o‘yinlarni o‘zlashtirishga kirishadilar. Bu o‘yinlarda har bir bola boshqalar bilan hamkorlik qilishi kerak (masalan, “ota va ona”, “xola-xola”, “mehmon kutish” o‘yinlaridagi kabi[8]”.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘g‘il bolalar va qiz bolalar o‘yini bir-biridan farqlangan. O‘g‘il bolalar o‘yinlarida asosiy e’tibor jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan. O‘g‘il bolalarning asosiy vaqti ko‘chada o‘tgan. Shu bois ularning o‘yinlari ham xilma-xil bo‘lgan. “Biz bolaligimizda ko‘chadagi bolalar bilan “quvlashmachoq”, “bo‘yoq-bo‘yoq”, “yashinmachoq”, “to‘p otish” kabi o‘yinlarni ko‘p o‘ynardik. 12-13 yoshlargacha qizlar bilan birga o‘ynardik. Keyin esa ular alohida, biz alohida o‘ynaydigan bo‘ldik” - deydi o‘z bolaligini eslab X.Mamajonov[9].

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xayoliy tasavvurlari ancha kuchli bo‘ladi. Bolalarning ijodiy o‘yin vaqtida yaratayotgan timsollari, ularning hikoyalari va ertaklaridagi ramzlar yorqin, jo‘shqin obrazlar bo‘ladi. Bu obrazlar idrokka yaqinlashib qoladi deyish mumkin. Chunonchi, yog‘ochni “ot” qilib chopib borayotgan bola o‘zini xuddi chinakam otda chopib borayotgandek his qiladi. Bolalar o‘yin qoidasining buzilishiga biror katta, o‘ta ahamiyatli ishning buzilishi sifatida qaraydi[10].

Ta’lim jarayonini o‘yinlar asosida tashkil etish muammosini R.Tolipova, J. Tolipova, F. Qodirova, A. Bobomurodovalar tadqiqotlarida ko‘rish mumkin[11].

Hozirda maktabgacha ta’lim muassasalaridagi o‘yinlarni maqsadiga ko‘ra uchta asosiy guruhga ajratishimiz mumkin. Ular:

1. Didaktik o‘yin – bolalar fikr dunyosini kengaytirish, bilish faoliyatini kengaytirish, bilimlarini amaliyotda qo‘llashga ko‘nikma hosil qilish.

2. Tarbiyaviy o‘yin – bolalarda mustaqillik va irodani tarbiyalash, axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish, hamkorlikda o‘ynashga o‘rgatish.

3. Rivojlantiruvchi o‘yinlar – diqqat, xotira, nutq, tafakkurni rivojlantirish, taqqoslashga o‘rgatish, o‘quv jarayonlariga bo‘lgan qiziqishni takomillashtirish[12].

Didaktik o‘yinlarning xususiyati shundaki, u bolalarning faolligi, tashabbuskorligini oshiradi, ularni mustaqillikka, o‘z kuchiga ishonishga o‘rgatadi. Shuningdek, o‘yinda bolaning iroda va xarakteri shakllana boradi. Bola rostgo‘ylik, to‘g‘rilikka o‘rganadi. Jamoa bo‘lib ishlashga, harakat qilishga odatlanadi. Shunday qilib, didaktik o‘yinning ham aqliy, ham axloqiy tarbiyadagi tutgan o‘rni benihoyadir[13].

O‘yin bola shaxsining hamma sifatlariga teng ta’sir etadi, uning qiziqishlari, tevarak-atrof to‘g‘risidagi tasavvurini, kattalarga va o‘rtoqlariga bo‘lgan munosabatini namoyon etadi. O‘yin bola hayotining ajralmas qismidir. Lekin, aniq tartib qoidalarga bo‘ysundirilgan, jismoniy yoki aqliy rivojlanishga xizmat qiluvchi o‘yinlar bilan shunchaki

[8] Giddens Entoni. Sotsiologiya. / Mamatov N. va Begmatov J. tarjimasi. – T., Sharq, 2002. – 88-b.
[9] Ubaydullayeva B.M. O‘zbek etnopedagogikasi tendensiyalari. – T., Akademnashr, 2018. – 162-b.
10 Ivanov P.I. Psixologiya. – T., O‘zSSR davlat o‘quv-pedagogika nashriyoti, 1960. – 180-b.
11 Nurullayeva Sh. U. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish usullari. Pedagogika fan. nom. diss… avtoreferati. – T., 2005. – 6-b.
12 Toshpo‘latova Sh. O‘yin texnologiyasi xususida // Maktabgacha ta’lim. 2005. № 4. – 15-b.
13 Daminova M., Adambekova T. O‘yin mashg‘ulotlari. – T., O‘qituvchi, 1993. – 24-b.

vaqt o‘tkazib, “ko‘cha changitish”ni bir-biridan farqlash lozim[14].

Tadqiqotlarga ko‘ra, o‘g‘il bolalar “Quvlashmachoq”, “Tortishmachoq”, “Kun-tun”, “To‘p uchun kurash”, “Latta”, “Qirq tosh”, “Quvib yet”, “Otib qochar”, “O‘ylab topar”, “Kim oladi”, “G‘ozlar”, “Lanka”, “Soqqa”, “Varrak”, “Chillak”, “Qubba”, “Suvda quvlashmachoq”, “Bekinmachoq”, “Eshak mindi”, “Nishonga ur”, “Uloq” kabi o‘yinlarni o‘ynaganlar[15]. Bu o‘yinlar orqali o‘g‘il bolalarda er yigitga xos jasurlik, shijoat, matonat, epchillik, qat’iyatlilik va vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllanadi.

Globallashuv natijasida ro‘y berayotgan transformatsion jarayonlarni xalq amaliy o‘yinlarida ham ko‘rish mumkin. Xalq amaliy o‘yinlar o‘rnini texnik, kompyuter o‘yinlari egallamoqda va yoshlar bunga ko‘proq qiziqish bildirmoqda. Buning natijasida, kiberludomaniya, ludomaniya kabi yangicha illatlar paydo bo‘ldi. Olimlar bu so‘zga “odamning kundalik hayotida jazavali o‘yinlarni ko‘p o‘ynagani sababli uning ijtimoiy, kasbiy, moddiy va oilaviy qadryatlarining qadrsizlanishi, ushbu sohalardagi majburiyatlariga e’tiborining pasayishi”, degan ma’noni bermoqdalar. Dunyoda “Homo Ludens” – “O‘yinboz odam” iborasi iste’molga kirdi[16]. Internet rivoji u berayotgan imkoniyatlar o‘ziga xos qaramlikni keltirib chiqarmoqda. Internetdan foydalanuvchilarning taxminan 10 foizi unga muntazam bog‘lanib qolgan. Kompyuter o‘yinlariga qaramlik yoshlarda ayniqsa, o‘g‘il bolalarda kam harakatlilik, qat’iyatsizlik, odamovilik, lafzsizlik kabi illatlarni shakllanishiga olib kelmoqda. Bu esa o‘smir bolalarda gender rolning shakllanishi va hayotda o‘z o‘rnini topishida salbiy ta’sirga ega.

Xulosa qilib aytganda, milliy xalq o‘yinlarini qayta tiklash, bolalar va o‘smirlar o‘yinlari uchun shart-sharoit yaratish va uni rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. Bolalar orasida ijodiy o‘yinlarning ahamiyatini oshirish lozim. Ijodiy o‘yinlar eng muhimi bilim egallash jarayoni bo‘lib, bu bolaning aqliy kuchi, tafakkuri, xayoli, diqqati, xotirasini yanada takomillashtiradi. Bola bu jarayonda vazifani oson hal etish, o‘ylagan narsasini amalga oshirish uchun osonroq yo‘l qidiradi. O‘z bilimlari zaxirasidan foydalanishga va uni so‘z bilan ifodalashga o‘rganadi. Ijodiy rejalashtirilgan o‘yinlar bola shaxsining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etishini e’tiborga olsak, ta’lim va tarbiya jarayonida ko‘zlangan etnos taraqqiyotiga mos samaraga erishgan bo‘lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arifxanova Z., Nozimov O., Jumanazarov E., Isoqov B. Sog‘lom avlod tarbiyasida bolalar o‘yinlarining roli / Alpomish xalq o‘yinlari va milliy sport turlarini rivojlantirish muammolari. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg‘ona, 2000.

2. Giddens Entoni. Sotsiologiya. / Mamatov N. va Begmatov J. tarjimasi. – T., Sharq, 2002.

3. Daminova M., Adambekova T. O‘yin mashg‘ulotlari. – T., O‘qituvchi, 1993.

4. Ivanov P.I. Psixologiya. – T., O‘zSSR davlat o‘quv-pedagogika nashriyoti, 1960. – 180-b.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yinlari va o‘yinchoqlari // Maktabgacha ta’lim, 2001.

6. Nasriddinov F.N., Qosimov A. S. O‘zbek xalq milliy o‘yinlari. 1 to‘plam. – T., 1993.

14 Qurbonov Tursunali. Ota bo‘lish osonmi yoxud o‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ma’naviy-pedagogik asoslari. – T.: Ma’naviyat, 2007. – 132-b.

15 Nasriddinov F.N., Qosimov A. S. O‘zbek xalq milliy o‘yinlari. I to‘plam. – T., 1993.

16 Quronov M. Ezgu g‘oyalar ro‘yobi. –T.: Ma’naviyat. 2011. 133-b.

Albert XASANOV,
Xalq ta’limi vazirligi Inson resurslarini rivojlantirish boshqarma boshlig‘i
Maqsuda BADALOVA,
A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi muammolarini o‘rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti MMTTMTB boshlig‘i

XALQ TA’LIMI TIZIMIDA KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISH VA JOY-JOYIGA QO‘YISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqola Xalq ta’limi tizimda kadrlar zaxirasini shakllantirish masalalariga hamda, tizimdagi kadrlarni tanlash va tayinlash muammolari va yechimlariga qaratilgan bo‘lib, amaldagi normativ hujjatlar o‘rganilgan va tegishli xulosa va takliflar bildirilgan.

Kalit so‘zlar. Prezident farmoni va qarorlari, Qonun, kadrlar zaxirasi, texnologiya, usullar, autsorsing, rekruting.

В статье особое внимание уделяется вопросам формирования резерва кадров в системе народного образования, а также проблемам и решениям при подборе и расстановке кадров в системе. Изучены действующие нормативные документы и сделаны соответствующие выводы и рекомендации.

Ключевые слова. Указы и постановления Президента, Закон, человеческие ресурсы, технология, методы, аутсорсинг, рекрутинг.

The article focuses on the formation of human resources in the system of public education, as well as problems and solutions in the selection and appointment of personnel in the system, current normative documents have been studied and given relevant conclusions and recommendations.

Key words. Presidential decrees and resolutions, Law, human resources, technology, methods, outsourcing, recruitment.

Hozirgi kunda mamlakatimizda, nomzodlarni tanlash va tayyorlash, joy-joyiga qo‘yish, ularning zaxirasini tuzish bo‘yicha ishlarni tizimli amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Bugun hayotning o‘zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo‘l ochish bo‘yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda” degan so‘zlari xalq ta’limi sohasida ham kadrlar tayyorlash va zaxirasini shakllantirishga muhim e’tibor qaratish lozim ekanligidan dalolat beradi.

Olimlarimizdan biri F.R.Ravshanov: “Kadrlar zaxirasi – bu tegishli maqsadli tayyorgarlikdan so‘ng rahbarlik lavozimiga tavsiya etilishi nazarda tutilgan xodimlarning guruhidir. Zaxira bo‘lajak rahbarlarni rejali tayyorlash va ularning tayyorgarligini oldindan aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi hamda rahbarlik lavozimiga nomzodlarni

tanlash jarayonining doimiyligi va ularning moslashish davrini qisqartirish imkonini beradi”, degan fikrini ta'kidlaydi. Shuni ta'kidlash joizki, kadrlar zaxirasiga e’tibor qaratish – bu sifatli mutaxassis topish va kadrlar tanlovida adashmaslik, noloyiq kadrlardan tashkilotni asrash, demakdir.

Kadrlarni tanlash – ma’lum mutaxassislarni o‘rganish jarayoni bo‘lib, ma’lum lavozim majburiyatlarini bajarish bo‘yicha nomzodlarning kompetentligini aniqlashdan iborat. Shuni ta’kidlash joizki, ayrim muassasalarda rahbar xodimlarning qo‘nimsizligi, kadrlar siyosatida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar evaziga sodir bo‘ladi. Muassasada shoshilinch tanlangan birgina kadr butun bir jamoaga salbiy ta’sir etishi va uning ortidan ko‘plab muammolar vujudga kelishi mumkin. Shuning uchun ham kadrlar ishi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalardan biri – bu boshqaruv xodimlarining zaxirasini oldindan o‘rgangan holda tayyorlashdir. Ushbu vazifaning asosiy mohiyati, kadrlar zaxirasini turli metodlar orqali ularning kompetentligini oshirishdan iborat. Kadrlar zaxirasi turli lavozimlarga mo‘ljallangan xodimlar ushbu lavozimlar malaka talablariga mos keluvchi hamda shu tizimda faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlardan shakllantirilishi mumkin.

Ko‘p yillik xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, biron bir mutaxassis, u qanchalik kuchli mutaxassis bo‘lmasin, menejment asoslari bo‘yicha bilimga ega bo‘lmasdan ish yuritishi qiyin. Shuning uchun ham eng avvalo, rahbar kadrlar zaxirasi bilan ishlash va uning kompetentlik darajasini oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratishi maqsadga muvofiq. Kadrlar siyosatida kadrlar zaxirasini shakllantirish va zaxira bilan ishlash masalasiga ilmiy nazariy jihatdan yondashish butun dunyo mamlakatlari qatorida bizning mamlakatimizda ham muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Ta’lim tizimida yuqori rahbarlik lavozimlari uchun kadrlar zaxirasining manbalari quyidagilar deb hisoblash mumkin:

1. O‘z ish faoliyatida faol bilimdon, o‘zini faqat ijobiy tomondan ko‘rsata oladigan, ushbu lavozimlar malaka talablariga mos keluvchi hamda ushbu tizimda faoliyat ko‘rsatuvchi rahbarlar va xodimlar;

2. Yosh va zamonaviy bilimga ega xodimlar.

Shuningdek, kadrlar zaxirasini shakllantirish masalasi fikrimizcha, quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

– Zaxiraga kadrlarni tanlash va tayinlash tizimini takomillashtirish;


– Zaxiradagi kadrlarni kasbiy mahorati va malakasini oshirish maqsadida elektron platforma orqali ishlarni tashkil qilish;

– Ta’lim tizimi xodimlarining kasbiy rivojlanish bo‘yicha motivatsiya darajasini oshirishdan iborat.

O‘rganilgan normativ hujjatlar asosida kadrlar zaxirasini shakllantirishning quyidagi bosqichlarini ham ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Bunda birinchi bosqichda muassasaning qanday mutaxassislarga ehtiyoj mavjudligini, tashkilotning kadrlar siyosatida belgilangan monitoring tizimi orqali aniqlanadi va kerakli zaxira ro‘yxati shakllantiriladi. Ikkinchi bosqichda zaxira kadrlarni kompetentligini o‘rganish, zaxira uchun kadrlarni shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish, kadrlar zaxirasi nomzodlarini shakllantirish, zaxira nomzod kadrlarni bilim saviyasini platforma orqali oshirish, platformada o‘qigan nomzodlarni saralab olish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Rasm



Quyidagi rasmda esa rahbar lavozimlarga tanlash texnologiyasi ko‘rsatib berilgan.

a) bunda kadrlar xizmati xodimlari tomonidan zaxira kadrlarini tanlash va tayinlash bo‘yicha olib borishi lozim bo‘lgan vazifalar ko‘rsatilgan (bu jarayon markazlashgan holda), ya’ni zaxira kadrlar to‘g‘risida ma’lumot tanlash metodlari, mutaxassisligi bo‘yicha test o‘tkazish, nomzoddan intervyu olish, oldingi ish joyidan anketa-tavsifnoma olinishi, ma’lumotlarni tahlil qilish orqali baho berish kabilar;

b) tashkilot va muassasaning kadrga bo‘lgan ehtiyoji bunda qaysi tashkilot va muassasaga taalluqli bo‘lsa, o‘sha muassasaning ehtiyoji o‘rganiladi va tegishli mutaxassislarning shaxsiy kompetentligidan tashqari platformada yaratilgan portfolio asosida o‘rganib chiqiladi va mos kelgan mutaxassislar ularning roziligi asosida kasbiy bilimlarini oshirish uchun onlayn kasbiy malaka oshirish platformasiga ya’ni kadrlar zaxirasi uchun mo‘ljallangan modulga yo‘llanadi;

v) fuqaro tegishli malaka oshirishdan o‘tganligi to‘g‘risidagi sertifikatni olgandan so‘ng tegishli lavozimga e’lon qilingan tanlovda nomzod sifatida qatnashishga ruxsat beriladi;

g) yangi qabul qilingan rahbar va xodimlarga uning ish joyiga ko‘nikish jarayonini muvaffaqiyatli o‘tishi maqsadida turli metodlar orqali ish faoliyatiga taalluqli seminar yoki treninglar yordamida platforma orqali ko‘mak berish maqsadida imkoniyat beriladi (3 oy muddatda).

Shuni ta’kidlash joizki, 2021-yil 30-iyunda Xalq ta’limi vazirining “Umumta’lim muassasalari direktorlari lavozimiga nomzodlarni dastlabki tarzda saralab olish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 202-sonli buyrug‘i qabul qilinib, bugungi kunga qadar, hududiy xalq ta’limi boshqarmalari tomonidan 1144 ta umumta’lim maktablarining vakant direktor lavozimiga yangi tartibga asosan dastlabki saralashdan o‘tgan nomzodlar Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga tavsiya etilgan bo‘lib, shundan tegishli Kengash qaroriga asosan tanlovdan o‘tgan munosib nomzodlar umumta’lim maktabiga direktor lavozimiga tayinlangan. Joylarda direktorlarni tanlov asosida joy-joyiga qo‘yish va salohiyatli umumta’lim maktabi direktorlarini tanlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari natijasi bir qancha takliflarni yuzaga keltirdi;

1. Maktab direktorligiga nomzodlarning xalq deputatlari tuman (shahar) kengashi sessiyasida maktabni rivojlantirish bo‘yicha 3 yillik dasturini tayyorlash bo‘yicha hech qanday metodik qo‘llanma mavjud emasligi;

2. Nomzodlarning maktabni rivojlantirish bo‘yicha dasturini tayyorlash bo‘yicha aniq vaqt belgilanmaganligi;

3. Nomzodlarni zamonaviy ta’lim boshqaruv metodlarini o‘rgatish bo‘yicha platformadan unumli foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimining mavjud emasligi;

4. Umumta’lim maktabi rahbarlarining bir joyda bir necha yillar rahbarlik qilishi maktabning kadrlar salohiyatiga ham ta’sir qilishi va turg‘unlik illatlarini vujudga kelishi mumkinligi tufayli, bu borada yechimini topa oladigan ilmiy tadqiqotlarni olib borish lozimligi.

Zaxirani shakllantirish, kerakli mutaxassisliklarni topib joy-joyiga qo‘yish masalasi muhim masalalar qatorida ekan, rekruting faoliyatiga e’tibor qaratib undan foydalanish chora tadbirlarini ishlab chiqishimiz lozim. Rekruting xizmati bu – ish qidirayotgan shaxslarni ishga joylashtirish va ish beruvchilar uchun kadrlar tanlash bilan bog‘liq xizmatlarni shartnoma asosida ko‘rsatish bo‘yicha yuridik shaxs faoliyatidir.

Rekruting agentliklari xizmatlarining asosiy turlariga:

– ish qidirayotgan shaxslarga mutaxassisligiga mos faoliyat turida ish topishdan iboratdir;

– ish beruvchilar uchun kadrlarni tanlash;

– mehnat bozorida axborot va maslahat xizmatlarini ko‘rsatish kiradi.

Keyingi paytlarda dunyo bo‘yicha rekruting rivojlangan bo‘lsa-da, bizning respublikamizda Xalq ta’limi tizimida ham elektron rekruting ko‘proq samara bera oladigan faoliyat deb, fikr bildirish mumkin (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son).

Yangicha hamda mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli, tashabbuskor, ilg‘or boshqaruv usullarini puxta o‘zlashtirgan, halol, o‘z Vatani va xalqiga sodiq kadrlar zaxirasini yaratish va bu tizimni tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni ko‘rsatish mumkin:

1. Zaxiradagi rahbarlik lavozimiga qo‘yilgan kadrlar bilan ishlash tizimini, ya’ni ularning kompetentligini shakllantirish bo‘yicha tizim yaratish;

2. Zaxiradagi kadrlarni yangi kollektivda adaptatsiya jarayonlarini qisqa va muvaffaqiyatli o‘tishi bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil qilish;

3. Maktab direktorlarini tanlash va tayinlash modelini yangi zamonaviy menejment tamoyillari asosida ishlab chiqish;

4. Rahbarlik lavozimiga tayinlangan va zaxiraga kiritilgan kadrlarning doimiy monitoringini elektron maxsus platforma orqali tashkil qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmonida davlat fuqarolik xizmati masalalari bo‘yicha vakolatli organning mavjud emasligi davlat organlari va tashkilotlarida yagona kadrlar siyosatini olib borishga, xodimlarni samarali boshqarish va inson resurslarini rivojlantirishga, malakali kadrlar zaxirasini raqobat asosida shakllantirishga hamda ular tomonidan davlat fuqarolik xizmatchilarining vakant lavozimlari o‘z vaqtida egallanishiga yo‘l qo‘yilmayotganligi ta’kidlangan[1]. Aholi, ayniqsa, yoshlar orasida barcha

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar

darajalardagi davlat fuqarolik xizmati nufuzini oshirish, korrupsiyaning yuzaga kelishi, rasmiyatchilik va byurokratiyaga imkon beruvchi sharoitlarni yo‘q qilish maqsadida davlat fuqarolik xizmatchilarini moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilishning munosib darajasini kafolatlash choralari joriy etilmagan[2]. Ma’lumot uchun aytish mumkinki, mazkur masalalarni yechimi sifatida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilgan. Loyiha Qonunchilik palatasining 2021-yil 28-dekabrdagi majlisida birinchi o‘qishda qabul qilindi. Mazkur Qonunning qabul qilinishi kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va shaffof holda kadrlar zaxirasini yaratishda va takomillashishida muhim huquqiy asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmon.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4472-son qarori.

3. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020-yil 3/2020 (№ 00047) http://iqtisodiyot.tsue.uz 148.

4. Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 30-iyundagi “Umumta’lim muassasalari direktorlari lavozimiga nomzodlarni dastlabki tarzda saralab olish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 202-sonli buyrug‘i.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydagi “Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3755-sonli qarori.

siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi PF-5843-son Farmoni.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida Prezidenti Huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4472-son qarori.

Nargiza JO‘RAYEVA,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

MAKTAB DIREKTORLARINI MAKTAB TA’LIMI SIFATI MENEJMENTINI REALIZATSIYALASHGA TAYYORLASH JARAYONI SAMARADORLIGINI EKSPERIMENTAL TADQIQ QILISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktab ta’limi sifati menejmentini amalda realizatsiyalashni tegishlicha ta’minlash uchun “Maktab ta’limi sifati menejmenti” o‘quv moduli ishlab chiqilganligi va ishlanmaning asosiy maqsadi ta’lim menejerlarining kasbiy kompetensiyalarini maktab ta’limi sifati menejmentini samarali joriy qilish va umuman boshqaruvchilik faoliyatiga kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish jihatidan rivojlantirish hisoblanishi, o‘quv modulining samaradorligini tekshirish uchun esa rejali malaka oshirish o‘tayotgan 74 nafar maktab direktori ishtirokida maxsus tajriba-sinov tashkil qilinganligi va o‘tkazilganligi haqida tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. O‘quv moduli, tajriba-sinov, kompetentlik, so‘rovnoma, qiyosiy tahlil, samaradorlik.

В целях обеспечения надлежащей реализации управления качеством школьного образования в данной статье разработан учебный модуль “Управление качеством школьного образования”, представлена аналитическая информация по организации и проведению специального эксперимента с участием 74 директоров школ, которые проходят плановое обучение.

Ключевые слова. Учебный модуль, эксперимент, компетентность, опрос, сравнительный анализ, эффективность.

In order to ensure the proper implementation of school education quality management, this article has developed a training module “School education quality management”, provides analytical information on the organization and conduct of a special experiment with the participation of 74 school principals who undergo scheduled training.

Key words. Training module, experiment, competence, survey, comparative analysis, effectiveness.

Pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, maktab ta’limi sifati menejmentini ta’sirchan realizatsiyalash uchun ma’lum sharoitlar talab etiladi. Ularning asosiylaridan biri maktab direktorining tegishlicha tayyorgarligi hisoblanadi[1]. U maktab muassasasi amaliyotida mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi, tegishlicha sifatning o‘tkazuvchisi va mutaxassislarning ta’lim oluvchilarning muvofiq kompetentligi, jamiyat, davlat va muayyan shaxslarning ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlariga ehtiyojlari

[1] Вульфсон Б.Л. Управление образованием на Западе: тенденции централизации и децентрализации. // Педагогика. 2007. – № 2. – С. 110-117.; Ксензова Г.Ю. Перспективные школьные технологии: Учебно-методическое пособие. – М.: Педагогическое общество России, 2011. – С.198.; Кузнецов В. Личность директора школы. // Народное образование. 2003. №9/10. – С. 19-23.

qanoatlantirilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan o‘zaro hamkorligiga asoslangan optimal rahbarlikni tartibga soluvchi sanaladi.

Shundan kelib chiqqan holda, Maktab ta’limi sifati menejmenti” o‘quv moduli ishlab chiqildi. Uning samaradorligini tekshirish uchun esa rejali malaka oshirish o‘tayotgan 74 nafar maktab direktori ishtirokida maxsus tajriba-sinov tashkil qilindi va o‘tkazildi.

Respondentlarning tarkibi:

ayollar – 52,7 foiz (39 nafar);

erkaklar – 47,3 foiz (35 nafar);

3 yilgacha kasbiy faoliyat stajiga ega bo‘lganlar – 25,7 foiz (19 nafar);

4 yildan 6 yilgacha kasbiy faoliyat stajiga ega bo‘lganlar – 45,9 foiz (34 nafar);

7 yildan 9 yilgacha kasbiy faoliyat stajiga ega bo‘lganlar – 45,9 foiz (34 nafar);

10 yil va undan ortiq kasbiy faoliyat stajiga ega bo‘lganlar – 12,2 foiz (9 nafar).

Tajriba-sinovda xatoliklarga (validlikning pasayishiga) ta’sir ko‘rsatadigan artefaktlarni maksimal darajada hisobga olish, pedagogika fanida qabul qilingan matematik statistika metodlarini qo‘llashni hisobga olgan holda to‘laqonli tahlil o‘tkazish uchun sharoit yaratish uchun tajriba-sinov tanlanmasi (n=74) qiyoslashda tegishli guruhlarga ajratildi:

– Tajriba guruhi (34 nafar ta’lim menejeri / 45,9 foiz), bu guruhdagi respondentlarga ishlab chiqilgan modul bo‘yicha ta’lim berildi;

– Nazorat guruhi (40 nafar ta’lim menejeri / 54,1 foiz), bu guruhdagi respondentlarga ishlab chiqilgan modul bo‘yicha ta’lim berilmadi.

Bunda tanlanma, shuningdek, tajriba-sinovda qiyoslash guruhlarini shakllantirish Microsoft Excel dasturida maxsus funksiya yordamida generatsiyalangan tasodifiy sonlar jadvalini qo‘llab randomlash yo‘li bilan amalga oshirildi. Qiyoslash guruhlaridagi barcha ta’lim menejerlari tajriba-sinov davrida deyarli bir xil sharoitda bo‘lgan, ya’ni rejali malaka oshirish kurslarini o‘tagan. Tanlanmani shakllantirishning bu sharti ham ancha muhim bo‘lib, umuman, tajriba-sinov xatoliklariga (validlikning pasayishiga) ko‘maklashadigan turli artefaktlarning (o‘rganilayotgan belgining tabiiy rivojlanishi, malaka oshirish dasturining o‘rganilayotgan belgiga ta’siri va boshq.) pasayishiga ko‘maklashadi.

Yuqorida aytilganidek, tajriba guruhi sinaluvchilari rejali malaka oshirish o‘tayotgan vaqtda (n=34) ular bilan ishlab chiqilgan modul bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borildi. Shu bilan birga, nazorat guruhi respondentlari (n=40) amaldagi dastur bo‘yicha malaka oshirdi, ya’ni ular bilan ishlab chiqilgan modul bo‘yicha ta’lim olib borilmadi. Bunda ham tajriba (n=34), ham nazorat (n=40) guruhi respondentlari faoliyat olib boradigan maktab muassasalari maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligi nuqtayi nazaridan uch marta baholandi. Birinchi baholash tayyorlangan o‘quv modulini o‘tkazishdan oldin, ikkinchi baholash respondentlar rejali malaka oshirishni o‘taganidan 4 oy keyin, yakuniy (uchinchi) baholash esa respondentlar rejali malaka oshirishni o‘taganidan 8 oy keyin amalga oshirildi. Uch martalik baholash, shuningdek, vaqt ko‘rsatkichlari (oraliqlari) asosan maktab ta’limi sifati menejmentining tuzilmaviy-mazmuniy modeli xususiyatlari, amalda nisbatan uzoq vaqtni talab etadigan shu yo‘nalishda tizimli ishlarni tashkil qilish va olib borish zarurati bilan belgilandi.

Maktab ta’limi sifati menejmentining samaradorligini baholash oldindan tayyorlangan ekspert so‘rovnoma bo‘yicha amalga oshirildi. Instrumentariy asosini maktab ta’limi sifati menejmentining samaradorlik ko‘rsatkichlari tashkil etdi. Ekspert baholashni tegishlicha tashkil qilish, standartlashtirilgan shart-sharoitlar yaratish maqsadida ishlab chiqilgan so‘rovnomaga batafsil yo‘riqnoma ham kiritildi. Maktab ta’limi sifati menejmenti

samaradorligini o‘z vaqtida va xolis baholash uchun so‘rovnoma o‘tkazishga 85 nafar ekspert jalb qilindi, ulardan:

47 nafari (55,3 foiz) – O‘zbekison Respublikasining turli umumta’lim muassasalarida (o‘rta maktablarda) o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirayotgan ta’lim menejerlari;

38 nafari (44,7 foiz) – shahar va viloyat xalq ta’limi hududiy boshqarmalari mutaxassislari.

Har uchala ekspert (takroriy) baholash natijalari dastlabki qayta ishlashdan keyin umumiy jadvalda birlashtirildi. Mazkur jarayon har bir maktab muassasasi uchun maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini baholashning tegishli kriterial bloklari bo‘yicha o‘rtacha statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash yo‘li bilan amalga oshirildi. Bular:

– maktabning o‘quv-tarbiya jarayoni;
– maktabning tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
– maktabning kadrlar ta’minoti;
– maktabning ilmiy-metodik faoliyati;
– maktabni axborot texnologiyalari bilan ta’minlash;
– maktabning moddiy-texnik ta’minoti.

Bunda ekspert baholashning yakuniy talqini (interpretatsiyasi) ishlab chiqilgan ekspert so‘rovnomadagi kabi o‘n balli shkala bo‘yicha amalga oshirildi:

1-2 ball – maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligining past darajasi;

3-4 ball – maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligining o‘rtachadan past darajasi;

5-6 ball – maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligining o‘rtacha darajasi;

7-8 ball – maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligining o‘rtachadan yuqori darajasi;

9-10 ball – maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligining yuqori darajasi.

Bu umumlashtirish olingan natijalarni matematik statistik tahlil qilish imkonini berdi. Chunonchi, qiyosiy tahlil o‘tkazishning tobora maqbul yo‘lini (matematik-statistik mezonni) belgilash uchun olingan natijalar ularning normal taqsimoti nuqtayi nazaridan tajriba va nazorat guruhlaridagi ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda o‘rganildi. Buning uchun tobora ommalashgan Kolmogorov-Smirnovning λ – noparametrik mezoni SPSS-23 dasturi yordamida qo‘llandi. Olingan natijalarga ko‘ra, maktab ta’limi sifati menejmentini ham tajriba, ham nazorat guruhida barcha (birinchi, ikkinchi va uchinchi) ekspert baholash $r<0,05$ bo‘lganda normal taqsimotdan statistik ahamiyatli farqqa ega ekani aniqlandi. Bu muhim holatni hisobga olgan holda, keyinchalik matematik statistik tahlilda faqat noparametrik mezonlardan foydalanildi.

Chunonchi, uch o‘lchamni yaxlit qiyosiy tahlil qilish maqsadida Fridmanning x^2 (K bog‘langan tanlanmalar uchun) noparametrik mezonidan SPSS-23 dasturi yordamida foydalanildi. Olingan natijalar qayd qilish imkonini berdiki, ekspert (birinchi, ikkinchi, uchinchi) baholashlar ($r<0,05$ bo‘lganda) faqat tajriba guruhida ($n=34$) statistik ahamiyatli farqqa ega. Nazorat guruhida ($n=40$) esa ($r<0,05$ bo‘lganda) bunday statistik ahamiyatli o‘zgarishlar kuzatilmadi.

Bunda Vilkoksonning noparametrik ye-mezonini (ikkita bog‘liq tanlanma uchun) qo‘llash aniqlash imkonini berdiki, tajriba guruhida ($n=34$) tobora ahamiyatli farq quyidagilar o‘rtasida kuzatiladi:

– maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini birinchi yakuniy baholash va maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini uchinchi yakuniy baholash;
– maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini ikkinchi yakuniy baholash va

maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini uchinchi yakuniy baholash (1-jadval).

1-jadval

Tajriba guruhida (n=34) maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini Vilkoksonning T-mezoni bo‘yicha ekspert baholashni qiyosiy tahlil natijalari

T.r	Qiyoslash belgilari	Asimptotik ahamiyatlilik (2-tomonlama)	
1	Maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini ikkinchi yakuniy baholash (tajriba guruhi) – maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini birinchi yakuniy baholash (tajriba guruhi)	0,019	statistik ahamiyatli farq kuzatildi (r>0,05 bo‘lganda
2	Maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini uchinchi yakuniy baholash (tajriba guruhi) – maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini birinchi yakuniy baholash (tajriba guruhi)	0,000	statistik ahamiyatli farq kuzatildi (r>0,05 bo‘lganda)
3	Maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini uchinchi yakuniy baholash (tajriba guruhi) – maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini ikkinchi yakuniy baholash (tajriba guruhi)	0,000	statistik ahamiyatli farq kuzatildi (r>0,05 bo‘lganda)

Shu bilan birga, nazorat guruhida (n=40) bunday statistik ahamiyatli farq kuzatilmadi (2-jadval).

2-jadval

Nazorat guruhida (n=40) maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini Vilkoksonning T-mezoni bo‘yicha ekspert baholashni qiyosiy tahlil natijalari

T.r	Qiyoslash belgilari	Asimptotik ahamiyatlilik (2-tomonlama)	
1	Maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini ikkinchi yakuniy baholash (nazorat guruhi) – maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini birinchi yakuniy baholash (nazorat guruhi)	0,550	statistik ahamiyatli farq mavjud emas (r>0,05 bo‘lganda
2	Maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini uchinchi yakuniy baholash (nazorat guruhi) – maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini birinchi yakuniy baholash (nazorat guruhi)	0,813	statistik ahamiyatli farq mavjud emas (r>0,05 bo‘lganda)
3	Maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini ikkinchi yakuniy baholash (nazorat guruhi) – maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini ikkinchi yakuniy baholash (nazorat guruhi)	0,964	statistik ahamiyatli farq mavjud emas (r>0,05 bo‘lganda)

Shuningdek, muhimki, Mann Uitnining (bog‘lanmagan tanlanmalar uchun) noparametrik U-mezonini qo‘llash natijalariga ko‘ra:

– ishlab chiqilgan o‘quv moduli bo‘yicha o‘qitishni amalga oshirishdan (maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini birinchi yakuniy baholash) oldin tajriba (n=34) va nazorat (n=40) guruhlari o‘rtasida statistik ahamiyatli farq kuzatilmadi, ya’ni guruhlar o‘rganilayotgan belgiga ko‘ra bir turlidir (r>0,05 bo‘lganda);

– ishlab chiqilgan o‘quv moduli bo‘yicha o‘qitishni amalga oshirishdan (maktab ta’limi sifati menejmenti samaradorligini birinchi yakuniy baholash) keyin tajriba (n=34) va nazorat (n=40) guruhlari o‘rtasida statistik ahamiyatli farq kuzatildi (r>0,05 bo‘lganda).

Mohiyatiga ko‘ra, bu ijobiy statistik ahamiyatli ma’lumotlar tajriba-sinov tadqiqotimiz davomida o‘rganilayotgan belgi rivojlanishiga fonga oid ta’sirlarni maksimal darajada istisno qilish imkonini beradi.

Maktab ta’limi sifati menejmenti: past darajada bo‘lgan maktablar soni sezilarli o‘zgarmadi (birinchi baholashda 10 foiz – 4 ta maktab, ikkinchi baholashda 10 foiz – 4 ta maktab, uchinchi baholashda 7,5 foiz – 3 ta maktab); o‘rtachadan past darajada bo‘lgan maktablar soni bir oz qisqardi (birinchi baholashda 50 foiz – 20 ta maktab, ikkinchi baholashda 45 foiz – 18 ta maktab, uchinchi baholashda 42,5 foiz – 17 ta maktab); o‘rtacha darajada bo‘lgan maktablar soni bir oz ortdi (birinchi baholashda 30 foiz – 12 ta maktab, ikkinchi baholashda 35 foiz – 14 ta maktab, uchinchi baholashda 42,5 foiz – 17 ta maktab); o‘rtachadan yuqori darajada bo‘lgan maktablar soni sezilarli o‘zgarmadi (birinchi baholashda 10 foiz – 4 ta maktab, ikkinchi baholashda 10 foiz – 4 ta maktab, uchinchi baholashda 7,5 foiz – 3 ta maktab); maktab ta’limi sifati menejmenti yuqori darajada bo‘lgan maktablar aniqlanmadi.

Yuqorida bayon qilinganlarning hammasi Fridmanning $\chi 2$ (K bog‘langan tanlanmalar uchun), Vilkoksonning ye (2 ta bog‘liq tanlanma uchun) va Mann Uitnining (bog‘lanmagan tanlanmalar uchun) noparametrik U-mezoni bo‘yicha ham statistik tasdiqlandi.

Bularning hammasi “Maktab ta’limi sifati menejmenti” o‘quv moduli yetarlicha amaliy samaradorlikka ega ekanidan dalolat beradi va uni amaliyotda qo‘llash uchun tavsiya qilishga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begimqulov U.Sh. va boshq. Pedagogik ta’limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.: Fan, 2011. – 232-b.
2. Вульфсон Б.Л. Управление образованием на Западе: тенденции централизации и децентрализации. // Педагогика. 2007. – № 2. – С. 110-117.
3. Исмандияров Я.У. Инновационный характер управления качеством образования. // Качество высшего и профессионального образования в постиндустриальную эпоху: Сущность, обеспечение, проблемы. – Казань, 2016. – С. 87-89.
4. Ксензова Г.Ю. Перспективные школьные технологии: Учебно-методическое пособие. – М.: Педагогическое общество России, 2011. – С. 198.
5. Кузнецов В. Личность директора школы. // Народное образование. 2003. №9/10. – С. 19-23.
6. Матназарова М.Б. Качество образования и факторы, влияющие на профессиональную подготовку педагогических кадров. // Современные инновации: Достижения и перспективы III тысячелетия Материалы международной научно-практической конференции. – М.: 2018. – С. 55-58.

Nargiza MAMANAZAROVA,
A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi tizimi muammolarini o‘rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA KASBGA YO‘NALTIRISHDA VARIATIV TA’LIMNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktabi bitiruvchilarini kasbga yo‘naltirishda o‘quvchi tomonidan mavjud bilimlarning o‘zlashtirilish darajasi va uning qobiliyatlarini inobatga olgan holda tabaqalashtirilgan variativ ta’limni joriy etish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. O‘qituvchi, o‘quvchi, ta’lim muassasa, ta’lim, ta’lim sifati, variativ o‘quv reja, variativ ta’lim, kasb, kasbga yo‘naltirish.

В статье рассматривается внедрение дифференцированного обучения с учетом уровня овладения имеющимися знаниями и умениями обучающегося при профориентации выпускников общеобразовательных школ.

Ключевые слова. Учитель, студент, образовательное учреждение, образование, качество образования, вариативный учебный план, вариативное образование, профессия, профориентация.

The article discusses the introduction of differentiated education, taking into account the level of mastery of existing knowledge and abilities of the student in the vocational guidance of graduates of secondary schools.

Key words. Teacher, student, educational institution, education, quality of education, variable curriculum, varied education, profession, career guidance.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili sifatida ta’lim sohasida muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Taraqqiy etgan insoniyat o‘tmish natijalarini jadal baholab, uning rivojlanishi mumkin bo‘lgan istiqbollarni belgilab bermoqda. Uchinchi ming yillik muammolariga mos keladigan ta’limning yangi qiyofasini topish vazifasi davlat, fan va amaliyotning aqliy, tashkiliy va resurs sa’y-harakatlarini talab etadi.

Zamonaviy sharoitda ta’lim tizimi shaxs imkoniyatlari va ehtiyojlarini har doimgidan ham ko‘proq inobatga olish zarur. Zero, ta’lim shaxsning kasbiy jihatdan takomillashuvini ta’minlovchi asosiy omil sanaladi. Takomilashgan, davr talablariga to‘la javob bera oladigan ta’lim o‘z xususiyatiga ko‘ra, shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi, demakki, uning hayotiy intilishlari, ehtiyojlari hamda qiziqishlariga mos kelishi lozim. Bu esa o‘quvchi tomonidan mavjud bilimlarning o‘zlashtirilish darajasi va uning qobiliyatini inobatga olgan holda tabaqalashtirilishi maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunga qadar jahonning ko‘pgina rivojlangan mamlakatlari ta’lim tizimida ustuvor o‘rinni egallab kelgan hamda bilimlarni o‘zlashtirishning o‘rtacha darajasiga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilarga mo‘ljallangan an’anaviy ta’lim iste’molchilar ehtiyojini qondira olmayapti. Uzluksiz tadqiqotlar, ta’lim samaradorligi va istiqbolini belgilash yo‘lidagi amalga oshirilgan tahlillar zamonaviy sharoitda an’anaviy ta’limning davlat tomonidan erkin, mustaqil va har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishga qo‘yilayotgan ijtimoiy talabni qondirish imkoniyatiga ega emasligini

ko‘rsatmoqda. Takomillashgan ta’lim tizimi ta’lim oluvchilarning ichki imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish va qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Ayni vaqtda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda markazda o‘qitish jarayonining asosiy ishtirokchisi bo‘lgan o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishga imkon beruvchi barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bunday sharoitlarga variativ ta’limni joriy etilishi va rivojlanishi hisoblanadi. G‘arbdagi ko‘plab ta’lim muassasalari o‘z faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida uzoq vaqtdan buyon variativ ta’limdan foydalanib kelmoqda.

Amerikada o‘qish 5 yoshdan boshlanib, 18 yoshgacha davom etadi. Tuzilishi nuqtayi nazaridan Amerika maktab tizimi O‘zbekiston xalq ta’limi tizimiga bir qancha o‘xshash jihatlari bor. Jumladan, maktabga tayyorlov va boshlang‘ich sinflarni birlashtiruvchi “Boshlang‘ich ta’lim” (1-5-sinf) kabi tushunchalar mavjud. Shuningdek, o‘rta maktablar (6-8-sinflar) va yuqori maktablar (9-12-sinflar) ham bor.

O‘rta ta’limning oxirgi bosqichi yuqori maktabdir (high school). 14 dan 18 yoshgacha bo‘lgan yuqori maktab o‘quvchilari uchun maktab muayyan fanga va kelajakdagi oliy ta’lim uchun tor doiradagi mutaxassislik profiliga qaratilgan keng miqyosli o‘quv va fakultativ kurslarni taklif etadi. 9-12 sinf o‘quvchilari sinf va fanlarni tanlashda erkindirlar.

Boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘quvchilarning individual iste’dodlarini rivojlantirish maqsadida qobiliyatlariga ko‘ra sinflarga bo‘linadi. Boshlang‘ich maktabda o‘qitiladigan fanlarning chuqur o‘rganishga va uyga beriladigan vazifalarning murakkablik darajasi bog‘liq holda iqtidorli va o‘zlashtirish darajasi past bo‘lgan o‘quvchilar uchun alohida sinflar mavjud. Uchinchi sinfdan boshlab har bir bola maxsus imtihonlar topshiradi va ularning natijalariga ko‘ra ta’lim berishda o‘qituvchilar ma’lum bir fanlarga e’tiborlarini qaratadilar.

O‘rta maktabda majburiy fanlarga matematika, ingliz tili, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar (shu jumladan, jahon tarixi) va jismoniy tarbiya fanlari kiritilgan. 8-sinfdan boshlab o‘quvchilar o‘qiydigan fanlarini mustaqil tanlashlari mumkin.

Yuqori maktabda o‘quvchilar bir necha qo‘shimcha sinflarda ta’lim olishlari mumkin. Bu yuqori talabga ega mutaxassisliklar bo‘yicha oliy ta’limga kirish uchun kerak bo‘ladigan fanlardir: chet tillari, kompyuter grafikasi va veb-dizayn, informatika, robototexnika, jurnalistika, kinematografiya, teatr san’ati.

Yakuniy imtihonlarni topshirganlaridan so‘ng, barcha o‘quvchilar O‘rta maktab bitiruv shahodatnomasini oladi. Oliy ta’limda ixtisoslashuv rejalashtirayotgan fanlar haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishni istaganlar 13-sinfga – ilg‘or maktablarga (Advanced Placement) borishlari mumkin. Ushbu dastur doirasida ta’lim olish Amerika qo‘shma shtatlari universitetlari, Kanada, Buyuk Britaniya va 50 dan ko‘proq mamlakatlar oliygohlariga kirishda 90 foiz gacha imtiyoz beriladi.

Amerika ta’limining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri raqobatning yuqoriilgidir. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim muassasalar tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga majbur qiladi.

Yevropa mamlakatlarida maktab ta’limi majburiy va bepul bo‘lib, xususiy maktablar bundan mustasno. Majburiy ta’lim 10 yil davom etadi, keyingi ikki yil (11-, 12-) oliy ta’lim dasturlariga tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, o‘quvchilar o‘z xohishlariga ko‘ra qatnashishlari mumkin.

G‘arb va O‘zbekiston maktablarining o‘rtasidagi asosiy farqlardan biri shundaki, ular o‘quvchilarni katta miqdordagi umumiy fanlar bilan zo‘riqtirmaydilar. Eng boshi-

dan boshlab bolaga bir nechta asosiy fanlar beriladi. Ular atrofida ta’lim quriladi. Misol uchun, Buyuk Britaniya kollejlariga ixtisoslashuv 14 yoshdan boshlanib, bunda bola o‘z ambitsiya va qobiliyatlariga mos keladigan bir nechta fanlarni tanlaydi va o‘quvchi oliy ta’limga kirish uchun kerak bo‘ladigan bor-yo‘g‘i 3-4ta akademik yo‘nalish bo‘yicha ta’lim oladi. Maktablarda o‘qish muddati 11 yildan 13 yilgachani tashkil etadi. Yevropadagi o‘rta maktabda kamida oxirgi ikkita yuqori sinfni tamomlab, yakuniy imtihonlardan muvaffaqiyatli o‘tib, oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarisiz talaba bo‘lish huquqini beradi.

13-14 yoshdan boshlab o‘quvchilar o‘z xohish-istaklari va kasbiy qiziqishlariga ko‘ra fanlarni tanlash imkoniyatiga egadirlar. Odatda, bular, 4-6 ta fan bo‘lib, ular yanada chuqurroq o‘rganiladi.

Agar kasb yo‘nalishi hali aniqlanmagan bo‘lsa, nufuzli oliygohlarda qadrlanadigan yuqori reytingli fanlarni tanlash imkoniyati mavjud.

G‘arb ta’lim muassasasi mahalliy ta’limga nisbatan quyidagi taqdim etayotgan afzalliklar quyidagilardan iborat:

– jamoaviy amaliyot va loyiha faoliyatiga ko‘proq e’tibor beriladi;

– ingliz yoki boshqa tilda doimiy muloqot qilish zarurati mavjudligi tufayli boshqa tillarni ham qiyinchiliklarsiz o‘zlashtiradi;

– oiladan uzoqda yashayotgan bolalarga o‘z-o‘ziga ishonish, mas’uliyat va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi;

– xorijiy o‘rta ta’limdan keyin chet el oliygohlariga kirish ancha oson. O‘rta maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bu o‘quvchi uchun ma’naviy jihatdan ham yaxshi, u taxminan uni kelajakda nima kutayotganini biladi;

– stereotipik fikrlash yo‘qoladi va dunyoqarash kengayadi.

Yaponiya ta’lim xizmatlari ilm-fan va texnologiya yutuqlarini ta’limga tatbiq etishni nazarda tutadi. Yaponiya maktab tizimi uch bosqich bilan ifodalanadi: boshlang‘ich maktabda o‘quvchilar 6 yil, o‘rta maktabda-3 yil, yuqori maktabda-yana 3 yil o‘qiydi.

Boshlang‘ich maktabda yosh yapon bolalari matematika, yapon tili, tabiiy (kimyo va fizika boshlang‘ich sinfdan o‘rgatiladi) va ijtimoiy fanlarni (odobnoma, tarix va etika), uy xo‘jaligini yuritish, musiqa, jismoniy tarbiya va tasviriy san’atni o‘rganadi.

O‘rta maktab boshlang‘ich maktab bilan bir xil fanlarni o‘rganishda davom etadi. Biroq, qo‘shimcha ravishda (maktabga qarab) ingliz tili va maxsus tanlov fanlari qo‘shiladi.

Yuqori maktablarda o‘quvchilarning ta’lim dasturi avvalgi bosqichlardan katta farq qilmaydi. Biroq, o‘quvchilar muayyan mutaxassislik bo‘yicha materialni o‘rganishga ko‘proq vaqt sarflashlari mumkin.

Umuman olganda, ta’lim dunyoda iqtisodiyotning eng tez sur’atlar bilan o‘sib borayotgan va istiqbolli sohalaridan biridir. Mutaxassislarning fikricha, dunyo bo‘yicha ta’lim xizmatlariga talab va taklif hajmi juda sezilarli darajada o‘smoqda va jadallik bilan rivojlanayotgan mamlakatlarda ularning yillik o‘sish sur’ati 10-15 foizga yetadi. Rivojlanish salohiyati va mantiqligi bilan ta’lim sohasi investorlarning e’tiborini tobora ko‘proq jalb qilmoqda.

Xorijiy tajribada samarali tashkil etilgan variativ ta’lim muassasaning ijobiy imidjini shakllantirib, maktab bitiruvchilari va ularning ota-onalari uchun qo‘shimcha dasturlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Tahlil va tahlil natijalari muhokamasi. Variativ ta’lim dasturlari xorijiy mamlakatlarda turlicha tatbiq etilgan bo‘lib, mehnat bozorining ehtiyoji, zamon talabi va milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda shakllangan hamda ijtimoiy-iqtisodiy va milliy-madaniy

sharoitlarni chuqur anglashni talab qiladi.

Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim sohasida izchil islohotlar olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmonining ijrosini ta’minlash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash, o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish, maktab o‘quvchilarining oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rishlariga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida Xalq ta’limi vazirining 2019-yil 28-dekabrdagi 405-son buyrug‘i qabul qilindi. Unga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 2019-2020 o‘quv yilidan boshlab variativ o‘quv rejalarni tajriba sinovdan o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Tadbirkorlik, sanoat, aloqa va axborot kommunikatsiya texnologiyalari, turizm sohalarida ishlashning nufuzli ekanligi borasida bitiruvchilarning ehtiyojini o‘rganish ta’lim xizmatlari marketingining vazifasi bo‘lib, o‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq. Bitiruvchilar kasb tanlashlari, mehnatga munosabatlari ularning ijtimoiy barkamolligi va javobgarlik darajasini aniqlab beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘quvchi-yoshlarning mehnatga bo‘lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar asosida bugungi kun yoshlari kelajak hayotining muhim tanlovi bo‘lgan mehnat faoliyatini yo‘nalishlarini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 15-iyundagi “O‘mumiy o‘rta ta’lim maktablarida variativ o‘quv rejalarni tajriba-sinovdan o‘tkazish bo‘yicha tavsiya” to‘g‘risidagi 144-son buyrug‘i asosida 2020-2021 o‘quv yilida 7-8-9-10-11-sinflarida tanlov sinfini tashkil etish uchun quyidagi yo‘nalishlar tavsiya etilgan:

1-yo‘nalish: 10-11-sinf uchun – xorijiy til va filologiya yo‘nalishi;

2-yo‘nalish: 10-11-sinf uchun – moliya – iqtisod yo‘nalishi;

3-yo‘nalish: 7-8-9-10-11-sinflar uchun – veb-frilanser (internet tarmog‘i orqali mehnat daromadi olish) yo‘nalishi;

4-yo‘nalish: 10-11-sinf uchun – texnologiya yo‘nalishi;

5-yo‘nalish: 10-11-sinf uchun – tabiiy fanlar yo‘nalishi;

6-yo‘nalish: 10-11-sinf uchun – ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish;

7-yo‘nalish: 10-11-sinf uchun – boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi;

8-yo‘nalish: 10-11-sinf uchun – kimyo texnologiya yo‘nalishi;

9-yo‘nalish: 10-11-sinf uchun – geografiya va geologiya yo‘nalishi;

10-yo‘nalish: 10-11-sinf uchun – maktabgacha ta’lim va psixologiya yo‘nalishi;

11- yo‘nalish: 10-11-sinf uchun – tarix va arxeologiya yo‘nalishi;

12- yo‘nalish: 10-11-sinf uchun – turizm yo‘nalishi.

Tanlov sinfi yo‘nalishi 10-, 11-sinflar kesimida o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish orqali aniqlandi. Bunda, bir nafar o‘quvchi faqat bitta yo‘nalishni tanladi.

Tanlov sinfida variativ (o‘zgaruvchan) o‘quv rejani tajriba-sinovdan o‘tkazishda quyidagi 8 ta majburiy fan o‘qitiladi: Ona tili va adabiyoti, O‘zbek tili/rus tili, Chet tili, Tarix, Matematika, Informatika, Ma’naviyat asoslari, Jismoniy tarbiya. Mazkur majburiy fanlarga ajratilgan soatlarning miqdori tayanch o‘quv rejada belgilangan miqdordan (10-sinfda jami 19 soatdan, 11-sinfda 19,5 soatdan) kam bo‘lmasligi belgilandi.

An’anaviy sinf 15 ta majburiy fanni, tanlov sinfi 8 ta majburiy fanni o‘qishi belgilangan.

Taqdim etilayotgan 12 ta variativ o‘quv reja yo‘nalishlari, o‘quvchilarni kasbga

yo‘naltirish bo‘yicha amaldagi tizimni o‘rganish natijasida quyidagi muammolar aniqlandi:

– taqdim etilayotgan 12 ta variativ o‘quv reja yo‘nalishlari zamonaviy kasblarni egallashga yo‘naltirilgan bo‘lib, asosan, shaharda keng tarqalgan kasblarni qamrab olgan hamda hududning o‘ziga xos xususiyatlari, milliy hunarmandchiligi inobatga olinmagan;

– variativ o‘quv reja asosida ta’limni tashkil etishda pedagogik kadrlar yetishmaydi;

– dars jarayonida amaliy mashg‘ulotlarning deyarli o‘tilmasligi, amaliyot va hayot bilan bog‘lanmaganligi, berilgan materialni yodlash bilan cheklanib qolmoqda;

– o‘quvchilarni kasbga tayyorlashda hududning mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoji o‘rganilmagan.

Shundan kelib chiqqan holda variativ ta’limni tashkil etishda quyidagi vazifalarni qo‘yilishi lozimligini ko‘rsatadi:

– shaxs rivojlanishining madaniy va tarixiy psixologiyasida, rivojlanish, individual va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyalarida mavjud bo‘lgan ilmiy shart-sharoitlarni o‘rganish;

– pedagogikada variativ ta’lim tajribasidagi tendensiyalarning tarixiy-pedagogik tahlil qilish;

– umumiy o‘rta ta’lim maktab bitiruvchilarining ta’lim va o‘qishiga qiziqishlarini uyg‘otish, kasb tanlashga yo‘naltirish va mustaqil hayotda o‘z o‘rnini topish mexanizmlarini takomillashtirish;

– variativ ta’limni tashkil etish shart-sharoitlarini aniqlash, o‘quvchi shaxsini individual rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish;

– yuqori sinflar uchun variativ ta’lim yo‘nalishlarining muqobil variantlarini ishlab chiqish;

– sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tizimli muammolar bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqish;

– amaliy mashg‘ulotlar hajmini yanada oshirib, ta’lim va ishlab chiqarish jarayonlari integratsiyalashuvining aniq mexanizmlarini ishlab chiqish;

– maktab bitiruvchilarining kelajak maqsadlari, rejalari, kasb tanlashi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi.Ta’lim imkoniyatlarini doimiy oshirishga qaratilgan umumta’lim maktablarda ta’lim xizmatlari marketingini tashkil etish.

Mazkur tahlillardan xulosa qilgan holda, har tomonlama rivojlangan, mustaqil hayotga tayyor bo‘lgan komil inson tarbiyalashda milliy ta’lim tizimini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2019-yil 28-dekabrdagi 405-son buyrug‘i.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 15-iyundagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida variativ o‘quv rejalarni tajriba-sinovdan o‘tkazish bo‘yicha tavsiya”si to‘g‘risidagi 144-son buyrug‘i.

Komiljon KARIMOV,
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARINI MASOFADAN TURIB MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog kadrlarini masofadan turib malakasini oshirishning pedagogik asoslari, tashkiliy-metodik shart-sharoitlari, tamoyillari, ushbu jarayonni tashkil etishga qo'yilayotgan ijtimoiy-pedagogik talablar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagog kadrlar malakasini oshirishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Masofaviy ta'lim, ta'lim portallari, onlayn, offlayn, teskari aloqa, innovatsiya, intellektual, individual, axborot xavfsizligi.

В данной статье рассматриваются педагогические основы, организационно-методические условия, принципы дистанционного обучения руководителей и педагогов системы профессионального образования, социально-педагогические требования к организации этого процесса, роль и значение информационно-коммуникационных технологий в повышении квалификации. мастерство учителей.

Ключевые слова. Дистанционное обучение, образовательные порталы, онлайн, офлайн, обратная связь, инновация, интеллектуал, личность, информационная безопасность.

This article discusses the pedagogical basis, organizational and methodological conditions, principles of distance learning of leaders and teachers of the professional education system, the socio-pedagogical requirements for the organization of this process, the role and importance of information and communication technologies in improving the skills of teachers.

Key words. Distance learning, education portals, online, offline, feedback, innovation, intellectual, individual, information security.

Ma'lumki, keyingi yillarda yurtimizda ilm-fanga bo'lgan munosabat mutlaqo yangilandi. Ta'lim sohasini tubdan isloh etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarga keng yo'l ochildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iborat.

Ushbu islohotlar asnosida kasb-hunar ta'limi sohasida ham davlat siyosati o'zgardi, xalqaro andozalarga mos professional ta'lim tizimi joriy etildi. Professional ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar va pedagog kadrlarini malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son qarori mazkur islohotlarning yana bir poydevoriga aylandi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash har bir xodimning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha so‘nggi fan yutuqlari, yangiliklari bilan tanishish, ularni o‘zlashtirish, yangi amaliy ish usullari, ilg'or ish tajribalarini o‘rganishdan iborat ilmiy nazariy hamda amaliy tayyorgarlik jarayoni hisoblanadi.

Xalqaro pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, professional ta’lim tizimida masofaviy malaka oshirishni globallashuv sharoitlarga moslashtirish, ta’lim jarayonlari “Interactive professionalism” kabi yangicha shakllarga tayangan holda interfaol imkoniyatlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Malaka oshirish ilmiy-tadqiqot markazlari zimmasiga professional ta’lim tizimi rahbar va pedagog kadrlarni hududiy AKTga moslashtirilgan masofaviy malakasini oshirishni modellashtirishda axborot-kommunikatsiya tarmoqlari, masofaviy ta’lim texnologiyalari orqali malaka oshirish sifati va samaradorligini ta’minlash maqsadida taraqqiy etgan zamonaviy ta’lim paradigmalarini joriy etish, innovatsion “Pedagogik uyushmalar”ni tashkil etish, elektron didaktik vositalarni ishlab chiqish va obyektiv baholash mexanizmlarini yaratish amaldagi masofaviy malaka oshirish axborot-ta’lim muhitini takomillashtirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda professional ta’limi tizimi rahbar va pedagog kadrlarni masofaviy malakasini oshirish tizimini isloh qilish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifalarga muvofiq ta’lim portallarida onlayn va offlayn texnologiyalariga asoslangan masofaviy malaka oshirish kurslarining joriy etish orqali rahbar va pedagoglarning asosiy ishdan ajralmagan holda o‘quv kurslari ta’lim dasturlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish imkoniyatlarini yaratish, rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlarida tinglovchilarning malakaviy tayyorgarligini, zaruriy kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ularda yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarni ilg‘or axborot-ta’lim muhitida shakllantirish dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda pedagog kadrlar malakasini oshirishning pedagogik asoslari, tashkiliy-metodik shart-sharoitlari, tamoyillari, ushbu jarayonni tashkil etishga qo‘yilayotgan ijtimoiy-pedagogik talablar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagog kadrlar malakasini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati respublikamiz pedagog olimlari R.H.Jo‘rayev, U.I.Inoyatov, M.Aripov, M.M.Kamilov, Sh.E.Qurbonov, T.F.Bekmurotov, T.F.Jo‘rayev, U.Sh. Begimqulov, A.R.Hodjaboyev, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, X.F.Rashidov, N.I.Tayloqov, O.X.Turaqulov, J.A.Hamidov, Sh.S.Shodiyev, O.J.Bobomurodov, A.X.Nishonov, R.H.Hamdamov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari tufayli kasbiy rivojlanish qisqa vaqt ichida va ta’lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy sharoitida ayniqsa, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan minimal xarajatlar bilan masofaviy o‘qitishni taklif etmoqda. Takomillashtirish jarayonida masofaviy texnologiyalardan foydalanish degan xulosaga pedagog xodimlarning malakasi uzluksiz ta’lim, o‘z-o‘zini rivojlantirish, mutaxassislarning bilim darajasini oshirish, axborot va tajribalarni ommaviy almashish, chegaralardan qat’i nazar, jarayon ishtirokchilarining o‘z-o‘zini anglashi uchun teng imkoniyat yaratadi.

Masofaviy ta’lim – o‘quv jarayonining maqsadi, mazmuni, uslublari, o‘qitish vositalari va internet texnologiyalari yordamida tinglovchi hamda o‘qituvchilarning masofadan turib, interfaol muloqot qilish jarayoni sanaladi.

Masofaviy ta’lim – bu, muayyan sohada mutaxassislar tayyorlash tizimidagi barcha fanlarni kompleks tarzda masofaviy o‘qitishga asoslangan, biroq, kompleks doirasida

o‘qish jarayoni uchun qat’iy belgilangan joy va vaqt mezoni shartli o‘rnatilmagan ta’lim shaklidir. Bu ta’rif mohiyatini to‘la va to‘g‘ri tushunish uchun, uni yuqorida qayd etilgan masofaviy o‘qitishning ta’rifi bilan birga keltirish kerak. Masofaviy o‘qitish zamonaviy ta’limning eng muhim va tobora ommaviylashib borayotgan shakli sanaladi. Masofaviy ta’lim uslubi o‘qitishning yangicha zamonaviy shakli bo‘lib, u tinglovchining mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mustaqil bilim olishga, izlanishga, fikrlashga o‘rgatadi.

Masofaviy ta’limning afzalligi shundaki, unda har kim o‘ziga qulay vaqtda, qulay joyda, qulay muhitda bilim olishi mumkin. Shu tufayli ushbu tizim bugungi kunda dunyoda keng ommalashmoqda. Masofaviy ta’limning ijobiy tomonlarini ko‘radigan bo‘lsak, bugungi kunda dunyoda ko‘pgina OTMlar, yirik korxonalar mutaxassislar malakasini oshirishda ushbu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab pul mablag‘larini tejamoqda. Shuningdek, masofaviy ta’limning tashkiliy-iqtisodiy afzalliklari ham mavjud bo‘lib, masalan, o‘qitish uchun xonalar, doskalar, stollar va boshqa o‘quv qurollari zarur emas. Moliyaviy xarajatlar asosan o‘quv-uslubiy materiallar tayyorlash hamda internet trafik uchun sarflanadi. Tabiiyki, xarajatlar kamayadi. O‘quv-uslubiy materiallar qanchalik tushunarli va batafsil bo‘lsa, shunchalik tinglovchiga foydali bo‘ladi.

Masofaviy ta’limda tinglovchi va o‘qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o‘zaro maxsus yaratilgan o‘quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo‘ladi. Internet texnologiyasini qo‘llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta’lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi. Integratsiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi. Masofaviy o‘qitish barcha ta’lim olish istagi bo‘lganlarga o‘z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o‘qitish jarayonida tinglovchi interaktiv rejimda mustaqil o‘quv-uslubiy materiallarni o‘zlashtiradi, nazoratdan o‘tadi. O‘qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa “vertikal o‘quv guruhi” tinglovchilari bilan muloqotda bo‘ladi. Ma’lum sabablarga ko‘ra, ta’lim muassasalarining kunduzgi bo‘limlarida tahsil olish imkoniyati bo‘lmagan, masalan, sog‘ligi taqozo etmaydigan, mutaxassisligini o‘zgartirish niyati bo‘lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo‘lgan kishilar uchun masofaviy o‘qitish qulay o‘qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o‘qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya’ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog‘liq. Masalan, an’anaviy bosma usuliga asoslangan o‘qitish vositalari (o‘quv qo‘llanma, darsliklar) tinglovchilarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma’lum vaqt orasida o‘zaro muloqotda bo‘lishga, elektron pochta to‘g‘ri va teskari aloqa o‘rnatishga, ya’ni xabarlarni jo‘natish va qabul qilishga mo‘ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma’ruzalar tinglovchilarga ma’ruzalarni tinglash va ko‘rish imkonini bersa, maksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish tinglovchilarga o‘zaro teskari aloqa orqali o‘qitish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta’lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta’riflarni keltirib o‘tamiz. Masofaviy o‘qitish – eng yaxshi an’anaviy va innovatsion metodlar, o‘qitish vositalari va formalarini o‘z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta’lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim formasidir. Masofaviy o‘qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta’lim tizimidir. U ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidalari asosida o‘quv shart-

sharoitlari va o‘qituvchi bilan muloqotni ta’minlab berib, tinglovchidan ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o‘qish jarayoni ta’lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo‘lishiga bog‘liq emas.

Malaka oshirish tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiyalardan foydalanish:

– milliy axborot tizimini shakllantirishni ta’minlash;

– axborot tizimlarini yaratish;

– axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanish;

– axborot resurslari, texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish;

– milliy axborot tizimining axborot xavfsizligi, uning axborot tizimlari va resurslari himoya qilinishini ta’minlash kabilarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, malaka oshirish jarayonida axborot va pedagogik texnologiyalarni uzviy bog‘lagan holda olib borish bu jarayonning samaradorligini oshirishga, tinglovchilarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatlarida ta’lim texnologiyalari va ulardan maqsadli hamda samarali foydalana olishlariga olib keladi. Malaka oshirish jarayonining samaradorligi ularga qo‘yilgan talablarga bog‘liq bo‘ladi. Bunday sharoit barcha ta’lim muassasalarida yaratilsa, natijada malaka oshirish va pedagog xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazish hamda ularga malaka toifalari berish jarayonlarini integratsiyalash orqali pedagog xodimlarda kasbiy mahoratni doimiy oshirib borishga bo‘lgan motivatsiya ortib, jamg‘arib boriladigan birliklar asosidagi malaka oshirish va attestatsiyaga tayyorgarlik ko‘rishda aynan bir xil faoliyatni takrorlash holatining oldi olinadi, ortiqcha vaqt sarfi kamayishi va iqtisodiy tejamkorlikka erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni. –T., 2019-yil 6-sentabr, PF-5812-son. https://lex.uz/docs/4500926.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-son qarori. https://lex.uz/docs/5309472

3. Parpiyev A. va boshq. Elektron universitet. Masofaviy ta’lim texnologiyalari. – T.: O‘zME davlat ilmiy nashriyoti 2008. –196-b.

4. Abdukadirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti (monografiya). – T.: Fan, 2009.

5. Fozilov J.K., Yuldashev M.A., Yaxyayev M.S., Tojiyeva F.M. Pedagog kadrlarning bilvosita malakasini oshirishni joriy qilishning ilmiy-amaliy asoslari (Umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagoglari misolida). – T.: Turon zamin ziyo, 2014.

Dilfuza NURMANOVA,
Samarqand viloyati XTXQTMOHM, Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi uslubchisi

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING SINF RAHBARI SIFATIDAGI FAOLIYATI MAZMUNINI YANGILASH (MALAKA OSHIRISH KURSLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda sinf rahbarlarini xalq ta’limi tizimida uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi muammolari, malaka oshirish tizimini – “Life learning” tamoyili asosida takomillashtirishdagi muammolar va ularni tahlil qilish, Xorij va mamlakatimiz olimlarining malaka oshirish tizimidagi mavjud muammolar, yangiliklar hamda sinf rahbarining kompetentligini takomillashtirish masalalari tahlil qilinib, metodik tavsiyalar ishlab chiqish haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, malaka oshirish, life learning, kompetentlik, kasbiy imidj, sinf rahbari, ta’limning uzviyligi va uzluksizligi, normativ-huquqiy hujjatlar, metodik tavsiya, kasbiy sifat.

В статье рассматриваются проблемы непрерывного профессионального развития классных руководителей в системе народного образования в начальных школах, проблемы совершенствования на основе принципа “Life learning” и их анализ. Проанализированы существующие проблемы в системе повышения квалификации зарубежных и отечественных учёных, нововведения и вопросы повышения компетентности классного руководителя, даны рекомендации по разработке методических рекомендации.

Ключевые слова. Учителя начальной классы, профессиональное развитие, “Life learning” профессиональная компетентность, профессиональный имидж, классный руководитель, преемственность и непрерывность образования, нормативно-правовые документы, методическая рекомендация, профессиональное качество.

This article analyzes the problems of continuous professional development of class teachers in primary education in the system of public education, the problems of improving the system of professional development on the basis of the principle of “Life learning” and their analysis. The existing problems in the system of advanced training of foreign and domestic scientists, innovations and issues of improving the competence of the class teacher are analyzed, and methodological recommendations for the development of methodological recommendations are given.

Key words. Primary school teachers, professional development, life learning, competence, professional image, class teacher, continuity and continuity of education, legal documents, methodological recommendations, professional quality.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari sinf rahbarlik sifatidagi kompetentligini rivojlantirish, o‘z ustida doimiy mustaqil ishlash, kasb mahoratlarini doimiy oshirib borishlariga katta e’tibor qaratishlari bugungi kunning dolzarb mavzusidir.

Barchamizga ma’lumki, pedagog kadrlar malakasini oshirish har besh yilda bir marta belgilangan edi. Ammo, hozirgi zamonda ta’lim jarayoni shiddat bilan rivojlanayotgan davrda besh yilda bir malaka oshirish o‘qituvchining kasbiy rivojlantirishi uchun uzoq vaqt hisoblanadi. “Life learning” tamoyili asosida xalq ta’limi xodimlarini ularning

malaka darajasi, bilimi, ilmiy pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi kabi malaka oshirish dasturlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarorida 2021-yil 1-martdan boshlab tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari tomonidan xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish bo‘yicha ehtiyojlarini o‘rganiladi hamda “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi orqali ularning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi tuziladi. Xalq ta’limi xodimlarini malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo‘yicha o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi to‘g‘risida vazifalar amalga oshrilishi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabdagi PF-6108-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonda so‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish, ta’lim tizimi hamda ilm-fan sohasi o‘rtasidagi yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma’rifat egalari, jismoniy va ma’naviy sog‘lom insonlar etib tarbiyalash, ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish masalasi barcha davrlarda ham dolzarb muammolardan bo‘lgan. Xususan, Sharq mutafakkirlari ta’limotini tarbiyaviy jihatdan birlashtirgan pedagoglarning ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda sinf rahbarlarining kasbiy kompetentliligiga axloqiy sifatlarga uzviy bog‘liqligi nechog‘liq beqiyos o‘rinda ekanligi aytib o‘tilgan. Jumladan, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Bobur, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Is’hoqxon Ibrat kabi buyuk allomalarimizning ta’limning inson hayotidagi o‘rni haqida bot-bot ta’kidlaganlar.

“O‘qituvchi – deydi Al Farobiy, – aql-farosatga, chiroyli nutqga ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur”. U o‘z fikrini davom ettirib, “O‘qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o‘xshaydi, shu sababli o‘qituvchi eshitgan va ko‘rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq, ifodalab berishni bilmog‘i lozim. Shu bilan birga o‘z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo‘lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi”, - deb ta’kidlaydi.

Qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino fikricha, “O‘qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo‘y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq-qoidalarini yaxshi biladigan odam bo‘lmog‘i darkor. O‘qituvchi o‘quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim”.

Nosiriddin Tusiy o‘zining “O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida” asarida shunday deydi: “O‘qituvchi munozaralarini olib borishda isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalanadigan bo‘lishi

lozim. O‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandalik, qo‘pol yoki qattiq bo‘lishi mumkin emas. Dars paytida o‘qituvchining o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin”.

1. Tubdan o‘zini o‘zgartirib maqsadga yo‘naltirilgan xususiy imidji yaratish;
2. Aniq konsepsiya (g‘oya) va maqsad asosida imidjini tarkib toptirish;
3. Tanlangan obraz uchun imidji tashkil etuvchi o‘z-o‘zini baholay olish ko‘nikmasini o‘zlashtirish;
4. Asosiy adresat (auditoriya) imidjini aniqlab, ijtimoiy rollarini bilib olish;
5. Imidji shakllanishda obyektiv va subyektiv cheklanishlarni inobatga olgan holda ichki ustanovka fundamentini talab etilgan imidjini qaror toptirish;
6. O‘z-o‘zini taqdimot etish texnologiyasini o‘zlashtirish;
7. Tarkib toptirilgan imidjini yaqinlari yoki hamkasblariga taqdimot qilish;
8. Qo‘yilgan maqsadga qay darajada erishilganligini tahlil va korrektirovka qilish;
9. O‘z imidjini qo‘llab amaliy muloqotda sinab ko‘rish;
10. Kelajakda o‘z imidjini mukammallashtirish va rivojlantirish.

O‘qituvchi pedagogik mahoratini “O‘qituvchining axloqiy shakllanishi” yo‘nalishida o‘rgangan M.Ochilov pedagogik mahoratni egallashning muhim manbasi axloq deb ta’kidlab, kasbga oid axloq normalarini shunday ta’riflaydi: “Faoliyatning ma’lum bir sohasi bilan shug‘ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar, talablar ham bor. Bunday axloq kasb (professional) axloqi deyiladi. Har bir jamiyatda hukmron bo‘lgan axloq bilan kasb axloqi o‘rtasida ma’lum bir munosabat mavjud. Bu umumiylik bilan xususiylik o‘rtasidagi munosabatdir. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalari va kamchiliklarini o‘zida mujassamlashtiradi, oydinlashtiradi va rivojlantiradi” - deydi.

Pedagogik faoliyatda, u ta’limning qaysi bosqichda bo‘lishidan qat’i nazar ta’lim-tarbiyaga bevosita va bilvosita daxldor bo‘lgan har bir shaxsning ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligining shakllanishi uzoq va uzluksiz amalga oshiriladigan jarayondir. Ya’ni bugungi kunda pedagogik faoliyatda tinimsiz ravishda o‘z ustida ishlash, sohaga oid yangiliklaridan xabardor bo‘lish, o‘zida yangi kasbiy sifatlarni shakllantira olishni taqozo qilmoqda.

Umumpedagogik xususiyatlarni o‘zida jamlagan holda kompetentlilikka malaka oshirish kurslarida kasbiy sifatlarini oshirgan holda boshlang‘ich sinf rahbarlaridan quyidagi xususiy kompetentlilikka ham ega bo‘lishlari kerak:

– Sinf rahbari sifatidagi rahbarlik ilmidan xabardorlik kompetentliligi;
– O‘quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash kompetentliligi;
– Har xil xarakterga ega bolalarni bir jamoa shaklida uyushtira olish kompetentliligi;
– Ota-onalar va ularni o‘rnini bosuvchi yaqin qarindoshlari bilan samimiy aloqa o‘rnata olish kompetentliligi;
– Ta’limga oid yangiliklarni o‘rganish va undan foydalana olish kompetentliligi;
– Sinfda paydo bo‘lgan yoki paydo bo‘lish ehtimoli mavjud nizolarni bartaraf eta olish kompetentliligi;
– Bolalarga mehribonlik, samimiylik sifatlarini namoyish eta olish kompetentliligi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kompetentli mutaxassis sifatida sinf o‘quvchilarning o‘ziga xos bo‘lgan fazilatlari, qobiliyatlarini o‘z vaqtida anglashi va uni rivojlantirishi talab etiladi. Ko‘pchilik boshlang‘ich sinflarida sinf o‘quvchilari orasida ko‘pchilikka o‘xshamaydigan, o‘z intellektual imkoniyatlari bilan sinfdagi boshqa o‘quvchilardan

ajralib turadigan iqtidorli bolalar bo‘ladi. Ammo, sinfda iqtidorli o‘quvchilar orasida iqtidori yashirin bo‘lgan bolalar ham mavjud. Sinf rahbari ana shunday yorqin iste’dodli o‘quvchilarni rivojlantirish bilan bir qatorda yashirin iste’dodlarni ham kashf qilib rivojlantirishi lozim.

Yashirin iste’dodlarni kashf qilib rivojlantirishda o‘quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlikda ishlashi zarur.

Sinf rahbarining ishi faqat iste’dodlarni kashf etib, ularni rivojlantirish bo‘lib qolmay sinfda tarbiyaviy ishlarni ham o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan birgalikda olib borilsa, maqsadga erishishda natija yuqori bo‘lishini katta ehtimol bilan tasdiqlash mumkin.

Bugungi kunda sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etishning ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, o‘rganish va amaliyotga joriy etish ijtimoiy zaruratga aylanib qoldi. Shu sababli ham uning bunday faol ish sharoitlarini yaratish maqsadida yuqorida qayd etilgan Farmon va Qarorlarini ijrosini ta’minlash maqsadida, hududiy malaka oshirish markazlarida pedagogik yo‘nalishlarda ijtimoiy zarurat asosida o‘quv modullari tashkil etilmoqda. Masalan, 2021-yilning fevral oyidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari yo‘nalishida “Sinf rahbarlarini tayyorlash” o‘quv modulida tinglovchilarni o‘qitib kelinmoqda.

Sinf rahbarlari tomonidan sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga odob-axloq qoidalarini o‘rgatish, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishlarining oldini olish, turli xil g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarning sodir etilishi oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish orqali o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli band etish kabilarni amalga oshirishlari bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishlarida ma’lumotlarning umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lib, kasbiy kompetentligini rivojlantirishi uchun yaxlitligini ta’minlaydi. Sinf rahbarlarini “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasida o‘qitish ularni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o‘qitish, o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishni yordam berishga qaratilgan.

Muxtasar qilib aytganimizda, hozirgi globallashuv jarayonida ta’lim tizimini modernizatsiyalashning asosiy shartlaridan biri sinf rahbarlarini ish faoliyatlariga tayyorgarliklarini diagnostika qilish, pedagogik va kasbiy bilimlarini integratsiyasini ta’minlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 22-fevraldagi 41-son buyrug‘iga ilova. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida Nizom.

3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.X. va boshqalar. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: O‘qituvchi, Darslik. 2014. –144-b.

4. Musurmanova O. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligi omili. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, Monografiya. 2020. –183-b.

Oyistaxon ASHUROVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg‘ona filiali assistenti

TIBBIY OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA PEDAGOG KADRLARNI KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI VA KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODELI

Annotatsiya

Ushbu maqola tibbiy oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarni kasbiy malakasini rivojlantirish metodikasi va kadrlar tayyorlash milliy modeli haqida bo‘lib, pedagogik o‘zaro harakat, texnologik xarakter, uzluksiz ta’lim, funksiyalar keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Harakat, talab, pedagog kadr, kasb, funksiya, davlat talablari.

Статья посвящена методике повышения квалификации преподавателей медицинских вузов и национальной модели обучения, педагогическому взаимодействию, технологической сущности, непрерывному образованию, функциям.

Ключевые слова. Движение, востребованность, педагогические кадры, профессия, функция, государственные требования.

The article is devoted to the methods of advanced training of teachers of medical universities and the national model of education, pedagogical interaction, technological essence, lifelong education, functions.

Key words. Movement, demand, teaching staff, profession, function, state requirements.

Pedagogik o‘zaro harakat ham texnologik xarakterga ega va pedagogdan nafaqat intuitsiya va improvizatsiyani, balki chuqur kasbiy bilim va ko‘nikmalarini ham talab etadi. U bosqichli rivojlanadi – oldindagi jarayonni modellashtirish, kontaktga kirishish, bevosita muloqot, kontaktdan chiqish, bo‘lgan jarayon tahlilidir. Bu bosqich bilimlarini o‘z-o‘zidan tabiiyki, pedagog-professionalga tegishli bo‘lishi mumkin. Biroq o‘qituvchi yuksak mahoratining haqiqiy indikatori ko‘p sonli psixologik-pedagogik, metodik, maxsus-ilmiy va boshqaruv bilimlari, bu jarayonni amalga oshirish texnologiyasi va texnikasi hisoblanadi.

Talabalar bilan o‘zaro harakatni modellashtirishni amalga oshishi bevosita pedagog-analitik, bashoratchi, turlicha omillarni va hamkorlikdagi ijodiy faoliyatini kechish shartlarini hisobga oladigan, nafaqat model yaratuvchi qobiliyatga, balki o‘z ijodiy imkoniyatlaridan va o‘rganuvchilarning potensial kuchlaridan amaliyotda sifatli foydalanish mahoratga ega bo‘lishi kerak. Pedagog-professionalning ijodkorligi uning faoliyatida namoyon bo‘lganligi uchun o‘z-o‘zidan o‘z-o‘zini takomillashtirish, malakasini oshirish talablarini keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, uzluksiz ta’lim tizimi oliy o‘quv yurti o‘qituvchisi kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirishda, uning umumiy, siyosiy va kasbiy tayyorgarligini malaka oshirish jarayonida ta’minlashda, aniqrog‘i, tinglovchilarda qaysi bilim va ko‘nikmalarini tiklash, ularni to‘ldirish va yangilash, kelajak uchun berish kabi pedagogik vazifalarini yechishga ko‘maklashadi.

Ana shu yo‘nalishda olib borilgan izlanishlar natijasida o‘qituvchilar malakasini

oshirish tizimi uchun umumiy bo‘lgan asosiy funksiyalar aniqlandi va tizimlashtirildi. Ularning asosiylari: tiklovchi, to‘ldiruvchi, yangilovchi va bashoratlovchi hisoblanib pedagog xodimlar malakasini oshirishning dasturli-maqsadli funksional asosini tashkil etadi.

1. Tiklovchi funksiya. o‘qituvchining muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi uchun nazariy-amaliy ahamiyat kasb etgan zarur axborotlarni saralashni taqozo etadi. Ular o‘z vaqtida Oliy o‘quv yurtlari auditoriyalarida o‘zlashtirilgan, biroq keyinchalik qisman unutilgan yoki faoliyat davomida foydalanilmay kelinadi.

Masalan, tinglovchi shaxsning psixologik tuzilmasi, o‘qitish metodlari tasnifi va boshqalar haqida noaniq tasavvurga ega bo‘lishi mumkin.

2. To‘ldiruvchi funksiya o‘qituvchi faoliyatida asqotadigan, biroq obyektiv va subyektiv sabablariga ko‘ra oliy o‘quv yurtlarida o‘rganilmay qolgan axborotlarni tizimlashtirishni ko‘zda tutadi.

3. Yangilovchi funksiyaning joriy etilishi fan, xususiy metodika, ilg‘or tajriba yutuqlari asosida vujudga kelgan tamoman yangi axborotlarni o‘rganishni va umumlashtirishni talab etadi. U eskirib qolgan stereotip fikrlashni va ishlash metodlarini yo‘qotishga, pedagogik jarayon uchun yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga qaratilgan. Masalan, bugun ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadi – erkin shaxsni shakllantirish sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq, bu muammoni eski, sobiq sho‘ro tizimidagi avtoritar o‘qitish metodlari yordamida hal etish mushkul. Shu boisdan bugun o‘qitishning interfaol metodlaridan oqilona foydalanish bilan yakuniy natijani kafolatlash mumkin.

4. Bashoratlovchi funksiya fanga tegishli ma’lum hodisalarni ularning sonli nazariyalari asosida tushuntirish, asosiy jarayonlarni modellashtirish, qonun va xususiyatlarini analitik tasavvurlash, hodisalarning kechish muddat va sonini oldindan aytib berish imkoniyatlari mavjud bo‘lgan axborotlarni to‘plashga imkon beradi, rivojlangan fan tilida mashg‘ulotlar olib borishni ta’minlaydi.

Uzluksiz ta’limni tashkil etish malaka oshirish tizimida ishlayotgan pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirishni, tinglovchilar faoliyatini tahlil qilishini, o‘tilayotgan har bir mashg‘ulot samarasini ta’minlovchi didaktik sharoitlarni aniqlashni va shu asosda kafedralarda uzluksiz malaka oshirish rejasini ishlab chiqish g‘oyasini olg‘a suradi. Malaka oshirishda uzluksizlik va ketma-ketlik pedagogning oliy o‘quv yurtini tugatgandan keyingi davrni, uning mutaxassis kasbiy tavsifnomasida (davlat talablarida) qayd etilgan nazariy tayyorgarligini va amaliy ko‘nikmalarini, ish faoliyati davomida erishgan yutuqlarni hisobga olish bilan belgilanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, oliy o‘quv yurtlarida pedagoglarning malakasini oshirish bo‘yicha “Davlat talablari” ishlab chiqilganligi bu tizimda uzluksizlikni ta’minlashga, zaruriy o‘quv reja va dasturlarni zamonaviy pedagogika fani yutuqlari, ta’lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish yo‘nalishlarini aniq belgilab olishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

“Davlat talablari” malaka oshirish yo‘nalishlari rahbar kadrlarga fan o‘qituvchilariga qo‘yiladigan talablarni, malaka oshirishning tashkiliy-uslubiy ta’limotini, uning sifatini baholash mexanizmlarini belgilashga imkon beradi. Shu boisdan biz tadqiqotimizning dastlabki sharti sifatida oliy o‘quv yurti pedagoglarning malaka oshirishga qo‘yilgan minimum talablarini belgilab olishga harakat qildik.

Birinchi navbatda tinglovchilarning kasbiy funksiyalarini va asosiy lavozimlarini aniq belgilab olish kerak bo‘ladi. Bizning tajribamizda maqsadli yondashuv – lavozimlari va ish sharoitlari bilan bog‘liq maqsadlarni – funksiyalarni ajratib ko‘rsatish o‘zini oqladi.

Masalan, dekan uchun quyidagi funksiyalar juda muhim:

– talabalarni tarbiyalashga pedagogik rahbarlik;

– o‘quv jarayonini boshqarish;
– umumma’muriy va moliyaviy-xo‘jalik ishlari;
– pedagogik jamoa bilan ishlash; ijtimoiy targ‘ibot va tashkilotchilik faoliyati. Agar dastlabki uch funksiya bevosita boshqaruvga oid bo‘lsa, keyingilari dekan faolyatining umumiy tuzilmasiga, me’yorlashmagan ishchi vaqtga kiradi. Fanlar bo‘yicha mutaxassis uchun zaruriy bilim va ko‘nikmalar quyidagi tamoyillar asosida aniqlandi.

Bilimlar: metodologik va me’yoriy, umumnazariy (psixologik-pedagogik), tashkiliy-metodik, aniq-lavozimli va predmetli-xususiy asoslar yordamida;

Ko‘nikmalar: tashxisli-prognostik tarzda axborotni yig‘ish, uning tahlili, tizimlashtirish, muammo, maqsad, va vazifalarni aniqlash, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;
– tashkiliy-regulyativ – dasturni bajarish, moddiy sharoitlarni vujudga keltirish, joriy axborotlarni uzatishni tashkil etish, nuqsonlarni yo‘qotish va boshqa;
– nazoratli-yangilovchi – pedagogik obyekt yoki jarayonlarni takomillashtirish bo‘yicha yechimlar qabul qilish, bosqichli yakuniy axborotlarni yig‘ish;
– tizimlashtirish va tahlil qilish.

Bilim va ko‘nikmalarni bunday tasavvurlash oliy maktab pedagog xodimlarining funksional layoqati modeli – talablar majmuini tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy talablar quyidagilardan iborat:
– ta’lim berish mahorati;
– tarbiya ishlarini olib borish mahorati;
– o‘quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta’minlovchi shaxsiy fazilatlarni namoyish qilish mahorati;
– talabalarning bilim va ko‘nikmalarini obyektiv nazorat qilish va baholay olish mahorati.

Ta'lim berish mahorati pedagog xodimlarga qo‘yiladigan talablar va o‘quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi omillar bilan tavsiflanadi:
– o‘quv-bilish faoliyatini loyihalash va amalga oshirish qobiliyati, qo‘llab-quvvatlanishi;
– pedagogning psixologiya va pedagogika fani bo‘yicha tayyorgarligi;
– fanni mukammal bilishi, kasbiy omilkorlik, zakovatlilik;
– yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini loyihalash qonuniyatlarini bilish;
– xorijiy ta’lim tizimidagi yangi axborotlarni o‘rganish manbai sifatida chet tillarni bilish;
– oliy ta’lim tizimiga oid me’yoriy hujjatlarni bilish;
– o‘quv-tarbiya jarayonini samarasini ta’minlovchi moddiy texnika bazasiga oid axborotlarni o‘zlashtirish.

Tarbiya ishlarini olib borish mahorati pedagogning yuksak axloqiy fazilatiga, ma’naviy saviyasiga, mafkuraviy qarashlarga asoslanadi. Talabalarda dunyoviy tafakkurni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ular ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish jarayonlari pedagogning kasbiy mahoratiga bevosita bog‘liqdir.

O‘quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta’minlovchi pedagogning shaxsiy fazilatlari: talabchanlik va adolatlilik, fidoyilik va halollik, xayrixohlik, kirishimlilik, xazil-mutoyiba hissi va jiddiylik. Ushbu fazilatlar pedagogni “ustoz” darajasiga ko‘taradi, talabalar oldida obro‘-izzatni oshiradi, uning ta’lim berish va tarbiyalay olish mahoratiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Talabalar bilim va ko‘nikmalarini obyektiv nazorat qilish va baholay olish mahorati

ta’lim-tarbiya jarayonning samarasini belgilovchi natijaviy sifat ko‘rsatkichidir. Pedagog talabalar bilimini nazorat qilishning obyektiv va subyektiv metodlarini mukammal bilishi, qo‘llay olish, reyting tizimini joriy etish mahoratiga ega bo‘lishi lozim.

Pedagogning umumlashtirilgan modeli o‘zgaruvchan, dinamik tarzda rivojlanuvchan xarakterga ega bo‘lib, jamiyat tomonidan o‘qituvchilarga qo‘yiladigan yangi talablar hamda ularning malaka oshirishi orqali erishishiga intiladigan talablari majmui bilan to‘lib boradi.

Malaka oshirish mazmunini va hajmini aniqlash uchun “Malaka oshirish nima?” degan savolga javob topish lozim.

Malaka oshirish – Davlat ta’lim standartlarining mazmuni hamda o‘quv-tarbiyaviy jarayonining yangi shakl va metodlarini egallash zarurati tufayli pedagog xodimlarning o‘z nazariy bilimlarini, amaliy ko‘nikmalarini uzluksiz yangilab borish jarayonidir.

Oliy o‘quv yurtlari pedagoglariga qo‘yiladigan malakaviy talablar umumlashtirilgan model doirasida o‘qituvchining zamonaviy qiyofasini belgilaydi. Ular birinchi navbatda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga tayanadi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yo‘naltiriladi.

Oliy ta’limning asosiy funksiyalarini belgilaymiz:

– gumanistik (insonga, uning mavjudligini ta’minlashga, rivojlanishi va o‘z-o‘zini namoyish qilishga yo‘nalganlik);

– aksiologik (jahon va ko‘p millatli O‘zbekistonliklarning qadriyatlarini saqlash);

– ijtimoiy-madaniy (milliy madaniyat bilan boshqa xalqlar va jahon madaniyatini omuxta qilgan holda o‘z xalqi madaniyatini egallashga ko‘maklashish);

– innovatsion (inson bilimlar arsenali va faoliyat usullarini yangilash, ilmiy-tadqiqiy faoliyatida uning tayanch yo‘nalishlarini shakllantirish);

– ijtimoiy-integrativ (insonning integrativ ta’limiy-ilmiy-ishlab chiqarish faoliyatiga qo‘shilishi; o‘quv, ilmiy-amaliy bilim va ko‘nikmalar integratsiyasi tajribasini uzatish; ushbu jarayonning ulkan imkoniyatlarini ochish);

– prognostik (bo‘lajak kasblarning mohiyatini mazmunan tushuntirish, insonning uni egallashiga bo‘lgan talablarini turg‘unlashtirish; uning istiqbolidagi kasbiy rivojlanishi va shaxsiy o‘sishini ochib berish).

O‘zbekistonda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy yangilanishlar ta’limni rivojlantirish tizimida ham o‘z aksini real topadi. Talabalarni o‘qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni, metodlari o‘zgaryapti. Biroq, hali-xanuz ta’lim-tarbiya faoliyati tizimida bosh harakatdagi shaxs pedagog bo‘lib qolyapti. Agar pedagogik o‘zaro harakat kuchsiz bo‘lsa, eng qiziqarli mazmun, eng taraqqiy texnologiya ham ta’lim sifatini ko‘tara olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Афанасьев В.Г. О системном подходе в социальном познании/ Вопросы философии, 1973. № 6. – С. 98-111.

2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – С.256.

3. www.ziyonet.uz

Hilola BOTIROVA,
Andijon davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti dotsenti

O'ZBEKISTONDA XALQ CHOLG'U – IJROCHILIK SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada yillar davomida sayqallanib kelinayotgan bastakor va ijodkorlar ilmiy ijodlari, Sharqning buyuk mutaffakkirlarining musiqiy qarashlari, musiqa va san'at maktablariga berilayotgan e'tibor va e'tiroflar, ijrochilik san'ati haqida olimlar fikrlari bayon etib o'tilgan.

Kalit so'zlar. San'at, ijrochilik, afsona, cholg'u, musiqa, qobiliyat, ijro, ijodkor, bastakor.

В данной статье изложены научные труды композиторов и творцов, которые шлифуются на протяжении многих лет, музыкальные взгляды великих мыслителей Востока, внимание и признание, оказываемые школам музыки и искусства, мнения ученых об испольнительском искусстве.

Ключевые слова. Искусство, исполнитель, легенда, инструмент, музыка, способности, испольнение, создатель, композитор.

This article describes the scientific works of composers and creators, which have been polished over the years, the musical views of the great thinkers of the East, the attention and respect to the schools of music and art, the opinions of scientists about the Performing Arts.

Key words. Art, performance, legend, instrumental, music, ability, performance, creator, composer.

Hayotimizdagi bor musiqiy san'atimizning ichida musiqa san'ati ko'plab asrlar davomida insonlarning hayot-turmush tarzida hamroh bo'lib, ularning mehnat faoliyatlarini, his-tuyg'usini hamda kechinmalarini o'y fikrlari va orzu-umidlarini aks ettirib kelgan san'at turi bo'lib kelmoqda. Tarixiy manbalarimizga e'tibor berib qaraganimizda ijrochilik san'ati kecha yoki bugun hayotimizga kirib kelgani yo'q. Aksincha, insonga jon ato etilishi ham rivoyat va afsonalarimizda nay cholg'usidagi musiqiy ohanglar ijrosi ostida kirib kelganligi haqida ma'lumotlar bor. Musiqa mavzusi ko'proq hadislarda yoritilgan. Turli xil ilmiy izlanishlardan shu narsa aniqlandiki, musiqaga bo'lgan qarshilikning ikkita asosiy sababi mavjud. Har bir sabab ma'lum bir tarixiy davrga to'g'ri keladi va siyosiy-mafkuraviy hamda madaniy rivojlanish bilan bog'liq bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ijro san'atiga to'xtalar ekanmiz, buyuk ajdodlarimiz bosib o'tgan yo'llarini asoslab o'tmay iloji yo'q. Sharq musiqa ilmining yirik namoyondalaridan biri Farobiy (taxallusi, to'la nomi esa Abu Nasr Muhammad ibn Uzlug Tarxon Farobiy) – o'rta asr Sharq musiqa madaniyatining eng yirik namoyondasi. Manbalarda ko'rsatilishicha, u zabardast bastakor hamda ud, tanbur, g'ijjak, nay va qonun asboblarining mohir ijrochisi bo'lgan. Farobiy o'tkir didli va ajoyib musiqaviy qobiliyati tufayli O'rta va Yaqin-Sharqda yashovchi turli xalqlarning musiqa madaniyati bilan yaqindan tanish bo'lgan. Uning musiqaviy qarashlarining shakllanishida, ayniqsa, O'rta Osiyo va Eron xalqlarining musiqa merosi katta

ta’sir ko‘rsatgan. Bu xalqlarning musiqa merosini ilmiy va amaliy tomonlarini chuqur o‘zlashtirganligi haqida Farobiyning asarlarida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Afsonalarning birida Farobiyni soz chalib, kuy ijro etib, odamlarni sarosimaga solganligi, gohida jo‘shqin kishilarni xomush ahvolga tushirib, ba’zan esa ziyraklarni uxlatib, shinavandalarni xayratda qoldirganligi to‘g‘risida rivoyatlar mavjud. Ilmda esa, olamshumul ahamiyatga molik asarlar bunyod etib, musiqashunoslik tarixida so‘nmas iz qoldirgan.

Farobiy musiqaga oid ko‘p asarlar yozgan. Manbalarda uning “Ilmlar klassifikatsiyasi” (“Ixso al-ulum”), “Katta musiqa kitobi” (“Kitob al musiqa al-kabir”), “Musiqaga kirish” (“Mad-hal fi-l-musiqa”), “Ritmlar klassifikatsiyasi kitob” (“Kitob ixsa al-iqo‘”) va boshqa ko‘plab asarlari tilga olinadi. Bu asarlarinng ayrimlari qo‘l yozma sifatida dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Zamonaviy ilmga Farobiyning asosan, ikkita musiqa asari keng joriy qilingan. Ular – “Ilmlar klassifikatsiyasi”ning musiqaga bag‘ishlangan bo‘limi va “Katta musiqa kitobi”dir.

Farobiy ilmu ta’lifining yuqorida zikr etilgan har bir kategoriyasini keng va mukammal bayon qiladi. Ilmu ta’lif dastlabki tushuncha tovushning musiqaviy va fizik xususiyatlarini o‘rganishidan boshlanadi. Tovush biron-bir qattiq yoki yumshoq tananing tebranishidan hosil bo‘ladigan fizikaviy hodisa, deb ta’riflanadi. Keyinchalik tovushning akustik xususiyatlari, ya’ni tebranuvchi tananing hajmi va tovush baland-pastligi o‘rtasidagi munosabatlar, turli cholg‘u asboblari misolida ochib beriladi hamda ularning miqdorlarini matematik uslubda ifodalash omillari tushuntiriladi. “Kuylar qasida va she’r bilan qiyoslanadi. She’riyatda dastlabki element harflar bo‘lib, vatad ularning qo‘shilmasidan misra va baytlar hosil bo‘lgani kabi, kuylar tuzilishida ham dastlabki va ikkinchi darajali elementlar borki, ulardan qasida va she’r bilan solishtirilayotgan kuy kelib chiqadi. She’riyatdagi harflar vazifasini kuylar o‘taydigan narsa nag‘malardir” - deb yozadi Farobiy.

Demak, tovushdan kelib chiqadigan tushuncha – nag‘ma (musiqaviy tovush, ton, parda)dir. Farobiy nag‘malarining past-balandlik sabablari, mutanosiblik omillari va shu xususiyatlar orqali hissiyotga ta’sir ko‘rsatish masalalari ustida mulohaza yuritadi (Farobiy. “Katta musiqa kitobi”, Qoxira, 1967-yilda chop qilingan). Bo‘d (interval) kategoriyasi ilm-u ta’lifning markaziy tushunchalaridan hisoblanadi. Chunki, parda hali o‘zi, alohida kuy bo‘lagi bo‘la olmaydi.

Ijrochilik san’atida maroqli o‘lmas durdonalari bilan o‘chmas iz qoldirgan ijodkor ustozimiz Borbad ijodiga nazar solmay o‘tishlikning iloji yo‘q. Buyuk mutafakkir Sharqda birinchi kasbiy (professional) musiqashunos, bastakor, xofiz, shoir san’atkor bo‘lgan ustazoda ijro san’ati namoyondasi Borbad 585-yil Marvda dunyoga kelgan. Bo‘lajak bastakor arab va ajam mamlakatlaridagi madrasalarda ta’lim olgan. Bastakorning ijodida “Navro‘zi buzrug”, “Gulzor”, “Sabzi bahor”, “Rohi gul”, “Polizbon” singari asarlarda bevosita tabiat go‘zalligi aks ettirilgan. U haftaning yetti kuniga ta’rif berib, “Xusrav ohanglari” to‘plamini, oyning o‘ttiz kuniga bag‘ishlab, kuy va taronalar yaratgan. Buyuk bastakor Borbad yaratgan kuy va taronalarning ko‘pchiligi bizning zamonamizgacha o‘zgarishsiz yetib kelgan va xalq tomonidan kuylanib, kitobdan-kitobga ko‘chirib kelingan.

Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Xoji Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy, hamda yuqorida nomlari tilga olingan buyuk mutafakkir olimu-fuzalolarimiz yozib qoldirgan durdona asarlarni yoritishimiz uchun nafaqat ilmiy to‘plamlar, hattoki, o‘quv adabiyotlarda yozib bayon etsak ham ular qoldirgan ilmiy asarlarinng oxiriga yetish qiyin chunki mutafakkirlarimiz yozib qoldirgan asarlarni

tarjima qilinmagan holatlari ham bugungi kunda uchrab turibdi. Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarimizning ijro mahoratlari musiqa ilmining qiyinchilik darajalarini baholab bergan desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Shu o‘rinda, nomlari zikr etilgan allomalarimiz, mutafakkir olimlarimiz ijro san’atiga qo‘shgan hissalari bugungi o‘lmas musiqiy durdona asarlarimiz zamirida yashamoqdadir. Oq va qora, past va baland, tun va kun, yaxshi va yomon, salbiy va ijobiy degan iboralar bor ekan, albatta farqlash hamda, eng ma’qulini tanlash imkoniyati paydo bo‘laveradi.

Mustaqil O‘zbekistonimiz mustaqillikka erishguniga qadar ham tarix manbalarida bilishimiz mumkinki, olimlarimiz musiqa ilmida ijod qilishda to‘xtashmagan. Asarlar xalq turmush tarziga mos hamda davr talabiga xos va mos asarlar bugungi kunda ham o‘z o‘rnini yo‘qotmagan holda o‘z tinglovchilari qalbidan joy olib kelmoqda. Tarix zarvaraqlarini varaqlar ekanmiz, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Ma’naviyati yuksak xalqning kelajagi buyukdir” degan so‘zlari yodimizga tushadi.

Ijrochilik san’atini xalqqa tanitishda Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Ilhomjon (dutorchi), Karimbekxo‘ja (g‘ijjakchi), Shobrot (tanburchi), Ilyosxo‘ja (changchi) va ularning shogirdlari: Yunus Rajabiy va Risqi Rajabiylar. Ilhomjon Ikromov (g‘ijjakchi bastakor), Po‘lat Raximov (kamonchi bastakor), Abdusoat Vahobov (dutorchi), Hofizlar Shoqosim, Shoolim, Shoakbar Shojalilovlar baxoli qudrat xizmat qildilar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Yillar davomida sayqallanib bastakor va ijodkorlar ilmiy ijodlari o‘rganib kelinmoqda. Lekin, biroz o‘rganilish jarayonlari jadal emas sust hollada barayotgani ham sir emas. Bunga sabab nima? Degan savol tug‘ilishi tabiiy. Zamonmi? Yoki tez va jadal borayotgan umrimizmi? Qo‘pol qilib aytganda, ‘‘ulgurib qolsang marraga yet’’ shiori ostida ko‘r-ko‘rona olib borilayotgan ilmiy izlanishlarmi? To‘g‘ri, bu so‘zlar nechog‘liq og‘ir botadi inson qalbiga. Lekin, bugungi kunda aksariyat yoshlarimiz hayotida bilishi kerak bo‘lgan tarixiy jarayonlar o‘rniga yengil-yelpi jahon musiqalari joy olganligi inson qalbini larzaga solmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida 2017-yil 31-maydagi Qarori maqsadi quyidagicha edi: ‘‘Mamalakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san’atning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash kabi oliy maqsadlarni qamrab olganini guvohi bo‘lganmiz’’. Ushbu qaror san’at sohasidagi barcha yo‘nalishlarga birdek o‘z ta’sirini ko‘rsatib, 2017-yil 3-avgust kuni “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusida Prezidentimizning davlatimiz ziyolilari bilan uchrashuvida: madaniyatimiz, san’atimizni rivojlantirishi hamda bu boradagi ijobiy tendensiyalar bilan birga, ayrim salbiy holatlar, ularning jamiyat hayotidagi ta’sirini xolisona va tanqidiy baholab, o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish, Ijodiy uyushmalar, Madaniyat vazirligi hamda uning tarkibidagi birlashma va tashkilotlar faoliyatini chuqur tahlil etib, ziyolilarning bugungi kunda jamiyat hayoti, islohotlar jarayonidagi o‘rni va vazifasini oshirish - deb ta’kidlab o‘tdilar.

Ushbu qaror o‘z yechimini bosqichma-bosqich o‘tab borayotganini yutuqlarda ko‘rishimiz mumkin. Hozir faqat yutuqlarimizni ko‘rib chiqsakda so‘ngida kamchilik va muammolarimizni ham tahlil qilib o‘tsak. Ushbu qabul qilingan Qaror loyihalar o‘z ta’sirini ijro san’atiga ham ko‘rsatdi. Unutilib borayotgan maqom san’atimizga e’tibor, kompozitorlik va bastakorlik ijodiyotga ahamiyat berishlik boralarida talaygina ishlar olib borildi va olib borilmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu jarayonni aynan nima

uchun ijrochilik san’atida yutuq va kamchiliklarga uchrab turibdi? degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga chuqurroq tahliliy yondashmasak yechimini ochib berish mushkul. Barchamizga ma’lumki, sozda ijro etish uchun ko‘plab mehnat va mashaqqat talab etiladi. 1 foiz iqtidor 99 foiz mehnat deyilgan so‘zlarimiz bejiz emas. Ushbu so‘zlarni tahlil qilib ko‘rsak, birgina kichik hajmdagi asarni 2 tordan iborat cholg‘uda mayin musiqiy ohanglarini tarannum etishni uddalay olish uchun o‘sha sozni qanday ushlash, undagi tovushlar joylashuvini bilish, cholg‘u sozini past va baland registr holatini mukammal bilish va undan so‘ngina asar ustida ishlash talab etiladi. Nechog‘liq murakkab jarayonlar, endi ushbu jarayonni yo‘lga qo‘yib olgan ijrochi har kuni o‘sha cholg‘u sozida mashq qilmas ekan, u o‘z ustida olib borayotgan mahorati o‘sish o‘rniga bir joyda to‘xtab qoladi. Bu biz aytayotgan jarayonlarning boshlanish pallasi xolos. Yuqorida ismlari zikr etilgan ustoz mutafakkir olimlarimiz bir vaqtning o‘zida ham sozanda, ham bastakor, ham xonanda, musiqashunos bo‘lib ijod etgan bir paytda yosh avlod ham shu darajaga yetishishi uchun birgina mashqning o‘zi kifoya qilarmikin?, yo‘q albatta.

“Xalqimizda bir go‘zal ibora bor “Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar”. Ha..... darhaqiqat ustoz ko‘rsatgan yo‘ldan borgan shogird hech qachon kam bo‘lgan emas. ‘‘Shogird ustozdan o‘tibdi’’ degan iboralarimiz ham bejiz aytilmagan[1].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Har bir o‘tayotgan daqiqalarimizdan samarali foydalansakgina, o‘z ko‘zlagan maqsadimizga erishamiz albatta. Ruhiyatimiz qanday vazifalarni bajarish va bizga qanday yordam berishi mumkin? Ushbu savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin. Inson ruhiyati haqida ko‘plab olimlarimiz o‘z asarlarida fikrlarini sharhlab o‘tganlar asosiy o‘rinlardan biri hisoblanadi. Ruhiyatimiz qanchalik go‘zal va tetik bo‘lsa, oldimizdagi barcha vazifalarni kuchli iroda bilan yengishimizga va bajarishimizga ko‘mak berib keladi desak adashmagan bo‘lamiz.

Psixologiyaning nazariy muammolarini chuqur o‘rganmay turib, mazkur fandan hech bo‘lmaganda sodda va bajarilishi oson bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish ko‘nikma va malakalarini egallamay turib, o‘quvchilarning psixik xususiyatlarini bilishga erishib bo‘lmaydi, albatta.

Agar pedagog insonni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalamoqchi bo‘lsa, ya’ni komil insonni voyaga yetkazish uchun uni har tomonlama o‘rganishi kerak bo‘ladi.

Buning uchun psixologiya fanining nazariy muammolarini chuqur o‘rganmay turib, mazkur fandan hech bo‘lmaganda sodda va bajarilishi oson bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazish orqali o‘quvchilarining psixik xususiyatlarini bilishga erishib bo‘lmaydi, albatta.

O‘rta asrdayoq Sharqning buyuk mutaffakkirlari musiqiy psixologiya, musiqaning qalbga, kayfiyatga va inson organizmiga ta’siri masalalarini o‘rgangan. Farobiyning “Musiqa haqida katta kitob”i va boshqa asarlari, Ibn Sinoning “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Donishnoma” kabi asarlarining musiqa haqidagi bo‘limlari, Abdurahmon Jomiyning “Risolai musiqa” kitobi shular qatorida turadi.

Dunyo musiqa madaniyati olimlari ham ta’lim jarayonida deyarli ma’no jihatdan bir-biriga yaqin ta’limotlarni keltirib o‘tganliklarini olimlarimiz tomonidan qayd etilgan iboralar tasdiqlashi mumkin. Hattoki cherkov musiqalarida ham ruhoniylar o‘zlari chiqargan farmoyishlarda, maktablardagi muallimlar cherkov qo‘shiqchilik san’ati faniga majburiy o‘rgatilishi lozim bo‘lgan fan sifatida qarashlari lozimligini belgilab qo‘yishgan “Sizlar o‘z uylaringizda “o‘quv yurtlari” tashkil eting’’, – deyilardi farmoyishlarda, – toki, bolalarimiz o‘qish, yozish bilan bir qatorda kuylashni ham o‘rganishsin va kelgusida

[1] Toshmatova R.A. “Ijrochilik san’ati tarixi” –T., 2011-y. 72-b.

bolalarga ham bu ish Xudoning xohishi ekanini uqtirishsin....[2]".

Musiqa va san'at maktablarida berilayotgan e'tibor va e'tirof nechog'liq yuqoriligi haqida ularni jahon sahnalariga olib chiqish eng oliy maqsadlardan biri ekanligi olib borilayotgan islohotlardan ham ko'rish mumkin. Keling, birgalikda rivojlangan mamlakatlar hayotiga bir nazar tashlab o'taylik. Motsart, Bax, Betxoven, Shopen, List, Chaykovskiy kabi buyuk jahon kompozitorlari o'z-o'zidan jahon kitoblaridan hamda, tinglovchilar qalbidan joy olib bugungi kunda darsliklarda asarlari bilan kirib kelgani zamirida tinimsiz mehnat va ta'lim jarayoni yotmayotganmikin? Albatta ha. Bu darajaga yetishib chiqishda ustoz o'gitlari hamda musiqa maktablarida yoshligidan olgan ilk saboqlari sababdir.

Har bir ijrochi va ijodkorni ijodini o'rganar ekanmiz, uni albatta, otasi yoki onasi musiqaga bo'lgan qiziqishini sezgan va uni ustoz qo'liga olib borib bergan, musiqa maktabida ta'lim olishi uchun unga yaqindan yordam berganini olimlarimiz qoldirgan kitoblardan, buyuk ijodkorlarimiz ijodidan bilib olishimiz mumkin. Agar oilada ta'lim olishda sharoit yaratilib berilmas ekan intilish ham, ijodga bo'lgan mehr ham asta so'nadi. Biroq, ayni chog'da ayrim tinglovchilarimiz tomonidan nafaqat jahon klassik musiqalarimizni ijro etish uyoqda tursin, tinglash uchun ham sabri yetmayotgani achinarlidir. Musiqa va san'at maktablariga borayotgan yosh ijrochi bolajonlarimizni ko'rib quvonsak arziydi. Chunki, u yoshlikdan mehnat qilishga bo'sh vaqtini unumli o'tkazishga o'rganib bormoqda.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha yutuq va kamchiliklarni inobatga olgan holda o'z tanlagan kasbimizga tanqidiy yondashib tursakkina, ko'zlangan maqsadga erishishimiz mumkin. Faqatgina yutuqlarimizni ko'rib kamchiliklarga beparvo o'tadigan bo'lsak, ertangi kunimizni porloq bo'lishidan ko'ra nurashiga olib kelib qo'yishimiz kundek ravshan. Shunday ekan, barchamiz baholi qudrat o'z kasbimizga sadoqat bilan yondashar ekanmiz bizdan kelajak avlod ham rozi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. –T., 1970-y. 29-b.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimzni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. O'zbekiston, –T., 1999-y. 300-b.
3. Oripov Z. Sharq manbashunosligi (X-XI asrlar) –T., 2008-y. 5-b.
4. Toshmatova R.A. "Ijrochilik san'ati tarixi" –T., 2011-y. -83-betlar.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T., O'zbekiston 2017-y. 5-b.
6. Toshmatova R.A. "Ijrochilik san'ati tarixi" –T., 2011-y. 72-b.
7. Nosirov Y.M. Rus musiqa tarixi (IX-XVIII asrlar) Musiqiy oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun o'quv qo'llanma. –T., 2009-y. 76-b.
8. Буткевич В.В., Любимова Ю.С. Эстетическое воспитание младших школьников средствами народного декоративно-прикладного искусства. Монография. Буткевич В.В., Любимова Ю.С. – Минск: БГПУ, 2007. – С.239.

[2] Nosirov Y.M. Rus musiqa tarixi (IX-XVIII asrlar) Musiqiy oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun o'quv qo'llanma. –T., 2009-y. 76-b.

Nargiza MANNAPOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGIDA SALOMATLIKNI SAQLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida salomatlikni saqlash kompetensiyasini rivojlantirish hamda, o‘sib kelayotgan yosh avlodda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar. Bo‘lajak o‘qituvchilar, kasbiy tayyorgarlik, salomatlikni saqlash, kompetensiyani rivojlantirish, yosh avlod, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.

В статье представлена информация о развитии медико-санитарных компетенций в профессиональной подготовке будущих педагогов и формировании здорового образа жизни у подрастающего поколения.

Ключевые слова. Перспективные педагоги, профессиональная подготовка, здравоохранение, развитие компетенций, подрастающее поколение, формирование здорового образа жизни.

The article provides information on the development of health care competencies in the professional training of future teachers and the formation of a healthy lifestyle in the younger generation.

Key words. Prospective teachers, vocational training, health care, competency development, the younger generation, the formation of a healthy lifestyle.

Yurtimizda erishilayotgan har bir yutuqlarimizda, amalga oshirilayotgan ezgu tadbirlarimizda sog‘liqni saqlash xodimlarining o‘z o‘rni, mavqeyi bor. Chunki, xalq salomatligi bo‘lmagan joyda jamiyat ham taraqqiy etmaydi. Har bir inson salomatligi haqida qayg‘urishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining imzolangani biz uchun ayni muddao bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Qaror tibbiy-sanitariya xodimlarini kasbiy rivojlantirish tizimini yaxshilash, sohada yetuk va chuqur bilimga ega kadrlarni zamonaviy ta’lim standartlari asosida tayyorlash, tibbiyot tashkilotlari, ayniqsa, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarini professional mutaxassislar bilan ta’minlash, tibbiyot ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining mavqeyini oshirish, shuningdek, 2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida qabul qilindi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, yurt ravnaqi, el-yurt farovonligi yo‘lida fidokorona mehnat qiladigan ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik huquqiy davlat barpo etishga qaratilgan.

Mamlakatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalashda oila-mahalla-ta’lim muassasasi

hamkorligini kuchaytirish samaralar garovidir. Bu borada hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

– oila, mahalla, ta’lim muassasalari hamkorligini ta’minlashning huquqiy bazasini takomillashtirish, hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan uslubiy ta’minotni mustahkamlash;

– oilada yoshlar va ota-onalarning ijtimoiy faolligini oshirish;

– oilalarda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish;

– har bir oila a’zolarining ongida sog‘lom turmush tarzi tushunchasi va munosabatini shakllantirish;

– ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash;

– barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni mazmunan takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish mexanizmini yaratish;

– sog‘lom avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘rtasidagi sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish – bu faol mehnat, kuchli jismoniy va ruhiy holat, ko‘tarinki kayfiyat, o‘ta xavfli va zararli ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni yenga oladigan, yetuklikka intiluvchan shaxsning shakllanish jarayonidir. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-psixologik va ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini samarali hamda ta’sirchan uslubda amalga oshirish maqsadida har bir ta’lim muassasasida sog‘lom turmush tarzi, shaxsiy gigiyena, oila ma’naviyati, zararli illatlarning sog‘lom inson tug‘ilishiga salbiy ta’siri haqidagi tibbiy bilimlarini oshirishga qaratilgan o‘quv-mashg‘ulotlari, davra suhbatlari keng joriy etilmoqda. Bu bo‘lajak o‘qituvchilar ongida sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar avvalo, yoshlarni har jihatdan yetuk qilib tarbiyalashga yo‘naltirilmoqda.

Ta’lim-tarbiyani insonparvarlashtirishning markaziy masalasi yoshlarda or-nomusni, vatan va xalq oldidagi mas’uliyatni, yuksak axloq va fuqarolik sifatlarini hamda ma’naviy-ruhiy fazilatlarni singdirishdan iboratdir. Shu ma’noda mahalla, oilada sog‘lom muhitni yaratish orqali jamiyat, xususan, yoshlar ma’naviyatini yuksaltira oladigan beshik hisoblanadi. Mamlakatimizda tarbiyani hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma’naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishish mumkin bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar ta’lim muassasalarida tarbiyalanadilar ya’ni toblanadilar. Yosh avlodni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash uchun ilm olishadi, bilmaganlarini o‘rganishadi. Aholi turar joylarida yoshlar muammolariga katta e’tibor qaratilgan. Ularni qiziqtirgan mavzularda kechalar, uchrashuvlar, suhbatlar, sport musobaqalari va boshqa madaniy-ma’rifiy hamda ko‘ngilochar tadbirlar doimiy ravishda uyushtirib boriladi.

Yoshlarda sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish borasida oila, mahalla, ta’lim muassasalari hamkorligi quyidagi tamoyillarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo‘ladi:

– ta’lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;

– tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg‘unligi;

– hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqliligi va yuksak mas’uliyati;

– faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;

– hamkorlikning ilmiy asoslanganligi. Shuningdek, yoshlarda sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishda oila, mahalla, ta’lim muassasalari hamkorligida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishda o‘tkaziladigan tadbirlar har tomonlama puxta, shu bilan birga, qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko‘rgazmali, ta’sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo‘nda, estetik jihatdan keng ko‘lamli bo‘lishi kerak.

Yuqoridagilarni muxtasar qilib qayd etish mumkinki, keyingi yillarda yurtimizda aholi orasida va ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish borasidagi harakatlar izchillik bilan olib borilmoqda. Zero, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish bo‘yicha islohotlar jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, yurt ravnaqi, el-yurt farovonligi yo‘lida fidokorona mehnat qiladigan ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik huquqiy davlat barpo etish va mamlakatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalashda oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish samaralar garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musurmonova O. Oilada sog‘lom avlodni tarbiyalashda oila-mahalla-ta’lim muassasalari hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari // “Yoshlarni oilaparvar, ota-onalikka tayyorlashda oilaning roli” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: 2013. – 217-b.

2. Bennet, G. (1987) The Wound and the Doctor: Healing Technology and Power in Modern Medicine. London: Seeker & Warburg.

3. Borril, C. S., Wall, M. A., West, G. E., et al (1996) Mental Health of the Workforce in NHS Trusts. Leeds: Institute of Work Psychology, University of Sheffield & Department of Psychology, University of Leeds.

Buvsara DJURAYEVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlar ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

BO‘LAJAK TABIIY FANLAR O‘QITUVCHILARINING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLASH MEDIA KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

Annotatsiya

Bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilarining axborot texnologiyalari bilan ishlash media ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik modeli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Media, ko‘nikma, axborot, model, pedagogika, texnologiya, metod, media-kompetensiya, kommunikatsiya.

Задумана педагогическая модель развития медиа навыков работы с информационными технологиями у будущих учителей естествознания.

Ключевые слова. Медиа, навык, информация, модель, педагогика, технология, метод, медиакомпетенция, коммуникация.

The views on the pedagogical model of the development of media skills of future teachers of Natural Sciences working with information technologies were made.

Key words. Media, skills, information, model, pedagogy, technology, method, media competence, communication.

Bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilarining mediakompetentligini rivojlanishi, o‘qituvchining faoliyati tobora ko‘proq professional vosita sifatida ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi, ta’lim maqsadlariga erishib, o‘quv jarayonining mazmun-mohiyatini ochib berishni o‘z ichiga oladi. Bunda zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga mos holda pedagogik oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilarining axborot texnologiyalari bilan ishlash mediakompetentligini rivojlantirishda quyidagi masalalar yuzaga keladi:

– mediakompetentligini rivojlantirish uchun axborot kommunikatsion texnologiyalarini puxta o‘rganilganligi;

– har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining mediakompetentligi natijasida o‘z sohasidagi axborotlarni tahlil qila olishi;

– mediakompetentligining shakllantirilganligi natijasida, o‘z kasbiy faoliyatida samarali qo‘llay olishi.

Bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilari mediatexnologiyalardan foydalanish usuli o‘quv jarayonida ta’limning dolzarb masalalarini samarali yechish imkoniyatini yaratadi, jumladan:

– o‘quv jarayonini qiziqarli va mahsuldor qilish hisobiga o‘quvchida materialni anglab olish motivatsiyasi ortadi; – mustaqil ishlash va o‘zini-o‘zi nazorat qilish ko‘nikmasi rivojlanadi; – darsning samaradorligini va har bir o‘quvchining o‘zlashtirilishini ta’minlaydi; – har bir o‘quvchining fikrlashini, bilish hissiyotini, maqsad sari intilishlarini,

ma’naviy tasavvurlarini rivojlantirish hisobiga umumiy faol rivojlanishga erishiladi; – sinfdagi barcha o‘quvchilarning faol ishlashi ta’minlanadi. Mediatexnologiyalarni o‘quv jarayoniga kirib kelishi, pedagoglar hayotida misli ko‘rilmagan darajada o‘qitishning yangi turlarini shakllarini keltirib chiqardi. Ta’lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar har bir shaxsdan bilim, yuksak madaniyat, yuqori malaka, ijodkorlik, jamiyat oldida mas’uliyatni his etishni talab qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez taraqqiy etishi natijasida “media” atamasi paydo bo‘ldi. “Media” atamasi lotin tilidan (media, medium so‘zidan) olinib, qo‘llanma, vositachi ma’nolarini anglatadi. “Media” atamasi XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo‘llangan. Ko‘nikma – insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati.

Mediakompetentlik tushunchasi (media competence) ta’limga kirib kelayotgan yangi atama hisoblanib, u mediama’lumotlarni turli ko‘rinishda uzatish va baholash, o‘rganish yetkaza bilish kabi ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Germaniyada mediakompetentlik deb, mediaga nisbatan malakali mustaqil, ijtimoiy-ma’suliyatli munosabat tushuniladi.

Model so‘zi (lot. modulus – o‘lchov, me’yor) degan ma’nolarni anglatadi.

Pedagogika (gr. “παῖς”, paida – bola, gr. “ἄγω”, gogos – yetaklovchi) atamasi qadimiy bo‘lib, “bola yetaklovchi”, degan ma’noni bildiruvchi grekcha “paydogogos” so‘zidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarning ko‘rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o‘z xo‘jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan, harbiy mahoratni o‘rgatgan tarbiyachini, ya’ni qullarni “pedagog” (bola yetaklovchi) deb atashgan. Keyinchalik esa, maxsus o‘qitilgan va pedagoglikni o‘ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan.

Pedagogika (yun. paidagogike) – tarbiya, ta’lim hamda ma’lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika institutlari va ayrim boshqa o‘quv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida o‘rganiladigan o‘quv predmeti ham pedagogika deb yuritiladi. Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug‘ullangan. Zamonaviy pedagogika bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o‘quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasi bilan shug‘ullanishni ko‘zda tutadi. O‘zbekiston Respublikasida pedagogikaga barkamol shaxs ma’naviyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondashiladi. Pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o‘quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo‘sinlarini belgilab beradi.

Pedagogik o‘qitish modellari o‘qituvchilarning o‘quv xonalarida talabalar uchun qo‘llanishi kerak bo‘lgan turli xil tartibga solinadigan tuzilmalar, metodika, jadvallar yoki intizomiy tartib-qoidalar aniqlangan. Ta’lim usullari har xil bo‘lgani uchun va har bir o‘quvchi o‘ziga xosligi sababli o‘qituvchilar har xil vaziyatlarga moslasha olishlari uchun turli pedagogik modellar bilan qurollangan bo‘lishi kerak. An’anaga ko‘ra uch xil pedagogik modellar haqida gap bor edi. Ammo so‘nggi yillarda o‘qitishning yangi usullari ochilmoqda. Shu tarzda, talabalarga bilimlarni uzatishda ko‘proq moslashuvchanlikka erishish ko‘zda tutilgan.

Ba’zi eng ko‘p ishlatiladigan modellar an’anaviy, bixeviorizm, konstruktivist, kognitiv yoki ijtimoiydir. Qanday bo‘lmasin, barcha pedagogik modellar doimo uchta elementga e’tibor beradi:

– nimani o‘rgatish mo‘ljallangan.

– qanday qilib uni o‘rgatish mo‘ljallangan.

– O‘qishga erishilganligini qanday o‘lchash mumkin?

Hozirgi vaqtda ko‘p funksiyali yondashuv an'anaviy hisoblanadi. Unda pedagogik faoliyat bir nechta funksiyalar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Masalan, Kuzmina N.V. pedagogik faoliyat tarkibida to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponentni aniqladi: konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ va gnostik. Konstruktiv komponent quyidagi elementlardan iborat: axborot mazmunini loyihalash, talabalar faoliyati, o‘z faoliyati. Tashkiliy komponentning mazmuni – taqdim etish jarayonida axborotni tashkil etish; talabalar faoliyatini tashkil etish; o‘z faoliyatini tashkil etish. Kommunikativ komponent faoliyat jarayonida munosabatlarni tashkil etish bilan ifodalanadi. Gnostik komponent uning faoliyati obyektini o‘rganish bilan bog‘liq; mazmuni, vositalari, shakllari va usullari; faoliyatning afzalliklari va kamchiliklari.

Keyinchalik ko‘p funksiyali yondashuv asosida pedagogik faoliyatning boshqa modellari ishlab chiqildi. Abrosimov V.N. fikricha, pedagogik faoliyat modelining asosiy tarkibiy qismlari, bo‘lishi kerak: ilmiy-byudjet, psixologik-pedagogik va madaniy-ma’rifiy komponentlar. Keyin asosiy kasbiy fazilatlarni ko‘rib chiqish mumkin: tadqiqot, dizayn, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ va ta’lim. O‘z nashrlarida Abrosimov V.N ushbu fazilatlarning batafsil tavsifini berdi va shu bilan N.V Kuzmina tomonidan taklif qilingan pedagogik faoliyatning yetakchi tarkibiy qismlari ro‘yxatini kengaytirdi.

Pedagogik faoliyat modelida Ginetsinskiy V.I. yangi funksional komponentlarni ajratib ko‘rsatish kerak: taqdimot, rag‘batlantirish, tuzatuvchi va diagnostika. Taqdimot funksiyasi, muallifning nuqtayi nazariga ko‘ra, materialning mazmunini taqdim etishdan iborat; intensiv – talabalarning ma’lumotni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirishda; tuzatish funksiyasi o‘quvchilarning o‘zlari faoliyati natijalarini tuzatish va taqqoslash bilan bog‘liq bo‘lib, diagnostika funksiyasi esa fikr-mulohazalarni ta’minlaydi.

Markova A.K. tomonidan taklif qilingan pedagogik faoliyat modeli. Tadqiqotchi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: kasbiy psixologik-pedagogik bilim; kasbiy pedagogik mahorat; o‘qituvchining kasbiy psixologik pozitsiyalari va munosabatlari; kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashni ta’minlaydigan shaxsiy xususiyatlar. Shu munosabat bilan Markova A.K. pedagogik mahoratning o‘nta guruhini aniqlaydi va tavsiflaydi.

Pedagogik faoliyatning yana bir modeli Ivanov V.G. U taklif qilayotgan model bir nechta bloklardan iborat: mantiqiy-uslubiy, psixologik-didaktik va texnologik. Mantiqiy va uslubiy modelni qurish tamoyillarini aks ettiradi. Ushbu tamoyillar va ishlab chiqishdagi operatsiyalar ketma-ketligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: maqsadlarni shakllantirish va modellashtirishning o‘ziga xos vazifalari; dastlabki ma’lumotlarni to‘plash va tizimlashtirish, uning ishonchliligi va to‘liqligini aniqlash; kasbiy-pedagogik faoliyat shakllarining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni ajratib ko‘rsatish. Psixologik-pedagogik blokda kasbiy va pedagogik faoliyatni modellashtirish tamoyillari tavsiflanadi. Texnologik blok mutaxassis faoliyatining kasbiy jihatini va unga adekvat bo‘lgan o‘qitish mazmunini aks ettiradi. Ivanov V.G pedagogik faoliyat modelini o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zini-o‘zi anglash, o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun sharoit yaratishda ko‘radi.

Talanchuk N.M tomonidan taklif qilingan sinergetik yondashuvga asoslangan pedagogik faoliyat modeli alohida qiziqish uyg‘otadi. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, pedagogik faoliyat ergetik tizim bo‘lib, unda hamma narsa tizimli sinergetizm qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Uning harakati tizimli-funksional naqshda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchining fikricha, bunday qonuniyatlar quyidagilardir: tizimlar qonuni, garmoniya qonuni, tizimlar genezisi qonuni, harakat qonuni, rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlanish qonuni, muvofiqlik qonuni, sinergetizm qonuni.

Natijada olimlar pedagogik faoliyatning sinergik yaxlitlikni tashkil etuvchi yangi ko‘p funksiyali modelini ishlab chiqdilar. Pedagogik faoliyat modelining funksiyalarini sanab o‘tamiz: diagnostika, maqsadli yo‘naltirish, rejalashtirish, tashkiliy, safarbarlik-rag‘batlantirish, kommunikativ, shakllantiruvchi, nazorat-tahliliy, baholash, muvofiqlashtirish va tuzatish, takomillashtirish. Bu funksiyalar barcha o‘quv va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda doimiy (invariant) bo‘lib, ularning mazmuni o‘zgaruvchan. Chunki u hal qilinayotgan muammoning xususiyatiga bog‘liq. Ushbu model pedagogik faoliyatni tizimli ta’lim sifatida ko‘rib chiqadi. U o‘qituvchi (o‘qitish, ta'lim, rivojlanish) va o‘quvchilarning (o‘qitish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish) birgalikdagi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Pedagogik faoliyatning bunday modelining o‘ziga xos xususiyati uning tarkibiy qismlarining uzluksiz o‘zaro ta’siri bo‘lib, uning “o‘z-o‘zini harakati”, “o‘z-o‘zini rivojlantirishi”, “o‘zini-o‘zi tarbiyalashi”, “o‘zini-o‘zi o‘zgartirishi”, “o‘z-o‘zini o‘rganishi”ni belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilarining axborot texnologiyalari bilan ishlash media ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik modelini, biz yangi tipdagi pedagogik faoliyat modeli strukturasidagi quyidagi antropogema (antropogen omillar, muhitning antropogen omillari – odam va uning xo‘jalik faoliyatining o‘simlik, hayvon va boshqa tabiat komponentlariga ta’siri bilan bog‘liq omillar guruhi)larni – komponentlarni aniqladik. O‘qituvchi organizmining umumiy hayotiyligini ta’minlovchi fiziologik resurslari; axborot resurslari – uslubiy bilimlar, fan bilimlari, psixologik-pedagogik bilimlar; adaptiv resurslar – ijtimoiy moslashuv, ta’lim muhitining imkoniyatlariga ham, bolalarning individual xususiyatlariga moslashish qobiliyati; pedagogik faoliyat sohasida o‘ziga xos jalb qiluvchi madaniy va qadriyat yo‘nalishlari, ular orasida rivojlanish qiymati o‘qituvchi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Insoniyat, madaniyat, ijtimoiy tajribasini uzatishning madaniy usullari. Albatta, pedagogik faoliyatning ilmiy tahlili har bir o‘qituvchining ijodiy usulining o‘ziga xosligini ta’kidlaydi. Lekin, u o‘zi tavsiflarga emas, balki qiyosiy tadqiqotlar, sifat va miqdoriy tahlil tamoyillariga asoslanadi. Pedagogik faoliyat modellarini tahlil qilish va tuzishda tizimli yondashish tamoyillarini qo‘llash bilan bog‘liq istiqbolli yo‘nalish deb qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Федоров А.В. Медиаобразование в зарубежных странах. Монография//-Таганрог: Изд-во. Кучма, 2003. – С.238.

2. https://uz.wikipedia.org. wiki

3. Vikipediya: “O‘qitish modellari”. Qabul qilingan sanasi: 2018-yil 30-yanvar.

4. Kuzmina N.V. Talabalarda pedagogik yo‘nalishni shakllantirish jarayonini boshqarishning texnika va usullari. –Kursk: KPI, –1980-yil.

5. Slastenin V.A. Oliy pedagogik ta’lim nazariyasi va amaliyoti / Otv. ed. V.A. Slastenin. –M., 1984-yil.

6. Abrosimov V.N. O‘qituvchining kasbiy fazilatlari // Ta’limdagi standartlar va monitoring. –2001. 6-son.

7. Ginetsinskiy V.I. Nazariy pedagogika asoslari. –SPb.: S-PSU, 1992-yil.

8. Markova A.K. Professionallik psixologiyasi. –M., 1996-yil.

Maftunaxon YAKUBJANOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, ‘‘Matematika’’ kafedrasi o‘qituvchisi

TURLI YONDASHUVLAR DOIRASIDA MEDIAMADANIYAT VA UNING MAZMUNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mediamadaniyatni tushunishga bo‘lgan turli yondashuvlar bayon etilgan. Jumladan, falsafiy, madaniyatshunoslik, axborot, pedagogik, atributiv, ijtimoiy-psixologik yondashuvlar va ularning mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Mediamadaniyat, axborot madaniyati, falsafiy yondashuv, madaniyatshunoslik yondashuvi, axborot yondashuvi, pedagogik yondashuv, atributiv yondashuv, ijtimoiy-psixologik yondashuv.

В данной статье описаны разные подходы к пониманию медиакультуры. В частности, освещаются философский, культурологический, информационный, педагогический, атрибутивный, социально-психологический подходы и их содержание.

Ключевые слова. Медиакультура, информационная культура, философский подход, культурологический подход, информационный подход, педагогический подход, атрибутивный подход, социально-психологический подход.

This article describes different approaches to understand media culture. In particular, philosophical, cultural, informational, pedagogical, attributive, socio-psychological approaches and their content are covered.

Key words. Media culture, information culture, philosophical approach, cultural approach, information approach, pedagogical approach, attributive approach, socio-psychological approach.

Hozirgi vaqtda jamiyatning hayotiy faoliyatini o‘rganish bilan bog‘liq deyarli barcha fanlar axborotga bo‘lgan ortib boruvchi ehtiyojni boshdan kechirmoqda va uning shakllanishi, ko‘payishi va faoliyat ko‘rsatish qonuniyatlarini o‘rganishga majbur bo‘lmoqda. Axborot sivilizatsiyasining paydo bo‘lishi bilan ijtimoiy faoliyatning yangi – “axborot-aloqa” turi jadal rivojlanmoqda. Bu shubhasiz fanning yangi tarmoqlari: informatsiologiya, mediapedagogika, mediapsixologiya, mediamadaniyatshunoslik va boshqalar rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, zamonaviy axborot jamiyatida mediamadaniyatning roli misli ko‘rilmagan sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. U atrof-olamni uning turli jihatlari: ijtimoiy, intellektual, axloqiy, badiiy, psixologik va pedagogik jihatdan bilishning murakkab vositasi bo‘lib qolmoqda.

Kengayayotgan media makonda rivojlanayotgan mediamadaniyat tizimi nafaqat axborot, madaniy va ma’rifiy aloqalarning kuchli vositasi bo‘lib, jamiyat ongiga tobora faol ta’sir ko‘rsatuvchi vosita, balki turmushning turli sohalarini, jumladan, ta’lim makonini ijtimoiy modernizatsiya qilishning integratsiyalashtiruvchi omilidir.

Falsafiy yondashuv nuqtayi nazaridan mediamadaniyat – bu jamiyat ommaviy kommunikatsiya vositalarining – o‘zaro bog‘langan media tizimi sifatida tushuniladigan media maydonidagi ijtimoiy faol maqsadli inson faoliyatidir.

Madaniyatshunoslik yondashuvi nuqtayi nazaridan jamiyat va davlat, jamiyat va ho-

kimiyat o‘rtasida vositachi bo‘lgan axborot jamiyati madaniyatining alohida turini belgilash uchun “media madaniyati” tushunchasi kiritildi. Ya’ni mediamadaniyat shaxsning dastlabki madaniy qadriyatlari va asosiy dunyoqarash yo‘nalishlarining translatori sifatida qaraladi.

Axborot yondashuvi doirasida media-madaniyatni madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan, ijtimoiy ongni rivojlantirishga, shuningdek, shaxsning ijtimoiylashuviga hissa qo‘shadigan axborot-kommunikativ vositalar, moddiy va intellektual qadriyatlar majmui sifatida ta’riflash mumkin.

Ikkinchi ta’rifning tahlili shuni ko‘rsatadiki, “mediamadaniyat” tushunchasi, bizningcha, mediamadaniyat strukturasiga kiruvchi “media muhit” tushunchasi bilan kesishadi. Va agar ijtimoiy muhit – insonni o‘rab turgan uning mavjudligi va faoliyatining ijtimoiy, moddiy va ma’naviy shart-sharoitlari bo‘lsa, unda media muhit – bu media madaniyat faoliyat ko‘rsatadigan kontekstdagi shartlar to‘plami, ya’ni ommaviy kommunikatsiya vositalari (matbaa, radio, televideniye, video, kino, kompyuter kanallari, internet va boshqalar) vositachiligi orqali insonni tashqi dunyo bilan bog‘laydi, ma’lum axloqiy va estetik qadriyatlardan xabardor qiladi, ko‘ngil ochadi, targ‘ib qiladi, odamlarning baholashlari, fikrlari va xatti-harakatlari bo‘yicha g‘oyaviy, iqtisodiy yoki tashkiliy ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni jamoatchilik ongiga ta’sir qiladi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi nuqtayi nazaridan, “axborot madaniyati” deganda ijtimoiy-faol madaniyatning alohida turi sifatida insonning elektron kommunikatsiya (Internet) va multimedia sohasidagi, ya’ni axborot makonida va sharoitlarida yo‘naltirilgan faoliyati sifatida tushuniladi. Shu bilan birga, ushbu faoliyat sohasi ham madaniyatshunoslik, ham falsafiy yondashuvlar nuqtayi nazaridan, bir tomondan, yangi ijtimoiy-madaniy (xususan, ijtimoiy-kommunikatsiya) hodisa sifatida, ikkinchi tomondan – ijtimoiy-madaniy kommunikatsiya, texnologiyasi sifatida, shuningdek, uchinchidan – badiiy ijod shakli va kasbiy faoliyat vositasi – sifatida ko‘rib chiqiladi. Ko‘rib turganimizdek, bu kontekstda “axborot madaniyati” atamasi “media madaniyati”ga nisbatan, zamonaviy mediadan tashkil topgan Internetning kirib kelishining shubhasiz fakti orqali ko‘rib chiqiladi.

“Media”, “media madaniyat” va “media muhit” zamonaviy tadqiqotchilar uchun eng avvalo, ommaviy kommunikatsiya vositalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tushunchalardir. Media (lotincha “media”, “medium” – vosita, vositachi) – XX asr atamasi bo‘lib, dastlab “ommaviy madaniyat” (“mass culture”, “mass media”) hodisasining har qanday ko‘rinishini belgilash uchun kiritilgan. G‘arb tadqiqotchilari “kommunikatsiya vositalari” (mass communication) atamasini “media” tushunchasiga ekvivalent sifatida ishlatadilar, bu nafaqat axborotni qabul qilish, qayd qilish, saqlash va uzatishning texnik jarayoni, balki axborotni ommaviy auditoriyaga taqdim etish va tarqatish texnologiyalari bilan ham bog‘liq.

Axborot yondashuvi atamalarida, media axborot iste’molchisi (jamiyat, ijtimoiy guruh, shaxs) va axborot texnologiyalari vositasidagi uning manbai o‘rtasidagi interfeys vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari deganda, axborotni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va namoyish qilishni ta’minlovchi texnologik zanjirga birlashtirilgan usullar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy-texnik vositalar majmui tushuniladi. Ushbu axborot texnologiyalari faoliyatining maqsadi – axborot resursidan foydalanish jarayonlarining sermashaqqatligini kamaytirish, shuningdek, ularning ishonchliligi va tezkorligini oshirishdir.

Shuni alohida ta’kidlaymizki, so‘nggi yillarda “axborot texnologiyalari” atamasi ko‘pincha “kompyuter texnologiyasi” atamasi bilan sinonim bo‘lib yuzaga keladi. Chunki barcha axborot texnologiyalari hozirda u yoki bu tarzda kompyuterdan foydalanish bilan bog‘liq.

Nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, “axborot texnologiyalari” atamasi ancha kengroq bo‘lib, tarkibiy qismlardan biri sifatida “kompyuter texnologiyalari”ni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, zamonaviy kompyuter va tarmoq vositalaridan foydalanishga asoslangan axborot texnologiyalari “zamonaviy axborot texnologiyalari” atamasini tashkil etadi.

Shunday qilib, media ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, ular axborot manbalaridan foydalanish va cheksiz kommunikatsiya imkoniyatlarini ta’minlaydi. Ikkinchi tomondan, ular manipulyatsiya ta’sirining vositasi va o‘tkazuvchisi sifatida yuzaga keladi. Media orqali aloqa imkoniyatlari kuchayganligi sababli, maqsadi odamlarning ongini manipulyatsiya qilishdan iborat bo‘lgan suggestiv ta’sirning imkoniyatlari kuchayadi. Natijada, media vositalari yordamida ijobiy shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish uchun kontrsuggestik imkoniyatlarni kuchaytirish muammosi paydo bo‘ladi.

Yuqoridagilarni tahlil qilib, biz 1-jadvalda turli yondashuvlar nuqtayi nazaridan mediamadaniyatning mazmuniy jihatini keltirdik.

1-jadval

Turli yondashuvlar doirasida “mediamadaniyat” tushunchasining mazmuni

Yondashuvlar	“Mediamadaniyat” tushunchasining mazmuni
Falsafiy	Media maydonida ijtimoiy – faol maqsadli inson faoliyati
Madaniyatshunoslik	Axborot jamiyati madaniyati turi; madaniy qadriyatlar translyatori
Axborot	Axborot kommunikatsiya vositalari, moddiy va intellektual qadriyatlar majmui
Atributiv	Ommaviy atributli xususiyatlarga ega bo‘lgan ijtimoiy ma’lumotlar
Pedagogik	Shaxsni rivojlantirish darajalari tizimi, shu jumladan, media sohasidagi bilimlarni idrok etish, tahlil qilish, baholash, o‘zlashtirish, media mahsulotlarini yaratish
Ijtimoiy-psixologik	Axborot jamiyati bilan muloqot qilishning dialog usuli

“Media madaniyat” ta’rifini ajratib ko‘rsatish va tushuntirish uchun uning muhim xususiyatlarini ko‘rib chiqishga to‘xtalamiz. Birinchidan, madaniyat elementi uning faqat ma’lum bir kommunikativ jarayoniga qo‘shilishi natijasida shunday bo‘ladi, degan tushunchaga asoslansak, – bu kommunikativlikdir. Ikkinchi xususiyat – ma’lumotni taqdim etishning texnik vositalarini (birinchi navbatda televideniye va kompyuter tarmoqlari) rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan axborotni taqdim etish va idrok etishning obrazli, vizual tabiati. Ko‘pgina tadqiqotchilar zamonaviy jamiyatda ma’lumotni vizualizatsiya qilish va uni taqdim etish tezligi mantiqiy tuzilmalar bilan solishtirganda ustuvor vazifaga aylanib borayotganini ta’kidlaydilar. Media madaniyatining uchinchi belgisi – bu mif yaratishga moyillikdir.

Shunday qilib, madaniy-pedagogik yondashuvlarga ko‘ra, media madaniyat bu orqali shaxsning ijtimoiy ongini, ijtimoiylashuvi va mafkuraviy munosabatlarini rivojlantirishga ta’sir qilib individning “to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajribasi” chegaralarini kengaytirishga qodir. Buning sababi shundaki, mediamadaniyat nafaqat moddiy va intellektual qadriyatlarni saqlashga xizmat qiladigan, balki “hissiyotlar, aql-zakovat, mustaqil ijodiy va tanqidiy fikrlash, dunyoqarash, estetik ongni shakllantirishni ta’minlaydigan muhim rivojlanish va ta’lim salohiyatini o‘z ichiga oladi (idrok, badiiy tahlil qobiliyati va boshqalar)” shuningdek, muayyan shaxsning o‘quv fanlarini o‘rganish jarayonida olgan bilimlarini faollashtirish.

Media madaniyatni ongni manipulyatsiya qilish usuli va vositasi sifatida ham ko‘rish mumkin (ham individual, ham ijtimoiy), media esa pedagogik ta’sir etishning

kuchli o‘tkazgichiga aylanishi mumkin. Agar ta’lim keng ma’noda madaniyatni saqlash va rivojlantirish sharti bo‘lsa, unda media madaniyatni saqlash va rivojlantirish, uni ijtimoiy turmush ehtiyojlariga mos ravishda o‘zgartirish va shaxs ma’naviyatini shakllantirish sharti bo‘lgan holda – bu “pedagogikaning auditoriya tomonidan ommaviy kommunikatsiya (matbuot, televideniye, radio, kino, video va boshqalar) qonuniyatlarini o‘rganishni targ‘ib qiluvchi yo‘nalishi”dir.

Shunday qilib, falsafiy, sotsiologik, pedagogik va madaniy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, tadqiqotchi mediamadaniyat fenomeni deganda, aynan nimani tushunishi har doim ham aniq emas. Bu, birinchidan, atamaning nisbatan yangiligi bilan; ikkinchidan, tadqiqotga turli ilmiy yondashuvlar bilan; uchinchidan, media-madaniyat tizimining kategorial apparatining noaniqligi bilan; to‘rtinchidan, uning ichki tuzilishining o‘ta murakkabligi bilan bog‘liq.

Falsafiy, madaniyatshunoslik, axborot, atributiv, pedagogik va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar nuqtayi nazaridan “media madaniyat” ta’rifidagi farqlarni qayd etishimiz mumkin. Falsafiy yondashuv doirasida – bu elektron kommunikatsiya va multimedia sohasidagi ijtimoiy faol, maqsadli inson faoliyati bilan bog‘liq jarayondir.

Pedagogika fanida mediamadaniyatni o‘rganishda mediamadaniy makonda shaxsga alohida e’tibor qaratiladi va subyektning mediamadaniyat faoliyatidagi faol pozitsiyasi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, shaxsning media madaniyati media matnni idrok etish, tahlil qilish, baholash, media sohasidagi yangi bilimlarni o‘zlashtirish va media ijodkorligi bilan shug‘ullanishga qodir bo‘lgan inson shaxsini rivojlantirishning dinamik dispozitsion tizimi sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Babadjonov S.S. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari. – T., “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali. 2016-yil 3-son. – 24-b.

2. Баранов О.А. Медиаобразование в школе и вузе. – Тверь: Изд-во Тверского гос. унта, 2010. – С.87.

3. Бекназарова С.С. Медиаобразование для подготовки преподавателей: создание потенциала для информационного общества. // Монография. – Т.: Фан, 2016. – С.100.

4. Возчиков В.А. Философия образования и медиакультура общества: Автореферат на соискание... д-ра философских наук: 09.00.11. - Социальная философия. –СПб, 2007. – С.26.

5. Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т.4. –М.: Педагогика, 1984. –С.433.

6. Кириллова Н.Б. Медиа-культура: от модерна к постмодерну. – М.: Академический проект, 2005. – С. 31-33.

7. Коновалова Н.А. Развитие медиакультуры студентов педагогического вуза: Дисс. ... канд. пед. наук: 13. 00. 08. –Теория и методика профессионального образования. – Вологда, 2004. – С.308

8. Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании. –М.: Школа-Пресс, 1994.

9. Федоров А.В. Краткий словарь основных медиаобразовательных терминов // Медиатека. 2006. № 2. – С.33-37.

Dildora XAKIMOVA,
A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi

KASBIY FAOLIYAT – SHAXS SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada "kasbiy faoliyat" va "shaxsiy salohiyat" tushunchalarining mazmun-mohiyati, shaxs salohiyatini rivojlantirish bosqichlari hamda shaxsni maqsadlariga erishishida shaxsiy resurslarni to'g'ri sarflash masalalari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar. Kasbiy faoliyat, shaxs, mehnat, shaxsiy salohiyat, integral xususiyatlar, tendensiya, funksiya, resurs, ichki vositalar.

В статье дано научное обоснование понятий "профессиональная деятельность" и "личностный потенциал", этапы развития личностного потенциала и правильного использования личных ресурсов для достижения человеческих целей.

Ключевые слова. Профессиональная деятельность, личность, труд, личностный потенциал, интегральные свойства, направление, функция, ресурс, внутренние средства.

The article provides a scientific substantiation of the content of the concepts of "professional activity" and "personal potential", the stages of development of personal potential and the correct use of personal resources to achieve human goals.

Key words. Professional activity, personality, work, personal potential, integral properties, direction, function, resource, internal means.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni hamda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarorida xalq ta'limi tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Mazkur hujjatlarda xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog'liq masalalarga ham alohida e'tibor qaratilib, sohadagi rahbar va pedagog xodimlarni "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tizimiga transformatsiya qilish vazifasi qo'yildi.

Mavjud muammolardan kelib chiqib, avvalo, "kasbiy faoliyat" va "shaxsiy salohiyat" tushunchalari mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashtirish zarur.

"Shaxs va kasb" tizimini o'rganishda ma'lum darajada insonning kasbiy rivojlanishidagi yakuniy yutuqlariga bog'liq bo'lgan va ular birgalikda kasbiy rivojlanishning shaxsiy salohiyat mazmunini belgilaydigan inson xususiyatlarining butun majmuasini hisobga olish kerak. Insonning kasbiy rivojlanishida individual manbaning eng muhim tarkibiy qismi uning kasbiy muvofiqligi hisoblanadi.

Kasbiy rivojlanishning asosiy omili – bu insonning ichki dunyosi, uning faoliyati, o'z-o'zini anglashi zarurati sanaladi.

Insonda mavjud bo'lgan shaxsiy salohiyat, shaxsiy resurslar, ularni rivojlantirish va

takomillashtirish imkoniyati kasbiy rivojlanish jarayoniga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, insonni faoliyat subyekti va shaxs sifatida rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari bu uning rivojlanishi jarayonida vujudga keladigan ichki qarama-qarshiliklardir.

Shaxs hayotida yuzaga keladigan maqsadlar, vazifalar va ularga erishish uchun mavjud vositalar o‘rtasidagi ziddiyatlar, intilishlar, imkoniyatlar, shaxsiy salohiyat va uning manfaatlari, munosabatlari, yo‘nalishlari o‘rtasidagi ziddiyatlar faoliyat davomida hal qilinadi hamda shaxsning individual rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari bo‘lib xizmat qiladi.

Rivojlanishning eng muhim manbai bu qarama-qarshiliklarni hal qilishdan iborat. Shaxs ichki qarama-qarshiligi “shaxsning o‘z-o‘zini anglashidagi o‘zaro ta’sir ko‘rsatadigan va rivojlanish jarayonida bir-birini o‘zgartiradigan ba’zi tendensiyalarning (baholash, da’volar, munosabat, qiziqishlar) subyektiv ravishda tajribadagi nomuvofiqligi” deb ta’riflanadi[1]. Kasbiy va shaxsiy rivojlanish o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ikkalasi ham o‘z-o‘zini rivojlantirish tamoyiliga asoslanadi. Bu insonning o‘z hayotini amaliy jihatdan o‘zgartirish obyektiga aylantirish qobiliyatini belgilaydi. Bu esa shaxs hayotining eng yuksak shakli – ijodiy o‘zini o‘zi anglashga olib keladi. Rivojlanishning asosiy omillari sifatida shaxsning ichki olami, uning faoliyati, o‘zini anglash zarurati ta’kidlab o‘tiladi. Kasbiy rivojlanish obyekti va kasbiy faoliyatda insonning shaxsiy salohiyatini amalga oshirish shakli uning shaxsiy integral xususiyatlari hisoblanadi. Ya’ni, yo‘nalganligi, kompetensiya, shuningdek, xulq-atvor va hissiy moslashuvchanlikdir. Mutaxassis shaxsining aniqlangan integral xususiyatlari faoliyatning barcha turlarida zarur bo‘lgan psixologik asosdir.

Inson hayotidagi faoliyatning ma’nosi va o‘rnini tushunish uchun, avvalo, uni alohida emas, balki shaxsiy salohiyatni kompleks ravishda inson faoliyatining quvvat manbai, natija va ongni faoliyatli tartibga soluvchi sifatida belgilash zarur.

Inson faoliyatining manbalari faqat uning ehtiyojlari bilan cheklanmaydi (oziq-ovqat, ma’lumot, harakat va boshqalar uchun emas). Balki insonni harakatga keltiradigan tashqi omillar sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, insonda shaxsiy faoliyatidagi faolligini ta’minlovchi ichki kuchlari ham mavjud.

Ikkinchi omil – bu faoliyat motivlari. Faoliyat motivlari ham shaxs yo‘nalganligi, intilishi, internel va eksternal motivlarning uyg‘unligi bilan bevosita bog‘liqdir. Uchinchi omil – samaradorlik va ishonchlilikni saqlab qolgan holda mehnat qilish talab qilinadigan ishlab chiqarish qobiliyatidir. Inson mehnatining to‘rtinchi omili – bu faoliyat natijalari. Beshinchi omil – insonning o‘z ishidan qoniqishini to‘rtta yuqorida sanab o‘tilgan omil belgilab beradi. Qoniqish, inson o‘z ehtiyojlari va istaklarini amalga oshirishda, u muammoni yechilgan deb hisoblaganda boshdan kechiradigan tuyg‘u sifatida qaraladi. O‘z ishidan qoniqish insonda kutilgan ish mazmuni va mohiyati rejalashtirilgan ishlarga to‘g‘ri kelganda paydo bo‘ladi. U ham obyektiv, ham subyektiv sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi, ham ijobiy, ham salbiy rol o‘ynashi mumkin.

Demak, har qanday faoliyat natijasi maqsadning to‘g‘ri belgilab olinganligi bilan bog‘liq. Maqsad natija bilan bog‘liq holda, insonni unga erishishga yo‘naltiradi. Faoliyatning maqsadi, bir tomondan tashqi dunyo, ijtimoiy munosabatlarining tabiati va tarixiy shartlari bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, insonning ichki dunyosi bilan belgilanadi.

Maqsadni shakllantirishning asosiy bosqichlari: a) natija sifatida qabul qilinadigan

[1] Митина Л.М. Психология профессионалного развития учителя. – М.: Флинта; Моск. психолого-социальный ин-т, 1998.

maydonni ajratish; b) aniq maqsadni belgilash.

Kasbiy vazifa – bu ma'lum bir kasbiy faoliyat doirasida berilgan kasbga xos maqsaddir.

Kasbiy faoliyat vositalarining ikki guruhi mavjud bo'lib, bular:

1) moddiy vositalar, shu jumladan: a) axborotni qabul qilish, uzatish va qayta ishlash vositalari; b) texnik harakatlarni amalga oshirish vositalari, ramziy, biologik va boshqa tizimlar; v) qo'lda ishlaydigan qurilmalar va boshqalar.

2) pedagogik faoliyatga doir nomoddiy vositalar: a) tashqi funksional vositalar; b) u yoki bu kasbiy faoliyatni tavsiflovchi tartibga solishda me'yoriy, uslubiy ko'rsatma ma'lumotlarida aks ettirilgan ichki funksional vositalar (masalan, kasbiy bilim, aql-idrok va ko'nikmalar, individual faoliyat uslubi va boshqalar)[2].

Natija maqsad g'oyasidan uning real amalga oshirilishigacha – natijaga qadar bo'lgan "masofani" bosib o'tish uchun, belgilab olingan rolga muvofiq mehnat funksiyalari deb nomlangan juda aniq harakatlarni bajarish kerak[3].

Mehnat funksiyasi (lot. function – dan – ijro) deganda, biz mehnat jarayonida faoliyat subyekti tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan obyektiv ravishda ko'rsatilgan harakatlarni tushunamiz. Mehnat funksiyalari ilmiy-texnik taraqqiyoti va mehnatni tashkil etish ta'siri ostida o'zgaradi. Ish joyi, mavqei va lavozimiga "tegishli" hisoblanadi. Mehnat funksiyalari jarayonlar va faoliyat usullarini tavsiflaydi.

Shunday qilib, faoliyat jarayonlari avvalgi avlod to'plagan va o'zlashtirgan madaniy qadriyatlarni hamda yutuqlarni o'zlashtiradi, deb aytish mumkin. Faoliyat jarayonlari faoliyat usullari bilan birgalikda inson tomonidan to'plangan mehnat va kasbiy tajribani obyektivlashtirish jarayonlari hisoblanadi. Shuningdek, faoliyat jarayonlari ham alohida shaxsning ham kasbiy hamjamiyatning resurslari bilan bog'liq.

Maqsadga erishish uchun inson shaxsiy resurslarining sarflashi quyidagi holatlarga bog'liq: a) ichki, tashqi muhitda mavjudligini qo'llab-quvvatlash ehtiyojining anglanganligi bilan; b) jamiyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishning tashqi talablari bilan.

Ichki vositalar maqsadlarga erishish uchun va insonning individual resurslaridan foydalanish jarayoni mafkuraviy munosabat bilan belgilanadi, qat'iy tartibga solinadi va eng moslangan sanaladi.

Maqsadga erishish oldindan belgilangan natijalarga ko'ra qayd etiladi.

Shaxs salohiyati insonning ichki zaxiralari va uning rivojlanish salohiyatlaridan iborat.

Maqsadga erishish uchun shaxsning resurslarini sarflashi quyidagi holatlarga bog'liq: a) tashqi muhitda ichki, anglangan ehtiyoj bilan borliqda mavjudlikni qo'llab-quvvatlash uchun; b) jamiyatni tashqi talablar bilan qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun.

Maqsadlarga erishish uchun ichki vositalar va ulardan foydalanish jarayoni shaxsning individual resursi bilan belgilanadi, g'oyaviy munosabat bilan qat'iy tartibga solinadi (bilim, ko'nikma yoki amaliy faoliyat) va moslashuvchan sanaladi.

Maqsadga erishish oldindan belgilangan natijalarga ko'ra qayd etiladi. Sarflangan energiya va resurslar, kelishilgan shartlarga muvofiq, odamga moddiy va boshqa manfaatlar, zavq yoki ma'naviy rag'batlantirish orqali jamoat e'tirofi (mukofotlar, jamoat vakolatlari va boshqalar) shaklida to'ldirib boriladi.

Ushbu aniq yoki mavhum maqsadlarga erishish tashqaridan yoki mustaqil ravishda

---

[2] Самоукина К.В. Психология и педагогика профессионалной деятельности. – М.: Ассоциация ТАНДЕМ; ЭКМОС, 1999.

[3] Турчинов А.И. Профессионализация и кадровая политика: проблемы развития теории и практики. – М.: Флинта, 1998.

tartibga solinadigan holatlarga asoslangan ongli faoliyat shakli: a) usul, harakat yoki jarayon xususiyati; b) oldindan belgilangan natijalar; v) inson resurslari uchun moddiy, estetik yoki ma’naviy rag‘bat.

Ongli faoliyat turi sifatida mehnatning xususiyatlari quyidagilardan iborat: inson o‘zini o‘zi o‘zgartirishidagi erkinlik; o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirishga diqqatni jamlash, uzluksiz harakat orqali o‘zidagi va tashqi cheklovlarni yengib o‘tish; qilingan say-harakatlar uchun jamiyat tomonidan rag‘batning yo‘qligi. Inson tomonidan doimiy say-harakatlar bilan birga keladigan mehnat faoliyatida individual resursni o‘zgartirish natijasi hayotiy maqsadlar to‘plamini kengaytirish qobiliyatiga erishishdir. Faoliyat natijasida inson o‘zining ichki resurslarini oshiradi va shu bilan birga, quvonch hamda qiziqish uning ongiga ta’sir qiladi. Bu esa insonga o‘z hayotini ongli boshqarish imkonini beradi.

Inson jamiyat to‘siqlarini yengib o‘tishga majburligi sababli ham o‘zini o‘zi takomillashtirishi juda qiyin kechadi. Biroq mehnatkash inson og‘ir sinovlarga duch kelganda ham, sportchilar aytganidek, “zarbani yaxshiroq boshqaradi”. Ular har qanday, hatto, juda og‘ir vaziyatlarda ham moslashuvchanlik, ichki xotirjamlik va chidamlilikka ega bo‘lishadi. Natijada, unda shaxsiy ko‘ngilsizliklarga chidamlilikni osonlashtiruvchi, shaxsiy manfaatlaridan yuqori bo‘lgan maqsadlari paydo bo‘ladi.

“Ish” va “mehnat” deb belgilab qo‘yilgan faoliyat turlarining har biri mustaqil ravishda rivojlanib borishiga qaramay, uning turlarini rivojlantirish bir-biri bilan bog‘liq jarayondir va bu o‘zaro bog‘liqlik doimo amalga oshishi zarur.

Kasbiy yetuklik – bu insonning turli sharoitlarda yuqori darajada – faoliyatni tizimli, samarali va ishonchli amalga oshirish xususiyati. Ammo kasbiy yetuklik tushunchasi yuqori malakali mehnatning xususiyatlari bilan chegaralanmaydi. Bu ham insonning o‘ziga xos dunyoqarashi, ham mutaxassisning sifat jihatidan boshqacha hayot tarzidir. Kasbiy mahorat insonning haqiqatga bo‘lgan munosabatining maxsus shakli bilan bog‘liq bo‘lib, uni kasbiy o‘z-o‘zini anglash deb atash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy shakllanish shaxsning individual rivojlanish jarayoni sifatida turli darajalarda (individ, shaxsiy, faoliyat subyekti darajasi, individuallik) amalga oshadi. Bu esa, kasbiy faoliyat shaxs salohiyati omili va o‘z o‘rnida shaxsiy salohiyat kasbiy yetuklik mezoni sifatida xizmat qilishi haqidagi xulosaga kelish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4963-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarori.

4. Митина Л.М. Психология профессионального развития учителя. – М.: Флинта; Моск. психолого-социальный ин-т, 1998.

Muhayyo KENJAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'QUVCHILARNING BILIM SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PISA XALQARO BAHOLASH DASTURINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada PISA xalqaro baholash dasturi orqali o'quvchilarning bilim savodxonligini oshirishda testlardan foydalanishning ahamiyati hamda o'quvchilarda yozma va og'zaki nutqni muvaffaqiyatli o'zlashtirishda an'anaviy metodlar bilan interfaol metodlarning uyg'unligini ta'minlash, mashqlarni bajarish yo'li bilan amaliy ko'nikmalar hosil qilish, muloqot yuritishdagi to'siqlarni bartaraf etishga yordam berish, matnni tahlil qila olish va muomala qilish ko'nikmalarini takomillashtirish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Xalqaro baholash dasturi, test savollar, muomala qilish ko'nikmalari, o'quvchi qobiliyati, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish va erkin fikrlash.

В данной статье рассматривается важность использования тестов для повышения грамотности учащихся посредством международной оценочной программы PISA, а также обеспечения совместимости интерактивных методов с традиционными методами в успешном овладении учащимися письменной и устной речи посредством упражнений для выработки практических навыков, помочь преодолеть барьеры в общении, улучшить способность анализировать текст и общаться.

Ключевые слова. Международная программа оценки, тестовые вопросы, коммуникативные навыки, способности учащихся, развитие устной и письменной речи и свободное мышление.

This article discusses the importance of using tests to improve students' literacy through the PISA international assessment program and how to ensure that students interact with traditional methods and interactive methods in the successful acquisition of written and oral speech through exercises. to develop practical skills, to help overcome barriers to communication, to improve the ability to analyze text and to communicate.

Key words. International assessment program, test questions, communication skills, student ability, oral and written speech development and free thinking.

Mamlakatimizda jahon ta'lim makoniga kirib borishga mo'ljallangan yangi ta'lim tizimini shakllantirish jarayoni kechmoqda. Ta'lim mazmun-mohiyatining o'zgarayotganligi, ta'lim berish jarayoniga zamonaviy yondashuvlar hamda xalqaro tajribalarni joriy etish taklif etilayotgan bir davrda ta'lim berishga pedagogik munosabat ham o'zgarmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni bu boradagi islohotlar uchun dasturulamal hisoblanadi. Yana bir muhim jihati shundan iboratki, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish bo'yicha darsliklar mazmuniga xalqaro baholash dasturi PISA, TIMS talablari singdirildi. Eng muhimi, darsliklar innovatsion yondashuv asosida tayyorlandi. Bunda o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga

yo‘naltirilgan ta’limiy o‘yinlar, mashqlar, masalalar va topshiriqlarga urg‘u berildi. Ona tili darsliklari mazmuni o‘quvchilarning texnik qobiliyatini rivojlantirishga oid amaliy, kreativ, mantiqiy yondashuvga asoslangan topshiriqlar bilan boyitildi va jahonga mashhur STEAM texnologiyalari talablari asosida amalga oshirildi. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda ta’lim mazmunini yangilash, takomillashtirish, o‘qitish samaradorligini va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilg‘or tajribalarni keng ommalashtirish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilayapti. O‘zbekion Respublikasining 2030-yilga kelib, PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etishga jiddiy e’tibor qaratish dolzarb vazifadir. Bugungi kunda jamiyat va iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda munosabatlar tabiatini o‘zgartiruvchi, jumladan, ta’lim sohasi ham innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Bunday innovatsiyalar hayotda ko‘plab o‘zgarishlarni keltirib chiqardi, natijada, ta’lim sohasiga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda.


O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish, ularni hayotga tayyorlashda fanlararo integratsiyani kuchaytirish, STEAM ta’limni samarali joriy etish maqsadida o‘quvchilarga qo‘yiladigan minimal talablar, ya’ni ta’lim mazmuni takomillashtirildi. O‘quv dasturlari yetakchi mutaxassislar tomonidan takomillashtirilib, bunda o‘quvchilarda tayanch va fanlarga oid kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirishning eng samarali metodikalari, ilg‘or pedagogik texnologiyalari, metodlarni o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Ona tili fanida takomillashtirilgan darsliklar o‘qituvchida ham, o‘quvchida ham fanga munosabatini emas, kelajak hayotida asqotuvchi vosita sifatidagi yangicha munosabatni tarkib toptiradi. Avvalgi darsliklarni yaratishda ularning mazmun-mohiyatiga ko‘p ham e’tibor qaratilmagan. Mashq va topshiriqlarning jiddiy farqlanishi, lug‘atlar bilan ishlash davomiyligi, didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan kichik hajmli rivoyat, hikoya matnlarning to‘liq holda berilishi, bog‘lanishsiz matnlarda ham insoniyatning buyuk mutafakkirlari hayotiy tajribalarining mahsuli bo‘lgan aforizmlar, iboralar, maqollardan keng foydalanilgani, ona tili va adabiyot fanlari orasidagi uzviylikni ta’minlash, boy adabiy merosimizni ongli mushohada etishga ko‘maklashish maqsadida mumtoz yo‘sindagi matn bilan ishlash yo‘lga qo‘yilgani, tilshunoslikka doir kompetensiyaviy bilimlar ifodasining soddaligi, aniqligi har mavzuga doir qoidalarni dalillash uchun tanlangan misollarning muvofiqligini belgilaydi.

2021-yildan PISA xalqaro baholash dasturida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholanishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, unda mantiqiy fikrlash, aniq javoblarni belgilash, nutq madaniyatini oshirish belgilangan. Ona tili fanini o‘qitishda o‘quvchilarga qaysi metod orqali tushuntirish yaxshi natija beradi? Har qanday ma’lumotni qay darajada o‘zlashtirish tinglovchining xohish irodasiga bog‘liqdir. Psixologik nuqtayi nazardan darsda, ayniqsa, yangi dars bayonida o‘quvchini qiziqtirish lozim. Aks holda, harakat besamar ketishi mumkin. Shu ma’noda ona tili fanini o‘qitishda ham turli noan’anaviy dars usullaridan foydalanish lozim. O‘quvchilarda yozma va og‘zaki nutqni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish an’anaviy metodlar bilan interfaol metodlarning uyg‘unligini ta’minlagan holda maxsus mashqlarni bajarish yo‘li bilan amaliy ko‘nikmalar hosil qilishni talab etadi. Bugungi kunda ona tili ta’limining mazmuni o‘zgarmoqda, ya’ni grammatikadan ko‘ra

o‘quvchilardagi nutqiy va lingvistik kompetensiyani rivojlantirishga e’tibor berilmoqda. Jumladan, o‘quvchilarda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishda “Qiyoslash” metodi orqali o‘zbek tilining o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari haqida tushunchaga ega bo‘lish va PISA testlardan keltirilgan namunalar matnlarni tahlil qilish, unli va undosh harflarni ajratish, gap bo‘laklarini aniqlashda yordam beradi.

Mavzu: Gap

Gap bo‘laklari qoliplariga mos holda gap tuzing.



undov	so‘roq	ko‘p nuqta	vergul

– ketma-ketlikni bildirgan, uyushuq bo‘lakli, ajratilgan bo‘lakli gaplarda……..
– chuqur his-hayajonni ifodalab kelgan gaplarga…….. belgisi qo‘yiladi.
– tugallanmagan yoki izoh talab qiladigan tushunchalarga …… qo‘yiladi.
– so‘roq mazmunini bildirgan gaplarda…… belgisi qo‘yiladi.

Mavzu: O‘zbek tili-davlat tili

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan sana to‘g‘ri ko‘rsatilgan katakni yashil rangga bo‘yang.

1989-yil 1-dekabr
1990-yil 20-oktabr
1989-yil 21-oktabr
1991-yil 31-avgust

Mavzu: Ayrim unlilar imlosi

To‘g‘ri ma’lumotlar berilgan kataklarga (√) belgisini qo‘ying!

	Tovush va harf bir xil narsani anglatadi;
√	– lotin yozuviga asoslangan o‘zbek tilida oltita unli tovush va oltita unli harf bor;
√	– nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilishni orfoepiya bo‘limida o‘rganamiz;

[ ] – kitob, maktab so‘zlari oxiridagi tovush p tarzida eshitiladi va shunday yoziladi.

Mavzu: Ayrim undoshlar imlosi

Jarangsiz jufti eshitilib, lekin jarangli jufti yoziladigan so‘zlar joylashgan kataklarni qizil rangga, so‘z oxiridagi tovush talaffuzda tushib qoladigan so‘zlar joylashgan kataklarni yashil rangga bo‘yang.

kitob	aylanib	Kam-ko‘st	oftob
savob	go‘sht	rubob	sust

Mavzu. To‘ldiruvchilar

To‘ldiruvchining so‘roqlari berilgan kataklarni qizil rangga bo‘yang!

Kimni?	Kim haqida?	Nimadan?	Kimda?
Qaysi?	Qachon?	Qaerni?	Kim?

“Qiyoslash” metodi. Bir predmet haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun uni ikkinchisi bilan qiyoslash o‘quvchida yorqin tasavvur hosil qiladi. Shu ma’noda o‘quvchiga ona tilini boshqa bir tilga qiyoslab o‘rgatish eng samarali usuldir. O‘qituvchi ona tili darslarida, xususan, fonetika mavzusini tushuntirayotganda ma’lumotlarni o‘quvchiga imkon qadar u o‘rganayotgan biror chet tilidagi zaruriy bilimlar bilan taqqoslasa, dars yanada samarali bo‘ladi. 5-sinf ona tili darsligida berilgan “Urg‘u” mavzusini tushuntirish uchun unga istagancha ta’rif keltirgan bilan kutilgan natijaga erishish qiyin. Lekin o‘zbek tili urg‘usini rus yoki ingliz tilidagi so‘z urg‘usi bilan solishtirish, o‘quvchida darhol tushuncha hosil qiladi:

O‘zbek tili	**Рус тили**	**Ingliz tili**
Kitob – **(o)** unli	Книга – **(и)** унли	Book – **(oo)u** unli
Oyna – **(a)** unli	Стекло – **(о)** унли	Window – **(o)** unli
Daftar – **(a)** unli	Тетрадь – **(а)** унли	Noutbook – **(oo)u** unli

O‘zbek tilida urg‘u, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Zero, taqqoslash – o‘quvchida mustaqil fikrlash ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Bu esa bugungi ta’limning maqsadini tashkil etadi. O‘quvchida solishtirish jarayonida o‘zbek tilining o‘zigagina xos bo‘lgan jihatlari haqida tushuncha paydo bo‘lgach, o‘z tilidan faxrlanish, shuning barobarida, unda milliy g‘urur ham shakllanib boradi.

Shuni aytish kerakki, ushbu metod va PISA testlari maktab o‘quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini, o‘quv jarayonida bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlashda yordam beradi.

PISA xalqaro baholash dasturi orqali o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bo‘yicha

jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati, matnlar mazmunini turli xil shakllar yordamida o‘zlashtira olishlarini baholashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi respublika ta’lim markazi. Metodik tavsiyalar. Avgust kengashi. –T., 2019-yil.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017.

4. 5-sinf Ona tili darsligi G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi –T., – 2020. 49-b

5. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –T.: Nihol, 2016.

Maxbuba RAXIMQULOVA,
Samarqand viloyati XTXQTMOHM dotsenti

TIMSS XALQARO TADQIQOTI – O‘QUVCHILAR BILIM DARAJASINI BAHOLASH MEZONI SIFATIDA

Annotatsiya

TIMSS tadqiqoti (Trend in International Mathematics and Science Study) matematika va tabiatshunoslik bo‘yicha 4 va 8-sinf o‘quvchilarining ta’lim yutuqlarini baholash orqali ishtirok etuvchi davlatlarning matematik va tabiatshunoslik ta’limidagi yutuq va kamchiliklarni kuzatish imkonini beradi. 2023-yilda bizning mamlakatimizda TIMSS tadqiqoti o‘tkazish bo‘yicha hamda o‘quvchilarimiz qanday bilimlarga ega bo‘lishi haqida misollar orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Matematika, tabiiy fanlar, mantiqiy fikrlash, tanlov, amaliyot, muhokama.

TIMSS (Trend in International Mathematics and Science Study) позволяет нам отслеживать достижения и недостатки в области математического и естественнонаучного образования в странах-участницах путем оценки академических достижений учащихся 4-х и 8-х классов по математике и естественным наукам. В 2023 году была достигнута договоренность с IEA о проведении исследований TIMSS в нашей стране.

Ключевые слова. Математика, естественные науки, логическое мышление, выбор, практика, обсуждение.

The TIMSS (Trend in International Mathematics and Science Study) allows us to track the achievements and shortcomings in mathematics and science education in participating countries by assessing the academic achievements of 4th and 8th grade students in mathematics and science. In 2023, an agreement was reached with the IEA to conduct TIMSS research in our country.

Key words. Mathematics, natural sciences, logical thinking, choice, practice, discussion.

TIMSS bu – “Trends in International Mathematics and Science Study”, ya’ni 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematik va tabiiy-ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ta’limdagi natijalarini xalqaro miqyosda baholaydigan tadqiqotdir.

Ushbu tadqiqot ilk marotaba 1995-yildan buyon amalga oshirila boshlangan. Dunyo ta’lim tizimining 24 yillik faoliyati davomida ushbu tadqiqotda ishtirok etayotgan mamlakatlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Tadqiqot, Boston kollejidagi xalqaro o‘qitish markazi tomonidan tegishli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda boshqarib kelinadi. Har to‘rt yilda o‘tkaziladigan TIMSS xalqaro dasturining navbatdagi tadqiqotida O‘zbekistonning ishtirokini ta’minlash bo‘yicha, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va IEA tashkiloti o‘rtasida olib borilgan muhokamalar natijasida, 2023-yilda bo‘lib o‘tadigan tadqiqotda ishtirok etish bo‘yicha dastlabki kelishuvga erishilgan bo‘lib, hozirgi kunda tadqiqotda qatnashishning o‘ziga xos jihatlari muhokama qilinmoqda.

IEA TIMSS ni o‘z ichiga olgan to‘rtta yo‘nalish xalqaro baholash uchun, ya'ni TIMSS Matematika – to‘rtinchi sinf, TIMSS matematika – sakkizinchi sinf, TIMSS Science – to‘rtinchi sinf va TIMSS Science – sakkizinchi sinf asos bo‘lib xizmat qiladi:

To‘rtinchi va sakkizinchi sinflarda sinovdan o‘tkaziladigan matematika va tabiiy fanlarning kichik sohalari (masalan, algebra, geometriya va biologiya, kimyo) va fanlar ichidagi mavzular to‘rtinchi va sakkizinchi sinflar uchun alohida tavsiflanadi, har

bir mavzu yo‘nalishi aniq maqsadlar bilan ishlab chiqilgan. Bilish, qo‘llash va mulohaza yuritishning kognitiv sohalari o‘quvchilarning matematika va fan mazmuni bilan shug‘ullanayotganda foydalanishi kutilayotgan fikrlash qobiliyatlarini tavsiflaydi. Bundan tashqari, o‘quvchilar, ularning ota-onalari, o‘qituvchilari va maktab direktorlari tomonidan to‘ldirilgan so‘rovnomalar orqali o‘rganiladigan matematika va tabiatshunoslik bo‘yicha o‘quvchilarning ta’limi bilan bog‘liq uy, maktab va sinf omillari o‘rganiladi.

O‘quvchilar uchun so‘rovnomalar. TIMSS da ishtirok etayotgan har bir o‘quvchi so‘rovnoma to‘ldiradi. So‘rovnomada o‘quvchilarning uy va maktab hayotining jihatlari, jumladan, asosiy demografik ma’lumotlar, ularning uy muhiti, o‘qish uchun maktabdagi sharoit, matematika va fanni o‘rganishga munosabati haqida so‘ralgan.

eTIMSS 2019 da (TIMSS 2019 ning kompyuterga asoslangan versiyasi) ishtirok etgan mamlakatlar uchun talabalar eTIMSS baholashdan o‘tgan tajribalari va raqamli qurilmalar bilan tanishishlari haqidagi bir qancha savollarga ham javob berishdi.

Uy so‘rovnomasi (Erta ta’lim so‘rovnomasi)

To‘rtinchi sinf o‘quvchilarining ota-onalari yoki vasiylari “Erta ta’lim” so‘rovnomasini to‘ldirishadi. So‘rovnomada bola ta’limini qo‘llab-quvvatlaydigan uy resurslari va ularning eng yuqori darajadagi ta’lim va ish bilan ta’minlanganlik holatlari, farzandining maktabi haqidagi fikrlari, bolaning maktabgacha ta’lim dasturlariga qatnashishi, bola maktabga borgunga qadar uyda savodxonlik va hisob-kitob faoliyatiga e’tibor qaratilishi haqida so‘ralgan. Shuningdek, ularning farzandining maktabga borishdagi savodxonligi va hisoblash ko‘nikmalari darajasi o‘rganiladi.

O‘qituvchi so‘rovnomalari

Baholangan sinflarning o‘qituvchilari o‘qituvchilar so‘rovnomasiga javob berishadi. So‘rovnomada o‘qituvchilarning bilimi, kasbiy mahorati va o‘qituvchilik tajribasi haqida so‘ralgan. Shuningdek, o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi, turli xil o‘quv mashg‘ulotlarini bajarish vaqtlari, o‘qitishdagi qiyinchiliklar, o‘tilgan o‘quv dasturlari mavzulari, baholash amaliyoti va o‘qitish uchun kompyuterlar mavjudligi haqida so‘raladi. “O‘qituvchi so‘rovnomasi”ning yagona varianti 4-sinf o‘qituvchilariga qo‘llanilgan. Chunki, odatda, shu sinfda bir xil o‘qituvchilar o‘quvchilarga matematika va tabiiy fanlardan dars berishadi. Sakkizinchi sinfda o‘quvchilarning matematika o‘qituvchilari va fan o‘qituvchilari uchun so‘rovnomaning alohida versiyalari mavjud.

Maktab anketalari

TIMSS da ishtirok etuvchi har bir maktab direktori maktab anketasini to‘ldiradi. Direktorlar o‘quvchilarning maktabga ilk qadam qo‘yganlarida savodxonlik va hisoblash ko‘nikmalari darajasi, maktabga qatnaydigan o‘quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, o‘quv resurslarining mavjudligi, maktabda o‘quv muvaffaqiyatiga e’tibor qaratilishi, tartib-intizom va maktab xavfsizligi kabi savollarga javob beradi.

TIMSS, PIRLS va IEA tomonidan chop etilgan barcha nashrlar, shuningdek, ularning tarjimalari faqat notijorat, ta’lim va tadqiqot maqsadlari uchun mo‘ljallangan. Baholash yoki o‘quv materiallari uchun IEA ma’lumotlar manbalaridan foydalanishda oldindan ogohlantirish talab qilinadi. IEA nomaqbul yoki to‘g‘ri manba bo‘lmagan deb topilgan nusxani rad etish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

Tabiiy – ilmiy fanlar (tarkibi)	
4 sinf	
45%	Biologiya

Matematika (tarkibi)	
4 sinf	
50%	Sonlar

35%	Geografiya va astronomiya
20%	Fizika
40%	Bilim
35%	Qo‘llash
25%	Mulohaza yuritish

35%	Geometrik shakllar va o‘chamlar
15%	Tahlil
40%	Bilim
40%	Qo‘llash
20%	Mulohaza yuritish

TIMSS tadqiqoti shunday rejalashtirilganki, uning natijalari 4-sinf o‘quvchilari 8-sinf o‘quvchilari bo‘lgan har 4 yilda ishtirok etadigan mamlakatlarning matematika va tabiiy-ilmiy ta’limidagi tendentsiyalarni nazorat qilish imkonini beradi. Shu tariqa, boshlang‘ich va yuqori sinf maktab o‘quvchilarining o‘quv yutuqlari, shuningdek, boshlang‘ich sinfdan yuqori sinfga o‘tishda matematika va tabiiy ilm-fan ta’limida bo‘layotgan o‘zgarishlar monitoringi amalga oshirish imkonini beradi.

O‘quvchilarning matematika va tabiiy ilmiy tayyorlanishini baholash uchun test sinovlariga (har bir variantga) matematika va tabiiy ta’lim bo‘yicha topshiriqlar kiritiladi. Turli xil turdagi vazifalar (javobni tanlash, qisqa va to‘liq javob bilan, amaliy vazifalar) qo‘llaniladi.

TIMSS tadqiqotidagi 4-sinf o‘quvchilari uchun vazifalardan namunalarni ko‘rib chiqamiz:

1. 4 * =28

Tenglik to‘g‘ri bo‘lishi uchun katakka qanday raqam kiritilishi kerak?

Javob:_____ (Yopiq vazifa)

2. Dilfuzada 12 ta olma bor edi. U ___ ta olma yeydi va unda 9 ta olma qoldi. Quyidagilardan qaysi biri bu harakatni ifodalaydi?

A. 12+9=__

B. 9= 12+__

C. 12-__=9

D. 9-___=12 (ochiq vazifa)

3. Zulfiya O‘razova o‘z sinfida “Tabiatshunoslik” fanidan nazorat ishini o‘tkazdi. O‘quvchilar 0,1,2,3,4,5 ball olishi mumkin edi. (Grafikda o‘quvchilar soni va ballar soni diagramma ko‘rinishida ko‘rsatilgan)

1) O‘qituvchi ko‘pincha qanday ball to‘plagan?

Javob:

2) Qancha o‘quvchi 4 va undan ortiq ball to‘plagan?

Javob:

4. Jadvalda ko‘rsatilgan mahsulotlar 6 kishilik pirog pishirish uchun kerak bo‘ladi. Sodiq 3 kishi uchun pirog pishirmoqchi. (6 kishilik pirog uchun kerakli mahsulotlar miqdori keltirilgan jadval beriladi)

Quyidagi jadvalga yozing:

Sodiqga 3 kishilik pirog uchun qancha mahsulot kerak bo‘ladi?

5. Rasmda batareykaga ulangan elektr lampochka tasvirlangan. Lampochka yonishi uchun 1 va 2 nutqalarga quyidagi narsaladan qaysisini tutashtirish kerak?

A. temir mix

B. plastmassa qoshiq

C. rezina bo‘lagi

D. yog‘och tayoqcha

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, bunday xalqaro baholash tadqiqotlari bizga nima uchun zarur degan savol tug‘iladi. Xalqaro baholash tadqiqotlari mamlakatimiz ta’lim tizimida:

• Ta’lim samaradorligini aniqlash

• Kuchli va zaif tomonlarni aniqlash

• O‘zaro tajriba almashish va millatlararo hamkorlikni rag‘batlantirish

• Ta’lim salohiyatini oshirish imkonini beradi.

TIMSS tadqiqoti (Trend in International Mathematics and Science Study) matematika va tabiatshunoslik bo‘yicha 4 va 8-sinf o‘quvchilarining ta’lim yutuqlarini baholash orqali ishtirok etuvchi davlatlarning matematik va tabiatshunoslik ta’limidagi yutuq va kamchiliklarni kuzatish imkonini beradi.

Tadqiqotda matematika va tabiiy ilm-fan ta’limi mazmunining xususiyatlari, o‘quv jarayonini tashkil etish, shuningdek, ta’lim tashkiloti, o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ularning oilalari xususiyatlari bilan bog‘liq omillar o‘rganiladi.

Tadqiqot jarayonida ta’lim muassasasida xalqaro ustuvor yo‘nalishlar, eng zamonaviy baholash tartib-taomillari va tadqiqot o‘tkazish texnologiyalarini hisobga olgan holda yaratilgan TIMSS doimiy ravishda noyob standartlashtirilgan usullaridan foydalanish bo‘yicha boyitilib boriladi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini dunyoning boshqa davlatlar ta’lim tizimlari bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot davomida ta’limdagi zamonaviy xalqaro ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda, eng so‘nggi texnologiyalar yordamida yaratilgan yagona standartlashtirilgan tizim – TIMSS ni o‘tkazishda boy tajribaga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Center for Education Quality Assessment, Institute for Strategy of Education Development, Russian Academy of Sciences (2016)

2. Результаты международного исследования TIMSS Advanced 2015, 11 класс. [TIMSS Advanced 2015 – Eleventh Grade]. Available at: www.centeroko.ru (accessed 10 January 2018). Demidova M. (2017)

3. Основные результаты естественно-научно части иследования TIMSS для начальной школы. [The Main Results In Natural Science Part In TIMSS For Primary Schools].

4. Педагогические измерения, № 2, стр.30–34. Gronmo L.S., Olsen R. V. (2006) TIMSS versus PISA: The Case of Pure and Applied Mathematics. Paper presented at the 2nd IEA International Research Conference, Washington, DC, 8–11 November, 2006. Hutchison D., Schagen I. (2007)

5. Comparisons between PISA and TIMSS: Are We the Man with Two Watches? Lessons Learned: What International Assessments Tell Us about Math Achievement (ed. T. Loveless), Washington, DC: Brookings, Pp. 227–261.

6. Камзеева Е. Особенности выполнения российскими восьмиклассниками заданий по естествознанию международного исследования TIMSS [Specifics of Natural Science Items For Russian (2017).

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay’ati:
Baxtiyor SAIDOV, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV,
G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA,
Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Ravil IS’YANOV, Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV, Yashin ISMANDIYAROV,
Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Shukurullo MARDONOV,
Ulfat MAHKAMOV.

Jamoatchilik kengashi:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV,
Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Qarshiboyeva Hilola Murtazayevna

© “Xalq ta‘limi” jurnali, 2022.